O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI
FISKAL INSTITUT

ERGASHEV ZAFAR TASHTURG‘UNOVICH
G‘IYOSOV AZIZBEK A’ZAMOVICH
RUZIYEV G‘ANISHER USAROVICH

JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

NAZARIYA VA AMALIYOT

O‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 23 noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i bilan 60410200 -«Soliqlar va soliqqa tortish» bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Taqrizchilar:

A. Amanov- Toshkent moliya instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi mudiri, i.f.n.

B. Tuxliyev- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliqlar va sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, i.f.n.

A.Valiyev- Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti “Mutaxassislik” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma/ Z.T.Ergashev, A.A.G‘iyosov, G‘.U.Ruziyev;-T.; “Iqtisod va moliya” 2021.-416-b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ob’ektiv zarurligi, ahamiyati, huquqiy va iqtisodiy asoslari, soliq munosabatlarida ularning huquqlari va majburiyatlari, soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish tartiblari, ular tomonidan to‘lanadigan soliqlar va yig‘imlar, ularni hisoblash va budjetga to‘lash tartiblari, bu borada soliq idoralarida qo‘llanilayotgan dasturiy mahsulotlar, soliq nazorati va soliq qarzdorligini undirish chora-tadbirlari hamda jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklari va ularga nisbatan javobgarlik masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanma Davlat ta’lim standartlari talablari va «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, 60410200 - «Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek ushbu o‘quv qo‘llanmadan hududiy davlat soliq xizmati organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida hamda oily o‘quv yurtlarining noiqtisodiy yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga “Soliqlar va soliqqa tortish”ga doir maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti Kengashining 2021 yil 30 iyuldagi 04/4-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 23 noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i bilan “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun asosiy o‘quv qo‘llanmalar sifatida foydalanishga hamda № 500-335-sonli guvohnomalari asosida nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA:		
	KIRISH.....	8
I BOB.	**«JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH» FANINING PREDMETI VA METODI**.....	10
1.1-§.	«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.....	10
1.2-§.	Fanning o‘rganish ob’ekti, predmeti, vazifasi va o‘rganish usullari……...	12
1.3-§.	«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli……..	14
	Tayanch so‘z va iboralar.....	15
	Nazorat savollari.....	16
	Test savollari.....	16
II BOB.	**JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI**.....	18
2.1-§.	Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ob’ektiv zarurligi va funktsiyalari.....	18
2.2-§.	Soliqqa tortish munosabatlarida jismoniy shaxs tushunchasi va ularni soliqqa tortishning huquqiy asoslari.....	23
2.3-§.	Jismoniy shaxslar va ularning ayrim toifalari tomonidan to‘lanadigan soliqlarning iqtisodiy ahamiyati.....	31
	Tayanch so‘z va iboralar.....	36
	Nazorat savollari.....	36
	Test savollari.....	37
III BOB.	**SOLIQQA TORTISH MUNOSABATLARIDA JISMONIY SHAXSLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**.	40
3.1-§.	Jismoniy shaxslarning soliq to‘lovchi sifatidagi huquqlari.....	40
3.2-§.	Jismoniy shaxslarning soliq to‘lovchi sifatidagi majburiyatlari.....	43
3.3-§.	Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning vakillari va soliq agentlari.....	48
	Tayanch so‘z va iboralar.....	51
	Nazorat savollari.....	51
	Test savollari.....	52
IV BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQ MAJBURIYATLARI VA ULARNING BAJARILISHI**.....	55
4.1-§.	Soliq majburiyati va uni bajarishning umumiy qoidalari.....	55
4.2-§.	Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatini yuzaga kelishi va bajarish tartibi.....	60
4.3-§.	Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati.....	61
4.4-§.	Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish: to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati.....	64

4.5-§.	Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni hisobga qo‘yish tartibi.....	74
4.6-§.	Jismoniy shaxslarni soliq ob’ektlari bo‘yicha hisobga qo‘yish.....	76
4.7-§.	Soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlarini yuritish.....	81
	Tayanch so‘z va iboralar.....	87
	Nazorat savollari.....	87
	Test savollari.....	88
V BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING JAMI DAROMADLARI TARKIBI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ASOSLARI**.....	92
5.1-§.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining tarixi va budjetda tutgan o‘rni.....	92
5.2-§.	Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar, ularning daromad manbalari (turlari), soliq solish ob’ekti va bazasi.....	100
5.3-§.	Soliq solinmaydigan daromadlar va ayrim jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilinishi.....	113
5.4-§.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari va soliq hisoblash tartibi.....	123
	Tayanch so‘z va iboralar.....	135
	Nazorat savollari.....	135
	Test savollari.....	137
VI BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI DEKLARATSIYA ASOSIDA SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI**.....	138
6.1-§.	Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya haqida tushuncha.....	138
6.2-§.	Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari.....	139
6.3-§.	Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar va ular bo‘yicha dastlabki deklaratsiya taqdim etish hamda soliq to‘lash tartibi.....	140
6.4-§.	Mualliflik haqi tarzida olingan daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	145
6.5-§.	Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish, soliq hisoblash va to‘lash tartibi……..	146
6.6-§.	O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari….....	150
	Tayanch so‘z va iboralar.....	151
	Nazorat savollari.....	152
	Test savollari.....	152
VII BOB.	**TADBIRKORLIK FAOLIYATI BILAN SHUG‘ULLANAYOTGAN JISMONIY SHAXSLAR VA ULARNI SOLIQQA TORTISH TARTIBLARI**.....	155
7.1-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish	

	tartibi.....	155
7.2-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati va uni amalga oshirish tartibi.....	161
7.3-§.	Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari.....	175
7.4-§.	Dehqon xo‘jaliklari va ular faoliyatini yuritish tartibi.....	180
7.5-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan daromad solig‘ini hisoblash va to‘lash tartiblari.....	185
7.6-§.	O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tarixi.....	197
7.7-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan imtiyozlar va ularni qo‘llash tartibi.....	199
7.8-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibi.....	203
7.9-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash tartiblari.....	207
	Tayanch so‘z va iboralar.....	212
	Nazorat savollari.....	212
	Test savollari.....	213
VIII BOB.	**O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLAR VA ULAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI**.....	219
8.1-§.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va ular faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	219
8.2-§.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.....	223
8.3-§.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	227
	Tayanch so‘z va iboralar.....	232
	Nazorat savollari.....	232
	Test savollari.....	233
IX BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘I MA’MURIYATCHILIGI**.....	235
9.1-§.	Mulk, mulk turlari, mulk huquqi va jismoniy shaxslarda mulk huquqining yuzaga kelishi.....	235
9.2-§.	Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig‘ini undirishning zarurligi, mol-mulk solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar.....	239
9.3-§.	O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i rivojlanish tarixi.....	243
9.4-§.	Mol-mulk solig‘i ob’ekti va bazasi.....	247
9.5-§.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.....	253
9.6-§.	Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash tartibi.....	258
9.7-§.	Mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos	

	jihatlari.....	265
	Tayanch so‘z va iboralar.....	267
	Nazorat savollari.....	267
	Test savollari.....	268
X BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING YER SOLIG‘I MA’MURIYATCHILIGI**.....	271
10.1-§.	Jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga nisbatan huquqlarining yuzaga kelishi.....	271
10.2-§.	Yerdan foydalanganlik uchun soliq to‘lash zarurligi va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar.....	276
10.3-§.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i ob’ekti va bazasi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i ob’ekti va bazasi.....	279
10.4-§.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar hamda soliq stavkalari.....	281
10.5-§.	Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash tartibi.....	288
10.6-§.	Ayrim hollarda yer solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos jihatlari.....	295
	Tayanch so‘z va iboralar.....	298
	Nazorat savollari.....	298
	Test savollari.....	299
XI BOB.	**JISMONIY SHAXSLAR VA ULARNING AYRIM TOIFALARI TOMONIDAN TO‘LANADIGAN IJTIMOIY SOLIQ**.....	302
11.1-§.	Ixtiyoriy tarzda jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lash va uning o‘ziga xos afzalliklari.....	302
11.2-§.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lashning o‘ziga xos jihatlari.....	306
	Tayanch so‘z va iboralar.....	311
	Nazorat savollari.....	311
	Test savollari.....	312
XII BOB.	**JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN TO‘LANADIGAN DAVLAT BOJLARI VA YIG‘IMLARI**.....	315
12.1-§.	Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan davlat bojlari turlari.....	315
12.2-§.	Yig‘im turlari.....	321
	Tayanch so‘z va iboralar.....	327
	Nazorat savollari.....	327
	Test savollari.....	327
XIII BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQ QARZDORLIGI VA UNI UNDIRISH CHORA-TADBIRLARI**.....	330
13.1-§.	Jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi va uning hisobini yuritish.....	330
13.2-§.	Soliq qarzdorligini undirish bo‘yicha soliq organlari	

	harakatlari.....	345
	Tayanch so‘z va iboralar.....	352
	Nazorat savollari.....	352
	Test savollari.....	353
XIV BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLARI VA ULAR UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI**.....	356
14.1-§.	Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi va jismoniy shaxslarning javobgarlik holatlari.....	356
14.2-§.	Moliyaviy sanksiyalar va ularni qo‘llash tartibi.....	362
14.3-§.	Jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladigan soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik (ma’muriy va jinoiy javobgarlik) choralari.....	368
	Tayanch so‘z va iboralar.....	376
	Nazorat savollari.....	376
	Test savollari.....	376
XV-BOB.	**JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH YO‘NALISHIDAGI DASTURIY MAHSULOTLAR**.....	379
15.1-§.	«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» («Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi»-jismoniy) dasturiy mahsuloti va uning o‘ziga xos jihatlari.....	379
15.2-§.	«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuloti.....	389
15.3-§.	«Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilishning asosiy maqsadlari, uning yordamida shakllantiriladigan ma’lumotlar.....	393
15.4-§.	«YaTT hisoboti», «Davlat boji», «Veb so‘rov», «Pensiya badali» avtomatlashtirilgan axborot tizimlari.....	396
15.5-§.	Jismoniy shaxslarga ko‘rsatilayotgan soliq tizimidagi interaktiv xizmatlar va ularning imkoniyatlari.....	402
	Tayanch so‘z va iboralar.....	406
	Nazorat savollari.....	406
	Test savollari.....	406
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	409
	ILOVALAR	

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati - insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarishni ta’minlashga erishish O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra oliy o‘quv yurtlaridan mazkur soha uchun zamonaviy bilimga, zaruriy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Bu borada albatta oliy o‘quv yurtlarining zamonaviy adabiyotlar bilan ta’minlanganlik darajasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimgi, mazkur o‘quv qo‘llanma «Soliqlar va soliqqa tortish» ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mutaxassislik fanlaridan biri sifatida o‘qitilayotgan «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani mavzulari doirasida tayyorlangan bo‘lib, ushbu fan bo‘yicha talabalarning puxta nazariy va amaliy bilimlarni egallashlari uchun xizmat qiladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani o‘quv dasturidan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ob’ektiv zarurligi, ahamiyati, huquqiy va iqtisodiy asoslari, soliq munosabatlarida ularning huquqlari va majburiyatlari, soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish tartiblari, ular tomonidan to‘lanadigan soliqlar, ularni hisoblash va budjetga to‘lash tartiblari, bu borada soliq idoralarida qo‘llanilayotgan dasturiy mahsulotlar, soliq nazorati va soliq qarzdorligini undirish chora-tadbirlari hamda jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklari va ularga nisbatan javobgarlik masalalar nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish borasida qonunchilikka kiritiladigan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, soliqqa tortish tartiblari, soliq stavkalari, soliqlarni hisoblashga doir amaliy misollar va o‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun tayyorlangan test savollari Fiskal

institutining vebsaytida joylashtirilgani holda, ularga doir havolalar qo‘llanmaning tegishli boblari doirasida ko‘rsatib o‘tilgan. Institut saytiga joylashtirilgan mazkur materiallar qonunchilikdagi o‘zgarishlardan kelib chiqqqan holda, yangilanib boriladi. Shunga ko‘ra qo‘llanmadan foydalanuvchilar bevosita qo‘llanmaning tegishli mavzulari doirasida havolalarda ko‘rsatib o‘tilgan manzil orqali yangilanib boriladigan ma’lumotlar bilan tanishishi va ulardan foydalanishlari mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘quv qo‘llanmaning zarurligi va ahamiyatini yanada oshirishga, o‘quvchilarning o‘z vaqtida zaruriy va zamonaviy bilim olishlariga xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60410200 -«Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek ushbu o‘quv qo‘llanmadan hududiy davlat soliq xizmati organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ham foydalanish mumkin.

I BOB. «JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH» FANINING PREDMETI VA METODI

1.1-§. «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, soliq to‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish, to‘g‘ri soliq maslahatini berish, ularning ishonchli biznes hamkoriga aylanish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olish, soliq madaniyatini oshirish va soliq qarzdorligini kamaytirish orqali soliqlarning yig‘iluvchanglik darajasini oshirish, shuningdek qo‘shimcha soliq manbalarini aniqlash yo‘li bilan budjet tushumlarini ko‘paytirishga erishish uchun ham zarurdir. Chunki, bugungi kunda davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati - insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarishni ta’minlashga erishish O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[1].

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliq voqe’liklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi. Bu borada fan doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va ularning iqtisodiy ahamiyatini, soliqqa tortish munosabatlarida jismoniy shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini, soliq majburiyatlarini bajarilishini, soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga qo‘yish tartibini, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan soliqlar ma’muriyatchiligini, jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi va uni undirish chora-tadbirlarini, ushbu shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklari va javobgarlik choralarini hamda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish yo‘nalishida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3802-son, 2018 yil 26 iyun.

soliq organlarida qo‘llanalayotgan dasturiy mahsulotlar va ular bilan ishlashga doir zaruriy tushunchalar o‘rganiladi.

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqe’liklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma’qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani «Soliq nazariyasi va tarixi» fani bilan chambarchas bog‘liqdir, uning maxsus bo‘limi, ya’ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani ham «Moliya» fani bilan chambarchas bog‘liq. «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlarini o‘rgatadi.

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani davlat budjetiga doir fanlar bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda budjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo‘lmasa budjet munosabatlarining o‘zi bo‘lmaydi.

Bu fan «Soliq ma’murchiligi», «Soliq huquqi», «Biznes huquqi», «Ma’muriy va jinoyat huquqi», «Soliq hisobi va hisoboti», «Moliyaviy hisob», «Soliq ma’muriyatchiligi axborot tizimlari», «Soliqqa tortishda prognozlash va rejalashtirish», «Soliq nazoratini tashkil etish asoslari», «Soliq qarzini undirish» kabi fanlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Mamlakatda soliq munosabatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini atroflicha o‘rganish va ijobiy jihatlarini amaliyotda qo‘llash samarali natija beradi. Demak, «Jismoniy shaxslarni

soliqqa tortish» fani «Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi» fani bilan ham bevosita bog‘liqdir.

1.2-§. Fanning o‘rganish ob’ekti, predmeti, vazifasi va o‘rganish usullari

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos o‘rganish ob’ekti, predmet va vazifalari mavjud. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar ma’muriyatchiligi ushbu fanning o‘rganish ob’ekti hisoblanadi.

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti - soliq oluvchi davlat bilan soliq to‘lovchi shaxslar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar. Fanning predmeti soliq voqe’liklari pul munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar (jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o‘rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o‘rtadagi munosabatni chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tashkil qilishni ta’minlashdir. To‘g‘ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e’tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, budjetga soliqlarni olishda soliq to‘lovchilar bo‘yniga ortiqcha og‘irlik osmaslik, ularni o‘z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so‘ndirib qo‘ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o‘zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e’tibor berish ko‘zda tutiladi. Bu erda tomonlarning do‘stona munosabatda bo‘lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo‘lishini o‘rgatadi.

Fanning predmetini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo‘ravonlik munosabati bo‘lguday bo‘lsa, ikkinchi tomon unga javoban o‘z daromadlari, boshqa soliq ob’ektlarini har xil yo‘llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday xuquqiy hujjatlarning ham kuchi etmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq ob’ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanini chuqur o‘rganish orqali

amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotidagi muammolar asosan ularning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish, yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash, undirish hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish bilan bog‘liqdir. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar yechimini ishlab chiqish soliq idoralari oldiga soliq tizimini doimo takomillashtirib borish zaruratini qo‘yadi. Demak, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish muammolarini aniqlash va ularning yechimlari bo‘yicha tinglovchilarda chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va amaliyotda qo‘llash ushbu fanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad - tinglovchilarda fuqarolardan soliq undirish tartibi, amaliyotda uchraydigan muammolarni yechish masalalari, soliq ma’murchiligida ishlatiladigan asosiy tushunchalar va atamalarni qo‘llanilishini o‘rganish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» faning vazifasi soliq munosabati sub’ektlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o‘rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o‘zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil – bu o‘rganilayotgan butun obektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo‘lsa, sintez esa, o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo‘l bilan o‘rganiladi.

Fan o‘z predmetini o‘rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo‘shib olib borish muhim o‘rin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o‘rganishda iqtisodiyotning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan

xo‘jalik yurituvchi subektlar nuqtai-nazaridan, ular bilan davlat budjeti o‘rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya’ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o‘rganiladi.

Shuningdek, fan o‘z predmetini o‘rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta’sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o‘zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta’sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

1.3-§. «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli

Bizga ma’lumki, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai sifatida soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladi. O‘z navbatida fuqarolar jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliqlarni, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar esa yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliqlarni to‘laydilar. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar to‘lashi lozim bo‘lgan soliqlar asosan davlat soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladi. Ushbu soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida budjetga to‘lanishligi davlat vazifalarini o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, davlat soliq organlari tarkibiy tuzulmalarida jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan alohida bo‘limlar tashkil etilgan. Ushbu bo‘limlarning asosiy vazifasi mol-mulk va yer solig‘i jismoniy shaxslarni hisobga olish, hisobini yuritish, soliq ob’ektlari va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarni hisobga olish, soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq imtiyozlarni qo‘llash hamda to‘lovlarni budjetga undirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni hisobini yuritish, hisobga olish, soliqlarni hisoblab chiqarish, imtiyozlarni qo‘llash, soliq hisobotlarini taqdim etilishi hamda to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish,

daromadlarni deklaratsiyasi asosida soliqqa tortish kabilardan iboratdir. Demak, davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘zlariga qonun hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun jismoniy shaxslarni soliqqa tortish borasida ular tomonidan to‘lanadigan soliqlar va yig‘imlar hamda davlat bojlari tarkibini, jismoniy shaxslar jami daromadlari, ularning mol-mulklari, to‘laydigan soliqlari ob’ektlari tarkibini, soliqlarning bazalari va ularni aniqlash usullarini, soliq stavkalari va ularning tabaqalanishini, soliqlar bo‘yicha imtiyozlar tarkibini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish xususiyatlarini, soliqlar va yig‘imlarni hisoblash tartibi va usullarini nazariy va amaliy jihatdan bilishi va ulardan foydalana olishlari kerak. Qolaversa, bugungi kunda yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati - insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarishni ta’minlashga erishish lozim.

Demak, har qanday vazifalarni kadrlar hal qilishligini hisobga olsak, bo‘lajak soliq xizmati organlari uchun tayyorllanayotgan yosh kadrlardan soliq to‘lovchi yuridik shaxslar qatorida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish borasida ham chuqur nazariy bilimga, ko‘nikma va malakaga hamda yetarli darajada kasb mahoratiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Shunga ko‘ra, «Soliqlar va soliqqa tortish» ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanini chuqur o‘rganishlari lozim.

Ushbu fanning yetuk mutaxxassislar tayyorlashdagi roli yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlashdir. Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonini o‘rganishda va ularni hayotga to‘g‘ri hamda to‘liq tadbiq etishda adashmaydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Fan, maqsad, metod, predmet, ob’ekt, vazifa, soliq to‘lovchi, jismoniy shaxslar, munosabat, amaliyot, nazariya.

Nazorat savollari:

1.«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining o‘rganish ob’ektini tushuntirib bering?

2.«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari?

3.«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi nimalardan iborat?

4.«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘qitishning zarurligi nimada?

5.«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlik jihatlari nimada?

6.«Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli qanday?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/1.1*).

Test savollari

1. «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani qaysi fanlar bilan uzviy bog‘liq?

A) barchasi to‘g‘ri

B) «Moliya», «Soliq hisobi va hisoboti», «Moliyaviy hisob»

C) «Soliq huquqi», «Biznes huquqi», «Ma’muriy va jinoyat huquqi»

D) «Soliq nazariyasi va tarixi», «Soliq ma’murchiligi», «Soliq qarzini undirish»

2. «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti - ?

A) davlat bilan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar

B) soliqlarni prognoz qilish bilan bog‘liq munosabatlar

C) davlat bilan soliq to‘lovchi yuridik shaxslar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar.

D) budjet daromalarini shakllantirish bilan bog‘liq munosabatlar

3. «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fani o‘z predmetini o‘rganishda qaysi usullardan foydalanadi?

A) barchasi to‘g‘ri

B) nazariy tahlil va sintez

C) statistik, grafik

D) taqqoslash

4. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan mol-mulk va yer soliqlari kimlar tomonidan hisoblanadi?

A) soliq organlari

B) soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar

C) soliq agentlari

D) yakka tartibdagi tadbirkorlar

5. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fani qanday fan hisoblanadi?

A) ixtisoslik fani

B) umumkasbiy fan

C) tabiiy-ilmiy fan

D) gumanitar fan

II BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

2.1-§. Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ob'ektiv zarurligi va funktsiyalari

Soliqlar – davlatning moliyaviy resursi bo‘lib, ularsiz davlatning vazifa va funktsiyalarini amalga oshirilishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funktsiyalarini bajarish uchun lozim bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo‘llanilgan emas. Demak, davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Davlat uchun budjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega. Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan hajmda va o‘rnatilgan muddatda yuridik va jismoniy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to‘lovlardir. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, soliq deganda Soliq kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi[2].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning asosiy qismini soliqlar orqali to‘playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to‘lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilishini va investitsion faolligini rag‘batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko‘rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida

[2] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 16-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag‘larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga tegishli eng kam xarajat hajmi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Soliqlar moliyaviy resurslarning davlat ixtiyorida to‘planib borishini ta’minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, soliqlarning iqtisodiy ahamiyati budjetni shakllantirish orqali davlat xarajatlarini mablag‘lar bilan ta’minlashda, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati esa inson, jamiyat va iqtisodiyotni har tomonlama yetarli ta’minlash uchun ma’lum bir yalpi ichki mahsulot qismini davlat tomonidan qayta taqsimlanishida o‘z aksini topadi deya ta’kidlash lozim.

Soliqlarning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo‘ladi. O‘z navbatida soliqlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat. 1-rasm.



1-rasm. Soliqlarning asosiy belgilari[3]

[3] Mayburov I.A va boshqalar. Soliqlar va soliqqa tortish. I. A. Mayburov tahriri ostida. 6-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. – M.: YUNITI-DANA, 2015. – 11 b.

Soliqlarning **majburiylik** belgisi - soliq to‘lovchida soliq solish ob’ekti yuzaga kelganda, uning soliqni so‘zsiz to‘lash majburligi, ya’ni soliq – bu majburiy to‘lovdir. Soliqlarning majburiyligi Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan huquqiy va me’yoriy qonunlar bilan ta’minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to‘lamaslikka, soliq ob’ektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko‘rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo‘q.

Mamlakat konstitutsiyasiga ko‘ra, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar[4]. Majburiylik soliq xizmati, huquqni muxofaza qiluvchi va sud organlari orqali davlat kuchi bilan ta’minlanadi. Soliq to‘lovchi o‘z majburiyatini ixtiyoriy bajarmagan taqdirda bu majburan amalga oshiriladi.

Individual qaytarib berilmasligi – davlatga to‘langan soliq summasi to‘lovchining shaxsan o‘ziga to‘liq qaytmasligini bildiradi.

Davlat faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadidagi to‘lov belgisi davlat faoliyatini moliyaviy ta’minlash uchun davlat budjetini shakllantirishda asosiy daromad manbai sifatida soliqlarning undirish maqsadini ifodalaydi.

Qonuniylik belgi sifatida soliqlarni shunday farqlaydiki, ularni joriy etish, hisoblash va to‘lash tartibini belgilash, o‘zgartirish va bekor qilish mutlaqo qonun asosida amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchilar qonun asosida belgilangan soliqlarni to‘lashlari shart.

Nisbatan muntazamlik belgisi soliq to‘lashning qat’iy qonunda belgilangan aniq davriyligini farqlaydi, ya’ni soliq – bu har xil emas, balki soliq to‘lovchining soliq solish obekti o‘zgarmagan sharoitda pul mablag‘larini muntazam undirilishidir.

Har qanday iqtisodiy kategoriyaning funktsiyasi uning mohiyati va ichki tarkibini ochib berishdan tashqari, ushbu kategoriyaning umumiy maqsadini ifodalaydi. Shu jumladan, soliqlarning funktsiyalari uning asosiy xususiyatlari va ichki tarkibini iqtisodiy kategoriya sifatida ochib beradi.

---

[4] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 51-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Soliqlarning funktsiyalari bir-biriga bog‘liq va ularning har biri yaxlit bo‘lakning bir qismidir, shu sababli soliqning biror bir funktsiyasi boshqasidan mustaqil holda vazifasini bajara olmaydi. Shu bilan birga, bu yaxlitlik ularning o‘zaro va ichki qarama-qarshiliklarini inkor etmaydi, bir funktsiyani ustunlik bilan amalga oshirish boshqalariga zarar yetkazishi istisno etilmaydi, bu esa yana bir bor har bir funktsiyaning muayyan mustaqilligini va ularning barcha xilma-xilligini o‘rganish istiqbolini aks ettiradi. Soliqlarni quyidagi rasmda keltirilgan to‘rtta funktsiyaga ajratish maqsadga muvofiqdir. 2-rasm.



2-rasm. Soliqlarning funktsiyalari[5]

1.Fiskal funktsiya (lotin «fiscus» - davlat g‘aznasi) soliqlarning eng asosiy funktsiyasi bo‘lib, u o‘zida soliqqa tortishning fundamental maqsadi ya’ni yuridik yoki jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini davlat budjetini moddiy asosini yaratish maqsadida olib qo‘yishni aks ettiradi. Soliqqa tortishning har qanday ko‘rinishida barcha soliqlar fiskal funktsiyani bajaradi.

2.Soliqlarning qayta taqsimlash funktsiyasi soliqning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini qayta taqsimlash munosabatlarining asosiy vositasi sifatida ifodalaydi va bozorning o‘zini o‘zi boshqarish doirasidan tashqarida bo‘lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishga imkon beradi. Ushbu funktsiya yordamida jamiyatning boy qatlamiga soliq yukini oshirish hisobiga aholining iqtisodiy zaif va himoyalanmagan qatlamlarini mablag‘ bilan ta’minlanadi. Soliqlarning qayta

[5] Mayburov I.A va boshqalar. Soliqlar va soliqqa tortish. I. A. Mayburov tahriri ostida. 6-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. – M.: YUNITI-DANA, 2015.

taqsimlash funktsiyasi orqali ijtimoiy tabaqalanish pasaytiriladi va jamiyatda ijtimoiy turg‘unlik ushlab turiladi.

3. Soliqlarning tartibga solish funktsiyasi iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvini oshirish (ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, talab va taklifni nazorat qilish, aholi daromadlari va omonatlarini, investitsiya hajmini nazorat qilish)ga qaratilgan soliqqa tortish sohasidagi bir qator chora-tadbirlarni o‘tkazish orqali namoyon bo‘ladi. Soliqlarni tartibga solish funktsiyasi davlatning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish davrida yuzaga keladi. U maqsadli ravishda hukumatning dasturlari asosida xalq xo‘jaligining rivojlanishiga ta’sir etadi. Bunda davlat soliqlarning shakli, soliq stavkalarining o‘zgarishi, undirish usullari, imtiyozlar va chegirmalaridan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ajratib oladi. Tartibga solish funktsiyasining tub mohiyati bu iste’mol uchun yo‘naltirilgan resurslarni soliqqa tortib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yo‘naltiriladigan resurslarni soliqdan ozod qilishdir.

> *Jamiyatda soliqlar faqat iqtisodiy munosabatlarni izga solib turish uchun mavjud.*
>
> *D.Keyns, ingliz iqtisodchisi*

Ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan, jumladan rus iqtisodchisi A.V.Brызgalin ushbu tartibga solish funktsiyasini uchta funktsiya osti funktsiyalarga ajratib bergan[6]:

Rag‘batlantiruvchi funktsiya soliq to‘lovchilarning maqsadli toifadagilarga va faoliyatning maqsadli turlariga soliq preferensiyalarini berish, soliqqa tortishning imtiyozli rejimlarini qoplash, pasaytirilgan soliq stavkalarini, soliq ta’tillarini, turli xil chegirmalarni joriy etish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Chegaralovchi (rag‘batlantirmaslik) - davlat tomonidan *soliq stavkalarini* ko‘tarish bilan jamiyat uchun foydasiz deb topilgan ishlab chiqarishni, jarayonlarni va ba’zi faoliyat turlarini chegaralash.

Qayta ishlab chiqarish - ishlatib yuborilgan mablag‘larni o‘rnini qoplash.(mablag‘larni ishlab chiqarishni kengaytirishda va yangilashda ishlatilgan holatlar uchun imtiyoz berish)

[6] Brizgalin A.V O funktsiyax nalogooblojeniya i regulativnom znachenii nalogov v ekonomike// Nalogi 2000, № 1

4.Soliqlarning nazorat qilish funktsiyasi orqali budjetga undirilayotgan soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida va to‘liq tushishi nazorat qilinadi va shu bilan birga tushumlar moliyaviy resurslariga bo‘lgan talablar bilan taqqoslanadi.

2.2-§. Soliqqa tortish munosabatlarida jismoniy shaxs tushunchasi va ularni soliqqa tortishning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida «fuqarolar» va «jismoniy shaxslar» tushunchalari bir ma’noni anglatgan holda unga quyidagicha ta’rif beriladi: Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi[7]. Bu holat qonun chiqaruvchining «fuqaro» so‘zini an’anaviy va odatga aylangan tarzda qo‘llanishini saqlab qolish istagi bilan bog‘liq. Fuqarolik kodeksida «fuqaro» deganda nafaqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, balki boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushunilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi hududida boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, muayyan fuqarolikka ega bo‘lmagan shaxslar istiqomat qilishadi.

> *O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8-modda.*

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi[8]. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar. Shu jumladan, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashlari ularning konstitutsiyaviy burchlaridan biridir.

O‘z navbatida fuqarolarning fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va burchni o‘tashga umumiy qobiliyati fuqarolarning huquq layoqati deb ataladi. (Bu haqda

[7] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 16-modda. T.: lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[8] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 23-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/2.1*).

Fuqarolarning huquq layoqati

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Fuqarolar:

mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari; mashg‘ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo‘lishlari mumkin .

Fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Agar qonundan yoki milliy odatdan boshqacha tartib kelib chiqmasa, fuqaro o‘z familiyasi va nomidan, shuningdek otasining ismi bilan huquq va burchlarga ega bo‘ladi hamda ularni amalga oshiradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan (to‘qilgan ismdan) foydalanishi mumkin. Fuqaro qonunda belgilangan tartibda o‘z ismini o‘zgartirishga haqli. Fuqaroning o‘z ismini o‘zgartirishi avvalgi ismi bilan olgan huquq va burchlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi.

Fuqaro o‘z ismini o‘zgartirganligi haqida qarzdorlari va kreditorlariga xabar berish uchun zarur choralarni ko‘rishi shart va u mazkur shaxslarda fuqaroning ismi o‘zgarganligi haqida ma’lumot yo‘qligi tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar xavfini o‘z zimmasiga oladi. Ismini o‘zgartirgan fuqaro o‘zining avvalgi

ismiga rasmiylashtirilgan hujjatlarga o‘z hisobidan tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini talab qilishga haqli.

Fuqaro tug‘ilgan vaqtida olgan ismini, shuningdek o‘zgartirilgan ismini fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak. Boshqa shaxs ismidan foydalanib huquq va burchlarga ega bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning qonuniy vakillari - ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi.

Fuqaro tomonidan sodir etiladigan harakatlari orqali fuqarolik huquqlarini qo‘lga kiritish va amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik majburiyatlarini yaratish va ularni ijro etish qobiliyati muomala layoqati deyiladi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:*http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/2.2*).

Fuqarolarning muomala layoqati

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asosan fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi.

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o‘tgan fuqaro nikohdan o‘tgan vaqtdan e’tiboran to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘ladi.Nikoh tuzish natijasida ega bo‘lingan muomala layoqati o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to‘la saqlanib qoladi. Nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to‘la muomala layoqatini yo‘qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqarolarning muomala layoqatini cheklashning qonunda belgilab qo‘yilgan shartlari va tartibiga rioya qilmaslik davlat organining tegishli cheklashni belgilaydigan hujjati haqiqiy emasligiga sabab bo‘ladi.

Fuqaroning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to‘la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo‘l qo‘yiladigan hollar bundan mustasno.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uni vasiyi amalga oshiradi.Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi.

Fuqaroning muomala layoqati cheklanishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uning muomala layoqatini cheklashni bekor qiladi. Fuqaroga belgilangan homiylik sud qarori asosida bekor qilinadi.

Fuqarolararolarning huquq va muomila layoqatlari soliqqa tortish maqsadlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Jumladan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Muomalaga layoqatsiz shaxsning soliq majburiyati uning mol-mulki hisobidan vasiysi tomonidan bajariladi.

Soliqqa tortish munosabatlari nuqtai nazaridan jismoniy shaxs tushunchasiga soliq qonunchiligida quyidagicha ta’rif berilgan: O‘zbekiston Respublikasining

fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslardir[9].

Demak, huquqiy jihatdan fuqarolar va jismoniy shaxslar tushunchalari bir xil ma’noni anglatadi. 3-rasm.

Soliqqa tortish maqsadlarida jismoniy shaxslar soliq rezidentlari va norezidentlariga ajratiladi. Bunda jismoniy shaxslarning soliq davrida O‘zbekiston Respublikasida bo‘lgan davriga asosan e’tibor qaratiladi.



3-rasm. Fuqarolar (jismoniy shaxslar)[10]

Shunga ko‘ra, tegishli maqomi o‘ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket o‘n ikki oylik davr davomida jami bir yuz sakson uch kalendar kundan ko‘proq O‘zbekiston Respublikasida haqiqatda bo‘lgan jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladi[11]. Ushbu qoidalar Soliq kodeksida belgilangan xususiyatlarni va O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalariga doir xalqaro shartnomalari qoidalarini hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Rezident so‘zi lotincha «residens» so‘zidan olingan bo‘lib- o‘tiruvchi, joyida qoluvchi degan ma’nolarni anglatadi.
https://ru.wikipedia.org

[9] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.
[10] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.
[11] Shu manba.

Agar jismoniy shaxs tegishli soliq davrida O‘zbekiston Respublikasida jami bir yuz sakson uch kundan kam bo‘lib, biroq ushbu turish muddati uning boshqa biror-bir davlatda turgan muddatidan ko‘proq bo‘lsa ham, u O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etiladi.

Agar jismoniy shaxs tegishli maqomi o‘ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket o‘n ikki oylik muddat tugagunga qadar soliq organlariga uzoq muddatli mehnat shartnomasini yoki yuqorida nazarda tutilgan shartlar bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatni taqdim etsa, o‘zining arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasida haqiqatan bo‘lib turishi davri uning qisqa muddatli (olti oydan kam) davolanish yoki o‘qish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqqan davrida uzilmaydi.

Soliq solish maqsadlarida chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning quyidagi davrlar mobaynida bo‘lgan vaqti uning O‘zbekiston Respublikasida haqiqatda bo‘lgan vaqtiga taalluqli hisoblanmaydi:

1) diplomatik yoki konsullik maqomiga ega shaxs sifatida bo‘lgan davri;

2) O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo‘lgan, xalqaro shartnoma bo‘yicha tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida bo‘lgan davri;

3) tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmagan taqdirda, yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar oilasining a’zosi sifatida bo‘lgan davri.

O‘zbekiston Respublikasida haqiqatan qancha vaqt bo‘lganligidan qat’i nazar, chet elda xizmatni o‘tayotgan O‘zbekiston Respublikasining harbiy xizmatchilari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlash uchun xizmat safariga yuborilgan davlat hokimiyati organlarining xodimlari O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo‘lib turganlikni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish (O‘zbekiston Respublikasidan chiqish) kuni chet davlatlarning davlat chegaralarini kesib o‘tganlik to‘g‘risidagi belgi asosida aniqlanadi. Bunday belgi O‘zbekiston Respublikasining va (yoki) chet

davlatning chegara nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli organi tomonidan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga va (yoki) O‘zbekiston Respublikasiga kirish (O‘zbekiston Respublikasidan chiqish) hujjatlariga qo‘yiladi. Shuningdek shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo‘lib turganligi davlat organlari va tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan, soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida ham aniqlanishi mumkin. Mazkur qoidalar jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatan ham bo‘lib turganlik vaqtini aniq belgilash imkonini bermasa, jismoniy shaxs soliq organiga o‘zining kalendar yil (yillar) davomida haqiqatda bo‘lib turgan joyini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning ko‘chirma nusxalarini), shuningdek o‘zining haqiqatda bo‘lib turgan joyini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa hujjatlarni (yoki ularning ko‘chirma nusxalarini) taqdim etadi:

1) shaxsni tasdiqlovchi hujjat;

2) belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yashash uchun ruxsatnoma;

3) haqiqatda bo‘lib turgan joyini tasdiqlovchi hujjatlar.

Agar yuqoridagi qoidalarga yoki O‘zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq, bir vaqtning o‘zida jismoniy shaxsni ham O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti, ham chet davlatning soliq rezidenti deb tan olish uchun asoslar bo‘lsa, uning soliq rezidentligi shunday xalqaro shartnomaning qoidalariga muvofiq jismoniy shaxs hayotiy manfaatlarining markazi asosida belgilanadi. Bunda quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, jismoniy shaxs hayotiy manfaatlarining markazi O‘zbekiston Respublikasida deb e’tirof etiladi:

1) jismoniy shaxsning eri (xotini) va (yoki) yaqin qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasida yashasa;

2) O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxsga va (yoki) uning eriga (xotiniga) va (yoki) uning yaqin qarindoshlariga mulk huquqida yoki boshqa asoslarda tegishli bo‘lgan, istalgan vaqtda uning yashashi va (yoki) eri (xotini) va

(yoki) uning yaqin qarindoshlari yashashi mumkin bo‘lgan ko‘chmas mulkning mavjudligi.

Agar jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududida yashash joyi mavjud bo‘lmasa, Soliq kodeksining maqsadlari uchun yashash joyi bu jismoniy shaxsning iltimosiga binoan uning bo‘lib turgan joyi bo‘yicha belgilanishi mumkin. Bunda jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtincha yashab turgan va ro‘yxatdan o‘tgan joyi (manzili) jismoniy shaxsning bo‘lib turgan joyi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lmagan jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e’tirof etiladi[12].

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga[13] asosan fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq solish prinsiplari[14] keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular qatorida belgilangan majburiylik prinsipiga ko‘ra har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart[15].

> *Hech kimga soliqlar va yig‘imlarning barcha alomatlariga ega bo‘lgan, biroq Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 8-modda.*

O‘zbekiston Respublikasida amal qiladigan soliqlar va yig‘imlarning turlari Soliq kodeksida[16], davlat boji turlari esa «Davlat boji to‘g‘risida»gi qonunida[17] belgilangan. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksi bilan birgalikda boshqa qonun hujjatlarida ham belgilanadi.

Jismoniy shaxslar qachonki, zimmasiga belgilangan soliqlar hamda

---

[12] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[13] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 51-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[14] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 70-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[15] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 8-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[16] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 17-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[17] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat boji to‘g‘risida. O‘RQ-600-sonli, 2020 yil 6 yanvar.

yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan taqdirda soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Qachonki, soliq solish ob’ekti (mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo‘lgan boshqa holat) mavjud bo‘lganda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari jismoniy shaxslarda soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga asosan yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lanadi. O‘z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to‘laydilar. Yer uchun haq har yili to‘lanadigan yer solig‘i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta’minlanish darajasiga qarab belgilanadi.

2.3-§. Jismoniy shaxslar va ularning ayrim toifalari tomonidan to‘lanadigan soliqlarning iqtisodiy ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslar quyidagi soliqlarni to‘laydilar, jumladan:

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

-mol-mulk solig‘i;

- yer solig‘i;

-ijtimoiy soliq (jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ixtiyoriy tarzda).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i budjet-soliq munosabatlarining kichik tizimi sifatida, xususan, ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil yetish uchun davlat budjetiga olib qo‘yish jarayonida yuzaga kelgan munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta’sirning qanchalik darajada bo‘lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiy tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, agar ta’sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo‘lsa daromadlarni ko‘proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo‘lgan qiziqishlar bir

muncha so‘nadi, aksincha, soliq yuki kam bo‘lsa aks holat yuz beradi. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar, bir tomondan, xodimlarni o‘z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok yetishga rag‘batlantirishi, ikkinchi tomondan, ish haqi darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo‘lishga yordam ko‘rsatishi, mehnatkashlarning daromadlaridagi tafovut asossiz ravishda katta bo‘lishiga olib kelmasligi lozim.

O‘tgan yillar davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i budjetni shakllantiruvchi asosiy soliqlardan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2020 yil ijrosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 15 140,8 mlrd so‘mni (2019 yilga nisbatan 113,6 foizni) tashkil etadi[18]. Shuni ta’kidlash joizki, davlat budjetining daromad qismida 2020 yildan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan daromad solig‘i (qat’iy belgilangan soliq o‘rniga joriy qilingan) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga kiritilgan.

Bizga ma’lumki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i faqat budjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balkim keng xalq ommasining turmush darajasini, daromad to‘lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog‘i lozim. Shuning uchun ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha prognozdan orttirib bajarilgan qismi to‘liq mahalliy budjetlarda qoldiriladi. Qolaversa, 2021 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 62 foizi, Toshkent viloyatida 45 foizi, Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi mahalliy budjetlar ixtiyoriga o‘tkazilishi belgilangan[19].

---

[18] O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2020 yil ijrosi. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/2020ijro/daromadlar.pdf

[19] O‘zbekisto Respublikasining Qonuni. 2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida. O‘RQ-657-sonli, 2020 yil 25 dekabr.

Mol-mulkni soliqqa tortish va davlat mulki bo‘lgan yerdan foydalanganlik uchun soliq to‘lashning rivojlanishi jarayonida ularning fiskal va rag‘batlantirish roliga ega ekanligi aniqlangan. O‘z navbatida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarining asosiy vazifasi mahalliy budjetni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hisoblanadi.

> *«...hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetlarning mablag‘lari yetarli emas».*
>
> *Sh. Mirziyoyev.*
> *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Mahalliy budjetga tushadigan soliqlar - mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa moddiy resurslardan samarali foydalanish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlarining faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan. Bugungi kunda mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlarning barqaror tushushini ta’minlash zarurati mavjud, chunki mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlash shuni taqozo etadi.

Mol-mulk va yer soliqlarining rag‘batlantirish roli esa mavjud mol-mulk va yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish va mulkiy tabaqalanishni qisqartirish, noishlab chiqarish jamg‘armalarini imkon qadar kamaytirish hamda jamiyat uchun maqbul sohalarga yo‘naltirish hisoblanadi.

> *«Cho‘p suqsang, ko‘karadigan yerimiz bor, mehnatsevar xalqimiz bor. Lekin tomorqa yerlaridan – shunday katta rezervdan foydalanmayapmiz».*
>
> *Sh. Mirziyoyev.*
> *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Mol-mulk solig‘ining yuqorida bayon qilingan zaruriyatidan tashqari, uning zururligini sanoat qurilishini va umuman mavjud ishlab chiqarishni intensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilish bilan ham bog‘lash mumkin. Shu bilan birga mol-mulklarni soliqqa tortish ulardan faol va oqilona foydalanishni ta’minlash, ortiqcha zahiralardan holi bo‘lishga rag‘bat bo‘lib xizmat qilishi va o‘z navbatida ishlab chiqarish vositalari bozorining tashkil topishini jadallashtirishdan iborat.

Yer solig‘i boshqa soliq turlaridan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra u renta to‘lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo‘jalik

yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad- nafaqat budjet daromadlarini shakllantirish, shuningdek yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha 2016-2019 yillarda davomida budjetga tushumlarini kuzatadigan bo'lsak, mazkur yillar davomida tushumlar miqdori o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. 4-rasm.



4-rasm. 2016-2019 yillar davomida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha tushumlar dinamikasi[20]

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mulk va yer soliqlari bo'yicha tushadigan daromadlarning ko'payishi yer solig'i stavkalarini har yili indeksatsiya qilish, mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha qo'shimcha manbalarning aniqlanishi, mol-mulk va yerdan samarali foydalanish maqsadida oshirilgan stavkalarning qo'llanilishi va boshqalar bilan bog'liqdir.

[20] O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari qatorida har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilgan[21]. Fuqarolar mazkur huquqlardan foydalanishlari, jumladan yoshga doir pensiya olish uchun, tegishli tartibda mehnat stajiga ega bo‘lishlari lozim bo‘ladi. Buning uchun esa fuqarolar ixtiyoriy tartibda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar esa majburiy tartibda budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga qonun xujjatlarida belgilagan miqdordagi ijtimoiy soliqni to‘lashlari lozim bo‘ladi. O‘z navbatida ijtimoiy soliq budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining asosiy daromad manbai hisoblanadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslarning ayrim toifalari sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar nazarda tutiladi. O‘z nabatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar ham soliq qonun hujjatlariga ko‘ra soliqlarni to‘lashlari lozim bo‘ladi. Chunki, jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi. Mavjud soliq qonunchiligiga ko‘ra olingan daromad yoki foyda soliq ob’ekti hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslarni soliqqa tortilishi tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining majburiyatlari sifatida belgilab qo‘yilgan.

> *...«Tadbirkor nafaqat o‘zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi».*
>
> *Sh. Mirziyoyev.*
> *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Mamlakatimiz soliq qonunchiligida yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, biroq yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxslarga soliq solish va ularga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash maqsadida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida qaraladi[22].

---

[21] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.39-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[22] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 31-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor)lar tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlariga bog‘liq bo‘lgan (yoki bog‘liq bo‘lmagan) holda va faoliyat turlariga nisbatan belgilangan tartibda soliqqa tortiladi. Shuningdek ayrim xizmatlar (bolalar o‘yin avtomatlari bilan bog‘liq xizmatlar)ni ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslar har bir jihozlangan joy (birlik) uchun soliqqa tortiladi. Agarda jismoniy shaxslar (fuqarolar) tadbirkorlik faoliyati bilan yuridik shaxsni tashkil etmagan holda shug‘ullansalar va kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mgacha bo‘lsa, ular jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda ijtimoiy soliqni to‘laydilar.

Agarda yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshsa, aylanmadan olinadigan soliqni, bir milliard so‘mdan oshgan taqdirda esa foyda va qo‘shilgan qiymat soliqlarini to‘laydilar. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ixtiyoriy tarzda aylanmadan olinadigan soliq o‘rniga foyda va qo‘shilgan qiymat soliqlarini to‘lashga o‘tishlari ham mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq, funktsiya, budjet, jismoniy shaxs, fuqaro, layoqat, muomila layoqati, huquqiy layoqat, burch, majburiyat, soliq rezidenti, norezident, mahalliy budjet, yer solig‘i, mulk solig‘i, tadbirkorlik, jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, deklaratsiya, ijtimoiy soliq.

Nazorat savollari:

1.Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxs deb qanday fuqarolarga aytiladi?

2. Soliqqa tortish munosabatlarida fuqaroning muomila layoqatini qanchalik ahamiyati mavjud?

3. Soliq rezidenti deb qanday jismoniy shaxsga aytiladi?

4. Kimlar soliq norezidenti hisoblanadi?

5. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ob'ektiv zarurligi nimada?

6. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning huquqiy asoslariga qaysi me'yoriy hujjatlar kiradi.

7. Jismoniy shaxslarni soliqlarni to'lash majburiyati qaysi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan?

8. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarning iqtisodiy ahamiyati nimada?

9. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan qaysi soliqlar mahalliy budjet daromadlarini shakllantiradi?

10. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning jamiyatda qanday roli mavjud?

O'zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O'quv-materiallari/Darslik va o'quv qo'llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/2.3*).

Test savollari

1. Soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslar deganda kimlar tushuniladi?

A) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar

B) Soliq solish ob'ektiga ega bo'lgan shaxslar

C) Voyaga yetgan fuqarolar

D) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari

2. Qanday jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etiladi?

A) Har qanday ketma-ket 12 oylik davr davomida jami 183 kalendar kundan ko'proq mamlakatimizda haqiqatda bo'lgan jismoniy shaxslar

B) 1 yil davomida mamalakatimizda bo'lgan jismoniy shaxslar

C) Uzluksiz 6 oylik davr davomida mamalakatimizda bo'lgan jismoniy shaxslar

D) Kalendar yilining dastlabki yarim yilligi davri davomida mamalakatimizda bo‘lgan

3. Jismoniy shaxslarni soliq rezidenti deb e’tirof etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasiga kirish va chiqish kuni nima asosida aniqlanadi?

A) chet davlatlarning davlat chegaralarini kesib o‘tganlik to‘g‘risidagi belgi asosida

B) O‘zbekiston Respublikasida sotib olgan ko‘chmas mulki asosida

C) O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirgan faoliyati asosida

D) O‘zbekiston Respublikasida olgan daromadi asosida

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida fuqarolar soliqlarlarni to‘lashga majburligi belgilab qo‘yilgan?

A) 51-modda

B) 41-modda

C) 36-modda

D) 23-modda

5. Jismoniy shaxslarni qachon soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi?

A) qachonki, zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan taqdirda

B) voyaga yetganda

C) daromadga ega bo‘lganda

D) mol-mulkka ega bo‘lganda

6. Qachon soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari jismoniy shaxslarda soliq majburiyatini vujudga keltiradi?

A) soliq solish ob’ekti (mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo‘lgan boshqa holat) mavjud bo‘lganda

B) pasport olganda

C) 18 yoshga to‘lganda

D) korxona yoki tashkilotlarga ishga kirganda

7. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan mol-mulk va yer soliqlari qaysi budjet daromadlari hisoblanadi?

A) Tuman (shahar) budjetlari

B) Viloyat budjetlari

C) Respublika budjeti

D) Okruglar budjeti

8. Jismoniy shaxslar tomonidan qaysi soliq ixtiyoriy to‘lanishi mumkin?

A) ijtimoiy soliq

B) mol-mulk solig‘i

C) yer solig‘i

D) daromad solig‘i

9. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan qaysi soliq ularga mehnat staji hisoblashga asos bo‘ladi?

A) ijtimoiy soliq

B) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

C) aylanmadan olinadigan soliq

D) daromad solig‘i

10. Quyidagi qaysi funktsiya jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning funktsiyasi hisoblanadi?

A) barchasi

B) fiskal

C) rag‘batlantirish

D) tartibga solish

III-BOB. SOLIQQA TORTISH MUNOSABATLARIDA JISMONIY SHAXSLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1-§. Jismoniy shaxslarning soliq to‘lovchi sifatidagi huquqlari

Soliq to‘lovchining huquqi bu - uning soliq munosabatlarida ishtirok etish imkoniyatlarining qonuniy normalaridir. Soliq to‘lovchi soliq munosabatlarida shaxsan yoki o‘z vakili orqali ham ishtirok etishi mumkin. Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi. Soliq to‘lovchi o‘zining huqukiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi yoki foydalanmasligi bu uning huquqiy xoxishidir. Ammo soliq to‘lovchining foydalanilmagan huquqi bu huquqlardan vaqti kelganda foydalanishni man etmaydi. Qonunda belgilangan huquq normalaridan soliq to‘lovchi xoxlagan vaqtida foydalana olishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlariga oid qonun normalarida belgilangan huquqlari bu ob’ektiv huquqlardir.

Jismoniy shaxslarning soliq to‘lovchi sifatidagi huquqlari soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning huquqlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida umumiy holatda soliq to‘lovchilarning huquqlari sifatida belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/3.1*)

Soliq to‘lovchilarning huquqlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga[23] asosan soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to‘g‘risida, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida

[23] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 21-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to‘ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;

o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

Soliq kodeksida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;

soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish;

Soliq kodeksida belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash;

soliq solish ob’ektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

Soliq kodeksiga muvofiq o‘z hududida o‘tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o‘tkazish chog‘ida hozir bo‘lish;

sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va (yoki) soliq to‘g‘risidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan talablarini bajarmaslik;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo‘lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

soliq munosabatlari masalalariga oid o‘z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o‘z vakillari orqali ifodalash;

soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to‘lovchilarning subektiv huquqlari bu soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchisi, ya’ni soliq organlarining qonun xujjatlarida belgilangan majburiyatlarining bajarilishi okibatida yuzaga keladigan huquqlari, ya’ni soliq organlarining majburiyatlari hosilasidir.

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksidan tashqari soliq to‘g‘risidagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta’minlanadi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlarini ta’minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.5- rasm.



5- rasm.Soliq to‘lovchilarning huquqlari[24]

Soliq to‘lovchilarning qonun xujjatlarida belgilangan huquqlarini nazariy jihatdan ikki toifaga, ya’ni shartli va shartsiz huquqlarga bo‘lish mumkin[25].

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish, belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash hamda soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan

[24] Mualliflar tomonidan tayyorlangan

[25] Mirzaev T., S. Muxitdinov. - Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari. O‘quv qo‘llanma. T.: DSQ Maslahat markazi.2008 y.

summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish kabi huquqlaridan foydalanishi uchun ular bilan bog‘liq bo‘lgan shartlarni bajarishlari lozim bo‘ladi. Ya’ni, soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash, soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish uchun, shuningdek soliq imtiyozlaridan foydalanish (soliq imtiyozini olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish sharti bilan) yoxud ulardan foydalanishni rad etish uchun soliq to‘lovchi tomonidan soliq idorasi boshlig‘i nomiga rasmiy ariza taqdim etish sharti bajarilgandagina bu huquqlardan foydalana olish imkoni vujudga keladi. Shunga ko‘ra mazkur huquqlar soliq to‘lovchilarning shartli huquqlari hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi soliqqa tortish masalalari bo‘yicha axborotni, o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish, soliq solish ob’ektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish, soliq tekshiruvi materiallari bilan tanishish va boshqa soliq to‘g‘risidagi qonun xujjatlaridagi huquqlaridan har qanday shartlarsiz foydalanishi mumkin. Shunga ko‘ra bunday huquqlar soliq to‘lovchilarning shartsiz huquqlari hisoblanadi.

3.2-§. Jismoniy shaxslarning soliq to‘lovchi sifatidagi majburiyatlari

Soliq to‘lovchining majburiyati unga soliq qonunchiligida belgilangan tartib-qoidalarga itoat qilgan holda, o‘z xoxish va imkoniyatlaridan qati nazar, soliqqa tortish munosabatlariga daxldor tadbirlarning bajarilishini ta’minlash demakdir. Soliq to‘lovchi (jumladan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar) majburiyatining nazariy qoidasini quyidagicha ifodalash mumkin: Soliq to‘lovchi (jumladan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar)ning soliqqa tortish munosabatlariga muvofiq bajarilishi shart bo‘lgan va aniq maqsadga qaratilgan ongli faoliyat majmuasi *soliq to‘lovchining majburiyati deyiladi.* Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning soliqqa tortish munosabatlari bilan bog‘liq majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:

http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/3.2)

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga[26] asosan soliq to‘lovchilar:

belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi;

hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko‘rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi;

agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to‘lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil mobaynida but saqlanishini ta’minlashi;

o‘zi soliq bo‘yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to‘g‘risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo‘lsa, xabardor etishi shart.

Soliq kodeksi bilan zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o‘z vakolatlarini

[26] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 22-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

amalga oshirish chog‘ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta’minlashi kerak. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan soliqlar to‘laydigan jismoniy shaxslar zimmasida bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar ham bo‘ladi. Bunda jismoniy shaxslar bojxona qonunchiligiga ko‘ra deklarant sifatida majburiyatlarga ega bo‘ladi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/ O‘quv-materiallari/ Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/3.3*)

Bojxona qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslarning deklarant sifatida majburiyatlari

Bojxona qonunchiligiga ko‘ra[27] jismoniy shaxslar deklarant sifatida:

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini deklaratsiyalashni amalga oshirishi;

bojxona maqsadlari uchun zarur, shu jumladan deklaratsiyalanayotgan tovarlarga va (yoki) transport vositalariga nisbatan vakolatli organlar tomonidan o‘tkaziladigan veterinariya, fitosanitariya nazorati, ekologik nazorat va davlat nazoratining boshqa turlari talablariga rioya etilishi to‘g‘risidagi hujjatlarni va (yoki) ma’lumotlarni bojxona organiga taqdim etishi;

bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona organining talabiga ko‘ra taqdim etishi;

bojxona organining talabiga ko‘ra tovarlarni tarozida tortishni hamda boshqacha tarzda ularning miqdori va sifatini aniqlashni, shuningdek deklaratsiyalanayotgan tovarlarga va (yoki) transport vositalariga nisbatan yuk operatsiyalarini amalga oshirishi;

bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri hisoblab chiqarishi;

bojxona to‘lovlarini to‘lashi yoki ularning to‘lanishini ta’minlashni taqdim etishi;

tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida

[27] O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 274-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

bojxona organining talabiga koʻra hozir boʻlishi hamda bojxona organining mansabdor shaxslariga bojxona rasmiylashtiruvini oʻtkazishda koʻmaklashishi;

tovarlar va (yoki) transport vositalari joylashtirilgan bojxona rejimi talablari hamda shartlariga rioya etishi;

tovarlarni va (yoki) transport vositalarini deklaratsiyalashda bojxona identifikatsiyalash vositalari oʻzgartirilganligi, yoʻq qilinganligi, buzilganligi yoki yoʻqotilganligi, idishlar va oʻrovlar buzilganligi, tovarlar tovarning kuzatuv hujjatlarida va bojxona nazoratining boshqa hujjatlarida koʻrsatilgan ma'lumotlarga muvofiq emasligi aniqlanganligi haqida bojxona organlarini oʻz vaqtida xabardor qilishi shart.

Tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant:

bojxona organiga tovarning bojxona qiymatini ma'lum qilishi;

tovarning bojxona qiymatini aniqlashga taalluqli ma'lumotlarni bojxona organining talabiga koʻra taqdim etishi shart.

Deklarantda tovarning oʻzi ma'lum qilgan bojxona qiymatini aniqlashtirish yoki bojxona organiga qoʻshimcha ma'lumot taqdim etish tufayli yuzaga kelgan xarajatlar deklarantning zimmasida boʻladi. Tovarning bojxona rasmiylashtiruvi muddatining bojxona qiymatini aniqlash bilan bogʻliq tarzda uzaytirilishidan deklarant bojxona toʻlovlarini amalda kechiktirib toʻlash uchun foydalanishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarda deklarant sifatida bojxona toʻlovlarini toʻlash boʻyicha majburiyat:

tovar bojxona toʻlovlarini toʻlash nazarda tutilgan bojxona rejimiga joylashtirilganda, shuningdek Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollarda;

tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish natijasida bojxona toʻlovlari qoʻshimcha hisoblangan taqdirda yuzaga keladi[28].

Soliq toʻlovchi jismoniy shaxslarning zimmasida mazkur keltirib oʻtilgan majburiyatlari bilan birgalikda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar

[28] Oʻzbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 294-modda. lex.uz-Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

ham bo‘lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan soliq to‘lovchi (jumladan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar)ning soliq qonunchiligida belgilangan majburiyatlari tartib-qoidalarda ko‘rsatilgan muddatda yoki soliq munosabatlari sub’ektining vakolat doirasida talablari vujudga kelganda va boshqa muayyan favqulodda holatlarda sodir bo‘ladi. Bir tomondan, soliq to‘lovchilar va ikkinchi tomondan, ularning manfaatlarini himoya qilish vakolati berilgan soliq organlari o‘rtasidagi soliq munosabatlarida soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini belgilovchi muhit shakllanadi. Davlat budjetining xarajatlarini moliyaviy ta’minlashda soliq to‘lovchilar majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Agar majburiyatlar soliq qonunchiligi normalarida belgilangan tartibda bajarilsa, davlat ahamiyatiga molik dasturlarning ham ijrosi ta’minlanadi.

Soliq to‘lovchilarning soliqqa tortish munosabatlari bilan bog‘liq moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tartibga solish qonunlarda belgilangan majburiyatlarining bajarilishida asosiy omil hisoblanadi. Demak, soliq to‘lovchilarning majburiyatlar majmuasi qanchalik to‘liq bajarilsa soliqqa tortish munosabatlari shunchalik samarali bo‘ladi. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilmasligi davlat tomonidan majburiy choralar ko‘rilishiga olib keladi. Soliq xizmati organlari davlat vakili sifatida qonun normalarida ko‘zda tutilgan choralar bilan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar majburiyatlarining bajarilishini ta’minlaydi. Ko‘rilgan choralar natijasida sub’ektiv huquq vakolati bor tomonga, ya’ni davlatga soliq to‘lovchidan talab qilingan mablag‘ning undirib olinishiga erishiladi.

Davlatning majburiy choralari tegishli moliyaviy ne’matni undirib olishnigina emas, balki o‘z majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida budjetga keltirilgan zarar uchun qonuniy qat’iy jazo ko‘rilishini ham ko‘zda tutadi. Ya’ni soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki o‘z vaqtida bajarmaganliklari uchun tegishliligi bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moliyaviy, ma’muriy, jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bajarilmagan

majburiyat uchun bunday qat'iy choralar ko‘rilishining muqarrarligi o‘z navbatida boshqa soliq to‘lovchilarga ibrat bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

3.3-§. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning vakillari va soliq agentlari

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar soliq munosabatlarida qonuniy vakil orqali ishtirok etishga haqli. *Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb* fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e'tirof etiladi. Vakilning vakolatlari Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘lishi mumkin. «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi Qonunda soliq maslahatchilari tashkiloti va ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar belgilab qo‘yilgan. Jumladan mazkur qonunga ko‘ra: Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi tijorat tashkilotidir[29]. O‘z navbatida soliq maslahati soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyatidir.

> *Soliq maslahati bo‘yicha malaka sertifikatini olgan jismoniy shaxs soliq maslahatchisidir.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi Qonuni*

Soliq maslahatchilari tashkiloti aksiyadorlik jamiyatidan tashqari, istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Soliq maslahatchilari tashkilotining rahbari soliq maslahatchisi bo‘lishi kerak. Ya'ni tashkilot rahbari soliq maslahati bo‘yicha malaka sertifikatini olgan bo‘lishi lozim.

Soliq maslahatchilari tashkiloti xizmatlari soliq maslahati bilan bog‘liq qonun xujjatlarida belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma'lumot:

[29] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Soliq maslahati to‘g‘risida. O‘RQ-55-sonli, 2006 yil 21 sentabr. 9-modda.

http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/3.4).

Soliq maslahatchilari tashkiloti tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar

Soliq maslahatchilari tashkiloti:

soliq maslahati bo‘yicha xizmatlarni, jumladan:

mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash masalalari bo‘yicha maslahat berishni;

soliq hisobotini tuzishda mijozga (ishonch bildiruvchiga) yordam ko‘rsatishni;

soliq solish ob’ektlari va soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan ob’ektlarni aniqlashni hamda ularning hisobini yuritishni;

sudda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliq solish masalalari bo‘yicha mijoz (ishonch bildiruvchi) nomidan va uning topshirig‘iga binoan vakillik qilishni amalga oshiradi.

Soliq maslahatchilari tashkiloti yuqorida nazarda tutilgan soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar bilan bir qatorda:

buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish, tiklash va yuritish;

moliyaviy hisobot tuzish;

buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo‘jalik faoliyatining boshqa masalalari bo‘yicha konsalting xizmatlari ham ko‘rsatishi mumkin.

Soliq maslahatchilari tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Soliq maslahatiga doir faoliyat soliq maslahatchilari tashkiloti va mijoz (ishonch bildiruvchi) o‘rtasida tuzilgan soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomani tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi qonun hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Soliq maslahatchilari tashkiloti mijoz (ishonch bildiruvchi) bilan uning yashash joyi va joylashgan yeridan (pochta manzilidan)

qat'i nazar, soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzishga haqli.

Soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi soliq maslahatchilari tashkiloti mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliq maslahati bo‘yicha hisobotni va soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini milliy standartlarda belgilangan tartibda taqdim etadi. Soliq maslahati bo‘yicha hisobot soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomada ko‘rsatilgan soliq maslahati predmeti haqidagi axborotni o‘z ichiga oladi. Soliq maslahati bo‘yicha hisobotdagi axborot maxfiydir va u oshkor qilinishi mumkin emas. Soliq maslahati bo‘yicha hisobotning har bir sahifasi soliq maslahatini amalga oshirgan soliq maslahatchisi tomonidan imzolanadi, hisobot soliq maslahatchilari tashkiloti rahbarining imzosi va mazkur tashkilotning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanadi. Soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasi - soliq maslahatchilari tashkilotining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, to‘lash, soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan ob'ektlarni aniqlash va hisobini yuritish to‘g‘risidagi fikrini o‘z ichiga oluvchi yozma shaklda ifodalangan hujjatdir. Soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasi soliq maslahati bo‘yicha hisobot asosida tuziladi. Soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasi soliq maslahatchisi (soliq maslahatchilari), soliq maslahatchilari tashkilotining rahbari tomonidan imzolanishi va mazkur tashkilotning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanishi kerak.

Shu o‘rinda aytish joizki, soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘la olmaydi.

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili o‘z vakolatlarini fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning ayrim toifalari bir vaqtning o‘zida soliq agenti, yo aksincha soliq agenti bo‘lgan jismoniy shaxslar bir vatqning o‘zida soliq to‘lovchi bo‘lishi mumkin va aksincha.

Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar *soliq agentlari deb e'tirof etiladi.* Soliq agentlari,

soliq to‘lovchilar kabi huquqlarga ega bo‘ladi. Ularning majburiyatlari esa Soliq kodeksida alohida moddada belgilab qo‘yilgan. Jumladan, Soliq agentlari:

soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda budjet tizimiga o‘tkazishi;

soliq organlariga soliqni ushlab qolish imkoniyati yo‘qligi va soliq to‘lovchining soliq qarzi summasi to‘g‘risida bunday holatlar soliq agentiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida yozma ravishda yoki elektron shaklda xabar qilishi;

hisoblangan va to‘langan daromadlarning, hisoblab chiqarilgan, ushlab qolingan va budjet tizimiga o‘tkazilgan soliqlarning hisobini har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida yuritishi;

soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, ushlab qolinishi va o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi;

soliq hisobotlarining hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning Soliq kodeksining 88-moddasida nazar tutilgan da’vo muddati mobaynida but saqlanishini ta’minlashi shart.

Soliq agentlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Huquq, majburiyat, soliq to‘lovchining huquqi, soliq to‘lovchining majburiyati soliq to‘lovchining qonuniy vakili, soliq agentlari, soliq majburiyatlarini bajarish, javobgarlik, moliyaviy, ma’muriy, jinoiy.

Nazorat savollari:

1.Soliq to‘lovchining huquqi deganda nimani tushunasiz?

2.Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar qanday huquqlarga ega?

3.Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari qaysi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan?

4.Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb qanday shaxslar e’tirof etiladi?

5. Soliq maslahatchilari tashkiloti qanday xizmatlar ko‘rsatadi?

6. Soliq maslahatchisi deganda kimlarni tushunasiz?

7.Qanday shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi?

8.Soliq to‘lovchining majburiyati deganda nimani tushunasiz?

9. Jismoniy shaxslarga qanday soliq majburiyatlari yuklatilgan?

10.Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar o‘z majburiyatlarini bajarmagan holatlarda qanday javobgarliklarga tortiladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/3.5*)

Test savollari

1. Soliq to‘lovchilarning huquqlari qaysi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan?

A) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida

B) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida

C) Davlat soliq xizmati to‘g‘risidagi qonunda

D) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi

2. Soliq to‘lovchilarning qonun xujjatlarida belgilangan huquqlarini nazariy jihatdan qanday toifalarga bo‘lish mumkin?

A) shartli va shatrsiz huquqlar

B) mutloq va nisbiy huquqlar

C) imtiyozli va imtiyozsiz huquqlar

D) ixtiyoriy va majburiy huquqlar

3. Soliq to‘lovchilarning imtiyozlardan foydalanish huquqini nazariy jihatdan qanday toifaga kiritish mumkin?

A) shartli huquq

B) nisbiy huquq

C) mutloq huquq

D) majburiy huquq

4. Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili o‘z vakolatlarini qanday hujjat asosida amalga oshiradi?

A) fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida

B) vasiyatnoma asosida

C) shartnoma asosida

D) tilxat asosida

5. Qanday shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi?

A) Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar

B) Soliq to‘lovchining nomidan, uning topshirig‘i asosida ish ko‘radigan shaxslar

C) Soliq organlarining tegishli bo‘limlari xodimlari

D) Soliq to‘lovchilarning huquqbuzarliklari haqida soliq organlariga axborot beruvchi shaxslar

6. Jisoniy shaxs ham soliq agenti bo‘lishi mumkinmi?

A) tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxs yollanma xodimi bo‘lgani uchun soliq agenti bo‘lishi mumkin.

B) mumkin emas

C) yakka tartibdagi tadbirkorning yollangan xodimi soliq agenti bo‘lishi mumkin

D) barcha jismoniy shaxslar ham soliq agenti bo‘lishi mumkin

7. Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari qaysi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan?

A) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida

B) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida

C) Davlat soliq xizmati to‘g‘risidagi qonunda

D) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi

8. Soliq to‘lovchi soliq imtiyozidan ixtiyoriy tarzda foydalanmasligi ham mumkinmi?

A) mumkin

B) mumkin emas

C) imtiyozning 50 foizidan foydalanmasligi mumkin

D) imtiyozlar soni uchdan ortiq bo‘lsa, foydalanmaslik mumkin

9. Soliq to‘lovchi soliq munosabatlari masalalariga oid o‘z manfaatlarini kimlar orqali ifodalashi mumkin?

A) barchasi orqali

B) shaxsan o‘zi

C) soliq maslahatchilari tashkiloti

D) o‘z vakili

10. Tadbirkor jismoniy shaxs soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni necha yil but saqlashga majbur?

A) tegishli soliqlarni to‘lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil

B) tegishli soliqlarni to‘lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi uch yil

C) saqlashga majbur emas

D) yetti yil

IV-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQ MAJBURIYATLARI VA ULARNING BAJARILISHI

4.1-§. Soliq majburiyati va uni bajarishning umumiy qoidalari

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir.
O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 85-modda.

Soliq majburiyati Soliq kodeksi yoki boshqa soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi, o‘zgartiriladi va tugatiladi. Har bir soliqqa nisbatan soliq majburiyati soliq to‘lovchiga coliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ushbu soliqni to‘lashni nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran yuklatiladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan soliq agentlarining zimmasiga yuklatilgan, o‘ziga nisbatan ushbu shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladigan munosabatlar doirasida soliqlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘z vaqtida o‘tkazish majburiyati soliq majburiyatiga tenglashtiriladi.

Har bir soliqqa nisbatan soliq majburiyati soliq to‘lovchiga coliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ushbu soliqni to‘lashni nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran yuklatiladi.

Soliq to‘lovchi o‘zining soliq majburiyatini, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mustaqil ravishda bajaradi. Soliq majburiyati soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatda bajarilishi kerak.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi.
O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 86-modda.

Muddatning o‘tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo‘yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati ushbu majburiyatni bajarish muddatining so‘nggi kuni soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi kerak. Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelsa, undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi. Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishi ham mumkin va unga haqli. Soliq majburiyatini bajarish muddati Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda o‘zgartirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun unga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida[30] belgilangan tartibda penya hisoblanadi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish /4.1*).

Solish to‘lash majburiyatini o‘z vaqtida bajarmaganligi uchun penya hisoblash

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida[31] soliq to‘lovchi solish to‘lash majburiyatini o‘z vaqtida bajarmaganligi uchun, har bir kechiktirilgan kun uchun penya hisoblanishi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi penyadir.

Tegishli penyalarning summasi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalaridan tashqari va soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlashga doir boshqa choralar, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari qo‘llanilishidan qat’i nazar to‘lanadi. Penyalar, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyatini berish to‘g‘risida ariza berilganligi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga penyalar hisoblanishini to‘xtatib turmaydi.

Soliq to‘lovchi, uning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatilishi yoki pul mablag‘lariga taqiq qo‘yilishi shaklidagi soliq organining undirish to‘g‘risida ta’minot choralari haqidagi qarori qabul qilinganligi sababli

---

[30] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.110-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[31] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.110-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

to‘lay olmagan soliq qarziga penya hisoblanmaydi. Bunday holda penyalar ko‘rsatib o‘tilgan holatlarning butun amal qilish davri uchun hisoblanmaydi.

Soliqni hisoblash va to‘lash tartibi haqida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llashga doir boshqa masalalar bo‘yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlarni bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Penyalar soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida soliq organining soliq to‘lovchiga yuborilgan asosli fikrini bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga ham hisoblanmaydi. Mazkur holatlar, shu organning mohiyati va mazmuniga ko‘ra soliq qarzi hosil bo‘lgan soliq (hisobot) davrlariga taalluqli tegishli hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda, shunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’i nazar, aniqlanadi. Bu qoidalar agar soliq organining mazkur yozma tushuntirishlari yoki asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri axborotga asoslangan bo‘lsa, qo‘llanilmaydi.

Har bir kechiktirilgan kun uchun penyalar soliqning to‘lanmagan summasidan kelib chiqib foizlarda belgilanadi.

Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng etib qabul qilinadi. Penyalar tegishli soliq to‘lanadigan budjetga (davlat maqsadli jamg‘armasiga) to‘lanadi. Penyalar soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan, shuningdek soliq to‘lovchining boshqa mol-mulki hisobidan Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda majburiy ravishda undirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi unga soliq organi tomonidan soliq qarzini to‘lash to‘g‘risida talabnoma yuborilishi uchun asos bo‘ladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq organlari ushbu majburiyatning majburiy tartibda

bajarilishi yuzasidan Soliq kodeksida nazarda tutilgan choralarni ko‘rishi va (yoki) uning bajarilishini ta’minlashga doir choralarni qo‘llashi shart.

Respublikamizda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini ta’minlash, shuningdek, ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2020 yil 3 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5978-son Farmoniga asosan 2020 yil 1 apreldan 31 dekabrga qadar yuridik yoki jismoniy shaxs o‘z faoliyatini koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish uchun kiritilgan cheklov choralari tufayli to‘xtatishga majbur bo‘lgan hollarda, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlarga, shu jumladan 2020 yil 1 aprelga qadar aniqlanganlarga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining oshirilgan stavkalarini qo‘llash, shuningdek, ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha oshirilgan stavkalarni qo‘llash natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikka nisbatan penya hisoblash va majburiy undirish choralarini ko‘rish tartibi to‘xtatildi.

Jismoniy shaxslar hamda ularning ayrim toifalari tomonidan soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlariga nisbatan tegishli tartibda ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari tegishlicha O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/4.2*).

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari mos ravishda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksida belgilab qo‘yilgan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 174-moddasi «Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash» deb nomlangan bo‘lib unga ko‘ra:

soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa ob’ektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) yoxud soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 184-moddasi ham «Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash» deb nomlangan bo‘lib unga ko‘ra:

foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ro‘y bergan bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash:

a) takroran;

b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash juda ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko‘rsatilgan foyda (daromad) bo‘yicha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘liq to‘langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

4.2-§. Jismoniy shaxslarning soliq majburiyati, yuzaga kelishi va bajarish tartibi

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslarning soliq majburiyati Soliq kodeksi yoki boshqa soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi. Ya’ni jismoniy shaxslarda soliq ob’ektining paydo bo‘lishi, albatta ularda soliq to‘lash majburiyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, jismoniy shaxslarda soliq solish ob’ektlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq munosabatlarning amalga oshirilishi ham ularda soliq majburiyatini yuzaga keltiradi. Masalan, fuqarolar o‘rtasida ko‘chmas mulkni (turar yoki noturar joylar)ni ijaraga berish munosabatlarining amalga oshirilishi, ularda ijara shartnomalarini soliq organlarida majburiy hisobga qo‘yish majburiyatini yuzaga keltiradi. Natijada shartnomada ko‘rsatilgan ijara daromadlarining paydo bo‘lishi, jismoniy shaxslarda daromad solig‘i to‘lash majburiyatini yuzaga keltirish bilan birgalikda, ularda ijara daromadlari bo‘yicha dastlabki deklaratsiyani topshirish majburiyatini

> *Ko‘chmas mulk ijara shartnomalari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda tuziladi va davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘yiladi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 maydagi PQ-3741-son qarori*

keltirib chiqaradi. Shunga koʻra soliq qonunchiligida mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar ijaradan daromadlar paydo boʻlgan kundan eʼtiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kun muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiyani soliq organiga taqdim etishi belgilab qoʻyilgan.

Yuqoridagilardan tashqari jismoniy shaxslarda soliq agenti bilan bogʻliq boʻlmagan daromadlar yuzaga kelgan holatlar ham ularda soliq toʻlash majburiyati bilan birgalikda, avvalo mazkur daromadlar toʻgʻrisida deklaratsiyani soliq organlariga taqdim etish majburiyatini yuzaga keltiradi.

> *Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga ega jismoniy shaxslar jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiya taqdim etadilar.*
>
> *Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 57-bob*

Yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxs boʻlgan soliq toʻlovchining soliq majburiyati oʻzga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi mumkin. Bunda soliq toʻlovchi uning soliq majburiyati oʻzga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi natijasida olgan moddiy naf soliq solish maqsadlarida shu soliq toʻlovchining daromadi deb eʼtirof etilmaydi. Oʻzga shaxs oʻzi tomonidan soliq toʻlovchi uchun toʻlangan soliqning qaytarilishini talab qilishga haqli emas.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq toʻlanganda yoki soliq agenti tomonidan oʻtkazib berilganda, shuningdek soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq majburiyatini tugatish bilan bogʻliq boshqa holatlar yuzaga kelgan hollarda soliq majburiyati tugatiladi. Jismoniy shaxsning soliq majburiyatini tugatish bilan bogʻliq boshqa holatlarga uning vafot etishi yoki uni vafot etgan deb eʼlon qilish toʻgʻrisidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi misol boʻladi.

4.3-§. Soliqlar va yigʻimlarni toʻlash majburiyati

Jismoniy shaxslar (fuqarolar)ning soliq toʻlash majburiyati Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchi, Soliq kodeksida esa soliq solishning majburiylik prinsipi sifatida belgilab qoʻyilgan.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq davri uchun soliqlarni toʻlash quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi: 6-rasmga qarang.



6-rasm. Soliq davri uchun soliqlarni to‘lash tartiblari[32]

Jismoniy shaxslar soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliq solish ob’ektlariga ega bo‘lsa, o‘sha ob’ektlar bo‘yicha belgilangan soliqlarni to‘laydilar. Ular tomonidan soliqlarni to‘lash, milliy valyutada amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to‘laydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to‘lash uchun bank yoki aloqa bo‘limiga budjet tizimiga o‘tkazish uchun yetarli naqd pul mablag‘lari kiritigan kundan e’tiboran soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyati bajarilgan deb e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari, jumladan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklariga pul mablag‘larini bankdagi hisobvarag‘idan (hisobvarag‘ida to‘lov kunida yetarlicha pul qoldig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda) budjet tizimiga tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkazishga doir topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e’tiboran yoki ular tomonidan bankda hisobvaraq ochmasdan tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga budjet tizimiga o‘tkazish uchun bank kassasiga yetarlicha naqd pul mablag‘lari topshirilgan paytdan e’tiboran soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyati bajarilgan deb e’tirof etiladi. Shuningdek, soliq to‘lovchi jismoniy shaxs tomonidan ortiqcha to‘langan summalar yoki ortiqcha undirilgan soliqlar, penyalar, jarimalar summalari jismoniy shaxsning tegishli soliq turi bo‘yicha majburiyatining bajarilishi hisobiga hisobga olish to‘g‘risida soliq organi

[32] Soliq kodeksi asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

tomonidan qaror chiqarilgan kundan e'tiboran ham soliqni to'lash bo'yicha majburiyati bajarilgan deb e'tirof etiladi.

Agarda soliqni hisoblab chiqarish va soliq to'lovchi jismoniy shaxsning pul mablag'laridan ushlab qolishga doir majburiyat Soliq kodeksiga muvofiq soliq agentiga yuklatilgan bo'lsa, soliq summalari soliq agenti tomonidan ushlab qolingan kundan e'tiboran soliqni to'lash bo'yicha majburiyati bajarilgan deb e'tirof etiladi.

> *Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar bo'yicha soliq qarzi meros qilib olinadigan mol-mulk qiymatidan ortiq bo'lsa, soliq qarzining meros qilib olinadigan mol-mulk qiymatidan ortiq summasi undirilishi umidsiz summa deb e'tirof etiladi.*
>
> *O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 94-modda*

Soliq qarzi mavjud bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, uning soliqlar bo'yicha uzilmay qolgan qarzi merosxo'ri (merosxo'rlari) tomonidan meros qilib olinadigan mol-mulkning qiymati doirasida va uning (ularning) merosdagi ulushiga mutanosib ravishda uziladi.

Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb e'tirof etilgan jismoniy shaxsning soliqlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxs (bundan buyon matnda vakolatli shaxs deb yuritiladi) tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq uning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliq majburiyati shu muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan uning vasiysi tomonidan bajariladi. Sud tomonidan bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyatini, shuningdek unga tegishli penyalar va jarimalarni to'lash bo'yicha majburiyatni bajarish, shu jismoniy shaxsning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulki ko'rsatilgan majburiyatni bajarish uchun yetarli bo'lmagan (mavjud bo'lmagan) taqdirda, tegishli soliq organining qarori bilan to'xtatiladi.

Jismoniy shaxsni bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topishni bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda, to'xtatib turilgan majburiyatlarning bajarilishi mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran tiklanadi. Sud tomonidan bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz

deb topilgan jismoniy shaxslarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlari yuklatilgan shaxslar soliq to‘lovchilar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda barcha huquqlardan foydalanadi va barcha majburiyatlarni bajaradi. O‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish chog‘ida, shu munosabat bilan soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik aybi uchun javobgarlikka tortiladigan mazkur shaxslar Soliq kodeksida nazarda tutilgan jarimalarni tegishlicha sud tomonidan bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning mol-mulki hisobidan to‘lashga haqli emas.

4.4-§.Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish: to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati

Soliq to‘lashning muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish deb e’tirof etiladi. To‘lanishi lozim bo‘lgan umumiy soliq summasiga yoki uning bir qismiga (bundan buyon qarz summasi deb yuritiladi) nisbatan, qarz summasiga foizlar hisoblangan holda, soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish mumkin. Soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish uni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida amalga oshiriladi.

> *Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash bir yildan oshmagan muddatga beriladi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 94-modda*

Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash, shu soliq bo‘yicha tegishlicha bir yo‘la yoki bosqichma-bosqich qarz summasini to‘lagan holda, ushbu soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishdan iboratdir. Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risida qaror qabul qilinguniga qadar yuzaga kelgan qarz summasiga yoki kelgusida yuzaga keladigan qarz summasiga nisbatan berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 101 moddasida soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/4.3*).

Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida[33] soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi ariza manfaatdor shaxs tomonidan tegishli vakolatli organga beriladi. Manfaatdor shaxsning soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1) ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organining uning soliqlar, penyalar va jarimalar bo‘yicha hisob-kitoblari holati to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

2) ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organining mazkur shaxsga banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlar ro‘yxati ko‘rsatilgan ma’lumotnomasi;

3) ushbu shaxsning banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha ko‘rsatilgan ariza berilishidan oldingi olti oy davomida har oylik pul mablag‘lari aylanishi to‘g‘risida, shuningdek uning haqi to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlarining tegishli kartotekasiga joylashtirilgan hisob-kitob hujjatlari mavjudligi to‘g‘risida yoxud ushbu kartotekada ularning mavjud emasligi to‘g‘risida banklar ma’lumotnomalari;

4) ushbu shaxsning banklardagi barcha hisobvaraqlarida mavjud bo‘lgan pul mablag‘larining qoldiqlari to‘g‘risida banklar ma’lumotnomalari;

5) ushbu shaxsning soliqni to‘lash muddati o‘zgartirilgan davrda soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qaror qaysi shartlarga ko‘ra qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha shartlarga rioya etilishini nazarda tutuvchi majburiyati, shuningdek qarzdorlikni so‘ndirishning taxminiy grafigi;

6) soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish asoslari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Soliq kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan asos ya’ni shaxsga tabiiy ofat, texnologik falokat yoki boshqa bartaraf etib

[33] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 101-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

bo‘lmaydigan holatlar natijasida zarar yetkazilganligi bo‘yicha soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

1) ushbu shaxsga nisbatan uning ariza bilan murojaat etishi uchun asos bo‘lgan bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar vujudga kelganligi fakti to‘g‘risidagi xulosa;

2) ko‘rsatilgan holatlar natijasida ushbu shaxsga yetkazilgan zararni baholash dalolatnomasi.

Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlar mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqaro muhofazasi, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasidagi organlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi organlari tomonidan tuziladi.

Soliq kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 2-bandida ko‘rsatilgan asos, ya’ni shaxsni budjetdan (davlat maqsadli jamg‘armalaridan) moliyalashtirish kechiktirilganligi yoki ushbu shaxs tomonidan bajarilgan davlat buyurtmasi, davlat ehtiyojlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari uchun bajarilgan ishlar va (yoki) ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘lash kechiktirilganligi bo‘yicha soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga bunday asos mavjudligini va budjetdan (davlat maqsadli jamg‘armalaridan) moliyalashtirish hisobiga ushbu shaxsga kelib tushmagan summani yoki ushbu shaxs tomonidan bajarilgan davlat buyurtmasining, davlat ehtiyojlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari uchun bajarilgan ishlar va (yoki) ko‘rsatilgan xizmatlarning haqi to‘lanmaganligini tasdiqlovchi moliya organining hujjati ilova qilinadi.

Soliq kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 3-bandida ko‘rsatilgan asos, ya’ni manfaatdor shaxs soliqni bir yo‘la to‘lashi oqibatida uning nochorligi (bankrotligi) alomatlari paydo bo‘lishi xavfi yuzaga kelganligining mavjudligi manfaatdor shaxsning moliyaviy holatini tahlil qilish natijalari bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi yoki u vakolat bergan soliq organi tomonidan aniqlanadi. Bunday

tahlil Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan uslubiyatga muvofiq o‘tkaziladi.

Soliq kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 4-bandida ko‘rsatilgan asos, ya’ni jismoniy shaxsning mulkiy holati (qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk hisobga olinmaganda) soliqni bir yo‘la to‘lash imkoniyatini istisno etishi bo‘yicha soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga jismoniy shaxsning ko‘char va ko‘chmas mulki (bundan qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk mustasno) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilinadi.

Soliq kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 5-bandida ko‘rsatilgan asos, ya’ni manfaatdor shaxs tomonidan tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish mavsumiy xususiyatga ega ekanligi bo‘yicha soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasiga ushbu shaxs tomonidan tuzilgan, mazkur shaxsning umumiy daromadlarida uning mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan faoliyatdan olingan daromadlarining ulushi kamida 50 foizni tashkil etishini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi. Mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan tarmoqlar va faoliyat turlarining ro‘yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi manfaatdor shaxsning arizasida ushbu shaxs Soliq kodeksiga muvofiq qarz summasiga hisoblangan foizlarni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Vakolatli organning talabiga ko‘ra, manfaatdor shaxs garov predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan mol-mulk to‘g‘risidagi hujjatlarni, kafillik xatini yoki bank kafolatini taqdim etadi. Vakolatli organ manfaatdor shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha ushbu shaxs tomonidan qarz summasining to‘lanishini vaqtinchalik (ariza ko‘rib chiqiladigan davrda) to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunday qarorning ko‘chirma nusxasi manfaatdor shaxs tomonidan o‘zi hisobga

olingan joydagi soliq organiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran besh kunlik muddatda taqdim etiladi.

Soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish yoxud uni berishni rad etish to'g'risidagi qaror vakolatli organ tomonidan manfaatdor shaxsning arizasi olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida qabul qilinadi. Qarorda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

1) qarz summasi;

2) kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilayotgan soliq;

3) qarz summasini va hisoblangan foizlarni to'lash tartibi hamda muddatlari.

Tegishli hollarda soliqni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi qarorda garov predmeti bo'lgan mol-mulk to'g'risidagi hujjatlar, kafillik xati yoki bank kafolati ko'rsatilishi kerak.

Soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi qaror ushbu qarorda belgilangan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Bunda soliqni to'lash uchun belgilangan kundan e'tiboran ushbu qaror kuchga kiradigan kunga qadar bo'lgan butun vaqt uchun tegishli penyalar, agar to'lovning ko'rsatilgan muddati ushbu qaror kuchga kiradigan kundan oldin bo'lsa, qarz summasiga kiritiladi.

Agar soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash mol-mulk garovi evaziga beriladigan bo'lsa, uni berish to'g'risidagi qaror faqat Soliq kodeksining 107-moddasida nazarda tutilgan tartibda mol-mulk garovi to'g'risidagi shartnoma tuzilgandan keyingina kuchga kiradi.

Soliqni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berishni rad etish to'g'risidagi qaror asoslantirilgan bo'lishi kerak. Soliqlarni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan manfaatdor shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi vakolatli organ tomonidan mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organiga yuboriladi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi ariza manfaatdor shaxs tomonidan tegishli vakolatli organga beriladi. Soliq muddatini o‘zgartirish talabgor shaxsning arizasiga ko‘ra vakolatli organlar qarorlari asosida amalga oshiriladi. Quyidagi organlar soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega: 7-rasm



7 - rasm. Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirishga vakolatli organlar[34]

Vazirlar Mahkamasi soliq to‘lovchilar, shu jumladan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga har qanday soliq bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini uch yilgacha muddatga berishga haqli hisoblanadi. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i hamda aylanmadan olinadigan soliqlar bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati - Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladi. Bunday soliqlarga nisbatan to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ikki yilgacha muddatga berilishi mumkin. O‘z navbatida jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i bo‘yicha to‘lash muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida Davlat soliq qo‘mitasi qarorlar qabul qilish vakolatiga ega.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra, soliqni to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga, basharti uning moliyaviy ahvoli ushbu soliqni belgilangan muddatda to‘lash imkonini bermasa, biroq ko‘rsatilgan shaxsda bunday soliqni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun berilgan muddat mobaynida to‘lash imkoniyati yuzaga keladi deb taxmin qilish

[34] Soliq kodeksi asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa, berilishi mumkin. Shunga ko‘ra, Soliq kodeksida[35] soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlari ko‘rsatib o‘tilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 4.4*).

Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlari

Soliq kodeksiga ko‘ra soliqni to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga, basharti uning moliyaviy ahvoli ushbu soliqni belgilangan muddatda to‘lash imkonini bermasa, biroq ko‘rsatilgan shaxsda bunday soliqni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun berilgan muddat mobaynida to‘lash imkoniyati yuzaga keladi deb taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa, berilishi mumkin.

Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga quyidagi asoslardan loaqal bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda berilishi mumkin:

1) ushbu shaxsga tabiiy ofat, texnologik falokat yoki boshqa bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar natijasida zarar yetkazilganligi;

2) ushbu shaxsni budjetdan (davlat maqsadli jamg‘armalaridan) moliyalashtirish kechiktirilganligi yoki ushbu shaxs tomonidan bajarilgan davlat buyurtmasi, davlat ehtiyojlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari uchun bajarilgan ishlar va (yoki) ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘lash kechiktirilganligi;

3) manfaatdor shaxs soliqni bir yo‘la to‘lashi oqibatida uning nochorligi (bankrotligi) alomatlari paydo bo‘lishi xavfi yuzaga kelganligi;

4) jismoniy shaxsning mulkiy holati (qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk hisobga olinmaganda) soliqni bir yo‘la to‘lash imkoniyatini istisno etishi;

[35] O‘zbekiston Respublikasinng Soliq kodeksi. 100-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

5) manfaatdor shaxs tomonidan tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish mavsumiy xususiyatga ega ekanligi;

6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish uchun asoslar mavjud ekanligi.

Yuqorida sanab o‘tilganlar orasidan 1, 3-6-asoslar mavjud bo‘lganda, soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati jismoniy shaxsga - uning mol-mulki qiymatidan oshmaydigan summaga berilishi mumkin, bundan O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk mustasno.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni hisobga olish joyidagi soliq organiga yozma, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabarnoma yuborib, soliq auditi natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini, shuningdek moliyaviy sanksiyalarni tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda to‘lashga haqli. Agar soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati yuqorida sanab o‘tilganlar orasidan 1 yoki 2-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha berilgan bo‘lsa, qarz summasiga foizlar hisoblanmaydi. Agar soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati 100-modda ikkinchi qismining 3-6-bandlarida va (yoki) to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra berilgan bo‘lsa, kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davrida amalda bo‘lgan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda qarz summasiga foizlar hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari soliq qonunchiligida soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishni istisno etadigan holatlari ham mavjud bo‘lib, ular tegishli tartibda Soliq kodeksida[36] belgilab qo‘yilgan. Jumladan:

[36] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 98-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Agar manfaatdor shaxsga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilayotgan bo‘lsa, soliqni to‘lash muddati o‘zgartirilishi mumkin emas:

1) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishi bilan bog‘liq jinoyat alomatlari bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa;

2) ushbu shaxs bunday o‘zgartirishdan soliq solinishi lozim bo‘lgan o‘z pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini yashirish uchun foydalanishini yoki ushbu shaxs doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishini taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa;

3) ushbu shaxs soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida ariza bergan kundan oldingi uch yil mobaynida Soliq kodeksining 99-moddasida ko‘rsatilgan organ tomonidan soliq to‘lash muddatini tegishli o‘zgartirish shartlari buzilganligi munosabati bilan ilgari berilgan kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatining amal qilishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarilgan bo‘lsa;

4) bankrotlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin emas, qabul qilingan qaror esa bekor qilinishi lozim.

Qabul qilingan qaror bekor qilingani to‘g‘risida manfaatdor shaxs va ushbu shaxs hisobda turgan joydagi soliq organi uch kunlik muddatda yozma shaklda xabardor qilinadi. Manfaatdor shaxs bunday qaror ustidan Soliq kodeksida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra, soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi tegishli qarorning amal qilish muddati o‘tganidan keyin tugatiladi yoxud Soliq kodeksida[37] nazarda tutilgan hollarda bu muddat kelishidan oldin tugatilishi mumkin.

Soliq kodeksiga ko‘ra soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi tegishli qarorning amal qilish muddati o‘tganidan keyin tugatiladi yoxud u quyida nazarda tutilgan hollarda bu muddat kelishidan oldin

[37] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 102-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

tugatilishi mumkin. Masalan, soliqning to‘liq summasi va tegishli foizlarning summasi belgilangan muddat o‘tgunga qadar to‘langan taqdirda soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi muddatidan oldin tugatiladi. Shuningdek, soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari manfaatdor shaxs tomonidan buzilgan taqdirda, uning amal qilishi soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish muddatini tegishli o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan vakolatli organning qarori bilan muddatidan oldin tugatilishi mumkin. Mazkur hollarda soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi muddatidan oldin tugatilganda manfaatdor shaxs tegishli qarorni olganidan keyin bir oy ichida soliq qarzining to‘lanmagan summasini, shuningdek soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan boshlab ushbu summa to‘langan kungacha bo‘lgan har bir kalendar kun uchun penya to‘lashi kerak. Bunda soliq qarzining qoplanmasdan qolgan summasi kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan soliq qarzi summasi to‘lashni kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) amal qilgan davrda kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) haqidagi qarorga muvofiq hisoblangan foizlar summasiga oshirilgan summa bilan haqiqatda to‘langan summalar hamda foizlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qaror bekor qilingani to‘g‘risidagi xabarnoma ushbu qarorni qabul qilgan vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda manfaatdor shaxsga yuboriladi. Bunday qarorning ko‘chirma nusxasi ayni shu muddatda manfaatdor shaxs hisobda turgan joydagi soliq organiga yuboriladi. Vakolatli organning soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi qarori ustidan manfaatdor shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Manfaatdor shaxs tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar ularni to‘lash muddati buzilgan taqdirda hamda ularni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani bajarish

muddati o‘tganidan keyin Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda undiriladi.

4.5-§. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni hisobga qo‘yish tartibi

Jismoniy shaxslar o‘z yashash joyidagi soliq organlarida hisobga qo‘yiladi. Bundan tashqari, jismoniy shaxslar o‘ziga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlarida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra hisobga qo‘yilishi lozim. Bu haqda mazkur bobning keyingi paragraflarida yoritilgan.

Soliq solish maqsadida hisobga olinadigan fuqarolarga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan fuqarolar; shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtincha turganlar ham;

O‘zbekiston Respublikasida kalendar yilda 183 kundan ko‘proq turgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Jismoniy shaxslarni hisobga olish soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq organlari o‘zlaridagi mavjud ma’lumotlar asosida soliq to‘lovchilar hisobga olinishini (hisobdan chiqarilishini) va soliq to‘lovchilar to‘g‘risida ma’lumotlar hisobi yuritilishini ta’minlashi shart. O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestrida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida soliq organlarida yakka tartibdagi tadbirkor o‘z yashash joyida hisobga qo‘yiladi.

> *Soliq organlariga qog‘ozda yoki elektron shaklda taqdim etiladigan ma’lumotlarning shakllari, shuningdek shakllarni to‘ldirish tartibi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 133-modda*

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslarni soliq organlarida hisobga qo‘yish Soliq kodeksining 133-moddasida ko‘rsatilgan organlar taqdim etadigan ma’lumot yoki jismoniy shaxsning arizasi asosida mazkur jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘z navbatida quyidagi organ va tashkilotlar jismoniy shaxslarni hisobga qo‘yish uchun ularga doir ma’lumotlarni soliq organlariga belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozim bo‘ladi: 8-rasm.



8-rasm. Jismoniy shaxslarga doir ma'lumotlarni soliq organlariga taqdim etish majburiyati yuklatilgan organ va tashkilotlar[38]

Mazkur organ va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar va ularni taqdim etish majburiyatlari to'g'risida to'liqroq ma'lumot: (*http://fiin.uz/O'quv-materiallari/Darslik va o'quv qo'llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 4.5*).

Organlar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etiladigan ma'lumotlar va ularni taqdim etish majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida[39] soliq organlariga ma'lumotlar taqdim etadigan organlar va ularning ma'lumotlar taqdim etish majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra:

[38] Soliq kodeksi asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.
[39] O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 133-modda. lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

Tadbirkorlik sub'ekti bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi soliq organiga ushbu shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e'tiboran o‘n kundan kechirtirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reestridan ko‘chirmani, rahbar (rahbar vazifalarini bajaruvchi shaxs) to‘g‘risidagi ma'lumotlarni, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va uning pasport ma'lumotlarini topshirishi shart. Shuningdek mazkur organlar soliq organiga davlat reestriga kiritilgan va tegishli shaxslarga taalluqli bo‘lgan har qanday o‘zgartirishlar to‘g‘risida bunday o‘zgartirishlar kiritilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ma'lum qilishi shart.

Ichki ishlar organlari pasportlar berilganligi, shu jumladan yo‘qotilgan yoki amal qilish muddati o‘tgan pasportlar o‘rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, shuningdek bekor qilingan pasportlar to‘g‘risida o‘zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga har oyda ma'lum qilib borishi, shuningdek turar joyni ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasi, tekin foydalanishga berishga shartnomasi mavjud emasligi yoki soliq organlarida ijaraga olish (ijaraga berish) shartnomasining majburiy hisobga qo‘yilishiga rioya etilmaganligi bo‘yicha aniqlangan faktlar to‘g‘risida o‘zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga uch kun ichida ma'lum qilishi shart.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar har yili 1 fevralgacha o‘zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to‘g‘risida 1 yanvar holatiga ko‘ra ma'lumot berishi, shuningdek yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar yil davomida yuzaga kelganda - mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e'tiboran o‘n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Tabiiy resurslardan foydalanuvchilarni hisobga olishni va (yoki) ularni ro‘yxatdan o‘tkazishni, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalashni amalga oshiruvchi organlar tabiatdan foydalanish joyidagi soliq organlariga tegishli tarzda ro‘yxatdan o‘tkazilgan (litsenziya,

ruxsatnoma berilgan) kundan e'tiboran o'n kun ichida soliq solish ob'ekti bo'lgan bunday resurslardan foydalanishga doir huquqlar berish to'g'risida ma'lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga olishni amalga oshiruvchi organlar suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga o'tgan yil yakunlari bo'yicha o'lchov asboblarisiz foydalanilgan suv hajmlari to'g'risida 15 yanvardan kechiktirmay xabar qilishi shart.

Litsenziyalar va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni beradigan organlar mazkur hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan yerdagi soliq organiga shunday hujjatlar berilganligi, bekor qilinganligi, to'xtatib turilganligi yoki ularning amal qilishi tugatilganligi to'g'risida tegishli hodisa ro'y bergan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar hamda tashkilotlar chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tkazilganligi (akkreditatsiyadan mahrum etilganligi) to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatxona joylashgan yerdagi soliq organiga tegishli hodisa ro'y bergan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Xalqaro tashkilotlarning hamda chet el notijorat nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalari reestrini yuritish vakolatiga ega bo'lgan organ mazkur reestrga tegishli tarzda kiritilganlik (reestrdagi o'zgartirishlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni akkreditatsiyadan o'tkazilgan (akkreditatsiyadan mahrum etilgan) yoki mazkur reestrga ma'lumotlar (o'zgartirishlar) kiritilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida vakolatxona joylashgan yerdagi soliq organiga xabar qilishi shart.

Vasiylik va homiylik organlari mol-mulk mulkdorlari (egalari) bo'lgan jismoniy shaxslarga nisbatan vasiylik, homiylik hamda mol-mulk boshqaruvi belgilanganligi to'g'risida, shu jumladan mol-mulk mulkdori (egasi) bo'lgan bolaning vasiy oilaga topshirilganligi haqida, shu jumladan mazkur vasiylik, homiylik va mol-mulk boshqaruvi bilan bog'liq keyingi o'zgartirishlar to'g'risida

tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga ma'lum qilishi shart.

Notarial harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar (muassasalar) ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori, merosga egalik qilish huquqi to'g'risidagi guvohnomalar berilganligi hamda hadya etish shartnomalari notarial tarzda tasdiqlanganligi haqidagi ma'lumotlarni tegishli tarzda notarial tasdiqlangan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga ma'lum qilishi shart. Bunda hadya etish shartnomalari tasdiqlanganligi to'g'risida taqdim etilayotgan axborot hadya qiluvchi va hadya oluvchi shaxs o'rtasidagi qarindoshlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Chet ellik fuqarolarga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ishlash uchun ruxsatnomalar yoki patentlar berishni amalga oshiruvchi organlar chet ellik fuqarolar yoxud fuqaroligi bo'lmagan shaxslar turgan joyi bo'yicha migratsiya hisobiga qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishi shart. Bunday ma'lumotlar soliq organlarida hisobda turmagan va o'ziga nisbatan ishlash uchun ruxsatnomani yoki patentni rasmiylashtirish uchun hujjatlar ko'rib chiqishga qabul qilingan chet ellik fuqarolar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan taqdim etiladi. Mazkur organlar belgilangan hujjatlar qabul qilingan kundan keyin keladigan kundan kechiktirmay ushbu ma'lumotlarni o'zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga xabar qiladi.

Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechirtirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga o'zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro'yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Bojxona organlari har oyda soliq organlariga:

eksport-import operatsiyalari to'g'risidagi, shuningdek tovarlarni olib o'tish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o'tish haqidagi;

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona omborlarida tovarlar saqlanayotganligi faktlari to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Internet jahon axborot tarmog‘i milliy segmentining domen nomlari tizimini belgilovchi organ soliq organlariga tegishli ma’lumotlar bazasiga ulanish uchun dasturiy mahsulotlarni taqdim etish orqali domen nomlarining ma’murlari to‘g‘risidagi axborotlarga kirish huquqini beradi.

Soliq organlariga qog‘ozda yoki elektron shaklda taqdim etiladigan ma’lumotlarning shakllari, shuningdek shakllarni to‘ldirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ma’lumotlarni soliq organlariga elektron shaklda taqdim etish tartibi o‘zaro hamkorlik qiluvchi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi. Mazkur ma’lumotlar yuqorida belgilangan organlar, muassasalar, tashkilotlar yoki notarial harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan soliq organlarining so‘rovlariga binoan so‘rov olingan kundan e’tiboran besh kun ichida soliq organlariga bepul taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida mol-mulk solig‘i yoki yer solig‘i solish ob’ekti bo‘lgan mol-mulkni oluvchi chet ellik fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun bunday mol-mulk yoki yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani quyidagi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etishi shart:

1) chet ellik fuqaroning yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni;

2) fuqarolik (rezidentlik) mamlakatida soliq ro‘yxatiga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, bunday hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda.

Yashash joyi soliq solish maqsadlari uchun jismoniy shaxsning turgan joyi bo‘yicha aniqlanadigan jismoniy shaxslar o‘zi turgan joydagi soliq organiga soliq organlarida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli. Soliq to‘lovchida hisobga qo‘yish joyini aniqlash xususida qiyinchiliklar yuzaga kelgan

taqdirda, qaror u taqdim etgan ma'lumotlar asosida soliq organi tomonidan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi qaroriga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish ularni davlat tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda (qayta ro‘yxatga olinayotganda) tadbirkorlik faoliyatini olib borish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi[40].

O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oladigan, Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq to‘lash manbasida soliq solinishi lozim bo‘lmagan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar faoliyatni amalga oshirish boshlangan sanadan o‘ttiz kalendar kun davomida turgan (yashaydigan) joyidagi soliq organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani quyidagi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etishi shart:

1) chet ellik fuqaroning yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni;

2) fuqarolik (rezidentlik) mamlakatida soliq ro‘yxatiga olinganligini tasdiqlovchi hujjatni, bunday hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda;

3) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad summasini tasdiqlovchi hujjatni, bunday hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda.

4.6-§. Jismoniy shaxslarni soliq ob'ektlari bo‘yicha hisobga qo‘yish

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar belgilangan tartibda yashash joyida hisobga qo‘yilganidan keyin, agar unda soliq to‘lovchi sifatida hisobga olinmagan joydagi yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va (yoki) noruda qazilma boyliklari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash majburiyati yuzaga kelsa, u holda soliq to‘lovchi jismoniy shaxs ushbu soliq solish ob'ektlari joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan mazkur ob'ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yiladi.

---

[40] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 4742-sonli, 8 iyun 2020 yil.

Hisobga qo‘yilmagan joyda yer solig‘ini, mol-mulk solig‘ini yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash majburiyati o‘zida yuzaga kelgan soliq to‘lovchi tegishli yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran yoxud mol-mulk solig‘i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob’ekti vujudga kelgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida soliq solish ob’ektlarini ular joylashgan yerda hisobga qo‘yish uchun davlat soliq xizmati organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda murojaat qilishi kerak. Mazkur majburiyat hisobga olinishi davlat soliq xizmati organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan soliq solinadigan ob’ektlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq organi soliq to‘lovchiga ilgari berilgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamiga muvofiq uni murojaat qilgan kunidan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay ob’ektning joylashgan yeri bo‘yicha hisobga oladi.

4.7-§. Soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlarini yuritish

Soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari deganda soliq to‘lovchi tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma’lumotlar, shuningdek soliq qonunchiligida nazarda tutilgan organlar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan yuborilgan ma’lumotlar tushuniladi.

Jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari tarkibiga ularning quyidagi shaxsiy ma’lumotlari kiritiladi:

1) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

2) familiyasi, ismi, otasining ismi;

3) fuqaroligi;

Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) 14 ta sondan tashkil topgan bo‘lib, u fuqaroning pasportida bo‘ladi.

4) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun;

5) pasportining seriyasi va raqami, berilgan sanasi va joyi;

6) yashash joyi (manzili).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hisob ma'lumotlari tarkibiga jismoniy shaxslarning yuqorida qayd etilgan shaxsiy ma'lumotlaridan tashqari, quyidagilar ham kiritiladi:

1) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana, joyi va raqami;

2) faoliyat turi va uni amalga oshiriladigan joy.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) to'qqizta raqamli belgidan iboratdir, dastlabki 8 raqam soliq to'lovchining o'z raqami, oxirgi raqam esa nazorat sonini tashkil etadi. Shunday qilib, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqami jismoniy shaxslar va ularning ayrim toifalari tomonidan quyidagi hujjatlarda majburiy ko'rsatiladi:

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami bu soliq to'lovchilarni hisobga olishning tartibli raqamli kodidir.

faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarda;

jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan xo'jalik, fuqarolik-huquqiy va mehnat shartnomalarida;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bitimlar tuzilganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan hisobvaraq-fakturalarda va tovar-kuzatuv hujjatlarida;

pul, hisob-kitob va to'lov hujjatlarida hamda qonun hujjatlarida belgilangan hollarda boshqa hujjatlarda.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqamining noto'g'ri va noaniq ko'rsatilishi hisobga olish hujjatlarini buzib ko'rsatishga tenglashtiriladi va qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka olib keladi. Jumladan, O'zbekiston

Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga[41]asosan soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo‘llanish tartibini buzish -fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq to‘lovchi soliq organlarida hisobga qo‘yilganda ularga tegishli tartibdagi guvohnoma berilgan. 9-rasm.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИ АГЕНТЛИГИ

АГЕНТСТВО ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ЮСТИЦИИ УЗБЕКИСТАНА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СОЛИҚ ҚЎМИТАСИ

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Солиқ тўловчи ҳисобга қўйилганлиги тўғрисида

ГУВОҲНОМА

СВИДЕТЕЛЬСТВО о постановке на учет налогоп[illegible]

СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ - ЖИСМОНИЙ [illegible] СГА
НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКУ - ФИЗИ[illegible]У ЛИЦУ

Фамилияси:
Фамилия: KAMALOV

Исми:
Имя: SANJAR

Отасини исми:
Отчество: RUSTA[illegible]OVICH

солиқ тўловчининг идентификация р[illegible]ери[illegible]и ва солиқ тўловчи ҳақидаги ҳисобга қўйиш маълумотлари Ўзбекистон Республ[illegible]к тўловчиларининг Ягона реестрига киритилди

присвоен идентификационный н[illegible]налогоплательщика с введением учетных данных о налогоплательщике в Един[illegible]ест[illegible]логоплательщиков Республики Узбекистан

Солиқ тўловчининг идент[illegible]ҳақами:
Идентификационный номер [illegible]плательщика: 473 374795

ЖШШИР:
ПНФЛ: 32102802580032

Ариза қабул қилган [illegible]ат хизмати маркази:
Заявление принято ц[illegible]тром государственном услуг:

Ҳисобга қўйган давлат солиқ инспекцияси: УЧТЕПА ТУМАНИ
Поставлен на учет в государственой налоговой инспекции: УЧТЕПИНСКИЙ РАЙОН

СТИР берилган сана:
Дата присвоения ИНН: 17.03.2016

Маълумотномада кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг.
Отсканируйте QR-код при помощи мобильного устройства для проверки подлинности информации.

namuna

9-rasm. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risida guvohnoma.

[41] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 175^3-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 fevraldagi PQ-4193-son qarori bilan tadbirlar rejasiga asosan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamidan foydalanishdan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamidan foydalanishga bosqichma bosqich o‘tish belgilab qo‘yilgan edi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 martdagi PF-6191-son Farmon[42]i bilan 2021 yil 1 iyundan boshlab 16 yoshga to‘lgan shaxslarga identifikatsiya ID-kartalari berish ularni davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish hamda fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshirish tizimini joriy etish, 2021 yil 1 iyuldan boshlab soliq organlarida soliq to‘lovchilarning hisobini yuritish jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamidan foydalangan holda amalga oshirishga o‘tish belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bunda, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini berish va fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish bekor qilindi.

Yuqorida qayd etilgan Farmonda belgilab qo‘yilganki, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami barcha davlat, bank, ijtimoiy va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi yagona identifikator hisoblanadi. Shuningdek davlat organlari va tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarni identifikatsiya qiladigan alohida raqamlarni yuritish taqiqlanadi.

Shuning bilan birgalikda, ushbu Farmonda Davlat soliq qo‘mitasi Davlat personallashtirish markazi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 1 iyulga qadar:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning mavjud soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini ularning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami bilan o‘zaro bog‘lash ishlarini yakunlashi;

[42] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to‘siqlarni qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-6191-sonli, 2021 yil 23 mart.

soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami mavjud bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami orqali soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilishini ta’minlashi belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi Farmonga muvofiq soliq organlari endi fuqarolar va soliq to‘lovchilar hisobini shaxsiy identifikatsiya raqami orqali amalga oshiradi.

O‘z navbatida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, mazkur raqam - quyidagi tartibda joylashgan o‘n to‘rtta o‘n raqamidan iborat bo‘ladi:



1. guruh: Jinsi va tug‘ilgan asri indeksi

1 — 1800.1.01. — 1899.31.12 da tug‘ilgan erkaklar;

2 — 1800.1.01 — 1899.31.12 da tug‘ilgan ayollar;

3 — 1900.1.01 — 1999.31.12 da tug‘ilgan erkaklar;

4 — 1900.1.01 — 1999.31.12 da tug‘ilgan ayollar;

5 — 2000.1.01 — 2099.31.12 da tug‘ilgan erkaklar;

6 — 2000.1.01 — 2099.31.12 da tug‘ilgan ayollar.

2. guruh: Formatdagi tug‘ilgan sana: YYOOKK (yil, oy, kun).

3. guruh: Tuman, shahar kodi.

4. guruh: Ushbu kunda tug‘ilgan va ushbu tumanda, shaharda pasport olgan fuqaroning tartib raqami.

Tartib raqami pasportlarni olish navbatiga muvofiq hisoblagich bo‘yicha hosil bo‘ladi.

5. guruh: Kontrol raqami.

Kontrol raqami (14-pozitsiya) 10 moduli bo‘yicha doimiy ravishda takrorlanuvchi 731 731... salmoq funktsiyasi bilan quyidagi tarzda hisoblanadi:

Raqamli ma’lumotlarning tegishli elementi raqami tegishli muntazam pozitsiyada turgan salmoq ko‘rsatkichiga chapdan o‘nga ko‘paytiriladi.

Har bir ko‘paytirish natijalari jamlanadi.

Hosil bo‘lgan yig‘indi 10 (modul)ga bo‘linadi.

Bo‘lishda qolgan qoldiq kontrol raqami hisoblanadi.

Kodning haqiqiyligi tekshiriladi.

1-misol. 1963 yil 12 oktabrda tug‘ilgan, 024 tartib raqami berilgan erkak uchun hisoblangan kontrol raqami.

3	12	10	63	204	024
7	31	73	17	317	317
21	32	70	621	6028	0228

Hosil bo‘lgan raqamlar jamlanadi:

21+3+2+7+0+6+21+6+0+28+0+2+28=124

Natija 10 ga bo‘linadi: 124/10—12 (qoldiq — 4), shunday qilib kontrol raqami 4 ga teng, fuqaroning kodi esa: **3 121063 204 024 4**

2-misol. 1940 yil 2 yanvarda tug‘ilgan, 001 tartib raqami berilgan ayol uchun hisoblangan kontrol raqami.

4	02	01	40	205	001
7	31	73	17	317	317
28	02	03	40	6035	007

Hosil bo‘lgan raqamlar jamlanadi:

28+0+2+0+3+4+0+6+0+35+0+0+7+=85

Natija 10 ga bo‘linadi: 85/10=8 (qoldiq - 5), shunday qilib kontrol raqami 5 ga teng, fuqaroning kodi esa: 4 020140 205 001 5

Soliq to‘lovchilar to‘g‘risida hisob ma’lumotlarini yuritish, bu ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish tartibi, shuningdek soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun ma’lumotlar tarkibini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq majburiyati, soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati, umidsiz qarz, soliqlarni to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash, vakolatli organlar, manfaatdor shaxs, qaror, soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish, soliq to‘lovchilarni ob’ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami.

.

Nazorat savollari:

1. Soliq majburiyati deganda nimani tushunasiz?

2.Jismoniy shaxslarning soliq majburiyati qachon yuzaga keladi?

3.Soliq majburiyatini bajarish muddatlari qay tartibda belgilanadi?

4.Jismoniy shaxslar (fuqarolar)ning soliq to‘lash majburiyati qaysi qonun hujjatlarida belgilangan?

5. Qachon jismoniy shaxslarning soliq majburiyati bajarilgan hisoblanadi?

6.Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyati bajarilmaganda soliq organi tomonidan qanday ta’sir choralari ko‘riladi?

7.Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish deganda nimalar tushiniladi?

8.Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi qanday?

9.Soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirishga vakolatlari qaysi organlarga berilgan.

10.Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar bo‘yicha to‘lovni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini qaysi vakolatli organlar beradi?

11. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami tuzilishini tushuntiring?

12. Jismoniy shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish qay tartibda amalga oshiriladi?

13. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni ob’ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish deganda nimani tushunasiz?

14.Jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlari tarkibi qanday ma’lumotlardan iborat?

15.Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hisob ma’lumotlari tarkibi qanday ma’lumotlardan iborat?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 4.6*)

Test savollari

1. Soliq to‘lovchilarning soliq majburiyati deb nimaga aytiladi?

A) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati

B) coliqlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiyati

C) soliq organlariga o‘z vaqtida hisobga turish majburiyati

D) soliq hisobotlarini o‘z vaqtida topshirish majburiyati

2. Soliq agentlarining soliq majburiyati deganda nima tushuniladi?

A) soliqlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘z vaqtida o‘tkazish majburiyati

B) soliqlarni ushlab qolish va o‘z vaqtida o‘tkazish majburiyati

C) soliq hisobotlarini o‘z vaqtida topshirish majburiyati

D) soliq organlariga o‘z vaqtida hisobga turish majburiyati

3. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxs soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda unga qancha miqdorda penya hisoblanadi?

A) har bir kechiktirilgan kun uchun Markaziy bankning amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng miqdorda penya hisoblanadi?

B) har bir kechiktirilgan kun uchun Markaziy bankning amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasi miqdorida penya hisoblanadi?

C) har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 foiz miqdorida penya hisoblanadi?

D) har bir kechiktirilgan kun uchun 0,045 foiz miqdorida penya hisoblanadi?

4.Soliq to‘lovchi soliq majburiyatining bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda soliq organi unga soliq qarzini to‘lash to‘g‘risida qanday hujjat yuboradi?

A) talabnoma B) xabarnoma C) ogohlantirish xati D) eslatma

5. Tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxsning soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi mumkinmi?

A) mumkin

B) mumkin emas

C) faqat ota-onasi tomonidan mumkin

D) oila a’zolari tomonidan mumkin

6. Soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi natijasida olingan moddiy naf soliq solish maqsadlarida soliq to‘lovchining daromadi hisoblanadimi?

A) yo‘q

B) ha

C) ha, agarda soliq o‘zga shaxs tomonidan bir necha bor to‘langan bo‘lsa

D) ha, agarda o‘zga shaxs soliq to‘lovchiga qarindosh bo‘lmasa

7. Jismoniy shaxsning daromad solig‘ini ushlab qolishga doir majburiyat soliq agentiga yuklatilgan bo‘lsa, jismoniy shaxsning soliqni to‘lash majburiyati qachondan bajarilgan hisoblanadi?

A) soliq summasi soliq agenti tomonidan ushlab qolingan kundan

B) soliq summasi soliq agenti tomonidan hisoblangan kundan

C) soliq summasi soliq agenti tomonidan budjetga o‘tkazilgan kundan

D) jismoniy shaxs daromadini olgan kundan

8. Vazirlar Mahkamasi soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini necha yilgacha muddatga berishga haqli hisoblanadi?

A) uch yilgacha

B) besh yilgacha

C) bir yilgacha

D) ikki yilgacha

9. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qaysi soliq turlari bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berishi mumkin?

A) Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i hamda aylanmadan olinadigan soliq

B) mol-mulk va yer soliqlari

C) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

D) aylanmadan olinadigan soliq

10. Mahalliy davlat hokimiyati organlari soliqlar bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini necha yilgacha muddatga bera oladi?

A) ikki yilgacha

B) besh yilgacha

C) bir yilgacha

D) uch yilgacha

11. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami qaysi xizmatlarni ko‘rsatishda fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi yagona identifikator hisoblanadi?

A) barcha xizmatlarni

B) davlat xizmatlari

C) bank xizmatlari

D) ijtimoiy va boshqa xizmatlar

12. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) nechta sondan iborat va u fuqaroning qaysi hujjatida bo‘ladi?

A) 14 ta sondan iborat bo‘lib, fuqaroning pasportida bo‘ladi

B) 9 ta sondan iborat bo‘lib, tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnomada bo‘ladi

C) 7 ta sondan iborat bo‘lib, fuqaroning pasportida bo‘ladi

D) 11 ta sondan iborat bo‘lib, haydovchilik guvohnomasida bo‘ladi

13. Qaysi soliqlarni to‘lash majburiyati yuzaga kelganda, jismoniy shaxs shu soliq solish ob’ektlari joylashgan yerdagi soliq organida ob’ekt bo‘yicha hisobga qo‘yiladi.

A) barchasi to‘g‘ri

B) mol-mulk va yer solig‘i

C) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

D) noruda qazilma boyliklari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq

14. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar qachongacha o‘zlari joylashgan yerdagi soliq organlariga tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to‘g‘risida 1 yanvar holatiga ko‘ra ma’lumot berishi shart?

A) 1 fevralgacha B) 5 yanvargacha C) 15 yanvargacha D) 31 yanvargacha

15. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar yil davomida yuzaga kelganda necha kun ichida ma’lum qilishi shart?

A) mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida

B) mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran besh kun ichida

C) mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida

D) mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida

V-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING JAMI DAROMADLARI TARKIBI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ASOSLARI

5.1-§.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining tarixi va budjetda tutgan o‘rni

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan joriy etilgan soliqlardan biri bu jismoniy shaxslar, ya’ni aholidan olinadigan daromad solig‘idir. Mamlakatimizda aholini daromadlarini soliqqa tortish tizimi dastlab 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan (hozirgi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan) «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonun asosida joriy etildi. Ushbu qonun bilan aholidan olinadigan daromad solig‘ining barcha elementlari belgilab berilgan edi. Jumladan, unda daromad solig‘ini to‘lovchilar, soliq solinadigan va soliq solinmaydigan daromadlar, daromad solig‘i stavkalari, mazkur soliq yuzasidan qo‘llaniladigan imtiyozlar tarkibi, fuqarolar oladigan ish haqi, to‘lovlar, mukofotlar va boshqa daromadlarga soliq hisoblash tartiblari, daromad solig‘ini to‘lash paytida xorijda to‘langan soliqlarning hisobga olinishi, shuningdek dehqon xo‘jaligini yuritishdan oligan daromadlardan soliq undirish tartibi hamda ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga soliq solish tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan edi.

> *Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida soliqning barcha elementlari aniqlab qo‘yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 69-modda*

Mazkur qonunga asosan fuqarolar daromadlarining ma’lum bir summagacha bo‘lgan qismi soliqqa tortilmagan. Undan oshgan qismi esa progressiv stavkada daromad solig‘iga tortilgan. Masalan 1991 yilda asosiy ish joyidan yiliga 1920 so‘mdan oshmaydigan ish haqi va boshqa turdagi pul mukofoti oladigan, bir korxona, muassasa va tashkilotda to‘liq bo‘lmagan yil mobaynida ishlaganida esa, har bir ishlagan oyi uchun 160 so‘m oladigan ishchilar, xizmatchilar va boshqa fuqarolardan daromad solig‘i ushlanmagan. Fuqarolarning ushbu summadan oshgan ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlari summasidan esa quyidagi miqdorlarda daromad solig‘i undirilgan. 1-jadval.

Yillik daromad miqdori	Soliq summasi
1921 so‘mdan 2400 so‘mgacha	1920 so‘mdan ortiq har so‘mdan 30 tiyin
2401 so‘mdan 3600 so‘mgacha	144 so‘m +2400 so‘mdan ortq pulning 13 foizi
36001 so‘mdan 6000 so‘mgacha	300 so‘m+36000 so‘mdan ortiq pulning 14 foizi
6001 so‘mdan 12000 so‘mgacha	636 so‘m+6000 so‘mdan ortiq pulning 15 foizi
12001 so‘mdan 18000 so‘mgacha	1536 so‘m+12000 so‘mdan ortiq pulning 20 foizi
18001 so‘mdan 24000 so‘mgacha	2736 so‘m+18000 so‘mdan ortiq pulning 30 foizi
24001 so‘mdan 36000 so‘mgacha	4536 so‘m+24000 so‘mdan ortiq pulning 40 foizi
36001 so‘m va undan ortiq	9336 so‘mdan 36000 so‘mdan ortiq pulning 50 foizi

1-jadval. 1991 yilda fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[43]

1991 yil 14 iyunda ushbu qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga doir 294-XII-sonli qonun bilan fuqarolarning oyiga 161 so‘mdan 1000 so‘mgacha bo‘lgan daromadlaridan olinadigan soliq miqdori 12 foizgacha kamaytirildi va soliqning eng yuqori miqdori 30 foiz etib belgilandi. 2-jadval.

Yillik daromad miqdori	Soliq miqdori
12000 so‘mgacha	daromad summasining 12,0 foizi
12001 so‘mdan 24000 so‘mgacha	1440 so‘m + 12000 so‘mdan ortiq pulning 15,0 foizi
24001 so‘mdan 36000 so‘mgacha	3240 so‘m + 24000 so‘mdan ortiq pulning 20,0 foizi
36001 so‘m va undan yuqori	5640 so‘m + 36000 so‘mdan ortiq pulning 30,0 foizi

2-jadval. 1991 yilning ikkinchi yarim yilligida fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[44]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 29 dekabrdagi Farmoni bilan eng kam oylik ish haqining 1992 yil 1 yanvardan boshlab, 350 rubl (so‘m) qilib belgilanishi natijasida, 1992 yil 14 yanvardagi 522-XII-sonli qonun bilan asosiy ish joyidan yiliga 4200 so‘mdan oshmaydigan ish haqi va boshqa turdagi pul mukofoti oladigan, bir korxona, muassasa va tashkilotda to‘liq bo‘lmagan yil mobaynida ishlaganida esa, har bir ishlagan oyi uchun 350 so‘m oladigan ishchilar, xizmatchilar va boshqa fuqarolardan daromad solig‘i ushlanmaydigan bo‘ldi.

1992 yil 2 iyuldagi 631-XII-sonli qonuni bilan aholi daromadlarini soliqqa tortishda soliq solinmaydigan minimum tushunchasi kiritildi. Shunga ko‘ra yillik eng kam ish haqi (o‘sha vaqtda amalga bo‘lgan 4200 so‘m, oyiga 350 so‘m) soliq

[43] O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonuni asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

[44] Shu qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi 294-XII-sonli qonun asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

solinmaydigan minimum etib belgilandi. Shuningdek mazkur qonun bilan soliq to‘lashdan qisman ozod etishga doir imtiyozlar miqdorlari oshirildi hamda daromad solig‘i stavkalari shkalalari tarkibiga eng yuqorisi 60 foizga teng bo‘lgan yana uchta shkala qo‘shildi. 3-jadval.

Soliq solinadigan yillik daromad miqdori (soliq solinmaydigan minimum chegirib tashlangan)	**Soliq summasi**
36000 so‘mgacha	12 foiz
36001 so‘mdan 48000 so‘mgacha	4320 so‘m+36000 so‘mdan ortiq pulning 15 foizi
48001 so‘mdan 60000 so‘mgacha	6120 so‘m+48000 so‘mdan ortiq pulning 20 foizi
60001 so‘mdan 72000 so‘mgacha	8520 so‘m+60000 so‘mdan ortiq pulning 30 foizi
72001 so‘mdan 96000 so‘mgacha	12120 so‘m+72000 so‘mdan ortiq pulning 40 foizi
96001 so‘mdan 192000 so‘mgacha	21720 so‘m+96000 so‘mdan ortiq pulning 50 foizi
192001 so‘m va undan ortiq puldan	69720 so‘m+192000 so‘mdan ortiq pulning 60 foizi

3-jadval. 1992 yilda fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[45]

Bu davr mamlakatimizda fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ining eng ko‘p shkalali va eng yuqori stavkali davri sifatida tarixda qoldi. Keyinchalik mamlakatimizda soliqqa tortish tizimining takomillashtirib borish maqsadida yuqorida qayd etilgan «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonuniga qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borildi. Natijada fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ini undirish tartiblari ham o‘zgarib bordi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/5.1*).

1993-1998 yillar davomida fuqarolardan olinadigan daromad solig‘ini undirishdagi o‘zgarishlar

«O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonuniga 739-XII-sonli qonuni bilan kiritilgan o‘zgartirish natijasida 1993 yildan boshlab fuqarolarning ish haqi, mukofot tarzida olgan pullari va boshqa daromadlaridan soliqlar quyidagi miqdorlarda undiriladigan bo‘ldi: 4-jadval.

[45] O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagi 631-XII-sonli qonuni asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Soliq solinadigan yillik daromadning miqdori (soliq solinmaydigan minimum chegirilgan holda)	Soliq summasi
ish haqi soliq solinmaydigan oylik minimumi 36 barobari miqdorigacha	14 foiz
ish haqi soliq solinmaydigan oylik minimumi 36 barobari (+1 so‘m) miqdoridan 48 barobari miqdorigacha	soliq solinmaydigan oylik minimumi 36 barobari miqdoridan olinadigan soliq+ 36 barobaridan ortiq summaning 16 foizi
ish haqi soliq solinmaydigan oylik minimumi 48 barobari (+1 so‘m) miqdoridan 60 barobari miqdorigacha	soliq solinmaydigan oylik minimumining 48 barobari miqdoridan olinadigan soliq +48 barobaridan ortiq summaning 20 foizi
ish haqi soliq solinmaydigan oylik minimumi 60 barobari (+1 so‘m) miqdoridan 90 barobari miqdorigacha	soliq solinmaydigan oylik minimumining 60 barobari miqdoridan olinadigan soliq +60 barobaridan ortiq summaning 30 foizi
ish haqi soliq solinmaydigan oylik minimumi 90 barobari (+1 so‘m) miqdoridan 120 barobari miqdorigacha	soliq solinmaydigan oylik minimumining 90 barobari miqdoridan olinadigan soliq +90 barobaridan ortiq summaning 40 foizi
ish haqi soliq solinmaydigan oylik minimumi 120 barobari (+1 so‘m) miqdori va undan yuqori	soliq solinmaydigan oylik minimumining 120 barobaridan olinadigan soliq +120 barobaridan ortiq summaning 50 foizi

4-jadval.1993 yilda fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[46]

Mustaqillikning dastlabki yillarida pulning qadrsizlanishi nihoyatda yuqori bo‘lganligi ham davlat budjetiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Masalan, 1992-1993 yillar davomida O‘zbekistonda eng kam ish haqi o‘n bir marotaba oshirilgan. Ya’ni 1992 yilning boshida eng kam ish haqi 350 rubl (so‘m)ni tashkil etgani holda, yil oxiriga qadar 4 marta oshirilgani holda 2000 rubl (so‘m)ga, 1993 yil noyabr oyiga qadar 5 marta oshirilgani holda 13500 rubl (so‘m)ga ko‘tarilgan. 1993 yil noyabr oyidan mamlakatimizda oraliq so‘m-kupon joriy qilingani holda 1993 yil 1 noyabrdan boshlab, eng kam ish haqi 16200 so‘m-kuponni tashkil etgan. 1994 yil oxiriga qadar esa eng kam ish haqi 24300 so‘m-kupongacha ko‘tarilgan. Natijada bu yillarda davlat budjeti bir yil ichida bir necha bor qayta tasdiqlangan. Shunga ko‘ra aholidan olinadigan daromad solig‘i stavkalari va soliqni undirish tartibi ham tez-tez o‘zgarib turgan. Jumladan, 1993 yil 28 dekabrdagi 998-XII-sonli qonun bilan 1994 yil yanvar oyidan boshlab fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlari summasidan quyidagi miqdorda soliq undiriladigan bo‘ldi: 5-jadval.

[46] O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrdagi 739-XII-sonli qonuni asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Soliq solinadigan yillik daromad miqdori (soliq solinmaydigan minimum chegirilgan holda)	Soliq summasi
minimal oylik ish haqai miqdorining 36 barobarigacha	daromad summasining 15 foizi
minimal oylik ish haqimiqdorining 36 barobaridan (+ 1 so‘m) 60 barobarigacha	minimal oylik ish haqi miqdorining 36 barobaridan olinadigan soliq + 36 barobaridan ortiq summaning 20 foizi
minmal oylik ish haqi miqdorining 60 barobaridan (+ 1 so‘m) 120 barobarigacha	minimal oylik ish haqi miqdorining 60 barobaridan olinadigan soliq + 60 barobaridan ortiq summaning 30 foizi
minmal oylik ish xaqi miqdorining 120 barobaridan (+ 1 so‘m) va undan ortiq	minimal oylik ish haqi miqdorining 120 barobaridan ortiq + 120 barobaridan ortiq summaning 40 foizi

5-jadval. 1994 yilda fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[47]

1994 yil 1 yanvardan boshlab, O‘zbekistonda eng kam ish haqi 1,23 baravarga oshirilib, 30 000 so‘m-kuponni tashkil etgan. Eng kam ish haqi 1994 yil davomida 1 martdan va 1 iyundan boshlab 1,5 baravardan oshirilishi natijasida 70 000 so‘m-kuponni tashkil etgan. 1994 yil 1 iyuldan boshlab milliy valyuta so‘m (1000 so‘m-kupon=1 so‘m) muomilaga kiritildi. Shunga ko‘ra eng kam ish haqi 70 000 so‘m-kupon 70 so‘mga tenglashtirildi. 1994 yil 1 avgustdan boshlab, eng kam ish haqi 1,4 baravarga oshirilishi hisobiga 100 so‘m etib belgilandi. Natijada fuqarolarning daromadlaridan quyidagi miqdorda soliq undiriladigan bo‘ldi: 6-jadval.

Soliq solinadigan yillik daromad miqdori (minimum chegirilgan holda)	Soliq summasi
eng kam oylik ish haqi miqdorining 24 barobarigacha	daromad summasining 15 foizi
eng kam oylik ish haqi miqdorining 24 barobaridan (+ 1 so‘m) 60 barobarigacha	eng kam oylik ish haqi miqdorining 24 barobaridan olinadigan soliq +24 barobaridan ortiq summaning 25 foizi
eng kam oylik ish haqi miqdorining 60 barobaridan (+ 1 so‘m) 120 barobarigacha	eng kam oylik ish haqi miqdorining 60 barobaridan olinadigan soliq +60 barobaridan ortiq summaning 35 foizi
eng kam oylik ish haqi miqdorining 120 barobaridan (+ 1 so‘m) va undan ortiq	eng kam oylik ish haqi miqdorining 120 barobaridan ortiq summaning 45 foizi

6-jadval. 1994 yil 1 avgustdan fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[48]

[47] O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrdagi 998-XII-sonli qonuni asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Keyingi yillar davomida ham aholini daromadlarini soliqqa tortish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilib borildi. Jumladan, 1997 yilga kelib, soliq qonunchiligini yanada mustahkamlash, soliqlarni bozor munosabatlarida qatnashishini kuchaytirish maqsadida 1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi. Barcha soliqlar qatorida aholidan olinadigan daromad solig‘ining qonuniy asoslari ham Soliq kodeksida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i sifatida aks ettirildi. Shunga ko‘ra 1998 yil 1 yanvardan boshlab daromad solig‘i quyidagi tartibda undriladigan bo‘ldi: 7-jadval.

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
EKIHning 3 baravarigacha	daromad summasining 15 foizi
EKIHning 3 baravari miqdoridan (+ 1 so‘m) besh baravarigacha	EKIH uch baravari miqdoridan olinadigan soliq + uch baravaridan oshadigan summaning 25 foizi
EKIHning besh baravari miqdoridan (+ 1 so‘m) o‘n baravarigacha	EKIH besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + besh baravaridan oshadigan summaning 35 foizi
EKIHning o‘n baravari miqdoridan (+ 1 so‘m) o‘n besh baravarigacha	EKIH o‘n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o‘n baravaridan oshadigan summaning 40 foizi
EKIHning o‘n besh baravari miqdoridan (+ 1 so‘m) va undan yuqori miqdordan	EKIH o‘n besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + o‘n besh baravardan oshadigan summaning 45 foizi

7-jadval. 1998 yilda fuqarolarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan undiriladigan daromad solig‘i stavkalari[49]

Barcha soliqlar qatorida aholidan olinadigan daromad solig‘ining qonuniy asoslari ham Soliq kodeksida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i sifatida aks ettirildi. Keyinchalik 2007 yilda hamda 2019 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahrirlari qabul qilindi. Natijada jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimi ham takomillashib bordi.

Ma’lumki, ko‘pchilik jismoniy shaxslar asosan mehnat faoliyati evaziga daromad olish imkoniyatiga egadirlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bir tomondan, xodimlarni o‘z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga rag‘batlantirishi, ikkinchi tomondan, ish haqi darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo‘lishga yordam ko‘rsatishi, mehnatkashlarning daromadlaridagi tafovut asossiz ravishda katta bo‘lishiga olib kelmasligi lozim.

I.Karimov
O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti

[48] O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentabrdagi 2020-XII-sonli Qonuni asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.
[49] O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan Soliq kodeksi asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Daromadlar turli manbaalardan tashkil topishi ularga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat budjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balkim keng xalq ommasining turmush darajasini, daromad to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim. Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiy tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo'lsa daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo'lgan qiziqishlar bir muncha so'nadi, aksincha, soliq yuki kam bo'lsa aks holat yuz beradi. Shunga ko'ra mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari yillar davomida pasaytirilib kelindi va 2019 yilda mazkur soliqning progressiv stavkasidan voz kechildi.8-jadval.

Eng kam ish haqining darajasi	1999	2000 y.	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014 y	2015 y	2016-2017y	2018 y	2019-2021y.
1 barobari	15	15	12	13	13	13	13	13	13	13	12	11	10	9	8	7,5	0	0	0	12
2 barobari																	8,5	7,5	7,5	
3 barobari																				
4 barobari	25	25																		
5 barobari			25	23																
6 barobari	35	36			22	21	21	20	18	18	17	17	16	16	16	16	17	17	16,5	
7 barobari																				
8 barobari																				
9 barobari			36	33																
10 barobari																				
10 barobaridan yuqori	40	40			32	30	30	29	25	25	22	22	22	22	22	22	23	23	22,5	
15 bar. yuqori	45																			

8-jadval. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining 1999-2021- yillardagi solishtirma stavkalari (foiz hisobida)[50]

[50] Budjet parametrlariga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va amaldagi Soliq kodeksi asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Soliq stavkalarining pasaytirilishiga qaramay, ishchilar sonining legallashtirilishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hisobiga davlat budjetida daromad solig‘i o‘ziga xos salmoqqa ega bo‘lmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i daromad solig‘i nafaqat jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar ichida, balki barcha soliq turlari orasida budjet tushumlaridan salmoqli o‘rinni egallaydigan soliq turi hisoblanadi. 10-rasm.



10-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini Davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni[51]

Yuqoridagi ma’lumotlardan, so‘ngi yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumining Davlat budjeti daromadlaridagi foizli ulushi 2018 yilga qadar o‘tgan 20 yil mobaynida kamayib borganligini, 2018 yildan boshlab esa 2 foizgacha oshganligini, shuning bilan birgalikda mazkur yillar davomida daromad solig‘ining summadagi ulushi ortib borganligini kuzatish mumkin bo‘ladi. Bu esa albatta, narxlar deflyatori va inflyatsiya darajasiga bog‘liq ko‘rsatkichdir. 2012-2017 yillar oralig‘ida daromad solig‘ining tushumi bir maromda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2017 yilga kelib 9,8 foizga tushib qolgan. 2018 yildan esa tushumlar yana ko‘payish tendensiyasini ola boshladi.

Bugungi kunda mahalliy budjetlarning daromadlarini oshirish, barqarorligini ta’minlash maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ham

[51] O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

bir qismi mahalliy budjetlarda qoldirilmoqda. Jumladan, 2020 yil davomida mazkur soliqning Navoiy viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 34 foizi, Toshkent shahrida 5 foizi va boshqa hududlarda esa 100 foiz tushumlari mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldiriladi. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha ham prognozdan orttirib bajarilgan qismi to‘liq mahalliy budjetlarda qoldiriladigan bo‘ldi.

5.2-§. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar, ularning daromad manbalari (turlari), soliq solish ob’ekti va bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga[52] ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;

2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish ob’ekti deb hisoblanadi.

Jami daromad soliq to‘lovchi jismoniy shaxs tomonidan hisobot (soliq) davri davomida olingan quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan.

Jami daromad tarkibi quyidagilardan iborat. 11-rasm

11-rasm. Jismoniy shaxsning jami daromadi tarkibi[53]

[52] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 364-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to‘lanadigan ish haqi, ish haqiga turli ustamalar, moddiy rag‘batlantirish va kompensatsiya to‘lovlari hamda haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to‘lovlar **mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar** deb e’tirof etiladi.

*Soliq kodeksining 371-moddasida jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarni amaldagi to‘liq ro‘yxati keltirib o‘tilgan. (*Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 5.2*)

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlari

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra[54], ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to‘lanadigan *quyidagi barcha to‘lovlar* mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi:

mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

muvofiq rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;

kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya);

ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash;

haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to‘lovlar.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

---

[53] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 370-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[54] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 371-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar koʻrsatishdan iborat boʻlgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga toʻlovlar (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar mustasno);

yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga oʻxshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning oʻzi tomonidan amalga oshiriladigan toʻlovlar;

Oʻzbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni oʻtashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan toʻlanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa toʻlovlar.

Oʻz navbatida mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadga kiruvchi *ragʻbatlantirish xususiyatiga ega toʻlovlar jumlasiga quyidagilar kiradi*[55]*:*

1) yillik ish yakunlari boʻyicha pul mukofoti;

2) yuridik shaxsning mukofotlash toʻgʻrisidagi nizomida nazarda tutilgan ragʻbatlantirish xususiyatiga ega toʻlovlar;

3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

4) ta'tilga qoʻshimcha haqlar hamda Soliq kodeksi 377-moddasining 10-bandida koʻrsatilmagan moddiy yordam;

5) koʻp yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va toʻlovlar;

6) ratsionalizatorlik taklifi uchun toʻlov;

7) mehnat natijalari bilan bogʻliq boʻlmagan bir yoʻla beriladigan mukofotlar.

Mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadga kiritiladigan *kompensatsiya toʻlovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi*[56]:

[55] Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 372-modda. lex.uz-Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha to‘lovlar). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho‘l va suvsiz joylarda, baland tog‘li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

4) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda

[56] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 373-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to‘lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqti uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta’minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to‘lovlar;

12) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash uchun Soliq kodeksining 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadga kiruvchi ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash jumlasiga quyidagilar kiradi[57]*:*

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’til uchun to‘lov, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lovi;

[57] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 374-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

b) noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta’til uchun to‘lov;

v) o‘qish bilan bog‘liq ta’til va ijodiy ta’tillar uchun to‘lov;

g) o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta’til uchun to‘lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolingan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

3) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to‘lov;

4) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to‘lov;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma’lum muddatga avvalgi ish joyi bo‘yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to‘lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha ularga to‘lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to‘lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha to‘lov;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun to‘lov;

11) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun to‘lov;

12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to‘lov;

13) ish beruvchining mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibiga kiruvchi mulkiy daromadlari, ularning tijorat banklariga qo‘yilgan depozit (omonot) mablag‘lariga hisoblangan foizlar, aksiyalardan olingan dividendlar, mol-mulkni (masalan turar va noturar joylarni, avtoransport vositalarini) ijaraga berishdan olinadigan ijara haqlari, soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni (masalan turar va noturar joylarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, royalti va soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa daromadlardan iborat bo‘ladi.

Soliq kodeksining 375-moddasida jismoniy shaxslarni amaldagi mulkiy daromadlar tarkibi keltirib o‘tilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 5.3*)

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra[58] mulkiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar

[58] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 375-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko‘chmas mulk bo‘yicha esa - kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq daromad deb e’tirof etiladi;

5) sanoat mulki ob’ektlariga, seleksiya yutug‘iga oid patent (litsenziya) egasi bo‘lgan soliq to‘lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo‘yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;

8) Soliq kodeksining 324-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;

9) Soliq kodeksining 327-329-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan, qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo‘yicha daromad;

10) Soliq kodeksining VII bo‘limi (Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solish shartlari va umumiy qoidalari)da belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

11) Soliq kodeksining 319-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;

12) yuqorida sanab o‘tilgan 1-11-bandlarda ko‘rsatilmagan mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar.

O‘z navbatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan xodimlari manfaatlarini ko‘zlab, ular uchun tovarlar (xizmatlar) haqini to‘lash, shu jumladan bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida (tashkilotlarida) o‘qitish, tarbiyalash haqini to‘lash, uy-joy kommunal xizmatlari haqini, ijara va yotoqxonadagi joylar haqini, sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini, temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil

transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha oylik yo‘l chiptalari haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlari jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzida olingan daromadlari hisoblanadi.

*Soliq kodeksining 376-moddasida jismoniy shaxslarni amaldagi moddiy naf tarzidagi daromadlari tarkibi keltirib o‘tilgan. (*Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/5.4*).

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiruvchi moddiy naf tarzidagi daromadlar alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, Soliq kodeksiga ko‘ra[59] soliq to‘lovchi jismoniy shaxs tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar quyidagilardan iborat:

1) soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchi manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to‘lash, shu jumladan:

soliq to‘lovchining bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida (tashkilotlarida) o‘qitish, tarbiyalash haqini to‘lash;

soliq to‘lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

soliq agentining soliq to‘lovchi daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlarini to‘lash;

2) soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha berilgan mol-mulkning va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to‘lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda

[59] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 376-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

shu tovarlarning (xizmatlarning) Soliq kodeksining 376-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) soliq agenti tomonidan to‘lovlar hisobiga to‘lanib, soliq to‘lovchidan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq kodeksining 376-moddasining ikkinchi qismida soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanishi hamda uchinchi qismida esa soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan aksiz to‘lanadigan tovarlar yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida aksiz solig‘ining va qo‘shilgan qiymat solig‘ining tegishli summasi hisobga olinishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiruvchi boshqa daromadlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan fuqarolarga beriladigan nafaqalar, turli yordamlar, musobaqalarda, ko‘rik-tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari, mualliflik haqi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko‘rsatiladigan, xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoxud sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladigan, bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi munosabati bilan ko‘rsatiladigan yordam pullari hisoblanadi.

*Soliq kodeksining 377-moddasida jismoniy shaxslarni amaldagi boshqa daromadlar tarkibi keltirib o‘tilgan. (*Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:

http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/5.5).

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiruvchi boshqa daromadlari tarkibi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, Soliq kodeksiga ko‘ra[60], soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan soliq to‘lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalari;

7) soliq to‘lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;

8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish

[60] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 377-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

nafaqasi va boshqa to‘lovlar;

10) quyidagicha ko‘rsatiladigan moddiy yordam:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko‘rsatiladigan;

xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoxud sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladigan;

bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi munosabati bilan ko‘rsatiladigan;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzida ko‘rsatiladigan moddiy yordam;

11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar;

12) ma’naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pullik to‘lovlar;

13) Soliq kodeksining VI bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatish kiritish tufayli olingan daromad;

14) Soliq kodeksining 300-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;

15) soliq to‘lovchining Soliq kodeksining 371-376-moddalarida ko‘rsatilmagan boshqa daromadlari.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydigan ayrim daromadlari ham mavjud bo‘lib, ushbu daromadlar O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan soliq to‘lovchi olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti va sovg‘alar, donorlik uchun pul mukofotlari, olingan alimentlar, sug‘urta tovoni summalari; talabalar uchun to‘lanadigan stipendiyalar, davlat pensiyalari, ijtimoiy sug‘urta (homiladorlik va bola tug‘ilganda beriladigan tug‘ish

nafaqalari, qo‘shimcha dam olish kuni, dafn etish) bo‘yicha nafaqalar, majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari, ular bo‘yicha foizli daromadlar, belgilanadigan tartibda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar hamda boshqa daromadlardan iboratdir.

Yuqoridagilardan tashqari soliq agentlarining jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan ayrim turdagi xarajatlari ham jismoniy shaxslarning soliqqa tortish maqsadidagi daromadlari hisoblanmasliklari mumkin. Masalan, yuridik shaxslarning mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlariga sut, oziq-ovqat, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlari, jismoniy shaxslarga favqulodda holatlar munosabati bilan yetkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summalari, diniy rasm-rusumlar va marosimlar bilan bog‘liq xarajatlari, jismoniy shaxslarning mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha to‘lovlar, boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan bog‘liq va boshqa to‘lovlar[61].

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun - soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun - soliq imtiyozlari qo‘llanmagan holdagi jami daromadlari.

Daromad solig‘i bazasini aniqlashda soliq to‘lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 366-modda.

Soliq bazasi, Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq

[61] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 369-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

davri boshidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi. Shuningdek, soliq bazasiga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tuzatish kiritiladi.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning o'z farmoyishiga, sudning yoki boshqa organlar va tashkilotlarning qaroriga ko'ra ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq bazasini kamaytirmaydi.

5.3-§. Soliq solinmaydigan daromadlar va ayrim jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilinishi

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar ushbu soliqni to'lovchilar (sub'ektlar) va soliqning ob'ektlariga nisbatan qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarga nisbatan imtiyozlar to'liq yoki qisman soliqdan ozod etish shaklida beriladi. Shunga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar qatorida daromad solig'i solishdan ozod etilgan jismoniy shaxslar guruhi ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra quyidagilarning daromadlariga soliq solinmaydi[62]:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan

[62] Ўzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 379-modda. lex.uz-Ўzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa - o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa - o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari - agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

Yuqoridagilardan tashqari, soliq qonunchiligida ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarni qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining ma’lum miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliqdan ozod etish shaklidagi imtiyozlar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ya’ni, Soliq kodeksiga ko‘ra ayrim soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etilgan. *(*Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 5.6*).

Soliq solishdan qisman ozod etiladigan jismoniy shaxslar va ularga imtiyozlarni berish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra quyidagi soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan

taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Bu imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati yoki Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok

bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, bolalar tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar, yangi nikohdan o‘tmaganlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma’lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo‘lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog‘liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma’lumotnomasi asosida beriladi.

Ushbu soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo‘llaniladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo‘lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e’tiboran qo‘llaniladi.

Agar soliq to‘lovchi bir nechta asos bo‘yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo‘lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo‘llash soliq to‘lovchining asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi bo‘yicha, asosiy ish joyi mavjud bo‘lmagan taqdirda esa - yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni

hisoblab chiqarish chog‘ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda, soliq to‘lovchi imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran o‘n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma’lum qilishi kerak.

Yuqorida sanab o‘tilgan soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozini qo‘llash asosiy ish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy bo‘lmagan ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozi jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida soliq to‘lovchining yashash joyidagi soliq organlari tomonidan qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromad turlari ham mavjud bo‘lib, ularning tarkibi va miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasida belgilab qo‘yilgan. *(*Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:*http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 5.7*).

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlar tarkibi va miqdorlari

Soliq kodeksiga asosan quyidagi daromad turlariga soliq solinmaydi[63]:

1) moddiy yordam summalari:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari - mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

Soliq kodeksining 377-moddasida ko‘rsatilgan boshqa hollarda, - soliq davri uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

[63] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 378-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalari, bundan turistik yo‘llanmalar mustasno:

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironligi bo‘lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlari, shuningdek sanatoriy-kurort hamda sog‘lomlashtirish muassasalariga o‘z xodimlarining o‘n olti yoshgacha bolalari (o‘qiydiganlarga - o‘n sakkiz yoshgacha) uchun yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

3) o‘z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko‘rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo‘lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida esa - uning oila a’zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida budjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalari va boshqa summalar;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to‘lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagilarni sotishdan olingan daromadlar mustasno:

qimmatli qog‘ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

noturar joylarni;

o‘ttiz olti kalendar oydan kam muddatda soliq to‘lovchining mulkida bo‘lgan turar joylarni;

8) uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar va hokazolarni) tirik holda hamda ularni so‘yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishlash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

ilgari mazkur ish beruvchining xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar hamda boshqa turlardagi yordam;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot hamda san’at asarlari

ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislariga) to‘lanadigan pul mukofotlari;

yaqin qarindosh bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi ko‘chmas mulk, avtotransport vositalari, qimmatli qog‘ozlar, yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlar;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar;

13) jamg‘arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo‘yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek vakolatli organning xulosasi mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to‘lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

15) soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash (hayot sug‘urtasi sohasining barcha toifalarida) bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

sug‘urta badallari o‘sib bormaydigan tartibda to‘langanda va bir yo‘la to‘lanadigan sug‘urta summasi shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan 12 oydan so‘ng olinganda. Sug‘urtalangan shaxsning muayyan yoshgacha yashashi yoki hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasida ko‘rsatilgan muddatdan boshqacha tarzdagi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan taqdirda, sug‘urta summasi ushbu ko‘rsatilgan shartlarga amal qilmagan xolda to‘lanishi mumkin;

shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanish sanasidan kamida 12 oydan so‘ng renta (annuitet) olinganda va rentani (annuitetni) to‘lash sanasida shartnoma bo‘yicha haqiqatda jamlangan mablag‘lar (zaxira) summasi ko‘rsatib o‘tilgan rentaning (annuitetning) to‘rt baravaridan kam bo‘lmaganda;

renta (annuitet) to‘lash shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan 12 oy o‘tmasdan boshlanganda, bunda dastlabki rentani (annuitetni) to‘lash boshlanadigan vaqtda haqiqatda to‘langan sug‘urta badallari summasi shartnoma bo‘yicha sug‘urta mukofotining yillik miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak va rentalarni (annuitetlarni) to‘lash sanasiga haqiqatda jamlangan mablag‘lar (zaxira) summasi ko‘rsatib o‘tilgan rentaning (annuitetning) to‘rt baravaridan kam bo‘lmaganda.

Mazkur bandning shartlari buzilganda yoxud shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va sug‘urtachi sug‘urta badalini to‘liq yoki qisman qaytarganda, qaytarilgan sug‘urta badali sug‘urtachi tomonidan soliqqa tortiladi.

16) soliq to‘lovchining quyidagilarga yo‘naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish (o‘zining, yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi) uchun to‘lov;

soliq bazasining 50 foizidan oshmagan holda, metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish;

olingan ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami o‘n besh million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda qoplashga, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko‘p qavatli uydagi xonadonning qiymati uch yuz million so‘mdan oshmasa hamda u dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo‘yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun budjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan holda olingan bo‘lsa. Mazkur imtiyoz qarz oluvchiga va birga qarz oluvchilarga, imtiyoz olish huquqiga ega bo‘lgan barcha soliq to‘lovchilarga berilgan, soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlarni kamaytirish summasi soliq davri davomida jami o‘n besh million so‘mdan oshmagan taqdirda, tatbiq etiladi;

fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar bu ulushlarni, paylarni va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

Yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasiga nisbatan yoki qaysi chet el yuridik shaxsi uchun ro‘yxatdan o‘tish mamlakatining qonun hujjatlariga muvofiq kapitalda ishtirok etish nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘sha chet el yuridik shaxsiga nisbatan nazorat qilish huquqi, agar bunday huquqlar ularni bir oilaning a’zolari va (yoki) yaqin qarindoshlar bo‘lgan shaxslar o‘rtasida o‘tkazish natijasida olingan bo‘lsa, daromad olish yoki daromadni tasarruf etish huquqining yuzaga kelishi deb e’tirof etilmaydi;

18) paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to‘lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to‘lovchi bo‘lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qazib olish yo‘li bilan ega bo‘lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari.

Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish va boshqa global xavf-xatarlar davrida aholini samarali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-son Farmoniga asosan 2020 yil 1 apreldan jismoniy shaxslar tomonidan xayriya tashkilotlaridan moddiy naf tarzida olinadigan daromadlari soliqqa tortishdan ozod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 apreldagi PF-5986-sonli Farmoni bilan esa 2020 yil 1 apreldan 2020 yil 1 oktabrga qadar O‘zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondidan, «Saxovat va qo‘mak» fondidan, «O‘zbekiston mehr-shafqat va salomatlik» jamoat fondidan, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan beg‘araz yordam (pul mablag‘lari, tovarlar va xizmatlar)ga, agar yordam oluvchi shaxslar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan jismoniy shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa, jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydigan bo‘ldi. Shuningdek, ushbu farmon bilan shunday tartib o‘rnatildiki, unga muvofiq 2020 yilda xodimga to‘lanadigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga tortilmaydigan moddiy yordam summasi mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 4,22 baravaridan 7,5-baravarigacha oshirildi.

5.4-§.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari va soliq hisoblash tartibi

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab mehnatga haq to‘lash fondiga soliq yukini kamaytirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ish haqining oshirilishi, ishchilar sonini legallashtirilishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishini ta’minlash hamda aholi real daromadlarini yanada oshirish maqsadida barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining progressiv shkalasidan voz kechilib, yagona 12 foizlik stavkasi joriy etildi. Shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo‘naltiriladigan bo‘ldi. Qolaversa, fuqarolarning mehnatga haq to‘lash turidagi daromadlaridan Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ushlab qolinadigan sug‘urta badallari bekor qilindi. Bugungi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarini soliq to‘lovchilarning rezident va norezidentligi, daromadlarning shakllanish manbaiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan soliq stavkasi;
- Jismoniy shaxslar ayrim toifalarining tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlariga nisbatan soliq stavkalari;
- O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning dividendlar va foizlar tariqasida oladigan daromadlariga nisbatan soliq stavkasi;
- norezident jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga nisbatan soliq stavkalari;
- ayrim hollarda imtiyozli soliq stavkalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari daromadlarga nisbatan ma’lum foiz ko‘rinishida, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarning (ularning tanloviga ko‘ra) daromadiga bog‘liq bo‘lmagan holda qat’iy summalar ko‘rinishida bo‘ladi. Shunga ko‘ra rezident va norezident jismoniy shaxslar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari Soliq kodeksida alohida-alohida belgilab qo‘yilgan.

Jumladan, Soliq kodeksining 381-moddasiga asosan rezident jismoniy shaxslarning daromadlariga 12 foizlik stavkada, dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlariga esa 5 foizlik stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Soliq kodeksining 382-moddasiga asosan norezident jismoniy shaxslarning Respublikamizdagi manbalardan olingan daromadlariga esa quyidagi soliq stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:9-jadval.

N	Soliq ob’ekti	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar)	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo‘yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko‘rsatilmagan boshqa daromadlar	20

9-jadval. Norezident jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari uchun daromad solig‘i stavkalari[64]

Shuning bilan birgalikda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilab qo‘yilgan. Bu haqda qo‘llanmaning VI bobida to‘xtalib o‘tilingan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliq qonunchiligida belgilangan tartida quyidagilar tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lanadi:

1) soliq to‘lovchi jismoniy shaxsga daromad to‘laydigan soliq agentlari tomonidan;

2) soliq to‘lovchi jismoniy shaxs tomonidan mustaqil ravishda.

Soliqni to‘lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o‘tkazish majburiyati soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan va soliq agentlari deb e’tirof etilgan quyidagi shaxslarning zimmasiga yuklatiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga;

[64] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 382-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

2) yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

3) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarga;

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning vakolatxonalariga;

5) Soliq kodeksining 351-moddasi ikkinchi qismining 5-bandida ko‘rsatilgan mol-mulkni sotib olgan jismoniy shaxslarga;

6) soliq to‘lovchining mol-mulkini ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi ishonchli boshqaruvchiga.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish belgilangan soliq bazasi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan e’tiboran har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq to‘lovchining ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

2019 yil 1 sentabrdan mehnatga oid munosabatlar sohasida qo‘llash uchun eng kam ish haqi (EKIH) o‘rniga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori (MHEKM) joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solish soliq agentlari tomonidan soliq bazasi hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur soliqni hisoblashda soliq to‘lovchi ushbu soliq turi bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lsa, uni ham inobadga olish lozim bo‘ladi.

Bu borada soliq qonunchiligida ayrim jismoniy shaxslarni daromad solig‘idan qisman ozod qilishga doir imtiyozlar mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib (ma’lum bir baravari miqdorida) belgilanganligini ham hisobga olish lozim.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi. *(*Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/ Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortis/ 5.8*).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish bo‘yicha vaziyatli misollar (2021 yilning aprel oyi misolida[65])

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, mehnatga haq to‘lash miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda mehnatga haq to‘lash, pensiyalar tayinlash hamda soliqlar, davlat bojlari, jarimalar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni undirish o‘rtasidagi shartlarning bog‘liqligini bartaraf etish maqsadida Prezidentimizning 2019 yil 21 maydagi Farmoni[66] bilan 2019 yil 1 sentabrdan boshlab ish haqining eng kam miqdori o‘rniga:

mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori;

bazaviy hisoblash miqdori;

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori joriy etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrdagi qarori[67] bilan 2021 yil 1 fevraldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida:

mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori — oyiga 747 300 so‘m;

bazaviy hisoblash miqdori — 245 000 so‘m etib belgilandi.

2021 yanvarda esa mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori (MHEKM) 679 330 so‘mni tashkil etgan. (2020 yil 30 dekabrdagi PQ-4555-sonli Qarorning 7-bandi).

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya raqami (SHJBPH)ga majburiy oylik badallari stavkasi xodimga hisoblangan ish haqi (daromad) soliq solinadigan summasining 0,1 % ini tashkil etadi (2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-son qarorning 5-bandi).

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 385-modda (Umumiy qoidalar)si 7-qismiga asosan hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonunchilikda belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib

---

[65] Soliq va bojxona xabarlari gazetasi. 16-son. 2021 yil 20 aprel.

[66] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida. PF-5723-sonli, 2019 yil 21 may.

[67] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4938-sonli, 2020 yil 30 dekabr

boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi.

I.An’anaviy hisob-kitob

Misol:

Xodimga 2021 yil yanvar oyida 1 200 000 so‘m, fevral-aprel oylarida esa - 1 320 000 so‘mdan ish haqi to‘langan. Yanvar-aprel oylari uchun jami daromad 5 160 000 so‘mni (1 200 000+1 320 000 x3) tashkil etadi.

Xodimning 2021 yil aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Olingan daromadga 12 foizlik stavka bo‘yicha solinadigan soliq:

5 160 000 x12%=619 200 so‘mga teng.

Yanvar-mart oylarida 460 800 so‘m soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi 158 400 so‘mni (619 200 - 460 800) tashkil etadi.

Yanvar-aprel oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 5 160 so‘mni (5 160 000 x 0,1%) tashkil qiladi.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 3 840 so‘m o‘tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 1 320 so‘mni (5 160- 3 840) tashkil qiladi.

Aprel oyi uchun budjetga 157 080 so‘m (158 400- 1320) o‘tkaziladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JSHDS) va majburiy badallar ushlanganidan keyin xodimga 1 161 600 (1 320 000-158 400) to‘lanadi.

II.Iimtiyozlarni hisobga olgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash chiqarishga doir misollar

1.VAZIYAT. Daromaddan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori (MHEKM)ning 1,41 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qo‘llanilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash:

Misol:

Soliq kodeksining 380-moddasiga muvofiq imtiyozga ega bo‘lgan xodim (*(masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo‘lgan yolg‘iz*

ona)ning mehnatiga 2021 yil yanvar oyida 2 000 000 so‘m, fevral-aprel oylarida esa -2 200 000 so‘mdan haq to‘langan. Yanvar-aprel oylarida jami daromad 8 600 000 so‘mni (2 000 000+2 200 000x3) ni tashkil qiladi.

Mazkur xodimning aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Soliq kodeksining 380-moddasi 1-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo‘lgan fuqarolarning *(masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo‘lgan yolg‘iz onalar)* jami daromadidan har oyda MHEKMning 1,41 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Soliq solinadigan daromadni hisob-kitob qilamiz: 8 600 000-(679 330x1,41+747 300x1,41x3)=4 481 065,7 so‘mga teng.

Yanvar-aprel oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

4 481 065,7x12%=537 727,88 so‘m.

Yanvar-mart oylarida 400 171,04 so‘m soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi 137 556,84 so‘mni (537 727,88-400 171,04) tashkil etadi.

SHJBPHga majburiy badallar 4 481,07 so‘mni (4 481 065,7x0,1 %) tashkil qiladi.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 3 334,76 so‘m o‘tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 1 146,31 so‘mni (4 481,07-3 334,76) tashkil qiladi.

Budjetga 136 410,53 so‘m (137 556,84-1 146,31) JShDS o‘tkaziladi.

Xodim qo‘liga 2 062 443,16 so‘m (2 200 000-137 556,84) ish haqi oladi.

2. VAZIYAT. Daromad imtiyoz summasidan kam bo‘lganda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash:

Misol:

Soliq kodeksining 380-moddasiga muvofiq imtiyozga ega bo‘lgan xodimning *(masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo‘lgan yolg‘iz onalar)* mehnatiga 2021 yil yanvar oyida 900 000 so‘m, fevral-aprel oylarida -

990 000 so‘mdan haq to‘langan. Yanvar-aprel oylari uchun jami daromad 3 870 000 so‘mni (900 000+990 000x3) tashkil qiladi.

Mazkur xodimning aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Soliq kodeksining 380-moddasi 1-qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo‘lgan fuqarolarning *(masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo‘lgan yolg‘iz onalar)* jami daromadidan *har* oyda MHEKMning 1,41 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Yanvar-aprel oylari uchun soliq solinmaydigan daromad miqdorini hisoblaymiz:

679 330x1,41+747 300x1,41x3=4 118 934,3 so‘m.

Xodimning daromadi (3 870 000 so‘m) imtiyoz summasidan (4 118 934,3 so‘m) kam bo‘lganligi sababli yanvar-aprel oylari uchun soliq hisoblanmaydi.

Soliq solinadigan daromad mavjud bo‘lmaganligi uchun SHJBPHga majburiy badallar to‘lanmaydi.

Xodim qo‘liga 990 000 so‘m ish haqi oladi.

3.VAZIYAT. Moddiy yordam olinganda imtiyozni hisobga olgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash:

Misol:

Xodimning mehnatiga yanvar oyi uchun 1 500 000 so‘m, fevral-aprel oylarida 1 650 000 so‘mdan haq to‘langan. Yanvar oyida unga farzandli bo‘lganligi munosabati bilan 3 000 000 so‘m moddiy yordam ko‘rsatilgan.

Mazkur xodimning aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Soliq kodeksining 378-moddasi 1-bandiga ko‘ra bir yil davomida

MHEKMning 4,22 baravarigacha miqdorda beriladigan quyidagi moddiy yordam summalariga JShDS solinmaydi:

✓ vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlarga;

✓ xodimga mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud sog'liqqa boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq to'lovlarga;

✓ bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan beriladigan to'lovlarga;

✓ qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlarga.

Imtiyoz miqdorini hisoblaymiz: (679 330 x 4,22) = 2 866 772,6 so'm.

Soliq solinadigan daromad 6 583 227,4 so'mga (1 500 000 +3 000 000 + 1 650 000x3-2 866 772,6) teng.

Yanvar-aprel oylari uchun soliqni hisoblaymiz:

6 583 227,4 x 12% = 789 987,29 so'm.

Yanvar-mart oylarida 591 987,29 so'm soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi: 198 000 so'mni (789 987,29-591 987,29) tashkil etadi.

Yanvar-aprel oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 6 583,23 so'mni (6 583 227,4x0,1%) tashkil etadi.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 4 933,23 so'm o'tkazilgan, aprel oi uchun ajratmalar 1 650 so'mni (6 583,23-4 933,23) tashkil qiladi.

Aprel oyi uchun budjetga 196 350 so'm (198 000-1 650) JShDS o'tkaziladi.

Xodim 1 452 000 so'm (1 650 000-198 000) ish haqi oladi.

4. VAZIYAT. Qimmatbaho sovg'a olinganda imtiyozni hisobga olgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash:

Misol:

Xodimning mehnatiga yanvar oyida 1 500 000 so'm, fevral-aprel oylarida esa 1 650 000 so'mdan ish haqi to'langan. Unga yanvar oyida 2 000 000 so'mlik maishiy texnika ham sovg'a qilingan.

Mazkur xodimning aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Soliq kodeksining 378-moddasi 10-bandiga ko‘ra bir yil mobaynida yuridik shaxslardan MHEKMning 2,11 baravari miqdorigacha bo‘lgan summada olingan sovg‘alarning qiymatiga soliq solinmaydi:

(679 330 x 2,11= 1 433 386,3 so‘m).

Soliq solinadigan daromad 7 016 613,7 so‘mga (1 500 000+2 000 000 +1 650 000 x3-1 433 386,3) teng.

Yanvar-aprel oylari uchun soliqni hisoblab yozamiz:

7 016 613,7x12%=841 993,64 so‘m.

Yanvar-mart oylarida 643 993,64 so‘m soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi 198 000 so‘mni (841 993,64-643 993,64) tashkil etadi.

Yanvar-aprel oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar summasi 7 016,61 so‘mga (7 016 613,7x0,1%) teng.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 5 366,61 so‘m o‘tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 1 650 so‘mni (7 016,61-5 336,61) tashkil qiladi.

Budjetga 196 350 so‘m (198 000-1 650) JShDS o‘tkaziladi.

Xodim qo‘liga 1 452 000 so‘m (1 650 000-198 000) ish haqi oladi.

5-VAZIYAT. Bir nechta imtiyozni hisobga olgan holda (har oyda daromaddan MHEKMning 1,41 baravariga teng summani chegirish, moddiy yordam va qimmatbaho sovg‘a olinganda) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash:

Misol:

Soliq kodeksining 380-moddasiga ko‘ra imtiyozga haqli bo‘lgan xodimga 2021 yil yanvar oyida 1 600 000 so‘m, fevral-aprel oylarida esa-1 760 000 so‘mdan ish haqi to‘langan. Yanvar oyida unga nikohdan o‘tishi munosabati bilan 3 500 000 so‘m moddiy yordam ko‘rsatilgan va 2 700 000 so‘mlik qiymatga ega sovg‘a topshirilgan.

Mazkur xodimning aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Quyidagilarga muvofiq:

Soliq kodeksining 380-moddasi 1-qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega bo‘lgan xodimning soliq solinadigan daromadlaridan har oyda MHEKMning 1,41 baravariga teng summa (679 330 x 1,41+747 300 x1,41x3= 4 118 934,3 so‘m) chiqarib tashlanadi;

Soliq kodeksining 378-moddasi 1-bandiga muvofiq MHEKMning 4,22 baravarigacha (679 330 x 4,22 = 2 866 772,6 so‘m) miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga JSHDS solinmaydi;

Soliq kodeksining 378-moddasi 10-bandiga ko‘ra yuridik shaxslardan bir yil mobaynida MHEKMning 2,11 baravari (679 330 x 2,11 = 1 433 386,3 so‘m) miqdorigacha olingan sovg‘alarning qiymatiga JSHDS solinmaydi. Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz: 6 880 000-4 118 934,3+3 500 000-2 866 772,6+2 700 000-1 433 386,3=4 660 906,8 so‘m.

Yanvar-aprel oylari uchun soliqni hisob-kitob qilamiz:

4 660 906,8x12%=559 308,82 so‘m.

Yanvar-mart oylarida 474 551,98 so‘m soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi 84 756,84 so‘mni (559 308,82-474 551,98) tashkil etadi.

SHJBPHga majburiy badallar summasi 4 660,91 so‘mni (4 660 906,8x0,1%) tashkil etadi.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 3 954,6 so‘m o‘tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 706,31 so‘mni (4 660,91-3 954,6) tashkil qiladi.

Budjetga 84 050,53 so‘m (84 756,84-706,31) soliq o‘tkaziladi.

Xodim qo‘liga 1 675 243,16 so‘m (1 760 000-84 756,84) oladi.

III.Odatdan tashqari holatlar

1-VAZIYAT. O‘rindosh asosida ishlaydigan xodimlar daromadlaridan soliq hisoblash (2021 yilning aprel oyi misolida)

Misol:

Soliq kodeksining 380-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan imtiyoz (har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha soliqdan ozod bo‘lish)ga ega o‘rindosh xodimga 2021 yil yanvar oyida 900 000 so‘m, fevral-aprel oylarida esa -990 000 so‘mdan ish haqi to‘langan.

Mazkur xodimning aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Soliq imtiyozini qo‘llash soliq to‘lovchining asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi bo‘yicha, asosiy ish joyi mavjud bo‘lmagan taqdirda esa- yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida amalga oshiriladi. (SK. 380-moddasi 5-qismi.)

Xodimning olingan daromadiga 12%lik stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Yanvar-aprel oylari uchun soliqni hisob-kitob qilamiz:

3 870 000x12%=464 400 so‘mga teng.

Yanvar-mart oylarida 345 600 so‘m soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi 118 800 so‘mni (464 400-345 600) tashkil etadi.

Yanvar-aprel oylari uchun SHJBPHga majburiy badallar 3 870 so‘mni (3 870 000x0,1%) tashkil etadi.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 2 880 so‘m o‘tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 990 so‘mni (3 870-2 880) tashkil qiladi.

Aprel oyi uchun byujetga 117 810 so‘m (118 800-990) soliq o‘tkaziladi.

Soliq ushlangandan keyin xodim 871 200 so‘m (990 000-118 800) ish haqi oladi.

2-VAZIYAT. Yuridik shaxsga turar joyini ijaraga beruvchi xodimning daromadlariga soliq hisoblash tartibini ko‘rib chiqamiz:

Misol:

Xodimning mehnatiga yanvar oyi uchun 1 100 000 so‘m, fevral-aprel oylari uchun esa 1 200 000 so‘mdan haq to‘langan. Xodim Toshkent shahrida joylashgan, maydoni 60 kv.m bo‘lgan turar joy binosini 2021 yil 1 yanvardan boshlab ijaraga berish to‘g‘risida ish beruvchi bilan shartnoma tuzdi va har oyda 3 000 000 sum ijara haqi oldi. Shunga ko‘ra mazkur xodimning 2021 yil aprel oyi daromadiga hisoblangan, ushlangan va o‘tkazib beriladigan daromad solig‘i hamda SHJBPHga majburiy badallar miqdorini topish lozim?

Yechimi:

Jismoniy shaxslarning turar joyni ijaraga topshirishdan oladigan daromadlariga soliq solish ijara (yollash) shartnomasida nazarda tutilgan to‘lovdan kelib chiqib amalga oshiriladi, biroq u turar joyni ijaraga beradigan jismoniy shaxslar uchun belgilangan eng kam ijara haqi stavkalaridan hisoblab chiqarilgan miqdordan kam bo‘lmasligi kerak *(2020 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-657-Qonunga 8-ilova).*

Toshkent shahrida bir oylik ijara to‘lovining eng kam miqdori etib 1 kv.m turar joy uchun -14 000 so‘m; Nukus va viloyat markazlaridagi shaharlarda – 8 500 so‘m; boshqa aholi punktlarida -4000 so‘m belgilangan.

SHJBPHga badallar ish beruvchi va xodim o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun olingan daromadlardan hisoblab yoziladi. Ijara haqi tarzidagi daromadlar mulkiy daromad bo‘lganligi va ishlar bajarish bilan bog‘liq bo‘lmaganligi bois, undan SHJBPHga ajratmalar qilinmaydi.

Ijara haqidan JShDS summasini hisoblaymiz. Uning eng kam miqdori-840 000 so‘mni (14000 x 60) tashkil etadi. U haqiqatdagi ijara haqidan kam bo‘lganligi sababli shartnomada nazarda tutilgan summadan soliq hisoblanadi:

3 000 000 x 12% = 360 000 so‘m.

Yanvar-aprel oylari uchun mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromaddan soliqni hisoblaymiz:4 700 000x12% =564 000 so‘m.

Yanvar-mart oylarida 420 000 so‘m soliq ushlab qolingan. Aprel oyi uchun soliq summasi 144 000 so‘mni (564 000-420 000) tashkil etadi.

SHJBPHga majburiy badallar 4 700 so‘mni (4 700 000x0,1%) tashkil etadi.

Yanvar-mart oylarida SHJBPHga 3 500 so‘m o‘tkazilgan. Aprel oyi uchun ajratmalar 1 200 so‘mni (4 700-3 500) tashkil qiladi.

Aprel oyi uchun budjetga 142 800 so‘m soliq (144 000 - 1 200) o‘tkaziladi.

Soliq ushlab qolingandan keyin xodimga 3 696 000 so‘m ish haqi to‘lanadi.

To‘lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga daromadlarni to‘lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to‘lanadi.

Agarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani va u bilan bog‘liq penyani Soliq kodeksiga muvofiq budjetga o‘tkazishi shart.

Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to‘lanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Daromad, jami daromad, mehnatga haq to‘lash, ish haqi, ustamalar, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya, ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash, moddiy naf, mulkiy daromad, soliq agenti, soliq hisobi.

Nazorat savollari:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qaysi budjet daromadi hisoblanadi?

2. Kimlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lovchilari hisoblanadi?

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari qaysi hujjatda belgilangan?

5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini kimlar hisoblaydi?

6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar qo‘llaniladi?

7. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga qanday daromadlar kiradi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish / 5.10)*

Test savollari

1. Qancha muddatda soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning mulkida bo‘lgan turar joylar sotilsa, unda soliq majburiyati paydo bo‘ladi?

A) o‘ttiz olti kalendar oydan kam muddatda

B) qirq sakkiz kalendar oydan kam muddatda

C) oltmish kalendar oydan kam muddatda

D) yetmish ikki kalendar oydan kam muddatda

2. Xodimlar tomonidan ish beruvchidan soliq davri mobaynida qiymati qancha bo‘lgan natura shaklida olingan sovg‘alari soliqqa tortilmaydi?

A) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi

B) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi

C) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi

D) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,82 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi

3. Ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami qancha so‘mgacha bo‘lgan miqdorda qoplashga yo‘naltirilganda daromad solig‘idan imtiyoz qo‘llaniladi?

A) 15 mln. so‘mgacha

B) 10 mln. so‘mgacha

C) 5 mln. so‘mgacha

D) 3 mln. so‘mgacha

4. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi necha foiz?

A) 12 foiz B) 7,5, 16,5, 22,5 C) 15 foiz D) 5 foiz

5. Rezident jismoniy shaxslarning dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

A) 5 foiz B) 12 foiz C) 10 foiz D) 6 foiz

6. Norezident jismoniy shaxsning dividendlar va foizlar tarizidagi daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

A) 10 foiz B) 6 foiz C) 20 foiz D) 5 foiz

7. Norezident jismoniy shaxsning fraxtdan olinadigan daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

A) 6 foiz B) 20 foiz C) 5 foiz D) 12 foiz

8. Norezident jismoniy shaxsning mehnat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo‘yicha olingan daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

A) 20 foiz B) 12 foiz C) 10 foiz D) 6 foiz

9. Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qachon to‘lanadi?

A) natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin 5 kun ichida

B) soliq to‘lovchiga daromadlarni to‘lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay

C) natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oyning oxirigacha

D) natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oydan keyingi oyning 25-kunigacha

10. Daromadlar bo‘yicha soliq solishdan ozod etilgan shaxslar soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda soliq agentiga qancha muddatda ma’lum qilishi kerak.

A) imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran 15 kun ichida

B) imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran 5 kun ichida

C) imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran 10 kun ichida

D) imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran 3 kun ichida

VI BOB. JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI DEKLARATSIYASI ASOSIDA SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI

6.1-§.Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya haqida tushuncha

Deklaratsiya - soliq idoralariga soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o‘z ichiga daromadlar hamda daromadlar bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma’lumotlarni aks ettiradigan, soliq to‘lovchining hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtda davlat budjetiga to‘lashga majbur etadigan hujjat hisoblanadi.

> ***Deklaratsiya*** *lotincha so‘z bo‘lib, “**declaratio**” - **ma’lum qilaman, e’lon qilaman** ma’nolarini bildiradi.*

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish borasida dastlabki huquqi asos sifatida prezident farmoni e’lon qilingan[68]. O‘z navbatida daromad deklaratsiyasi-moliya yoki kalendar yilida fuqarolar (jismoniy shaxslar) tomonidan soliqqa tortiladigan jami daromadlari ko‘rsatilgan va davlat organlariga taqdim etiladigan xabarnoma. Deklaratsiya soliq to‘lovchining olingan yillik daromadi to‘g‘risidagi yozma arizasidan iborat bo‘ladi. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaning shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi[69]. 5-ilova.

Deklaratsiyada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

-soliq to‘lovchining ismi-sharifi, tug‘ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili, pasport ma’lumotlari, STIR;

- asosiy ish joyidan olingan daromadlar;
- asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan daromadlar;
- mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- grant ko‘rinishida olingan daromadlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- foizlar, dividendlar va boshqa mulkiy daromadlar;

---

[68] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Faromni. Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.. PF-3127-son, 2002 yil 5 sentabr. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[69] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 396-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

- soliq agentlari bo‘lmagan manbalardan olingan daromadlar;

- soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar;

- O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

- moddiy yordam summasi, sovg‘alar summasi, jami yillik daromaddan chegirmalar;

- chet el jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan ma’lumotlar va b.

6.2-§. Jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ko‘ra deklaratsiya asosida rezident va norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solinadi. Shunga ko‘ra deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari kiradi: 12-rasm.

Ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar daromadlar olish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, haqiqatda sarflangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, lekin chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Bu xarajatlarga ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi xarajatlar kiradi:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish uchun zarur materiallar sotib olishga doir xarajatlar;

faqat ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.



12-rasm. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlari[70]

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya, agar soliq to‘lovchining asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan daromadlaridan soliq uning arizasi bo‘yicha ushlab qolingan bo‘lsa taqdim qilinmaydi, bundan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar mustasno.

6.3. Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar va ular bo‘yicha dastlabki deklaratsiya taqdim etish hamda soliq to‘lash tartibi

Jismoniy shaxslar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkini, jumladan ko‘chmas mulklarini, avtoransport vositalarini o‘zga shaxslarga ijara asosida, yaqin qarindoshlariga esa tekinga foydalanishga berishlari mumkin. Shu o‘rinda jismoniy

[70] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 395-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

shaxslar tomonidan o‘z mulkini ijaraga berishning quyidagi tartiblari mavjud:

- Jismoniy shaxslar o‘rtasida tuzilgan ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘ygan holda ijaraga berish. *(Adliya vazirligi tomonidan 11.10.2018 yilda 3077 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Nizom);*
- Shartnoma asosida ko‘char mulk, jumladan avtomobil transportini ijaraga berish;
- Bo‘stonliq tumanida tajriba tariqasida jismoniy shaxslar tomonidan ko‘chmas mulk ob’ektlari hamda ayrim mol-mulk turlarini soliq organlarining tayanch punktlari tomonidan soliq solish ob’ektlarining hisobga qo‘yilgani to‘g‘risidagi bepul beriladigan guvohnoma asosida ijaraga berish.*(Vazirlar Mahkamasining 20.02.2020 yildagi 107-sonli qarori asosida).*

Agar jismoniy shaxslar mol-mulkini, jumladan ko‘chmas mulklarini, avtoransport vositalarini o‘zga shaxslarga ijaraga beradigan bo‘lsa, ijara shartnomasi tuzishlari lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida *(159[1]-modda)* fuqarolar o‘rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar joyni ijaraga berish shartnomasining, tekin foydalanishga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud davlat soliq organlarida ijaraga berish shartnomasining majburiy hisobga qo‘yilishiga rioya etmaslikka nisbatan ***ma’muriy jarima*** *nazarda tutilgan*. Jumladan:

Fuqarolar o‘rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar joyni ijaraga berish shartnomasining, tekin foydalanishga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud davlat soliq organlarida ijaraga berish shartnomasining majburiy hisobga qo‘yilishiga rioya etmaslik, -BHMning besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shuning bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 maydagi PQ-3741-sonli Qarori hamda Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 11 oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan «Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘yish tartibi to‘g‘risida»gi NIZOMga

asosan jismoniy shaxslar o‘rtasida tuzilgan ko‘chmas mulk ijara shartnomalari davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘yilishi lozim.

Har yili O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonuni bilan mol-mulkini shartnoma asosida ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari belgilab qo‘yiladi. 10-jadval. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 6.1*).

T /r	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda		
			Toshkent shahri	Nukus sh. va vil. mar.shaharlar	boshqa aholi punk
1.	Uy-joylar:				
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.m. uchun	14 000	8 500	4 000
	noturar joy		29 000	17 000	7 500
2.	Avtomobil transporti:				
	yengil avtomobil (yo‘lov-chilar o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	575 000		
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 150 000		

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

10-jadval. 2021 yil uchun mol-mulkini shartnoma asosida ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari[71]

Masalan: 2021 yilda Toshkent viloyati Bo‘ka tumanida joylashgan umumiy maydoni 60 kv. metr bo‘lgan turar joy (kvartira)ning oylik ijara to‘lovi miqdori 60 kv.m x 4 000 so‘m =240 000 so‘m dan kam bo‘lmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 iyuldagi PF-6029-sonli Farmoniga asosan 2020 yil 1 iyuldan 2020 yil 31 dekabrga qadar:

-jismoniy shaxslar ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lashdan ozod etiladigan bo‘ldi;

-mol-mulkini (binolar va avtomobil transporti) ijaraga beruvchi jismoniy shaxslarga soliq maqsadida ijara to‘lovlarining eng kam stavkalarini qo‘llash tartibi to‘xtatib turiladigan bo‘ldi;

-ijaraga beruvchilarga 2020 yil uchun ijara to‘lovi miqdorini pasaytirish maqsadida, shu jumladan taqdim etilayotgan soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda ijara to‘lovini qayta ko‘rib chiqish tavsiya etildi.

[71] O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son Qonunining 8-ilovasi.

Soliq kodeksining 375-moddasiga asosan mol-mulklarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari hisoblanadi va ushbu daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq ob’ekti hisoblangan jami daromad tarkibiga kiradi. Jismoniy shaxslarning mol-mulklarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlari (agarda ushbu daromadlardan soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan bo‘lsa) soliq qonunchiligiga ko‘ra jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar tarkibiga kiradi va ularga nisbatan deklaratsiya asosida soliq solinadi. Mol-mulkini ijaraga berishdan to‘lov manbaida soliq solinmaydigan daromadlar olayotgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani belgilangan muddatlarda taqdim etish bilan bir qatorda dastlabki tarzdagi deklaratsiyani ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kun muddatda taqdim etishlari lozim.

Ijara to‘lovi (ijara haqi) ijaraga beruvchi jismoniy shaxs uchun mulkiy daromad hisoblanadi.

Taqdim etilgan dastlabki tarzdagi deklaratsiya asosida soliq organlari ijaradan olingan daromadlar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini hisoblab beradi va quyidagi 13-rasmda keltirilgan ko‘rinishdagi to‘lov xabarnomalarini taqdim etadi.

Masalan: *Fuqaro* ***Mamarasulov Islomjon Anvarovich*** *2021 yil yanvar oyidan shartnoma asosida DAMAS avtomobilini 1 yilga ijaraga bergan. Ushbu avtomobil uchun shartnoma bo‘yicha oylik ijara to‘lovi miqdori 600 ming so‘mni, yiliga 7 200 ming so‘m. Ushbu fuqaro oyiga 600 ming so‘m ijaraga daromadiga ega bo‘lganligi sababli bu haqda dastlabki deklaratsiyani topshirishi lozim.*

Ko‘chmas mulkning ijara shartnomasi soliq organlarida hisobga qo‘yilayotganda dastlabki deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fuqaroga ijara daromadidan kelib chiqib soliq organlari tomonidan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda oyiga 72 ming so‘m (600 000 * 12 %) daromad solig‘i hisoblanadi.

Fuqaro har oyda oladigan 600 000 so‘m daromadi (ijara haqi)dan yanvar oyi uchun 15 fevralgacha, fevral oyi uchun 15 martgacha, v.h. dekabr oyi uchun esa

keyingi yilning 15 yanvarigacha 72 ming so‘mdan daromad solig‘ini to‘lab borishi lozim.

САМАРҚАНД ШАҲАР
ДАВЛАТ СОЛИҚ ИНСПЕКЦИЯСИ

№415424 2020 йил «26» июнь

FARRUX XAMRAYEV ODILJONOVICH
(солиқ тўловчи – жисмоний шахснинг Ф.И.Ш)

СТИР 483627810

Самарканд вилояти Самарканд шаҳар Г. САМАРКАНД А.ЯССАВИЙ МАХ-СИ Х. АБДУЛЛАЕВА (ЯНГИРАБОТ 2) Д.63 А КВ.25
(солиқ тўловчининг яшаш манзили)

Жисмоний шахснинг кўчмас мулкни ижарага беришдан олинадиган даромади бўйича ҳисобланган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи суммаси тўғрисида

Т/р	Ойлар кесимида	Кўчмас мулкни ижарага беришдан олинадиган солиқ солинадиган даромад суммаси *	Солиқ ставкаси (%да)	Ҳисобланган даромад солиғи суммаси	Тўлаш муддатлари
1	Январь	0	0	0	-
2	Февраль	0	0	0	-
3	Март	0	0	0	-
4	Апрель	0	0	0	-
5	Май	0	0	0	-
6	Июнь	700 000	12	30 800	15.07.2020
7	Июль	700 000	12	84 000	15.08.2020
8	Август	700 000	12	84 000	15.09.2020
9	Сентябрь	700 000	12	84 000	15.10.2020
10	Октябрь	700 000	12	84 000	15.11.2020
11	Ноябрь	700 000	12	84 000	15.12.2020
12	Декабрь	700 000	12	84 000	15.01.2021
Жами		4 200 000		534 800	

Изоҳ: Солиқ кодексининг моддасига асосан жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи ар ойда, даромад олинган ойдан кейинги ойнинг ўн бешинчи кунигача тўланиши лозим. Ўз вақтида тўланмаган солиқ суммаси белгиланган тартибда мажбурий ундирувга қаратилади, ҳамда тўлов муддати ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун пенянинг фоиз ставкаси Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг шу даврда амалда бўлган қайта молиялаш ставкасининг уч юздан бирига тенг этиб қабул қилинади.

Тўлов учун ҳисоб рақам: 10002286001840131116000 93
МФО: 00014

* Жисмоний шахсларнинг мол-мулкини ижарага беришдан олинган даромадларига Ўзбекистон Республикасининг2019 йил 9 декабрдаги ЎРҚ-589-сон Қонуни 12-иловасида белгиланган ойлик ижара тўлови ставкаларининг энг кам миқдорлари қўлланилади.

Инспектор:ТОШОВ АЗИЗ ТЕМУРОВИЧ Тел.

САМАРҚАНД ШАҲАР Давлат солиқ инспекциясидан 2020 йил «26» июндаги 415,424-сонли тўлов хабарномани олдим, фукаро: FARRUX XAMRAYEV ODILJONOVICH (СТИР: 483627810)

Имзо Дата

namuna

13-rasm. Jismoniy shaxsning ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadi bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘i summasi to‘g‘risida xabarnoma[72]

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olish tugagan taqdirda soliq to‘lovchi doimiy yashash joyidagi soliq organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

[72] Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumoti

6.4. Mualliflik haqi tarzida olingan daromadlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tarzida daromad oluvchi soliq to‘lovchilar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Mualliflik haqi tarzida olingan daromadlariga soliq solinadigan soliq to‘lovchilar soliqni soliq organining yozma xabarnomasi asosida to‘laydi.

Ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan soliq to‘lovchi daromadlar olish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, haqiqatda sarflangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, lekin chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish uchun zarur materiallar sotib olishga doir xarajatlar;

faqat ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Masalan: Rassom 1 oyda 4 mln. so‘m daromad olgan. 1 oy davomida ustaxona ijarasiga 400 ming so‘m, zarur materiallar sotib olish uchun 500 ming so‘m xarajat qilgan.

Xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud.

(400 000+500 000)=900 000 so‘m xarajat jami daromadning 22,5 foizi.

Soliq solinadigan daromad:

3 100 000 so‘m =(4 000 000 -900 000)

*Daromad solig‘i summasi: 3 100 000*12%=372 000 so‘mni tashkil qiladi.*

6.5-§. Daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish, soliq hisoblash va to‘lash tartibi

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etadi.

Koronavirus pandemiyasi tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli Farmoniga 2019 yil uchun jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish muddati 2020 yil 1 avgustga qadar uzaytirildi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi soliq organiga jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi ham mumkin. Shu jumladan, har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasining tashqarisida turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga qaytgan sanadan e’tiboran bir oydan kechiktirmay doimiy yashash joyidagi soliq organiga O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olgan daromadlari bo‘yicha jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Bunda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish mezonlariga muvofiq kelmagan davr uchun soliq to‘lanmaydi.

Grant olgan soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, soliq miqdorini ko‘rsatadi, shuningdek vakolatli organning tegishli xulosasini ilova qiladi.

Joriy yilning 1 apreliga qadar O‘zbekiston Respublikasining rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya topshiradi. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim

bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan davrda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya bu jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs joriy yilning 1 fevraliga qadar chet elga doimiy yashashga chiqib ketsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlariga ega rezident jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga to‘langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summalari to‘g‘risida soliq agenti tomonidan berilgan 6-ilovadagi ko‘rsatilgan shakldagi ma’lumotnomani ilova qiladi.

Soliq agentida soliq solinmagan moddiy naf tarzidagi daromad olgan jismoniy shaxslar ham taqdim etayotgan deklaratsiyasiga soliq agenti tomonidan berilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan 7-ilovada ko‘rsatilgan shakldagi ma’lumotnomani ilova qilishlari lozim bo‘ladi.

O‘zi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lmagan (o‘rindosh asosida ishlovchi) rezident jismoniy shaxsga moddiy naf tarzida daromad to‘lovchi soliq agenti jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida soliqni ushlab qolmaslikka haqli.

Soliq organlari taqdim etilgan jami yillik daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya hamda deklaratsiya taqdim etgan shaxslarga doir o‘zlarida mavjud ma’lumotlar (tashqi va ichki manbalar) asosida daromad solig‘ini hisoblab chiqaradi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda ushbu shaxslarning respublikamizdan tashqarida to‘lagan soliqlari ham hisobga olinadi.

Soliq organi tomonidan soliq to‘lovchi taqdim etgan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, soliq organi jami yillik daromad haqidagi taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xatolar to‘g‘risida

soliq to‘lovchiga bildirish xati yuboradi. Xabarnomani olgan soliq to‘lovchi o‘n kun ichida jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga zarur bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritishi shart. Bunday hollarda soliq to‘lovchi jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi arizani soliq organiga soliqni to‘lash muddati o‘tguniga qadar topshirsa, soliq to‘lovchi Soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod etiladi.

Agar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza soliqni to‘lash muddati o‘tganidan keyin, lekin xatolar soliq organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to‘lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Soliq to‘lovchi soliq organining taqdim etilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyada aniqlangan xato to‘g‘risidagi bildirish xatini olgan kun soliq organi tomonidan xato aniqlangan kun, deb hisoblanadi.

Agar soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning o‘zgarganligi haqidagi arizani soliqni to‘lash muddati o‘tguniga qadar taqdim etmagan taqdirda, soliq organi soliq summasini o‘zidagi mavjud axborot asosida hisoblashga va to‘lanishi lozim bo‘lgan, hisoblangan soliq summasi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga o‘n kunlik muddatda to‘lov xabarnomasini topshirishga haqli. Shuningdek, soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya yoki to‘g‘rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiyani hisobga olgan holda aniqlanadi.

Ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tarzida daromad oluvchi soliq to‘lovchilar daromad solig‘ini soliq organining yozma xabarnomasi asosida to‘laydi.

Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan soliqni to‘lash jismoniy shaxslar tomonidan to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ma’lumotlariga ko‘ra hisoblab chiqarilgan soliqni o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to‘lashlari lozim bo‘ladi.

Jami yillik daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq chegirmalarini berish (qaytarish)tartibi:

Masalan:

2019 yil sentabr oyida talabaning otasi naqd pulda 9 000 000 so‘m to‘lov kontrakt pulini to‘lagan. Talabaning ota-onasi ham Olmazor tumanida doimiy ro‘yxatda (propiskada) turadi.

Talaba otasining 2019 yilgi yillik daromadi 36 000 000 so‘m (shundan 1 000 000 so‘mi moddiy yordam) bo‘lib, ushlab qolingan soliq summasi - 4 200 000 so‘mni tashkil qiladi. Ushbu summaning SHJBPJga – 35000 so‘mi, budjetga esa 4 165 000 so‘mi o‘tkazilgan.

Soliq chegirmasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlash uchun talabaning otasi quyidagilarni DSIga taqdim etadi:

- ✓ *to‘lov-kontrakt shartnomasining nusxasi;*
- ✓ to‘lov-kontrakt pulining mustaqil to‘laganligini tasdiqlovchi to‘lov kvitansiyasi nusxasi;
- ✓ pasport nusxasi va farzandining tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi nusxasi.
- ✓ turmush o‘rtog‘ining pasport va STIR nusxalari

Davlat soliq xizmati organlari o‘zlarida mavjud ma’lumotlar va taqdim etilgan hujjatlar asosida imtiyoz qo‘llanilmaganligini aniqlaydilar va deklaratsiyada ko‘rsatilgan daromad summasidan chegirma qilib beradilar. Bunda kontrakt uchun to‘langan 9 000 000 ga nisbatan daromad solig‘i 1 080 000 so‘mni (9 000 000*12%) tashkil qiladi. Ushbu summadan SHJBPJga o‘tkazilishi mumkin

bo‘lgan summani chegirish orqali budjetga to‘lanadigan daromad solig‘i summaini topamiz:

1 080 000 –(9 000 000 *0,1%)=1 071 000

Demak, talabaning otasiga 1071 000 so‘m miqdorida chegirma qaytariladi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etgan deklaratsiyasi asosida hisoblangan soliqni deklaratsiya taqdim etilgan sanadan e’tiboran o‘n besh kun ichida (respublika hududidan tashqariga chiqib ketishidan 15 kun oldin) to‘lashi lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar hisoblab chiqarilgan soliqni chet davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valyutasida to‘lamoqchi bo‘lsa, bunday holda milliy valyutada ifodalangan soliq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan soliq to‘langan sanadagi kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqariladi.

Deklaratsiya asosida hisoblangan soliqni jismoniy shaxs naqd pulda yoki plastik kartochka orqali bank kassasi orqali yoxud onlayn (masofaviy) tarzda elektron to‘lov tizimlari: click, Payme, Paynet, upay hamda «soliq» mobil ilovasi orqali to‘lashlari mumkin bo‘ladi. Soliq soliq agentlari yoki deklaratsiya asosida soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar esa banklardagi o‘z hisobvaraqlaridan naqd pulsiz shaklda pul ko‘chirish yo‘li orqali to‘laydilar.

6.6-§. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish to‘lov manbaida to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasining ichkarisida yoki tashqarisida qilinganligidan qat’i nazar amalga oshiriladi. Ularning daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini

hisobga olgan holda soliq solinadi, bundan soliqni undirish o‘zarolik prinsipi bo‘yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin bo‘lgan hollar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsga daromadlarni to‘lash to‘lov manbaida soliqni ushlab qolmasdan yoki ikkiyoqlama soliq solishga yo‘l qo‘ymaslik masalalarini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga va xalqaro shartnomalar bo‘yicha soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga doir maxsus qoidalarga muvofiq pasaytirilgan stavkani qo‘llagan holda amalga oshiriladi. Soliq summasi ushlab qolinmaganligi yoki O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining qoidalari g‘ayriqonuniy tarzda qo‘llanilishi mazkur soliq ushlab qolinmasligiga yoki to‘liq ushlab qolinmasligiga sabab bo‘lgan taqdirda, soliq agenti deb e’tirof etilgan shaxslar tomonidan ushlab qolinmagan soliq summasini va u bilan bog‘liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq budjetga o‘tkazilishi shart.

Soliq kodeksining qoidalariga muvofiq soliq agenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti daromadlaridan hisoblab chiqarilgan soliq summasi undan ushlanmasdan o‘z mablag‘lari hisobidan to‘langanda, soliq agentining soliqni to‘lov manbaidan ushlab qolish va ko‘chirib berish majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qo‘llanishi huquqiga ega bo‘lgan norezident jismoniy shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan soliq ushlab qolingan va budjetga to‘langan taqdirda, bunday norezident Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda to‘langan soliqni qaytarib olish huquqiga ega.

Tayanch so‘z va iboralar

Daromad, deklaratsiya, deklaratsiya qilinadigan daromadlar, dastlabki deklaratsiya, jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya, ma’lumotnoma, xabarnoma, xalqaro shartnoma, soliq agenti.

Nazorat savollari:

1.Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya deganda nimani tushunasiz?

2. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga qandan daromadlar kiradi?

3. Kimlar dastlabki deklaratsiya topshirishi lozim?

4. Ko‘chmas mulkini ijaraga bergan jismoniy shaxs dastlabki deklaratsiya asosida qachon soliq to‘laydi?

5. Mualliflik haqi tarzida olingan daromadlarga soliq solishda qanday xarajatlar chegiriladi?

7. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya qanday tartibda taqdim etiladi?

8. Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha qanday tartibda soliq to‘lanadi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 6.2*)

Test savollari

1. Jismoniy shaxslar tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya qachongacha taqdim etiladi?

A) hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay

B) hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay

C) hisobot yilidan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay

D) hisobot yilidan keyingi yilning 15 yanvaridan kechiktirmay

2. Rezidentga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiyani qachongacha taqdim etadi?

A) joriy yilning 1 apreliga qadar

B) joriy yilning 1 avgustiga qadar

C) joriy yilning 1 oktabriga qadar

D) joriy yilning 5 sentabriga qadar

3. Deklaratsiyada aniqlangan xatolar to‘g‘risida xabarnomani olgan soliq to‘lovchi necha kun ichida deklaratsiyaga zarur bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritishi shart?

A) 10 kun ichida

B) 15 kun ichida

C) 5 kun ichida

D) 3 kun ichida

4. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya asosida hisoblab chiqarilgan soliqni qaysi sanasidan kechiktirmay to‘lashlari kerak?

A) 1 iyunidan

B) 1 mayidan

C) 1 iyulidan

D) 1 aprelidan

5. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar dastlabki tarzdagi deklaratsiyani qaysi muddatda taqdim etadi?

A) ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 5 kun muddatda

B) ijara shartnomasi tuzilgan kundan e’tiboran 14 kun muddatda

C) ijara sharnomasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e’tiboran 25 kun muddatda

D) ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 20 kun muddatda

6. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari qaysi qaysi me’yoriy hujjat bilan belgilanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan

B) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan

C) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan

D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

7. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida qachon to‘laydi?

A) daromad olingan oydan keyingi oyning 15-kunigacha har oyda

B) daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha har oyda

C) daromad olingan oydan keyingi oyning 25-kunigacha har oyda

D) daromad olingan oydan keyingi oyning 10-kunigacha har oyda

8. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar deklaratsiya asosida necha foizlik daromad solig‘ini to‘laydi?

A) 12

B) 10

C) 20

D) 5

9. 2021 yilda jismoniy shaxs tomonidan yengil avtomobilni ijaraga berishda oylik ijara to‘lovi stavkasining eng kam miqdori qancha?

A) 1 ta avtotransport vositasi uchun 575 ming so‘m

B) 1 ta avtotransport vositasi uchun 800 ming. so‘m

C) 1 ta avtotransport vositasi uchun 300 ming so‘m

D) 1 ta avtotransport vositasi uchun 900 ming so‘m

10. 2021 yilda jismoniy shaxs tomonidan mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillarini ijaraga berishda oylik ijara to‘lovi stavkasining eng kam miqdori qancha?

A) 1 ta avtotransport vositasi uchun 1 mln. 150 ming so‘m

B) 1 ta avtotransport vositasi uchun 550 ming so‘m

C) 1 ta avtotransport vositasi uchun 600 ming so‘m

D) 1 ta avtotransport vositasi uchun 250 ming so‘m

VII BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATI BILAN SHUG‘ULLANAYOTGAN JISMONIY SHAXSLAR VA ULARNI SOLIQQA TORTISH TARTIBLARI

7.1-§. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi

Iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy etishining asosiy omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdan iborat. Shunga ko‘ra mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning so‘zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

> *Biz iqtisodiyotimizni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarga keng yo‘l ochib berish siyosatini bundan keyin ham qat’iy davom ettiramiz. Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu sohani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning oldida paydo bo‘ladigan to‘siqlarni butunlay olib tashlash masalasi davlat rahbari sifatida mening doimiy e’tiborim va nazoratimda bo‘ladi.*
>
> *Sh. Mirziyoyev.*
> *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Tadbirkorlik (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha -predprinimatelstvo) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir. Shu o‘rinda jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati- ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Demak, jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini bevosita qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirishlari deganda, nafaqat ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan holda ruxsat etilgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari, balki ularning amalga oshirayotgan tadbirkorlik faoliyat turi uchun belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashlari ham tushuniladi.

> *Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.*
>
> *Amir Temur*

Soliq kodeksiga[73] asosan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va yuridik

[73] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 31-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaldagi tartibga ko‘ra tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki ularni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi. 14-rasm.



14-rasm. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish usullari

Yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxslar yuqorida qayd etilgan usullardan birini ixtiyoriy tanlashi orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Jumladan, jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ, ya’ni davlat xizmatlari markaziga o‘zi borib ro‘yxatdan o‘tishni hohlaganda, doimiy ro‘yxatda turgan joyidagi yoxud doimiy yashash joyidagi davlat xizmatlari markaziga murojaat qilishi lozim bo‘ladi. Mazkur jarayonda jismoniy shaxs ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga pasportini (chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar esa shaxsini va O‘zbekiston Respublikasidagi yashash joyini tasdiqlovchi pasportni yoki boshqa hujjatni), shuningdek davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoxud to‘lov hujjati nusxasini taqdim etadi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga o‘zi kelib murojaat qilinganida qog‘oz hujjatlarning asl nusxalari bir nusxada taqdim etiladi. Shuningdek, jismoniy shaxs tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun qonun xujjatlarida nazarda tutilgan

stavka bo‘yicha davlat boji to‘lanadi. 11-jadval.

T/r	Tadbirkorlik faoliyati shakllarining nomi	Boj va yig‘im miqdorlari
I. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish		
1.	Yakka tartibdagi tadbirkor, tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi YaTT	BHMning 1 baravari miqdorida
2.	Dehqon xo‘jaligi	Bepul
3.	Oilaviy tadbirkorlik sub’ekti	BHMning 1 baravari miqdorida
4.	Hunarmandchilik faoliyati sub’ekti	BHMning 1 baravari miqdorida

11-jadval. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda bojlar va yig‘imlar miqdorlari[74]

Bunda davlat bojini to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining budjetdan tashqari jamg‘armasi shaxsiy hisob raqamiga amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi PQ-4539-sonli qaroriga asosan hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha yangidan davlat ro‘yxatidan o‘tishda to‘lanadigan davlat boji yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun amalda belgilangan davlat boji miqdorining 50 foizi miqdorida belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4193-sonli Qaroriga asosan 2019 yil 1 iyundan boshlab yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat etganda, davlat boji, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar Markazlar orqali yoki bevosita xizmat ko‘rsatuvchi organlarga murojaat etganda ***to‘lanadigan summadan 90 foiz miqdorida to‘lanadi.***

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ mas’ul xodimi davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun o‘zi kelib taqdim etilgan hujjatlar va ma’lumotlarni olganidan so‘ng tegishli ariza shaklini to‘ldiradi.Ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlari tizimga kiritilishi oxiriga yetganidan so‘ng ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ mas’ul xodimi tizim tomonidan shakllantirilgan arizani qog‘oz ko‘rinishida chop etadi. Chop etilgan ariza tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxs

[74] Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ilova

tomonidan imzolanadi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ mas’ul xodimi arizani olgan paytidan boshlab 12-jadvalda ko‘rsatilgan muddat mobaynida tizim vositasida tegishli shakl bo‘yicha davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rasmiylashtiradi.12-jadval.

T/r	Tadbirkorlik faoliyati shakllarining nomi	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning belgilangan muddatlari
I. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish		
1.	Yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda

12-jadval. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan muddatlar[75]

12-jadvalda ko‘rsatilgan muddat ichida tizim taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshiradi va ular tizimning tegishli ma’lumotlar bazalariga muvofiq bo‘lganda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiradi hamda tegishli shakl bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani shakllantiradi. 15-16-rasmlar.

Ro‘yxatdan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnomada ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ mas’ul xodimining elektron raqamli imzosi (ERI)si va QR-kod (matritsali shtrix kod), shuningdek identifikatsiya raqamlari bo‘lishi kerak. QR-kod tegishli dasturiy-apparat vositalari bilan o‘qilganda ro‘yxatdan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning identifikatsiya raqamlari va Yagona portaldagi elektron hujjatlar repozitoriysiga havolalar (giperhavolalar) bo‘lishi kerak. Yakka tartibdagi tadbirkor, oilaviy tadbirkorlik sub’ekti ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomada jismoniy shaxsning fotosurati aks ettirilgan bo‘lishi kerak. Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxslar onlayn tarzda davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun esa «biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish» - davlat xizmatini tanlaydi va u orqali ro‘yxatdan o‘tadi. Mazkur jarayonda jismoniy shaxs ro‘yxatdan o‘tishga doir so‘rovnomani shakllantirishi lozim bo‘ladi.

[75] Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ilova

Электрон ҳужжатнинг
идентификация рақами

(Ўзбекистон Республикаси Давлат гербининг тасвири)

Якка тартибдаги тадбиркор давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисида
ГУВОҲНОМА

фотосурат ўрни

_____ га
(якка тартибдаги тадбиркорнинг тўлиқ фамилияси, исми, отасининг исми (мавжуд бўлганда)

берилди, унга нисбатан Тадбиркорлик субъектлари ягона давлат реестрига якка тартибдаги тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисида 20__ йил «___» _____да
(йил, кун, ой (сўз билан)

[ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ] -рўйхат рақамли ёзув киритилди.

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): [ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ]

Паспорт серияси: (ID-карта) [ ][ ] рақами: [ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ] [ ][ ][ ][ ][ ][ ][ ] йилда берилган.

Уй манзили:

Амалга ошириладиган фаолият тур(лар)и: _____
_____
_____
_____

Фаолиятни амалга ошириш жойининг манзили (вилоят туман/шаҳар): _____
_____

Гувоҳнома _____ томонидан берилди.
(рўйхатдан ўтказувчи органнинг тўлиқ номи)

QR-код

15-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma shakli[76]

[76] Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ilova

Электрон ҳужжатнинг
идентификация рақами

(Ўзбекистон Республикаси Давлат гербининг тасвири)

**Якка тартибдаги тадбиркор (оилавий тадбиркорлик субъекти)
давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисида
ГУВОҲНОМА**

фотосурат ўрни

_____ га
(якка тартибдаги тадбиркорнинг тўлиқ фамилияси, исми, отасининг исми (мавжуд бўлганда)

берилди, унга нисбатан Тадбиркорлик субъектлари ягона давлат реестрига якка тартибдаги тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисида 20__ йил «___» _____да
(йил, кун, ой (сўз билан)

												-рўйхат рақамли ёзув киритилди.

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): | | | | | | | | | |

Паспорт (ID-карта) серияси: | | рақами: | | | | | | | | | | | | | | йилда берилган.

_____
(паспортни берган органнинг тўлиқ номи)

Уй манзили: _____

Амалга ошириладиган фаолият тур(лар)и: _____

_____

_____

_____

Фаолиятни амалга ошириш жойининг манзили (вилоят туман/шаҳар): _____

_____

Оилавий тадбиркорлик субъекти иштирокчиларининг таркиби:

Т/р	**Ф.И.О. (тўлиқ)**	**Қариндошлик даражаси**	**Шахсга оид маълумотлар: паспорт (ID-карта) серияси, рақами, ким томонидан ва қачон берилган (16 ёшгача бўлган шахслар учун — туғилганлик тўғрисидаги гувоҳнома (ID-карта)га оид маълумотлар)**	**СТИР (мавжуд бўлганда)**
1				
…				

Гувоҳнома _____ томонидан берилди.
(рўйхатдан ўтказувчи органнинг тўлиқ номи)

QR-код

16-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub’ekti) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma shakli[77]

[77] Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ilova

So‘rovnomaga ilova qilinayotgan hujjatlar elektron, ya’ni «PDF» formatida skaner qilingan nusxalari shaklida bo‘lishi kerak. So‘rovnoma shakllantirilishi oxiriga yetganidan so‘ng Tizim tomonidan avtomatik tarzda aniqlanadigan davlat bojini Tizim tomonidan taklif etilayotgan to‘lov usullari orqali to‘lash amalga oshiriladi.

Tizim qonun xujjatlarida nazarda tutilgan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish muddatlarida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshiradi va ular Tizimning tegishli ma’lumotlar bazalariga muvofiq bo‘lganda ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani shakllantiradi.

7.2-§. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati va uni amalga oshirish tartibi

Davlat ro‘yxatidan o‘tish orqali jismoniy shaxslar yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini yakka tarzda yakka tartibdagi tadbirkor, birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini esa oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo‘jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin.

O‘z navbatida yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yilgan tadbirkorlik faoliyati turlari[78] bilan shug‘ullanishi mumkin. Qolaversa yakka tadbirkorlar bir vaqtning o‘zida ber necha faoliyat turlari bilan ham shug‘ullanishlari mumkin. 13-jadval.

(Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 7.1*).

[78] Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

T/r	Faoliyat turining nomi
I.	**Chakana savdo:**
1.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovar/i bilan chakana savdo qilish (qur. material/i, sement, shifer, yog‘och va yog‘och mahsulot/i, alkogoli va tamaki mah., neft mah. barcha tur/i, qimmatbaho metal/ va qimmatbaho tosh/dan yasalgan buyum/ yoxud bunday mat. qo‘l. buyum/, audiovizual asar/, fonogramma/ va EHM uchun yaratilgan dastur/, yangi import avtomobil/, farm. tovar/ni sot. bundan mustasno)
2.	Ko‘chma savdo ob’ektlarida aralash chakana savdo qilish (vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, ish kuni tamom bo‘lgandan keyin ob’ektni demontaj qilinishi va ko‘chirilishini talab etuvchi ob’ektlarda)
3.	Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
4.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
5.	Tovarlarni import qilish va ular bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, sement, shifer, yog‘och va yog‘och mahsulotlari, o‘simlik moyi, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qim. metallar va qim. tosh/dan yasalgan buyum/ yoxud bunday material/ qo‘llanilgan buyum/, audiovizual asar/, fonogramma/ va EHM uchun yaratilgan dastur/, yangi import avtomobil/ va farmasevtika tovar/ini sotish bundan mustasno), bunda olib kirilayotgan tovarlarning narxi bir oyda 5000 AQSh dollari ekvivalentidan oshmaslik sharti bilan
II.	**Qonun hujjatlarida belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyati.**
III.	**Maishiy xizmatlar, II bo‘limda nazarda tutilganlaridan tashqari:**
6.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va b. xizmatlar
7.	Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tash. et., dazmollash xizmatlari
8.	Gilam va gilam buyumlarini ta’mirlash va tozalash
9.	Tikuv, mo‘yna, charm va trikotaj buyum/ni, bosh kiyim/ni va to‘qimachilik galan-tereyasidan tikilgan buyum/ni ta’mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtma/i bo‘yicha tikuv va trikotaj buyum/ini, bosh kiyim/ini va to‘qimachilik galan-tereyasidan buyum/ni tikish, shu jum. deraza va eshik parda/ini tikish, kashtachilik
10.	Hayvon/ teri/i, mo‘yna, to‘qimachilik, charm buyum/ va boshqa buyum/ni oshlash va bo‘yash
11.	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo‘yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta’mirlash, bo‘yash va tozalash
12.	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta’mirlash
13.	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta’mirlash
14.	Kalitlar tayyorlash
15.	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta’mirlash
16.	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun’iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash
17.	To‘siqlar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta’mirlash
18.	Yog‘ochdan eshik, deraza va boshqa buyumlar (mebeldan tashqari) tayyorlash
19.	Inventarni (xo‘jalik, sport, baliqchilik va hokazo) ta’mirlash va tayyorlash
20.	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
21.	Tayyor mebelni yig‘ish, ta’mirlash va drapirovka qilish
22.	Musiqa asboblarini ta’mirlash va sozlash
23.	Yakka buyurtma bo‘yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek, zargarlik buyumlarini ta’mirlash

24.	Optika, soatlarni ta’mirlash va metall, plastmassa, sopol, fayans, tosh, kartondan mahsulotlarda o‘ymakorlik ishlari (qavariq yozuvlar va tasvirlar tushirish)
25.	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashina/i va hisoblash texnikasini ta’mirlash, o‘rnatish va ularga texnik xiz. ko‘r.
26.	Transport vos. ta’m. va u/ga texnik xizmat ko‘rsatish, shu jum. xizmat/ining boshqa tur/i (akustik tizim/ va qo‘riqlash signalizatsiya/ini ta’m/ va o‘rnatish, polirovkalash, kuzovga him. va bezak qoplama/ini qoplash xizmat/i)
27.	Sanitariya-texnika xizmatlari va payvandlash ish/i
28.	Shisha va oynalarni kesish, shishaga badiiy ishlov berish
29.	Binolarga oyna o‘rnatish xizmatlari
30.	Jamoat hojatxonalari xizmatlari
31.	Hammom va sauna xizmatlari
32.	Turar joylarni yig‘ishtirish xizmatlari
33.	Hovlilar va bog‘larga qarash xizmatlari, shuningdek, ko‘kalamzorlashtirish ishlari
34.	Bog‘/, poliz/ va dov-daraxt/ni zararkunanda/ va kasallik/dan himoya qilish
35.	Video va fotosuratga olish xizmatlari
36.	Xo‘jalik mollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo‘jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
37.	Oilaviy mehmon uy/i va xostel/ni qon. huj.da belgilangan tartibda tashkil etish
IV	**Faoliyatning boshqa turlari:**
38.	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlari, qurtni tayyorlash va sotish
39.	Milliy non va patir tayyorlash va sotish
40.	Popkorn, frezerda muzqaymoq, salqin ichimlik/, ayron va go‘ja tay. va quyib sotish
41.	Salat/ va tuzlama/ tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taom/ning ayrim tur/ini tayyorlash va o‘tirish joy/i tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish
42.	O‘lchov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
43.	Aholi uchun turar va noturar joylarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar
44.	Repetitorlik xizmatlari
45.	Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari
46.	Bolalarning o‘yinchoq avtomatlari bilan bog‘liq xizmatlar
47.	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta’mirlash va ulardan foydalanish
48.	Dizayn bo‘yicha xizmatlar (grafik, interer, mebel va hokazolar), shuningdek, chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek, rassomlik san’ati
49.	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o‘yinlarini tashkil etish, shuningdek, kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko‘paytirish bilan bog‘liq xizmatlar
50.	Tashrif qog‘ozlari va taklifnoma biletlarini tayyorlash va bosish
51.	Muqovalash ishlari
52.	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
53.	Sug‘urta agentlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar
54.	Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish
55.	Tantanali marosimlarni tash. et.xizmatlari (to‘y, yubiley, tug‘ilgan kun va h.k)
56.	Ko‘ylak va kostyumlarni, shuningdek, ularga aksessuarlarni prokatga berish
57.	Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)

58.	Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
59.	To‘garaklar tashkil etish va yuritish
60.	Davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta’minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati
61.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
62.	Tegirmonlarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari
63.	Mol so‘yish xizmatlari
64.	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
65.	Veterinariya faoliyati
66.	Yuklarni avtomobil transportida tashish
67.	Yo‘lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish
68.	O‘simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyoni yetishtirish, yig‘ishtirish, tayyorlash va sotish
69.	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san’ati)
70.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko‘paytirish va sotish
71.	Shisha idish/ va ikkilamchi xom ashyoni qabul qilish xizmat/i (met. chiq. tashqari)
72.	Rieltorlik faoliyati
73.	JSH va YUSH/ga max. va qishloq xo‘jaligi texnikasidan foy. holda xiz/ ko‘rsatish
74.	Tashkilotlar uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlash bo‘yicha xizmatlar
75.	Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo‘yicha ishlarni bajarish
76.	Matritsali printer/ va alfavit-raqam bosma qurilma/ uchun bo‘yovchi tasma/ni tayyorlash va qayta ishlash
77.	Qog‘ozlar va skorosshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
78.	Telekommunikatsiya/ operator/iga, provayder/iga vositachilik xizmatlari ko‘rsatish (abonent/ yoki xizmat/ ko‘rsatuvchi/ga ma’lumot-axborot xizmati ko‘rsatish, paynet)
79.	Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari
80.	Turistik faoliyat - turagentlik va ekskursiya xizmatlari, shuningdek, gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya yetakchilari va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilar xizmatlari
81.	Duradgorlik ish/i (aholi buyurtma/i bo‘yicha duradgorlik ish/ini amalga oshirish)
82.	Metallni ta’mirlash ishlari (uy sharoitida metalldan tayyorlangan maishiy buy. ta’mirlash (kalitlar dublikati tay., soyabon/ni ta’m., b.maishiy met. buy. ta’m.)
83.	Yog‘och me’morchiligi (bolalar maydoncha/i va park zona/i uchun yog‘ochdan yasalgan qurilma/, haykal/)
84.	Gazlama/ga naqsh/ solish (gazlama/ va kiyim ashyo/ini qo‘lda bo‘yash, gazlama/ga,shu jum. trafaretli bosma va qo‘lda rasm chizish usuli bilan rasm/ solish)
85.	Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish
86.	Turistlarga uy-joyni qisqa muddatga ijaraga berish (30 kungacha)
87.	Davlat xizmatlari ko‘rsatishda agent sifatida ishtirok etish

Ushbu ro‘yxat doirasida o‘z faoliyatini amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin.

13-jadval. Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati[79]

[79] Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Shuning bilan birgalikda, 2021 yil 7 maydagi qarori[80]ga asosan 2021 yil 15 maydan 2022 yil so‘nggiga qadar eksperiment tariqasida haydovchidan tashqari to‘rtta o‘rindiqli yengil avtotransportda taksi xizmati ko‘rsatish yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyat turlari ro‘yxatiga kiritildi.

YaTT sifatida yo‘lovchi tashish faoliyati litsenziya varaqasi asosida amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tashuvchilar:

– 21 yoshga to‘lgan va boshqaruvida 10 yildan ortiq bo‘lmagan muddatda ekspluatatsiya qilinayotgan yengil avtomobil bo‘lishi;

– transport vositasini texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarida har 6 oyda kamida bir marotaba texnik ko‘rikdan o‘tkazishi;

– “Uztrans” yagona interaktiv axborot tizimiga ulangan ko‘p tarmoqli poliklinikalar, xususiy klinikalarda yoki oilaviy poliklinikalarda oylik tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim.

Shuningdek yakka tartibdagi tashuvchilar faoliyati doirasida xodimlarni ishga yollamaydi, shuningdek ular litsenziya varaqasi uchun yiliga bir marotaba BHMning bir barobari (245 ming so‘m) miqdorida davlat boji to‘laydi.

2021 yil 1 sentabrdan boshlab yakka tartibdagi tashuvchilar faoliyatini faqatgina agregatorlar xizmatidan foydalangan holda amalga oshiradi. Bunda yakka tartibdagi tashuvchilar avtotransport vositasi tepasiga “TAXI” belgili to‘q sariq rangli fonar o‘rnatishi, to‘lovni amalga oshirishi, shuningdek bosib o‘tilgan yo‘lni elektron tarzda qayd etish imkoniyatini beruvchi maxsus ilovali moslamalarga ega bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish noqonuniy tadbirkorlik faoliyati deb e’tirof etiladi va ularga nisbatan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy, moliviy va jinoiy javobgarlik javobgarlik choralari belgilangan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:

[80] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish faoliyatini tartibga solishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-5108-sonli. 2021 yil 7 may.

http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 7.2)

Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati va unga nisbatan javobgarlik choralari

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida[81] tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish noqonuniy tadbirkorlik faoliyati deb e’tirof etiladi va unga nisbatan quyidagi miqdorda ma’muriy jarima belgilangan:

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish, -huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan huquqbuzarlikni ancha miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holda sodir etish, -huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Huquqbuzarlikni ko‘p miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holda sodir etish, -huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u huquqbuzarlik aniqlangan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik sub’ektining ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlagan va zarur bo‘lgan ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirgan bo‘lsa, huquqbuzarlik narsalarini musodara qilmasdan javobgarlikdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida esa jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish, -bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi

[81] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 176-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

miqdorida, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi[82].

O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida[83] ham tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish noqonuniy tadbirkorlik faoliyati deb e’tirof etiladi va unga nisbatan quyidagi tartibda jinoiy javobgarlik belgilangan:

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan juda ko‘p miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holda amalga oshirish,-uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e’tiboran o‘ttiz kunlik muddatda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik sub’ektining ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlagan va zarur bo‘lgan ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

YaTT lozim hollarda xodimlarni yollash huquqiga ega.

Xususiy tadbirkor bilan mehnat munosabatlari o‘rnatgan jismoniy shaxslarga xususiy tadbirkorlar sifatida qaralmaydi va ular xususiy tadbirkor nomidan huquqiy hujjatlarni imzolash huquqiga ega emas.

Ular tomonidan xodimlarni yollash Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga ko‘ra amalga oshiriladi. Jumladan, hukumatning 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Mazkur nizomda xodimlarni yollagan holda xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarining ro‘yxati belgilab qo‘yilgan. 14-jadval.

[82] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 219-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.
[83] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 188-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

T/r	Faoliyat turining nomi	Yollanadigan xodimlar cheklangan soni (nafar)
1.	**Chakana savdo** (Vazirlar Mahkamasining 07.01.2011 yildagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan faoliyat turlari ro‘yxatining 1 - 5-bandlari)	1
2.	**Qonunchilikda belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyati**	3
3.	**Maishiy xizmatlar, qonunchilikda belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyatidan tashqari** (Vazirlar Mahkamasining 07.01.2011 yildagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan faoliyat turlari ro‘yxatining 6 - 35^2-bandlari)	3
3^1	Davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta’minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati (Vazirlar Mahkamasining 07.01.2011 yildagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan faoliyat turlari ro‘yxatining 60-bandi)	4
4.	**Faoliyatning boshqa turlari*** (Vazirlar Mahkamasining 07.01.2011 yildagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan faoliyat turlari ro‘yxatining 36 - 41, 51 - 59, 62, 64 - 66, 68 - 74-bandlari, 87-bandi)	2

** Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 42, 50, 61, 63, 67, 75-bandlarida ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshiradigan xususiy tadbirkor faoliyatining asosiy turi bo‘yicha yordamchi ishlarni bajarish uchun bir nafar xodimni yollashi mumkin.*

14-jadval. Xodimlarni yollagan holda xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarining ro‘yxati[84]

Bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan xususiy tadbirkor, faoliyatning turlari sonidan qat’i nazar, uch nafardan ko‘p bo‘lmagan xodimlarni yollash huquqiga ega. Xodimni yollashda xususiy tadbirkor uning bilan belgilangan shaklga muvofiq yozma ravishda uch nusxada mehnat shartnomasini tuzishi kerak. 17-rasm.

[84] Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida» Nizomning PQ-5144-sonli qarori tahriridagi 1-ilovasi. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

MEHNAT SHARTNOMASI №_____

_____ 20__ yil «___» _____
(tuzilgan joyi)

1. STIR kodi _____ bo‘lgan, keyingi o‘rinlarda «Ish beruvchi» deb ataladigan xususiy tadbirkor _____va
(F.I.O.)
keyingi o‘rinlarda «Xodim» deb ataladigan fuqaro _____
(F.I.O.)
ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

2. Xodim _____ kasbi bo‘yicha, faoliyatning
(kasb, lavozim nomi.)
quyidagi turlarini amalga oshirish uchun ishga qabul qilinadi:

_____
(faoliyat turi va mehnat funktsiyalari)

3. Shartnoma muddati_____
(oylar soni, belgilanmagan muddat, ishlarni bajarish muddati)

4. Ishning boshlanish sanasi: 20__ yil «___»_____
Mehnat shartnomasining to‘xtatilish sanasi: 20__ yil «___»_____

5. Xodimning majburiyatlari:_____
(asosiy majburiyatlar)

6. Ish beruvchining majburiyatlari:_____
(asosiy majburiyatlar ko‘rsatiladi)

7. Ish rejimi:
ishning boshlanish vaqti _____; ishning tugash vaqti _____
ish haftasining turi: _____, dam olish kuni: _____;
mehnat ta’tilining davomiyligi: _____ kun.

8. Mehnatga haq to‘lash shartlari: _____
(mehnatga haq to‘lash miqdori, shakli va davriyligi ko‘rsatiladi)

9. Boshqa shartlar:

9.1. Ish beruvchi xodim uchun qat’iy belgilangan soliqni va yagona ijtimoiy to‘lovni qonunchilikda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda to‘lash majburiyatini oladi.

9.2. Boshqa shartlar (taraflarning xohishiga ko‘ra) _____

Taraflarning manzili va imzolar:

Xodim: _____	Ish beruvchi:_____
Manzil: _____	Manzil: _____
_____ (imzo)	_____ (imzo)
20__ yil «___»_____	20__ yil «___»_____

17-rasm. Xususiy tadbirkor va xususiy tadbirkorning xodimi o‘rtasidagi mehnat shartnomasi shakli[85]

[85] Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 31 июлдаги 219-сонли қарори билан тасдиқланган «Хусусий тадбиркорлар томонидан ходимларни ёллаган ҳолда тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш тартиби то‘g‘рисида» Низом. lex.uz-O‘збекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари ма’лумотлари миллий базаси. 2021 йил.

Mazkur shartnoma xususiy tadbirkorni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati davriga tuziladi va ulardan bittasi xususiy tadbirkor soliq bo‘yicha hisobga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga beriladi, ikkinchisi xususiy tadbirkorda, uchinchisi esa - xodimda qoladi.

Xodimning ahvolini qonunchilik normalariga nisbatan yomonlashtiradigan mehnat shartnomasi shartlari haqiqiy hisoblanmaydi. Mehnat shartnomasida xususiy tadbirkorning imzosini muhr bilan tasdiqlash, shuningdek ishga qabul qilish to‘g‘risida buyruq rasmiylashtirilishi talab qilinmaydi.Xodimga xususiy tadbirkor tomonidan mehnat daftarchasi yuritilmaydi. Xususiy tadbirkor xodimlarni yollashni bankda qonunchilikda belgilangan tartibda hisob raqami ochilgandan keyin amalga oshirishi mumkin bo‘ladi.

Xususiy tadbirkor bilan mehnat shartnomalari tuzmasdan faoliyatni amalga oshirayotgan xodimlar aniqlangan taqdirda, xususiy tadbirkor xodimlar sonini yashirganlik uchun nazarda tutilgan ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga[86] asosan xodimlar sonini yashirish - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xususiy tadbirkor yollangan xodimini soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘ydiradi va unga soliq idorasi tomonidan yollangan xodimni hisobga qo‘yish kartochkasi beriladi. Shundan keyin tadbirkorning yollagan xodimini ishlatishi mumkin bo‘ladi.

Buning uchun xususiy tadbirkor yollangan xodimni hisobga qo‘yish to‘g‘risida xodim bilan mehnat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan

[86] O‘zbekiston Республикасининг Ma’мурий жавобгарлик to‘g‘рисидаги кодекси. 175[5]-модда. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 йил.

kechikmay soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yuqorida ko‘rsatilgan shakl bo‘yicha ariza taqdim etadi.18-rasm.

_____dan
(xususiy tadbirkorning F.I.O.)
_____ga taqdim etiladi
(soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Yollanadigan xodimni hisobga qo‘yish to‘g‘risida
ARIZA

_____ni
(xodimning F.I.O.)
_____ni amalga oshirish
uchun
(faoliyat turi)
_____ga
(faoliyat amalga oshiriladigan joy)
_____ muddatga xususiy tadbirkorning yollanma xodimi sifatida hisobga qo‘yishingizni so‘rayman.

Xodim to‘g‘risidagi ma’lumotlar:
F.I.O. _____
Pasport seriyasi _____ № _____ _____ tomonidan berilgan
Uy manzili _____
Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami_____

Xususiy tadbirkor to‘g‘risidagi ma’lumotlar:
Pasporti ma’lumotlari: _____
(seriya №, kim tomonidan va qachon berilgan)

Uy manzili: _____
Pochta indeksi: _____ Bog‘lanish telefoni: _____
Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami _____
Arizaga qo‘shimcha ravishda ilova qilinadigan hujjatlar:
1.
_____
2.
_____
3.
_____

_____ _____
(to‘ldirilgan sanasi va vaqti) (ariza beruvchining imzosi)

_____ _____
(qabul qilingan sanasi va vaqti) (davlat soliq xizmati organi mas’ul xodimining imzosi)

18-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollanadigan xodimni davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risida ariza shakli[87]

[87] Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida» Nizom. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Xodimni hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizaga xususiy tadbirkor va xodim o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasining nusxasi, xodimning 3 x 4 sm hajmdagi 2 dona fotosurati, yollangan xodim pasportining nusxasi ilova qilinadi. Davlat soliq xizmati organlari yollangan xodimni hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza olingan sanadan boshlab uch ish kuni mobaynida xususiy tadbirkorga quyidagi shakl bo‘yicha yollangan xodimni hisobga qo‘yish kartochkasini beradilar. 19-rasm.

YOLLANGAN XODIMNI HISOBGA QO‘YISH KARTOCHKASI

№ _____

20__ yil “___” _____

Xodim to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

Surat uchun joy	F.I.O. _____ Pasport seriyasi _____ № _____ _____ tomonidan berilgan Uy manzili _____ Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami _____

_____ tumani (shahri) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan xususiy tadbirkorning yollangan xodimi sifatida hisobga qo‘yilgan.

Ish beruvchi (xususiy tadbirkor) to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

F.I.O.

_____

Pasport seriyasi _____ № _____ _____ tomonidan berilgan

Uy manzili _____

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami _____

Amalga oshiriladigan faoliyat turi _____

Faoliyatni amalga oshirish joyi _____

20__ yil “___”_____ gacha haqiqiydir.

M.O‘.

DSI rahbari (o‘rinbosari) _____.

(imzo)

9-rasm. Yollangan xodimni hisobga qo‘yish kartochkasi shakli[88]

[88] Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida» Nizom. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Mazkur hisobga qo‘yish kartochkasi xodim va xususiy tadbirkor o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatiga beriladi. Amal qilish muddati tugagach Hisobga qo‘yish kartochkasi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga topshiriladi va yo‘q qilinadi. Xodim bilan mehnat shartnomasi muddatidan oldin to‘xtatilgan taqdirda xususiy tadbirkor soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga xodim bilan mehnat shartnomasi to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi bildirishnomani va bir vaqtning o‘zida Hisobga qo‘yish kartochkasini topshiradi.

Yo‘qolgan yoki yaroqsiz bo‘lib qolgan Hisobga qo‘yish kartochkasi o‘rniga xususiy tadbirkorning arizasiga binoan, ariza berilgan sanadan boshlab ikki ish kuni mobaynida uning dublikati beriladi. Xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan xususiy tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini faqat bitta ob’ektda amalga oshirish huquqiga ega.

Xususiy tadbirkor bilan mehnat munosabatlari o‘rnatgan jismoniy shaxslarga xususiy tadbirkorlar sifatida qaralmaydi va ular xususiy tadbirkor nomidan huquqiy hujjatlarni imzolash huquqiga ega emas.

Xususiy tadbirkorning xodimi savdo va xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini buzgan taqdirda unga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik choralari tatbiq etiladi, moliyaviy sanksiya esa xodimni yollagan xususiy tadbirkorga nisbatan qo‘llanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi, huquq va majburiyatlarni oladi hamda amalga oshiradi. Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlar tuzayotganida, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida harakat qilayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq anglashilmasa, ko‘rsatishi kerak. Bunday eslatmaning mavjud emasligi yakka tartibdagi tadbirkorni o‘z majburiyatlari bo‘yicha zimmasidagi javobgarlikdan ozod etmaydi. Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamplardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni

amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda qonunchilikda tadbirkorlik foliyati bilan shug‘ullanayotgan har qanday shaxs tadbirkorlik faoliyatining litsenziyalanishi lozim bo‘lgan turlari bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lsa, albatta qonun xujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya olishlari talab etiladi. Aks holda qonun xujjatlarida faoliyat bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanganlik uchun nazarda tutilgan ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/7.3*).

Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanishga nisbatan javobgarlik choralari

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 165-moddasida jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlikning litsenziyalanadigan foliyati bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanishga nisbatan quyidagi miqdorda ma’muriy jarima belgilangan:

Litsenziya olinishi yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar olinishi shart bo‘lgan faoliyat bilan litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanish -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa, -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘z navbatida Jinoyat kodeksining 190-moddasida ham jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlikning litsenziyalanadigan foliyati bilan litsenziyasiz shug‘ullanishga nisbatan quyidagi tartibda jinoiy javobgarlik belgilangan:

Litsenziya olinishi shart bo‘lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug‘ullanish ko‘p miqdorda daromad olish bilan bog‘liq bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakat:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) xavfli residivist tomonidan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e’tiboran o‘ttiz kunlik muddatda faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 31-moddasi asosan, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, biroq yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxslarga soliq solish va ularga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash maqsadida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida qaraladi.

7.3-§. Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari

Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o‘z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki

Oila a’zolari - er-xotin, ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar hamda 15 yoshdan oshgan, shu jumladan farzandlikka olingan bolalar.

tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik- er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi bilan tegishli bo‘lgan ularning umumiy mulki negizida amalga oshiriladigan hamda er-xotinning va ularga yordam beruvchi oila a’zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs bo‘lmagan jismoniy shaxslarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

Yuridik shaxs shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari uch nafargacha doimiy ishchini yollab, ular bilan mehnat shartnomasi tuzishga, shuningdek mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan boshqa yaqin qarindoshlarini, shu jumladan bolalari va nevaralarining erini (xotinini), aka-ukalari va opa-singillarini, ularning xotinini (erini) va bolalarini yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik sub’ektining ishtirokchisi sifatida jalb etishga haqli[89].

Oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari va yordam beruvchi oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqlik prinsiplari, o‘zaro ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam va oila oldida uning barcha a’zolarining mas’uliyat hissi, bolaning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, bola mehnatining eng yomon va majburiy shakllariga yo‘l qo‘ymaslik, oila a’zolari tomonidan o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirilishini hamda bu huquqlarning himoyasini ta’minlash asosida quriladi.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlikning hunarmandchilik faoliyati turi bilan ham shug‘ullanishlari mumkin. O‘z navbatida hunarmandchilik faoliyati (hunarmandchilik) - yuridik shaxs bo‘lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxsni tashkil etmagan holda hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun tadbirkorlikning boshqa faoliyat turlarini amalga oshiruvchilar qatorida davlat ro‘yxatidan o‘tishlari lozim bo‘ladi. Bunda hunarmandchilik sub’ektlari uchun davlat ro‘yxatidan o‘tish, barcha tadbirkorlik

[89] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida. O‘RQ-327-son. 2012 yil 26 aprel. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

sub'ektlari uchun belgilangan usullarda amalga oshiriladi. Faqatgina prezidentimizning 2019 yil 28 noyabrdagi qaroriga[90] asosan hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha yangidan davlat ro'yxatidan o'tishda to'lanadigan davlat boji yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun amalda belgilangan davlat boji miqdorining 50 foizi miqdorida belgilandi.

Hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomada hunarmandchilik faoliyatining tegishli yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirish mumkin bo'lgan hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan. 15-jadval. (Bu haqda to'liqroq ma'lumot:*http://fiin.uz/O'quv-materiallari/Darslik va o'quv qo'llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 7.4*)

T/r	Asosiy yo'nalishlar	Shogirdlar sonining miqdori
1.	Ganch o'ymakorligi	5
2.	Qo'lda gilam to'qish	10
3.	Qo'lda gazlamalar to'qish	10
4.	Tosh o'ymakorligi	5
5.	Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va bo'yoqli naqshlar	10
6.	Kandakorlik, misgarlik buyumlari	10
7.	Metalldan yasalgan buyumlar	5
8.	Tunukadan yasalgan buyumlar	5
9.	Milliy poyabzal tayyorlash	10
10.	Milliy liboslar tayyorlash	10
11.	Bosh kiyimlar tayyorlash	10
12.	Yog'och o'ymakorligi	10
13.	Suyakka o'yma naqsh solish	5
14.	Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar	10
15.	Kashtachilik	10
16.	Zardo'zlik buyumlari	10
17.	Musiqa asboblari	5
18.	Chinni, fayans va sopol buyumlari	10
19.	Qimmatbaho metalldan yasalgan zargarlik buyumlari	10
20.	O'yinchoqlar	10
21.	Mayda haykaltaroshlik buyumlari	10
22.	Charm mahsulotlari	10

[90] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-3549-son, 2019 yil 28 noyabr. lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

23.	Mualliflik mebellarini tayyorlash	5
24.	Yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari	5
25.	Pechka va kaminlar yasash	5
26.	Novdalardan buyumlar to‘qish	10
27.	Mozayka ishlari	5
28.	Ko‘zgu tayyorlash	5
29.	Shisha puflash ishlari	5
30.	Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar	5
31.	Soatsozlik	5
32.	Emallash ishlari	5
33.	Esdalik buyumlari	10
34.	Oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan taqinchoqlar	10

15-jadval. Hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ro‘yxati va ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha yollash mumkin bo‘lgan shogirdlar soni[91]

Xalq amaliy san’ati ustalarining milliy katalogiga kiritilgan hunarmandlar uchun jalb etiladigan shogirdlar soni cheklanmaydi. Hunarmand va shogirdlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ahdlashuv, ixtiyoriylik, mehnatga majbur qilishga yo‘l qo‘ymaslik va ijtimoiy adolat, ish muomalasi odatlariga, shuningdek mahalliy odatlarga va an’analarga rioya qilish asosida quriladi.

Hunarmandning shogirdi - 15 yoshdan oshgan, hunarmanddan hunarmandchilik faoliyati buyumlari yoki tovarlari (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyatni o‘rganayotgan jismoniy shaxs.

Hunarmandning shogirdlariga ish haqi to‘lash miqdori hunarmand tomonidan o‘zaro kelishuv bo‘yicha, ularning buyumlar yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarishdagi mehnat ulushidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Hunarmandning shogirdi tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlar yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini nazorat qilish hunarmand tomonidan amalga oshiriladi. Hunarmand o‘z majburiyatlari bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulkiy javobgar bo‘ladi.

Oilaviy tadbirkorlik sub’ekti yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hukumatning 2011 yil 7 yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari uch nafargacha doimiy ishchini yollab, ular bilan mehnat shartnomasi tuzishga haqli.

[91] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5242-son, 2017 yil 17 noyabr. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish jarayonida oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro mehnat munosabatlari, shu jumladan mehnatga haq to‘lash va daromadni taqsimlash masalalari ular tomonidan mustaqil ravishda tartibga solib boriladi. Oila a’zosi 15 yoshga to‘lgan taqdirda oilaviy tadbirkorlikda qatnashishi mumkin. Shaxs 16 yoshga to‘lganda buyumlar yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni tayyorlash uchun hunarmandning shogirdi sifatida jalb etilishi mumkin. 15 yoshga to‘lgan shaxs ota-onasidan bittasining yoki uning o‘rnini bosadigan shaxsning yozma roziligi bilan hunarmandning shogirdi sifatida jalb etilishi mumkin. 18 yoshgacha bo‘lgan shaxs oilaviy tadbirkorlikda, shuningdek hunarmandning shogirdi sifatida ishlashga u umumta’lim maktabi, kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyda albatta o‘qishi sharti bilan qo‘yiladi. 18 yoshdan kichik shaxslarning mehnatidan oilaviy tadbirkorlikda yoki hunarmandchilik faoliyatida ularning salomatligi, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda foydalanish taqiqlanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan ishlarda 18 yoshdan kichik shaxslarning belgilangan normalardan ortiqcha og‘irlikdagi yuklarni ko‘tarishiga va tashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oilaviy tadbirkorlikda yoki hunarmandchilik faoliyatida qatnashayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun bir haftada 36 soatlik, 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun esa – bir haftada 24 soatlik ish vaqtidan oshmasligi lozim.

Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishni muvofiqlashtirish va qo‘llab-quvvatlash mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan Savdo-sanoat palatasi hamda tijorat banklari bilan birgalikda quyidagi yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni bajarish yo‘li bilan amalga oshiriladi:

ustaxonalar uchun xonalarni ijaraga berish, maxsus joylarni ajratish va obod qilish, hunarmandlar ishlab chiqargan buyumlar va tovarlarni sotish uchun ixtisoslashtirilgan do‘konlar va shoxobchalarni tashkil etish;

hunarmandchilik sub’ektlarini mahalliy xom ashyo, materiallar, asboblar va kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta’minlashda, hunarmandchilik buyumlari

ko‘rgazmalarini o‘tkazishda, yoshlarni hunarmandchilik ko‘nikmalariga o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda amaliy yordam ko‘rsatish;

ustachilikni o‘rganayotgan shogirdlarga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘laridan qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartib bo‘yicha «Usto-shogird» stipendiyasi to‘lash;

oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik sub’ektlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozli mikrokreditlar ajratish.

7.4-§. Dehqon xo‘jaliklari va ular faoliyatini yuritish tartibi

Dehqon xo‘jaligi oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi. Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda fuqaroga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan va dehqon xo‘jaligi davlat ro‘yxatiga olinganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunida dehqon xo‘jaliklariga yer berish shartlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib[92], jumladan oilali va qishloq joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga, shuningdek tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman (shahar) kengashining birgalikda berilgan tavsiyasiga ega bo‘lgan yosh fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yer uchastkasi sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sug‘orilmaydigan yaylovlardan 1 gektargacha o‘lchamda beriladi. Qishloq joylarda kamida uch yil yashab turganlik to‘g‘risidagi talab yangi sug‘oriladigan yer massivlari uchun

[92] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida. 604-I-sonli, 1998 yil 30 aprel. 8-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil.

qo‘llanilmaydi. Bunda dehqon xo‘jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkasining o‘lchami yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkalari imoratlar va inshootlar qurish huquqisiz beriladi. Mazkur qoida yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkalariga tatbiq etilmaydi.

Fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun 0,06 gektar doirasida yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligiga ajratilgan yerning chegaralari naturada (joyning o‘zida) yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan rasmiylashtiriladi. Yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan dehqon xo‘jaligiga tuman (shahar) hokimining qarori bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va realizatsiya qilish, ozuqa yetishtirishni tashkil etish, shuningdek yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga qo‘shimcha ravishda yer uchastkalari berilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi. Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig‘i yoki oilaning muomalaga layoqatli a’zolaridan biridir. Dehqon xo‘jaligi a’zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda dehqon xo‘jaligi nomidan shu xo‘jalik boshlig‘i ish ko‘radi. Ushbu xo‘jalikning boshlig‘i vaqtincha

mehnat qobiliyatini yo‘qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo‘lmaganda u o‘z majburiyatlarini bajarish vakolatini shu xo‘jalik a’zolaridan biriga berishga haqli hisoblanadi. Shuningdek, dehqon xo‘jaligi boshlig‘i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi shu xo‘jalik a’zolarining o‘zaro kelishuvi asosida, dehqon xo‘jaligi faoliyatini davom ettirish istagida bo‘lgan xo‘jalik a’zolaridan biriga meros bo‘yicha o‘tadi. Mazkur xo‘jalik boshlig‘i mehnat qobiliyatini to‘la yo‘qotgan taqdirda, yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqi xo‘jalik a’zolaridan biriga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda topshiriladi.

Tomorqa yer uchastkasi - qishloq xo‘jalik mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a’zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o‘lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir.

Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkalari tegishli shartlar asosida beriladi va ushbu yer uchastkalariga imoratlar va inshootlar qurish mumkin bo‘lmaydi. Shuning bilan birgalikda yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkalarining tomorqa qi smida ham dehqon xo‘jaligini yuritish mumkin bo‘ladi.

Tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan guvohlantiriladi.Dehqon xo‘jaligining yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sohasidagi huquq va majburiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Dehqon xo‘jaligining faoliyati xo‘jalik a’zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Ushbu xo‘jalikdagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin. Dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug‘ullanishlari mumkin. Dehqon xo‘jaligi va uni a’zolari barcha tadbirkorlik sub’ektlari qatorida o‘ziga xos tartibda qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan huquq hamda majburiyatlarga ega hisoblanadi. Jumladan, dehqon

xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyatining sub’ekti tariqasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega[93]:

o‘ziga berilgan yer uchastkasida dehqon xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;

yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda baho belgilash;

o‘zi yetishtirgan mahsulotni, shu jumladan bu mahsulotni iste’molchilarga o‘z xohishi bo‘yicha realizatsiya qilish huquqini tasarruf etish;

xarid etiladigan mahsulotga oldindan haq to‘lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;

tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarga sotish uchun va erkin savdoga mo‘ljallangan aksiyalarni sotib olish;

o‘z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kimoshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga qo‘yish.

Dehqon xo‘jaligi quyidagilarni bajarishi shart[94]:

yer uchastkasidan qat’iy belgilangan maqsadda foydalanish;

tabiiy ob’ekt bo‘lmish yerga zarar yetkazmaslik;

yer uchastkasini asrash, uning unumdorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlar qilish;

yangi berilgan yer uchastkasidan, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, bir yil ichida foydalanishga kirishish;

agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;

dehqon xo‘jaligining majburiyatlari va qarzlari bo‘yicha to‘la javobgar bo‘lish hamda xo‘jalik a’zolari uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta’minlash.

---

[93] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida. 604-I-sonli, 1998 yil 30 aprel. 12-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[94] Shu manba

Qonun hujjatlarida dehqon xo‘jaligining boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan qonunda dehqon xo‘jaligi boshlig‘ining ham huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, jumladan xo‘jalik boshlig‘i quyidagi huquqlarga ega[95]:

dehqon xo‘jaligi nomidan ishonchnomasiz ish ko‘rish;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

ishonchnomalar berish;

bankda hisobvaraqlar ochish.

Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i dehqon xo‘jaligining hamda uning a’zolarining manfaatlari himoya qilinishini va huquqlari amalga oshirilishini ta’minlashi shart.

Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Yuqorida e’tirof etilgan qonun hujjatida dehqon xo‘jaligi boshlig‘i bilan birgalikda dehqon xo‘jaligi a’zolarining ham huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan[96]. Jumladan, dehqon xo‘jaligi a’zolari:

xo‘jalik a’zolari o‘rtasidagi shartnoma shartlariga ko‘ra birgalikda yoki yakka tartibda foydalaniladigan daromaddan o‘z ulushini olish;

qonun hujjatlariga muvofiq davlat ijtimoiy sug‘urtasidan o‘tkazilish va ijtimoiy ta’minlanish, shuningdek tovar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish uchun dehqon xo‘jaligida sarflangan ish vaqti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq to‘lab borilgan taqdirda mehnat stajiga kiritilish huquqiga ega.

Dehqon xo‘jaligi a’zolari dehqon xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyatida shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi shart.

Qonun hujjatlarida dehqon xo‘jaligi a’zolarining boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilishi mumkin.

---

[95] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida. 604-I-sonli, 1998 yil 30 aprel. 13-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[96] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida. 604-I-sonli, 1998 yil 30 aprel. 14-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil.

Yuqoridagilar bilan birgalikda dehqon xo‘jaligi o‘ziga qarashli uy-joylar, xo‘jalik imoratlari, qishloq xo‘jalik ekinzorlari va ko‘chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollar, parrandalar, qishloq xo‘jalik texnikasi, asbob-uskuna va ashyo-anjomlari, transport vositalari, pul mablag‘lari, intellektual mulk ob’ektlariga, ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotga; olingan daromadga (foydaga) hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa mol-mulklarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Dehqon xo‘jaligining o‘ziga qarashli mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi. Dehqon xo‘jaligining mol-mulki, agar uning a’zolari o‘rtasidagi kelishuvga binoan umumiy ulushli mulk tashkil etish nazarda tutilgan bo‘lmasa, uning a’zolariga umumiy birgalikdagi mulk asosida qarashli bo‘ladi. Uning mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xo‘jalik a’zolarining o‘zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

Dehqon xo‘jaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni hosil qilish, ko‘paytirish, olish, sotish, uni ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega. Ushbu xo‘jalikning mol-mulki fuqarolik qonun hujjatlari normalariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Dehqon xo‘jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari xususiylashtirilishi, bo‘linishi, oldi-sotdi, garov, hadya, ayirbosh qilinilishi mumkin emas. Faqatgina yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kredit olish uchun garovga qo‘yilishi mumkin. Xo‘jalikka meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i undiriladi.

7.5-§. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va to‘lash tartiblari

Biz yuqoridagi paragrafda aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan barcha jismoniy shaxslar qatorida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan quyidagi jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘laydigan bo‘ldi. 20-rasm.



20-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘laydigan tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar[97].

Mamlakatimizda hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan «Hunarmand» uyushmasi a’zolari bo‘lgan tadbirkorlar 1997 yil 1 apreldan buyon soliqlardan ozod etilib kelinmoqda. «Hunarmand» uyushmasiga a’zo bo‘lgan tadbirkorlarga quyidagi shaklda hunarmandchilik a’zosi guvohnomasi beriladi. 21-rasm.

Soliq kodeksi hamda Prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli Farmoniga asosan «Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan hunarmandlar soliq to‘lashdan ozod etilgan. Shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra[98] yakka tartibdagi tadbirkorning yollama xodimlari ham qat’iy belgilangan soliqni (bugungi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini) to‘lashdan ozod etilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘RQ-599-sonli qonunda 2020 yilning 1 yanvarigacha qabul qilingan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida, shu jumladan Prezident va hukumatning qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qilishligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, mazkur qonunda 2020 yilgacha amalda bo‘lgan qat’iy belgilangan soliq o‘rniga tegishincha qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

[97] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 385-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[98] O‘zbekiston Respublikasining Qarori. Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3856-sonli, 2018 yil 14 iyul. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

solig‘i kiritilganligi, ularning to‘lovchilariga qonun hujjatlarida ilgari belgilab qo‘yilgan imtiyozlar va alohida hisoblash tartibi tatbiq etilishi belgilab qo‘yilgan.

GUVOHNOMA

СВИДЕТЕЛЬСТВО/CERTIFICATE

Samarqand viloyati

(Hudud/Регион/Region)

O'zbekiston Respublikasi
"Hunarmand" uyushmasi

(Guvohnoma berish joyi/Место выдачи свидетельства/Issued by)

№ SN-04234

"KARIMOVA XUSRAVXON XUSENOV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUNARMAND ISHMASI A'ZOSI HISOBLANADI

ЯВЛЯЕТСЯ ЧЛЕНОМ АССОЦИАЦИИ НАРМАНД" РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИ

IS THE MEMBER OF THE ASSOCIATION OF THE HA FTSMAN OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTA

A'ZO HAQIDA MA'LUMOT/ИНФ ЦИЯ О ЧЛЕНЕ/MEMBER INFOR ON

STIR/ИН K ID: 496605159

PASPORT: AA2069966 15.07.20 SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR IIB

Seriya va raqami/ Номер и серия ID Berilgan sanasi/ Дата выдачи Date of issue Pasport bergan organ/Наименование органа, выдавшего паспорт/Name of the authority issuing the passport

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, JO'YI-SOY MAHALLASI

Uy manzili/ Домашний адрес/ Home adress

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, JO'YI-SOY MAHALLASI

Faoliyatni amalga oshiradigan manzil/Адрес места осуществления деятельности/Address of place of business

Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar

Faoliyat turlari/Вид деятельности/Activity types

Guvohnoma amal qilish muddati
Действителен до/Expiration date

01.06.2021

(Sana/дата/date)

Guvohnomani tekshirish uchun
Для проверки свидетельство
To verify the validity of the Certificate

Guvohnoma berilgan sana 01.06.2020

http://hunar.uz/pub/member?tin=496605159

(+99871) 279-74-27

namuna

21-rasm. «Hunarmand» uyushmasi a’zoligi guvohnomasi shakli.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan daromad solig‘ini to‘lashning quyidagi 2 xil tartibi mavjud: 22-rasm.

22-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash tartiblari[99]

Soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu soliq to‘lash tartiblarini quyidagi yo‘llar orqali tanlashga haqli[100]:

1) tadbirkorlik subyektining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi chog‘ida tanlangan soliq to‘lash tartibini ko‘rsatish;

2) doimiy yashash joyi bo‘yicha soliq organlariga joriy yilning 25-yanvaridan kechiktirmasdan tanlangan soliq to‘lash tartibi to‘g‘risida bildirish xati taqdim etish.

Soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan taqdim etiladigan bildirishnoma quyidagi shaklda bo‘ladi: 23-rasm.

[99] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 385-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.
[100] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 385-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ varaq 4 0

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash tartibi to‘g‘risida
BILDIRISHNOMA

_____
(pochta indeksi, shahar (tuman, qishloq),
_____ manzilda joylashgan
ko‘chaning nomi va uy (xonadon)ning raqami
_____ amalga oshiradigan
(asosiy faoliyat turi)
_____
(soliq to‘lovchining to‘liq nomi)

Sizni xabardor qiladiki, ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ dan boshlab
(kun/oy/yil)

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini:

☐ 1 - jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida

☐ 2 - qat’iy belgilangan miqdorda

to‘lashini ma’lum qiladi.

Bildirishnomani taqdim etish muddati (kun/oy/yil) ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐

_____ ga taqdim etiladi.
(soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Soliq to‘lovchi to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

1. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma ☐☐☐☐☐☐☐

2. STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐

3. Telefon: kod ☐☐ raqam ☐☐☐☐☐☐☐

Ushbu bildirishnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini tasdiqlayman:

Yakka tartibdagi tadbirkor _____
(imzo)
_____
(sana)

23-rasm.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash tartibi to‘g‘risida bildirishnoma[101]

Soliq to‘lovchi tomonidan bildirish xatini ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etilmasligi uning soliqni qat’iy belgilangan miqdorda to‘lashga roziligini bildiradi.

[101] O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Qarori. Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 24 fevralda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3221. 4-ilova

kka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalari tadbirkorlik faoliyati turi va fizik ko‘rsatkichlari hamda faoliyatni amalga oshirish joyini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilab qo‘yilgan. 16-jadval. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/7.5*)

T/r	Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so‘mda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	750 000	600 000	300 000	200 000
	dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
2.	Maishiy xizmatlar	250 000	150 000	100 000	50 000
3.	Boshqa faoliyat turlari	225 000	150 000	100 000	50 000
4.	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
	3 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	150 000			
	3 tonnadan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	225 000			

16-jadval. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalari[102]

Soliq to‘lovchi:

bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullanganida, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘laydi, faoliyat bilan ikki va undan ortiq aholi punktlarida shug‘ullanganida esa, ushbu aholi punktlari uchun o‘rnatilgan yuqori stavkada soliq to‘lanadi;

tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalarda va binoda amalga oshirgan taqdirda, yashash joyidagi soliq organiga ijaraga beruvchi to‘g‘risida ma’lumotnoma (axborot) taqdim etishga majbur;

[102] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 385-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, oyiga qat’iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘laydi;

«Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan va hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘lashdan ozod etiladi;

bolalar o‘yin avtomatlari bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatsa, har bir jihozlangan joy (birlik) uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘laydi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyligi qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli.

Qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lash xohishini bildirgan yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran amalga oshiradi. Faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qat’iy belgilangan summalarda har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi sanasidan kechiktirmay to‘lanadi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/7.6*).

Bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullanayotgan soliq to‘lovchilar har bir faoliyat turi bo‘yicha qat’iy belgilangan miqdorda soliqni alohida, shu faoliyat turi uchun belgilangan miqdorda to‘lashi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan summalarda to‘lash tartibiga doir vaziyatli misollar

1-VAZIYAT. Yakka tartibdagi tadbirkor J.Shukurov 2021 yil 10 yanvar kuni davlat ro‘yxatidan o‘tgan va faoliyatini 11 yanvardan boshlagan. Ro‘yxatidan

o‘tishda daromad solig‘ini qat’iy belgilangan stavkalarda to‘lash tartibini tanlagan. Ushbu tadbirkor qaysi oydan, qaysi tartibda soliq to‘laydi? Soliqni to‘lash muddati qachon?

YECHIMI: Yakka tartibdagi tadbirkor J. Shukurov daromad solig‘ini qat’iy belgilangan stavkalarda to‘lash tartibini belgilangan muddat doirasida tanlagani uchun 2021 yil fevral oyidan boshlab, daromad solig‘ini qat’iy belgilangan stavkalarda to‘laydi. 2021 yil fevral oyi uchun - fevral oyining 15-sanasigacha soliqni to‘lashi lozim bo‘ladi.

2-VAZIYAT. Yakka tartibdagi tadbirkor V. Abdurahmonov LABO avtomobilida (3 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega) yuk tashish xizmati faoliyati bilan shug‘ullanadi. Ushbu yakka tartibdagi tadbirkor 2021 yilda 1 oyda qancha miqdorda daromad solig‘i to‘laydi?

YECHIMI: Avtomobil transportida yuk tashish xizmati faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun faoliyatni amalga oshirish joidan qat’iy nazar respublika bo‘yicha bir xil soliq stavkasi belgilangan. Jumladan Soliq kodeksiga asosan 2021 yilda respublikaning barcha hududi uchun 3 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillarda xizmat ko‘rsatish uchun bir oyda daromad solig‘ining qat’iy belgilangan stavkasi 150 ming so‘m miqdorida belgilangan. Shunga ko‘ra mazkur tadbirkor har oyda oyning 15-sanasiga qadar 150 ming so‘m miqdorida daromad solig‘ini to‘lashi lozim.

4-VAZIYAT. Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrida gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qiladigan yakka tartibdagi tadbirkor II guruh nogironi hisoblanadi. Ushbu yakka tartibdagi tadbirkor qancha miqdorda daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summasini to‘laydi?

YECHIMI: Viloyat markazlari bo‘lgan shaharlarda gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyati uchun soliq summasi-150ming so‘m. Mazkur yakka tartibdagi tadbirkor II guruh nogironi bo‘lgani uchun 150 ming*50%=75 ming so‘m soliq to‘laydi.

Qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lash xohishini bildirgan soliq to‘lovchilar daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlarida daromadlarni

olish bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart. Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlari quyidagilardir:

1) Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub’ektining) daromadlarini va xarajatlarini hisobga olish kitobi;

2) Tovar cheklari kitobi.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlarining shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi. 1-ilova.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar soliq organlariga yilning har bir choragi yakunlari bo‘yicha, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkor)ning faoliyati to‘g‘risidagi hisobot shakli 2-ilovada keltirilgan.

Soliqni to‘lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o‘tkazish majburiyati soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan va soliq agentlari deb e’tirof etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning zimmasiga yuklatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan soliq agentlari, agar Soliq kodeksining 57-bobi (Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida daromadlarga soliq solish)da boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘zlarining yollanma xodimlariga oid soliq hisobotini o‘zi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

Qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lash qo‘llaniladigan faoliyatdan olinadigan daromadlar bilan birga boshqa daromadlar oluvchi soliq to‘lovchilar bu daromad turlari bo‘yicha alohida hisob yuritishi shart va bu daromadlar bo‘yicha deklaratsiya asosida daromad solig‘ini to‘laydilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar agar o‘zlari ixtiyoriy daromad solig‘ini deklaratsiya asosida to‘lashni tanlangan bo‘lsa, u holda jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida olgan daromadlari bo‘yicha soliq to‘laydi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan soliq to‘lovchilar daromadlarni olish bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq

bo‘lgan haqiqatda amalga oshirilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirib tashlash huquqiga ega. Bunda soliq to‘lovchilarning jami daromadi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilinishidan olingan daromadlardan, shuningdek boshqa daromadlardan iborat bo‘ladi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani belgilangan muddatlarda taqdim etish bilan bir qatorda dastlabki tarzdagi deklaratsiyani joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmay taqdim etadi. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik sub’ektlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oyning oxiriga qadar dastlabki deklaratsiyani taqdim etadi.

Masalan: *Yakka tartibdagi tadbirkor 2021 yil 3 mart kuni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan va deklaratsiya asosida soliq to‘lash tartibini tanlagan bo‘lsa, u holda ushbu tadbirkor* ***31 martga qadar*** *tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha tegishli shakldagi dastlabki deklaratsiyani taqdim etishi lozim.*

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda soliq summasi soliq organi tomonidan ham hisoblab chiqarilishi mumkin.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi.

Yakka tartibagi tadbirkorlar taqdim etilgan dastlabki deklaratsiyada daromadini taxmin qilinayotgan xarajatlarni chegirilgan holda ko‘rsatadi.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya yoki soliq organining xabarnomasi asosida, daromad olingan oydan keyingi oyning o‘n beshinchi kunigacha har oyda to‘laydi.

Masalan:

Sartarash yakka tartibagi tadbirkor 1 oy davomida o‘rtacha 4 mln. so‘m daromad qiladi. 1 oy davomida xarajatlari 2 mln. so‘m (500 ming so‘m ijara to‘lovi, 750 ming so‘m kommunal to‘lovlari, 223 ming so‘m ijtimoiy soliq,

527 ming so‘mlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan anjomlar va vositalarni sotib olishga).

Yakka tartibagi tadbirkorlar dastlabki deklaratsiyasida har oylik daromadi sifatida 2000 000 so‘mni (4 000 000-(500 000+750 000+223 000+527 000) ko‘rsatib o‘tadi.

Misolimizda dastlabki deklaratsiya asosida mazkur yakka tartibagi tadbirkorga daromadidan kelib chiqib har oyda oyiga 240 ming so‘m (2 000 000 * 12 %) daromad solig‘i hisoblanadi.

Mazkur yakka tartibdagi tadbirkor hisoblangan 240 ming so‘m daromad solig‘ini faoliyat ko‘rsatgan yanvar oyi uchun 15 fevralga qadar, fevral oyi uchun 15 martga qadar va nihoyat dekabr oyi uchun keyingi yilning 15 yanvariga qadar har oyda to‘lashi lozim.

Jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘laydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan shakldagi jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etadi. 3-ilova.

Agar soliq to‘lovchi jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning o‘zgarganligi haqidagi arizani Soliq kodeksi 396-moddasining oltinchi qismida belgilangan muddatlarda taqdim etmagan taqdirda, soliq organi soliq summasini o‘zidagi mavjud axborot asosida hisoblashga va to‘lanishi lozim bo‘lgan, hisoblangan soliq summasi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga o‘n kunlik muddatda to‘lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya yoki to‘g‘rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiyani hisobga olgan holda aniqlanadi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub'ekti) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ariza asosida faoliyatini vaqtincha to‘xtatishi va qayta tiklashi mumkin. Agar yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub'ekti) o‘z faoliyatini muayyan muddatga to‘xtatsa, u o‘z faoliyatini to‘xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to‘xtatish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtning o‘zida davlat ro‘yxatidan o‘tganlik haqidagi guvohnomani topshiradi. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub'ekti) har bir yollangan xodimga belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risidagi arizani olgan tadbirkorlik sub'ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organ navbatdagi ish kuni tugaguniga qadar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to‘lashni to‘xtatib turish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) soliq organlari tomonidan olingan tadbirkorlik sub'ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ektining) faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi axborot;

2) soliq organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimga berilgan hisobga olish kartochkalari.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Dastlab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asosi sifatida 1991 yil

15 fevralda «O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida»gi (hozirgi kunda bekor qilingan) qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga asosan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi sub’ektlar qatorida jismoniy shaxslar ham e’tirof etildi. Natijada mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan jismoniy shaxslar ham keng tartibda shug‘ullana boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi PF-5978-sonKarantin tadbirlari davrida o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qat’iy belgilangan summasini va ijtimoiy soliqni hisoblash to‘xtatilsin, bunda faoliyatni to‘xtatganlik to‘g‘risida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organlari xabardor qilinadi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risida guvohnomani topshirish talab etilmaydi.

7.6-§.O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tarixi

1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi qonunda esa tadbarkorlik bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlaridan daromad solig‘i to‘lashligi belgilab qo‘yildi. Mazkur qonunga ko‘ra yalpi daromad (pul va natura shaklidagi) hamda daromad qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar o‘rtasidagi tafovut soliq undiriladigan daromad de e’tirof etildi. Daromad solig‘i tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyatining hamma turlaridan olinadigan umumiy daromaddan hisoblab chiqarilgan.

1992 yildan boshlab esa, Vazirlar Mahkamasi belgilab qo‘yadigan ro‘yxat bo‘yicha yakka tartibdagi faoliyatning alohida turlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning daromadlaridan daromad

1993 yildan boshlab “Patta to‘lovi to‘g‘risida”gi (hozirgi kunda bekor qilingan) qonuniga asosan bozorlar, yarmarkalar va oldi-sotdi qilish uchun maxsus belgilangan boshqa joylarda mollar, buyumlar va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotayotgan jismoniy shaxslar patta haqi to‘laydigan bo‘ldi.

solig‘i mahalliy hokimiyat idoralari belgilab qo‘yadigan qat’iy miqdorlarda undiriladigan bo‘ldi.

1994 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan jismoniy shaxslarga yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganlarida ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im to‘lash joriy etildi.

2001 yildan boshlab, tadbirkorlik faoliyatining quyidagi ayrim turlari, jumladan: sartaroshlik xizmatlari ko‘rsatish, shu jumladan, manikyur, pedikyur va kosmetika xizmatlarini ko‘rsatish; bilyardxonalar; videokassetalar ijarasi, audio va videokassetalar sotish; uy-joylarni ijaraga berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish (jismoniy shaxslar); umumiy ovqatlanish (jismoniy shaxslar); o‘yin apparatlarini tasarruf etishlarga nisbatan qat’iy soliq joriy etildi.Mazkur faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun soliq stavkalari daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy ko‘rsatkichga belgilandi (jihozlangan va o‘tirish joylari soni, ishlovchilar soni va hokazo). Qat’iy soliq o‘rnatilgan faoliyat turlari bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar faoliyat turiga muvofiq ravishda alohida-alohida hisob yuritishlari va to‘lovni amalga oshirishlari lozimligi belgilandi.

2003 yil 1 yanvardan boshlab sartaroshlik xizmatlari, shu jumladan manikyur, pedikyur, kosmetik xizmatlar ko‘rsatadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mazkur faoliyat turini tavsiflaydigan fizik ko‘rsatkichdan kelib chiqib hisoblanadigan qat’iy soliq o‘rniga eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda qat’iy belgilangan soliq to‘laydigan bo‘ldi.

2008 yildan boshlab kuchga kirgan (hozirgi kunda bekor qilingan) Soliq kodeksining yangi tahririda yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliq to‘lanishi belgilandi. 2017 yilning 1 dekabridan boshlab «Hunarmandlar» uyushmasiga a’zo hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar, 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3856-sonli qarorga asosan

esa yakka tartibdagi tadbirkorning yollama xodimlari qat'iy belgilangan soliqni to‘lashdan ozod etildi.

2019 yildan boshlab, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqni oyiga eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda belgilanish tartibi bekor qilindi va uning o‘rniga faoliyat turlariga nisabatan qat'iy summalarda belgilanadigan bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarida umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblarini takomillashtirilishi, olinayotgan daromadni adolatli soliqqa tortilishini ta'minlash maqsadida, 2009 yildan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar (ish, xizmat) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar kalendar yili davomida 100 mln.so‘mdan oshganda, yakka tartibdagi tadbirkor maqomini saqlab solgan holda yagona soliq to‘loviga, agar tushumlari miqdori kalendar yili davomida 1 mlrd.so‘mdan oshganda, ixtiyoriy ravishda qayta yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat ko‘rsatishlari yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini saqlab qolgan holda yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lashga o‘tkaziladigan bo‘ldi.

2020 yildan boshlab yangi tahrirda qabul qilingan Soliq kodeksiga ko‘ra[103] yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslarning ayrim toifalari sifatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘laydigan bo‘ldi.

2021 yildan boshlab esa xususiy tadbirkorlan yollangan xodimiga ish haqi hisoblashi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini ushlab, budjetga o‘tkazib beradigan bo‘ldi.

7.7-§. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan imtiyozlar va ularni qo‘llash tartibi

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, qonunlarda, Prezident farmon va qarorlarida, shuningdek Vazirlar

[103] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 385-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Mahkamasining qarorlarida ular to‘laydigan soliqlar bo‘yicha ijtimoiy va maqsadli imtiyozlar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-599-sonli Qonunining 4-moddasida 2020 yilning 1 yanvarigacha qabul qilingan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qilishi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek ushbu qonunda yagona ijtimoiy to‘lov, yagona soliq to‘lovi va qat’iy belgilangan soliq o‘rniga tegishincha ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq hamda qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i kiritilayotganligi, ularning to‘lovchilariga qonun hujjatlarida ilgari belgilab qo‘yilgan imtiyozlar va alohida hisoblash tartibi tatbiq etilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shunga ko‘ra yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ilgari belgilab qo‘yilgan va bugungi kunda amal qilayotgan imtiyozlar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi «Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3856-sonli Qaroriga asosan:

qishloq tumanlarida, bundan aholi soni 5 ming kishidan ko‘p bo‘lgan aholi punktlari mustasno, sartaroshxona xizmatlarini, yakka tartibdagi buyurtmalar bo‘yicha kiyim tikish xizmatlarini, poyabzal ta’mirlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni tashkil etgan, shuningdek, jamoat hammomlarini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2023 yil 1 iyulgacha barcha turdagi soliqlar to‘lashdan ozod etilgan.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari 3 nafargacha doimiy ishchilarni yollashga, ular bilan mehnat shartnomasi tuzishga, shuningdek, mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan boshqa yaqin qarindoshlarini, shu jumladan, mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan bolalari va nevaralarining er-xotinlarini, mehnatga layoqatli yoshga to‘lgan aka-ukalari va opa-singillarini,

ularning er-xotinlarini yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik sub'ekti ishtirokchilari sifatida jalb qilishga haqli.

Ushbu qarorga asosan birinchi marta mikrokredit olgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uni olgan sanadan boshlab 6 oy mobaynida qat'iy belgilangan soliq to‘lashdan ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar 3 tonnadan ortiq yuk ko‘taruvchi avtomobil transportida yuklarni bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi stavka bo‘yicha tashish xizmatlaridan har oyda olinadigan qat'iy belgilangan soliq to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3651-sonli qaroriga asosan maktabgacha ta'lim nodavlat muassasasini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkor maktabgacha ta'lim nodavlat muassasasi o‘z faoliyatini amalga oshira boshlagandan keyin 10 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 fevraldagi «2017-2018 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanini iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2803-sonli Qaroriga asosan Mo‘ynoq tumanida davlat ro‘yxatidan o‘tgan va ushbu hududda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 10 yil mobaynida qat'iy belgilangan soliq (hozirgi daromad solig‘ining qat'iy belgilangan summasidan) ozod qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentabrdagi «Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta'minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3301-sonli Qaroriga asosan Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari, Nurota tumanidagi Dehibaland, Sentob, Temirkovuk, Qizilcha, Gum va Cho‘ya aholi punktlari hamda Zarafshon shahri hududlarida ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2017 yilning 1 oktabridan 2028 yilning 1 yanvariga qadar qat'iy

belgilangan soliq (hozirgi daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summasidan) ozod qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi «2021 - 2023 yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4995-sonli qarorga asosan Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash va aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida 2024 yil 1 yanvarga qadar:

-yangi tashkil qilinadigan tadbirkorlik sub’ektlari, shu jumladan klaster tashkilotlari yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, kichik korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq, yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat’iy miqdordagi daromad solig‘ining; jismoniy shaxslar yer solig‘i va mol-mulk solig‘ining 50 foizini to‘lashdan ozod qilindi.

Soliq kodeksining 383-moddasi (O‘RQ-659-sonli Qonun bilan kiritilgan)ga ko‘ra soliq to‘lovchi I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, oyiga qat’iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘laydi.

Soliq kodeksining 383-moddasi (O‘RQ-659-sonli Qonun bilan kiritilgan)ga ko‘ra soliq to‘lovchi«Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan va hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘lashdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 378 va 380-moddalarida belgilangan imtiyozlar ham qo‘llaniladi.

7.8-§. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibi

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to‘laydilar. Shunga ko‘ra, agarda kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi 100 mln. so‘mdan oshsa, yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan soliq yoxud ixtiyoriy tanlash yo‘li bilan QQS va foyda solig‘i to‘lashga o‘tadi.

> *O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga aylanmadan olinadigan soliq tatbiq etilmaydi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 461-modda*

Tadbirkorlik sub’ektlarining soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshganda, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadigan jami daromad aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish ob’ektidir.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun faoliyati doirasida olingan jami daromadi aylanmadan olinadigan soliqning bazasi ham hisoblanadi. Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda o‘zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o‘zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko‘rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi. Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham aylanmadan olinadigan soliq stavkalari Soliq kodeksining 467-moddasida belgilab qo‘yilgan. 17-jadval. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz /O‘quv-materiallari/ Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 7.7*)

T/r	Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar	Soliq stavkalari, %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, bundan 2-3-bandda ko‘rsatilganlar mustasno	4
2.	Kalendar yili davomida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olgan tushumi 100 million so‘mdan oshgan, biroq bir milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmagan Telekommunikatsiya operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar	25
3.	Kalendar yili davomida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olgan tushumi 100 million so‘mdan oshgan, biroq bir milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmagan chakana savdo sohasidagi YaTTlar	
	joylashgan joyiga qarab:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1

17-jadval. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham aylanmadan olinadigan soliq stavkalari[104]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi PQ-4539-sonli qaroriga asosan 2020 yil 1 yanvardan boshlab, 2023 yil 1 yanvarga qadar Milliy katalog va Reestrga kiritilgan hunarmandlar uchun kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushumi 100 mln so‘mdan oshgan, biroq 1 mlrd so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdori uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliq 2 foiz miqdorida to‘lanadi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil aniqlanadi. Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan[105] aylanmadan olinadigan soliq hisoboti soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha – hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan (15 aprel, 15 iyul, 15 oktabrdan) kechiktirmay;

[104] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 467-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[105] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 470-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha – soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay;

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliqni to‘lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan (15 aprel, 15 iyul, 15 oktabr, 15 fevraldan) kechiktirmay amalga oshiriladi.

(Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash tartibiga doir vaziyatli misollar: *http://fiin.uz /O‘quv-materiallari/ Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 7.8*)

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash tartibiga doir vaziyatli misollar

1-VAZIYAT. *Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan summada to‘layotgan yakka tartibdagi tadbirkorning aylanmadan soliqni to‘lashga o‘tishi:*

Misol:

Yakka tartibdagi tadbirkor shaharda oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo faoliyatini amalga oshiradi. Faoliyatidan kelib chiqib jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan summada to‘laydi. Aytaylik, yakka tartibdagi tadbirkor noyabr oyining 25 sanasiga kelib, yanvar oyidan buyon amalga oshirgan savdo tushumi 100 mln. so‘m bo‘ldi. Ushbu tadbirkor noyabr oyining qolgan sanalari davomida 3 mln. so‘m, dekabr oyida esa 15 mln. so‘m savdo tushumiga ega bo‘ldi. Mazkur tadbirkor qaysi oy uchun qancha miqdorda aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi?

Yechimi:

Soliq kodeksida yakka tartibdagi tadbirkor soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshganda, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi belgilangan. Shunga ko‘ra mazkur yakka tartibdagi tadbirkor dekabr oyidagi savdo tushumidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘laydi. Shuning bilan birgalikda noyabr oyining 25 sanasidan keyin (100 mln. so‘mdan oshgan)

amalga oshirgan savdo tushumi, ya'ni 3 mln. so‘mni dekabr oyi tushumiga qo‘shib, aylanmadan soliq hisoblaydi.

Ya'ni: 15 mln. so‘m+3 mln.so‘m=18 mln. so‘m.

18 mln. so‘m*4%=720 ming so‘m.

Demak, yakka tartibdagi tadbirkor noyabr oyi uchun daromad solig‘ini qat'iy belgilangan summasini, dekabr oyi uchun esa 720 ming so‘m aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashi lozim bo‘ladi.

2-VAZIYAT. *Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tgan shaharda faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan soliq to‘lash tartibi*

Misol:

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tgan shaharda faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor *aprel* oyida 50 mln.so‘m, may oyida 80 mln. so‘m, iyun oyida esa 75 mln. so‘m miqdorida savdo tushumiga ega bo‘ldi. Mazkur yakka tartibdagi tadbirkorning ikkinchi chorakdagi jami aylanmasi (aprel-iyun) 205 mln.so‘mga yetdi. Ushbu yakka tartibdagi tadbirkor 2-chorak uchun qancha miqdorda aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi?

Yechimi:

50 mln. + 80 mln. +75 mln. =205 mln.so‘m.

2-chorak uchun aylanmadan soliq summasi 205 mln.so‘m x 4% = 8,2 mln.so‘m

Yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqli.

Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so‘mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan quyidagi shaklda bildirishnoma yuborishi lozim. 4-ilova.

7.9-§. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash tartiblari

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shu jumladan yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro‘y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Agar yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo‘lingan va ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo‘lgan kunlar soniga ko‘paytirilganda bir milliard so‘mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro‘yxatdan o‘tilgan yildan keyingi yildan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Masalan: 1 dekabrda chakana savdo faoliyati turi bilan shug‘ullanish uchun davlat ro‘yxatidan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor yilning oxiriga qadar jami 31 kun davomida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi 93 000 000 so‘mni, o‘rtacha bir kunda 3 000 000 so‘mni (93 000 000/31) tashkil qiladi. Ushbu tadbirkorning 1 kunlik tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi 1 mlrd. so‘mning 1 kunlik summasi (1 000 000 000 / 365 = 2 739 726 so‘m)dan oshadi. Ya’ni mazkur tadbirkorning yil davomida tovarlarni realizatsiya qilishdan olishi mumkin bo‘lgan daromadi 1 mlrd. so‘mdan oshib ketadi. 93 000 000 /31*365=1 095 000 000 so‘m. Shunga ko‘ra mazkur yakka tartibdagi tadbirkor keyingi yildan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so‘mdan oshmagan

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan tushum miqdoridan qat’i nazar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari hisoblanadilar.

bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida o‘n ikki oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

QQS va uni to‘lash tartibi

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so‘mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadb irkorlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi Barcha qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar qatorida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham quyidagilar soliq solish ob’ektidir:

1) realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

QQSni to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga osh irish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq solish ob’ekti hisoblanmaydi.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan o‘zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi. Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan Soliq kodeksiga va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi. Soliq bazasini aniqlash chog‘ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to‘lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to‘lov, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan haq to‘lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi. Soliq bazasi bitim taraflari tomonidan qo‘llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi. Tovarlarni respublika hududiga olib kirishda soliq bazasi tovarlarning bojxona qiymatini hamda tovarlar O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda

to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘i va bojxona bojini qo‘shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi.

QQS to‘lovchilari bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkasi 15 foiz miqdorida belgilangan.. Qo‘shilgan qiymat solig‘i uchun bir oy soliq davridir. QQS summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobotini o‘zlari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o‘tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart. Soliqni to‘lash esa soliq hisobida turilgan joy bo‘yicha har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra, soliq hisoboti taqdim etishlari muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Foyda solig‘i va uni to‘lash tartibi

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor uchun – Soliq kodeksining 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq foyda deb e’tirof etiladi

Soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan olingan foyda foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish ob’ekti hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorning soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi. Soliq davrida yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlamagan bo‘lsa, yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda soliq solinadigan daromadlarning va chegiriladigan xarajatlarning hisobini yuritishi shart. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart. Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida yakka

Jismoniy shaxs o‘zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq kelib chiqmasa, u yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotganligini ko‘rsatishi kerak.

tartibdagi tadbirkor soliq hisobida turgan joydagi soliq organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Mazkur registrlar yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran besh yil mobaynida saqlanadi hamda ularga raqamlar qo‘yilgan, ip o‘tkazib bog‘langan va tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Jami daromad yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan daromadlardan iborat bo‘ladi. Yakka tartibdagi tadbirkorning jami daromadidan soliq bazasini aniqlashda, chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan tashqari soliq solinadigan daromadning olinishi bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi. Amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari aktivdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan taqdirda va tadbirkorlik faoliyati bilan xarajatlarning aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa, jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashi mumkin. Soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi. Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi, bundan savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno. Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash uchun soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga belgilangan shakldagi bildirishnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) yangidan ro‘yxatdan o‘tkazilganlar - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlanguniga qadar;

2) foyda solig‘ini to‘lashga o‘tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o‘tganlar - bir vaqtning o‘zida foyda solig‘ini to‘lashga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga yuborganda;

3) qolganlari - joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash quyidagi muddatlarda boshlanadi:

1) yangidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlangan paytdan;

2) foyda solig‘ini to‘lashga o‘tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig‘ini to‘lashga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnomani va soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda hisoblab chiqarish haqidagi arizani soliq organiga taqdim etgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab;

3) qolgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - joriy yilning 1 yanvaridan boshlab.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechish va soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o‘tish kelgusi soliq davri boshlanganidan e’tiboran amalga oshiriladi. Soliq bazasini hisoblab chiqarishning umumiy tartibiga o‘tish to‘g‘risidagi bildirishnoma soliq davri boshlanishidan kamida bir oy oldin soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Soliq solishda quyidagilar hisobga olinmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorning unga mulk huquqi asosida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yuvchi boshqa ashyoviy huquq tufayli tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni sotishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinishi lozim bo‘lgan daromadlari;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hamda yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig‘ini to‘lashga o‘tguniga qadar aylanmadan soliqni to‘lash davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida soliq davri boshlanishidan e’tiboran oshib boruvchi yakun tarzida

hisoblab chiqariladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar foyda solig‘ini 15 foizlik stavkada to‘laydilar.

Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin, soliq solinadigan ob’ektlar mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi. Soliq hisoboti yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

hisobot davri yakunlari bo‘yicha - hisobot choragidan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

soliq davri yakunlari bo‘yicha - o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan foyda solig‘ini to‘lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Jismoniy shaxs, tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, dehqon xo‘jaligi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, qat’iy belgilangan summa, aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, ijtimoiy soliq**.**

Nazorat savollari:

1.Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qanday usullar orqali amalga oshiriladi?

2.Davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun jismoniy shaxs qanday xujjatlarni topshirish lozim.

3.Yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomada nimalar aks ettiriladi?

4. Yakka tartibdagi tadbirkorlarni onlayn tarzda davlat ro‘yxatidan o‘tish tartibi qanday amalga oshiriladi?

5. Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatining qanday turlari bilan shug‘ullanishi mumkin?

6. Yakka tartibdagi tadbirkor necha nafargacha xodim yollashi mumkin?

7. Xususiy tadbirkor xodimlar sonini yashirgan taqdirda, unga nisbatan qanday javobgarlik choralari qo‘llaniladi?

8. Oilaviy tadbirkorlikka ta’rif bering?

9. Qanday tartibda dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi? Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan hunamand necha nafargacha shogirdni, qanday tartibda jalb etishga haqli?

10. Dehqon xo‘jaliklari qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari mumkin?

11. Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qanday shakllari mavjud?

12. Yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning huquqiy asoslari nimalardan iborat?

13. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashning qanday tartiblari mavjud?

14. Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari kim tomonidan tasdiqlanadi?

15. Yakka tartibdagi tadbirkorlar dastlabki deklaratsiyani qachon taqdim etishlari lozim?

16. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibi qanday?

17. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘iga to‘lashning qanday o‘ziga xos jihatlari mavjud?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz /O‘quv-materiallari/ Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/7.9*)

Test savollari

1. Yakka tartibdagi tadbirkor necha nafardan ko‘p bo‘lmagan xodimlarni yollash huquqiga ega?

A) 3

B) 1

C) 2

D) 5

2. Tadbirkorlikning bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan xususiy tadbirkor necha nafardan ko‘p bo‘lmagan xodimlarni yollash huquqiga ega?

A) 3

B) 5

C) 2

D) 1

3. Yakka tartibdagi tadbirkor xodimni yollashda (ishga qabul qilishda) u bilan necha nusxada mehnat shartnomasini tuzishi kerak?

A) 3

B) 2

C) 4

D) 1

4. Yuridik shaxsni tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlikda oila a’zolariga kimlar kiradi?

A) er-xotin, ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar hamda 15 yoshdan oshgan, shu jumladan farzandlikka olingan bolalar.

B) ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, farzandlar va farzandlikka olingan bolalar.

C) ota-onalar, amma-xolalar, tog‘a-amakilar, aka-ukalar, opa-singillar.

D) ota-ona, xotin, farzandlar.

5. Oilaviy tadbirkorlik sub’ektlariga necha nafargacha doimiy xodim yollashga yo‘l qo‘yiladi?

A) doimiy xodim yollashga yo‘l qo‘yilmaydi?

B) 5

C) 3

D) 7

6. Xalq amaliy san’ati ustalarining milliy katalogiga kiritilgan hunarmandlar necha nafargacha shogirdni jalb etishga haqlidir?

A) shogirdlar soni cheklanmagan

B) 5

C) 3

D) 7

7. Dehqon xo‘jaligi a’zolari jumlasiga kimlar kiradi?

A) oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, boshqa qarindoshlar

B) oila boshlig‘i, uning xotini, farzandlari

C) er-xotin, bolalari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, tarbiyaga olgan bolalari

D) barcha ishchilar

8. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning necha xil usuli mavjud?

A) 2 xil

B) 4 xil

C) 3 xil

D) yagona

9. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi (Tizim) nima?

A) Tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar va vakolatli tashkilotlarning ushbu jarayondagi elektron hamkorligini ta’minlovchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompleksi

B) Elektron hujjatlarni qayta ishlashni va saqlashni ta’minlovchi kompleks tizim

C) Axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalaridan ruxsat olib foydalana olishni ta’minlovchi davlat axborot tizimi

D) Soliq organlarida qo‘llaniladigan yangi avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan biri

10. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan miqdorlarda to‘lash muddati qachon?

A) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-sanasidan kechiktirmay

B) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 5-sanasidan kechiktirmay

C) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10-sanasidan kechiktirmay

D) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-sanasidan kechiktirmay

11. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik sub’ektlari qat’iy belgilangan summalardagi daromad solig‘ini qaysi oydan boshlab to‘laydi?

A) tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan

B) tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan

C) tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan oyning 15 sanasigacha o‘tkazilgan bo‘lsa, ro‘yxatdan o‘tgan oyidan, oyning 15 sanasidan keyin ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, keyingi oydan

D) tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan, faqatgina ro‘yxatdan o‘tkazilgan oyda ishlagan kunlari uchun

12.Daromad solig‘ini deklaratsiya asosida to‘laydigan faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar dastlabki tarzdagi deklaratsiyani qachongacha topshirishi lozim?

A) joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmay

B) joriy yilning 15 fevralidan kechiktirmay

C) joriy yilning 1 martidan

D) joriy yilning 15 yanvaridan kechiktirmay

13.Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan deklaratsiya asosida daromad solig‘ini to‘lash muddatlari qachon?

A) daromad olingan oydan keyingi oyning 15-kunigacha har oyda

B) daromad olingan oyning 15-kunigacha har oyda

C) daromad olinadigan oydan oldingi oyning 15-kunigacha har oyda

D) daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha har oyda

14.Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan tartibdagi foyda solig‘i bazasi jami daromadning necha foizi miqdorida belgilanadi?

A) 25 foiz

B) 50 foiz

C) 10 foiz

D) 30 foiz

15. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq summalari qaysi me’yoriy xujjat bilan tasdiqlanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan

B) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan

C) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan

D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

16.Yakka tartibdagi tadbirkorlar deklaratsiya asosida daromad solig‘ini necha foizlik stavkada to‘laydi?

A) 12 foiz

B) 5 foiz

C) 10 foiz

D) 6 foiz

17.Soliq davri davomida tovarlarni realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi 1 mlrd.so‘mdan oshgan YaTT qachondan QQS va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi?

A) bunday oshish ro‘y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab

B) bunday oshish ro‘y bergan oydan boshlab

C) bunday oshish ro‘y bergan oy choragidan keyingi chorak birinchi oyidan boshlab

D) keyingi yildan boshlab

18. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashning necha xil tartibi mavjud

A) 2 xil

B) 3 xil

C) 4 xil

D) 1 xil

19. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani qachongacha taqdim etadi?

A) hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay

B) joriy yilning 15 fevralidan kechiktirmay

C) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-sanasidan kechiktirmay

D) joriy yilning 5 yanvaridan kechiktirmasdan

20. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan tartibdagi foyda solig‘i bazasi jami daromadning necha foizi miqdorida belgilanadi?

A) 25 foiz

B) 50 foiz

C) 10 foiz

D) 30 foiz

VIII BOB. O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLAR VA ULAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI

8.1-§. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va ular faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar deganda mehnat daromadi olishga yo‘naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag‘batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniy shaxslar tushuniladi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi shaxs o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinganidan keyin o‘zini o‘zi band qilgan shaxs maqomini oladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olinmagan va shaxsiy mehnatga doir ishtirokiga asoslangan, ish haqini (mehnat daromadini) olishga qaratilgan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatida nazarda tutilgan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiradigan shaxslar o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olinishi mumkin.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslariga quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 maydagi PF-6221-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrdagi “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish

tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 806-sonli qarori va boshqa hujjatlar.

Aholini ish bilan ta’minlash, o‘zini o‘zi band qilish hisobiga o‘zini mehnat daromadi bilan ta’minlaydigan shaxslarni rag‘batlantirish maqsadida dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 matrdagi qaroriga asosan o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik guvohnoma berilishi va ularning mehnat staji hisoblanishi belgilab qo‘yildi. Natijada hukumat qarori bilan o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik mehnat guvohnomalari beriladigan faoliyat (xizmatlar, ishlar) turlarining dastlabki ro‘yxati tasdiqlandi. 2020 yil 8 iyundagi qarori bilan esa 2020 yil 1 iyuldan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlarining kengaytirilgan ro‘yxati tasdiqlandi. 18-jadval. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/8.1*)

1.	Uyda repetitorlik qilish - bolalar va kattalar bilan ta’lim fanlari bo‘yicha yakka tartibda hamda guruh bo‘lib mashg‘ulotlar o‘tkazish
2.	Bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo‘yicha jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlar
3.	Bemorlar hamda doimiy ravishda o‘zgalar parvarishiga muhtoj keksa kishilarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo‘yicha jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlar
4.	Uy xo‘jaligini yuritish va uy ishlarini bajarish, shu jumladan, turar joylarni tozalash, ovqat pishirish bo‘yicha uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish
5.	Xonalarni tozalash, jismoniy shaxs hududini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish
6.	Uyda jismoniy shaxslarning mebellarini ta’mirlash va yig‘ish
7.	Jismoniy shaxslarga murakkab bo‘lmagan umumiy qurilish, qurilish-ta’mirlash ishlari (beton quyish, bo‘yoqchilik, suvoqchilik ishlari, g‘isht va kafel terish, perforatsiya, duradgorlik, chilangarlik va boshqa umumiy qurilish ishlari)
8.	Jismoniy shaxslarning santexnika uskunalarini mayda ta’mirlash va o‘rnatish
9.	Jismoniy shaxslarga kvartira ichida (shaxsiy qurilish ishlarida - uy ichida) elektr montaj ishlari (elektr xavfsizligi bo‘yicha ruxsati bo‘lganda)
10.	Dehqon va fuqarolarning tomorqa uchastkalarida yer chopish va rekultivatsiya ishlari
11.	Fermer xo‘jaliklari egalari buyurtmasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlari (qishloq xo‘jaligi o‘simliklari va hayvonlarni parvarish qilish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yig‘ish va boshqa qishloq xo‘jaligi ishlari)
12.	Fuqarolarning dala-hovli va tomorqa uchastkalari landshaftini barpo etish ishlari
13.	Qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini ekish va parvarish qilishda, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yig‘ib olishda dehqon va tomorqa uchastkalari egalariga yordam berish
14.	Chorva mollarini o‘tlatish, ularni parvarish qilish
15.	Jismoniy shaxslarga kompyuterlarni ta’mirlash va sozlash, litsenziyalangan dasturiy ta’minot o‘rnatish

16.	Buyurtmachining uyida bajariladigan maishiy texnikani o‘rnatish va ta’mirlash
17.	Jismoniy shaxslarning shaxsiy avtomobillarini mayda ta’mirlash, ularga aksessuarlar va avtosignalizatsiya o‘rnatish, g‘iloflar va pol qoplamalarini tikish
18.	Jismoniy shaxslarning avtomobillarini yuvish, avtomobillar kuzovlarini silliqlash
19.	Mexanizatsiya vositalarini qo‘llamay, uyda bajariladigan yuk ortish-yuk tushirish ishlari
20.	Makulatura, plastik idish, temir-tersak va qo‘shimcha xom ashyo to‘plash
21.	Xalq tabobati (litsenziyasi bo‘lganda)
22.	Xususiy shaxslarga bosh xizmatkor va konserj xizmatlarini ko‘rsatish
23.	Shaxsiy transportdan foydalanib, jismoniy shaxslarga tovarlarni yetkazib berish (yuk tashish bundan mustasno)
24.	Bozorlar va savdo komplekslarida mayda yuklarni aravalarda tashish
25.	Ilgari foydalanilgan tovarlarni sotib olish va sotish
26.	Velosipedlarni ta’mirlash
27.	Yog‘och me’morchiligi (bolalar maydonchalari va park zonalari uchun yog‘ochdan yasalgan qurilmalar, haykallar)
28.	Rassomlik
29.	Metall ta’mirlash ishlari (uyda amalga oshiriladigan maishiy metall buyumlarini ta’mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta’mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarini oddiy ta’mirlash)
30.	Uyda popkorn, frezerda muzqaymoq tayyorlash va sotish
31.	Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
32.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
33.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur xizmatlari
34.	Kosmetolog xizmatlari va shunga o‘xshash boshqa xizmatlar
35.	Uyda kir yuvish va dazmollash xizmatlari
36.	Tikuv, mo‘yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to‘qimachilik galantereyasi buyumlarini ta’mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmasi bo‘yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini va to‘qimachilik galantereyasi buyumlarini tikish
37.	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo‘lda bo‘yash, gazlamalarga, shu jumladan trafaretli bosma va qo‘lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)
38.	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo‘yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta’mirlash, bo‘yash va tozalash
39.	Yakka tartibda deraza va eshik pardalarini tikish va ta’mirlash, kashtachilik
40.	Galantereya buyumlarini tayyorlash va ta’mirlash
41.	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta’mirlash
42.	Kalitlar tayyorlash
43.	O‘lchov vositalari tayyorlash va ijaraga berish
44.	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun’iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash
45.	To‘siqlar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta’mirlash
46.	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
47.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko‘paytirish va sotish
48.	Musiqa asboblarini ta’mirlash va sozlash
49.	Video va fotosuratga olish xizmatlari
50.	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlarini tayyorlash va sotish

51.	Milliy non va patirlarni tayyorlash va sotish
52.	Salatlar va tuzlamalarni tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o‘tirish joylarini tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish
53.	Uyda quyib sotish uchun salqin ichimlik/r, ayron, go‘ja hamda qurt tay. va sotish
54.	To‘garaklar tashkil etish va yuritish
55.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
56.	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san’ati)
57.	Reklama bukletlarini tarqatish, uyda operatorlar tomonidan buyurtmalar qabul qilish
58.	Muqovalash ishlari
59.	Namoyishlarda kiyimlar modelini namoyish qilish, rasmli jurnallarda, reklama filmlari va video kliplarda suratga tushish
60.	Ekskursiyani tashkil etish va o‘tkazish xizmatlari
61.	Matnni yaratish va ishlov berish (kopirayter, rerayter, SEO-kopirayter, SEO-rerayter, musahhih, kontent-menejer, muharrir, e-mail orqali xatlarni jo‘natish bo‘yicha mutaxassis, spichrayter, transkriber va boshqalar)
62.	Multimedia, dizayn va san’at materiallarini yaratish va ishlov berish (veb-dizayner, grafika dizayneri, kompyuter o‘yinlari dizayneri, interer dizayneri, landshaft dizayneri, liboslar dizayneri, retusher, fotokollajchi, vektor grafikasi muharriri, arxitektor, vizuallashtiruvchi dizayner, ma’lumot dizayneri, interfeys dizayneri, texnik dizayner, moushn-dizayner, banner yasovchi, nashriyot dizayneri, flesher, 3D-dizayner, video muharrir, videooperator, bastakor, ovoz rejissyori, aranjirovkachi, suxandon, foto muharrir va boshqalar)
63.	Dasturiy ta’minot, axborot tizimlari, mobil ilovalar va veb-saytlarni ishlab chiqish va texnik qo‘llab-quvvatlash (dasturchi, dasturiy ta’minotni sinovchi mutaxassis, veb-sahifalarni sahifalovchi, veb-tahlilchi, veb-saytlarni optimizatsiyalash bo‘yicha mutaxassis)
64.	Tarjima qilish xizmatlari (badiiy adabiyotni tarjima qilish, texnik tarjima, veb-saytlar, filmlar, kompyuter va mobil ilovalar, taqdimotlar, video, audio va reklamalar tarjimasi)
65.	Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat (PR-menedjer, internet-marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ilgari surish va reklama qilish (SMM), ijtimoiy tarmoq sahifalari administratori, akkaunt-menejer, marketolog, link-menejer, targetolog, kontekst-reklama bo‘yicha mutaxassis, direktolog, media rejalashtiruvchi, SMO mutaxassisi)
66.	Kadrlar tanlash sohasidagi faoliyat (internet-loyihalar bilan ishlovchi menejer, frilanserlar guruhi rahbari, HR-menejer, rekruter, shaxsiy assistent)
67.	Onlayn konsultatsiya berish (onlayn-konsultant, onlayn-trener, moliyaviy maslahatchi, vebinar olib boruvchi)
68.	Hamshiralik ishi *(PF-6221-sonli Farmoni bilan kiritildi)*

18-javdal. O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxati[106]

[106] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4742-sonli, 2020 yil 8 iyun. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Shuningdek, mazkur qarorda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqiga egaligi ham belgilab qo‘yildi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrdagi 806-sonli qarori bilan o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga «*Nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini (dorboz, askiya va lapar) asrash va ulardan foydalanish (madaniyat markazlari tarkibidagi shaxslar bundan mustasno)*» faoliyat turi kiritildi. 2021 yil 1 iyuldan boshlab esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 maydagi PF-6221-sonli Farmoni bilan «*Hamshiralik ishi*» o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga kiritildi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar o‘z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishga, shuningdek ish beruvchiga ega bo‘lishga haqli emas. Ushbu talablarga rioya etilmagan taqdirda, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar maqomini yo‘qotadi. Tashkilotlar tomonidan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni shartnoma asosida bir martalik xizmatlar ko‘rsatish va ishlarni bajarish bo‘yicha faoliyatga jalb qilishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash ijtimoiy soliqni hisoblab chiqish ob’ekti hisoblanmaydi.

8.2-§. O‘zini o‘zi band qilgan shaxsni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrdagi 806-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni xabar berish tartibida ro‘yxatdan o‘tkazish va faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni ro‘yxatga olish quyidagi yo‘llar orqali xabar qilish tartibida amalga oshiriladi. 24- rasm.



24-rasm. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘llari[107]

Ro‘yxatdan o‘tish quyida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi. 25-rasm.

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabineti orqali yoxud davlat soliq xizmati organiga kelgan holda so‘rovnomani to‘ldirish.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsning xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Davlat soliq xizmati organlari	Mavjud ma’lumotlar (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, pasport (ID-karta) seriyasi va raqami, yashash manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar) asosida davlat soliq xizmati organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo‘lgan ma’lumotnomani yuborish.	1. Real vaqt rejimida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs	Maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali davlat soliq xizmati organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yuklab olish.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsning xohishiga ko‘ra

25-rasm. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlaridan ro‘yxatdan o‘tish sxemasi[108]

Soliq organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish bepul va masofadan turib amalga oshiriladi. Xohlovchilar buni “Soliq” mobil

[107] O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizomga ilova
[108] Shu manba

ilovasidan foydalangan holda yoki my.soliq.uz saytida jismoniy shaxslarning shaxsiy kabineti orqali amalga oshirishi mumkin.

Davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun o‘zini o‘zi band qilmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxs so‘rovnoma to‘ldirishi lozim bo‘ladi. Bunda so‘rovnoma o‘zini o‘zi band qilgan shaxs tomonidan maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali elektron shaklda mustaqil ravishda, davlat soliq xizmati organiga kelganda esa soliq organi xodimi tomonidan to‘ldiriladi.

So‘rovnomada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, ro‘yxatdan o‘tkazish elektron raqamli imzo orqali amalga oshirilgan holatlar bundan mustasno;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari;

o‘zini o‘zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini yuritishning mo‘ljallanayotgan manzili;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning mobil telefon raqami va u bilan bog‘lanish mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar.

So‘rovnomada o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, pasport (ID-karta) seriyasi va raqami, yashash manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi hamda Ichki ishlar vazirligining ma’lumotlar bazalarida mavjud ma’lumotlar asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar mehnat faoliyatini amalga oshiradigan hudud bo‘yicha davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga qo‘yiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘zini o‘zi band qilgan shaxsga maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo‘lgan 26-rasmda ko‘rsatilgan namunaviy shaklda ma’lumotnoma yuboriladi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida
MA’LUMOTNOMA №_____

Fuqaro

_____

ga

(jismoniy shaxsning to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo‘lganda)

20__ yil «____» _____da o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida berildi.

Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR): _____

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR): _____

Faoliyatni amalga oshirish manzili:

_____

_____

T/r	Amalga oshiriladigan faoliyat tur(lar)i	Faoliyat boshlangan sana	Faoliyat to‘xtatilgan sana
1.			
2.			
...			

Ma’lumotnoma _____ tomonidan berilgan.

(ro‘yxatga qo‘yilgan davlat soliq xizmati organining to‘liq nomi)

QR-kod	Ushbu ma’lumotnoma O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestridagi ma’lumotlar asosida shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasidir. QR-kodni mobil qurilma orqali skaner qilib ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rishingiz mumkin.

26-rasm. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma[109]

Bunda ma’lumotnoma davlat tilida rasmiylashtiriladi. Shaxsning xohishiga ko‘ra ma’lumotnoma rus va ingliz tillarida yoki imkon bo‘lsa, boshqa tilda rasmiylashtirilishi mumkin.

[109] Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrdagi 806-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” Nizomga ilova

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ma’lumotnomani maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali yuklab olishlari yoxud davlat soliq xizmati organiga kelgan holda qog‘oz shaklida ham olishlari mumkin. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga ma’lumotnoma cheklanmagan muddatga beriladi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda haq undirilmaydi.

O‘zini o‘zi band qilishning yangi tartibiga ko‘ra sentabr oyidan boshlab xorij fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lmagan shaxslar ham o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin bo‘ldi. Ro‘yxatdan o‘tayotganda tizim masofadan turib va qisqa vaqt ichida https://e-imzo.uz veb-saytidan olish mumkin bo‘lgan ERI (elektron raqamli imzo) so‘raydi.

8.3-§. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ixtiyoriy tartibda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtidan qat’i nazar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ijtimoiy soliqni ixtiyoriy tartibda to‘laydi.Ushbu summa to‘lig‘icha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi hamda ularga bir yillik mehnat stajiga ega bo‘ladilar. O‘zini o‘zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tatbiq etilmaydi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyatidan tashqari olingan daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq solinadi. Belgilangan miqdordagi ijtimoiy soliqni to‘lanishi o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat staji hisoblanishiga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

Agar o‘zini o‘zi band qilgan shaxs o‘z mehnat faoliyatini to‘xtatsa, u o‘z faoliyatini to‘xtatguniga qadar davlat soliq xizmati organiga faoliyatni to‘xtatish to‘g‘risidagi bildirishnomani maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali yuboradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma o‘zini o‘zi band qilgan shaxs mehnat faoliyatini amalga oshirmaydigan davrda ijtimoiy soliqni to‘lashni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar maxsus mobil ilova orqali quyidagi imkoniyatlardan foydalanishi mumkin:

buyurtmalarni va ko‘rsatilgan xizmatlar (tovarlar) uchun to‘lovlarni qabul qilish;

yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatishda (tovarlarni sotishda) elektron hisob-kitob fakturalarni taqdim qilish;

mobil ilova yordamida ixtiyoriy asosda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish hamda ushbu ma’lumotlardan keyinchalik, shu jumladan, kredit olish va (yoki) soliqlarni hisobdan chiqarish maqsadida foydalanish;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) reklama qilish;

ko‘rsatilayotgan xizmatlar (tovarlar) sifatini baholash va iste’molchilar tomonidan fikr-mulohazalar bildirilishi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat-kassa texnikasi va bank plastik kartochkalari orqali hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lov terminallaridan foydalanadi hamda tijorat banklarida hisobvaraqlari ochishi mumkin.

2021 yil 1 yanvardan o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yillik oboroti (tushumi) yuz million so‘mdan oshgan yoki yil davomida ushbu chegaraviy miqdorga yetgan tadbirkorlik sub’ektlari onlayn-nazorat kassa texnikalaridan foydalanishga o‘tishi lozim.

Maxsus mobil ilova orqali daromadlar va xarajatlar hisobini yuritayotgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga tijorat banklari tomonidan kreditlar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida beriladi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun norezidentlardan chet el valyutasidagi to‘lovlarni tijorat banklaridagi hisobvaraqlariga kirim qilish uchun asos hisoblanadi.

Internet tarmog‘i orqali xizmatlar ko‘rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar (frilansing) quyidagi huquqlarga ega:

xorijdagi norezidentlar bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslardan ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun xorijiy valyutada O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlarga Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tegishli axborot kiritmagan holda, O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlarga xorijiy valyutada to‘lov qabul qilish;

bitim (oferta) to‘g‘risida ommaviy taklif qabul qilish yoki elektron xabarlar almashish yoxud hisobvaraq-fakturalar (invoys) qo‘yish, shu jumladan elektron shaklda qo‘yish orqali kontrakt tuzmasdan, chet el jismoniy va yuridik shaxslariga xizmatlar ko‘rsatish (ishlar bajarish).

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ishsiz shaxslarga to‘lanadigan ishsizlik nafaqasi hamda tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirishdan o‘tish davrida ushbu mablag‘lar hisobidan stipendiya olishi mumkin emas.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga beriladigan imtiyozlar

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirish davri pensiya olish huquqiga ega bo‘lingan paytdan e’tiboran yoshga doir pensiyani hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan ish stajiga qo‘shib hisoblanadi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olish davri, mehnat faoliyati bu davrda o‘zini o‘zi band qilish tartibida amalda bajarilganligi yoki

bajarilmaganligidan qat'i nazar, pensiyani tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi.

Mahalliy mehnat organlari o'zini o'zi band qilgan shaxslarga imtiyozli mikrokreditlar ajratish uchun tijorat banklariga tavsiyalar beradi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan kasbga o'qitish markazlarida (kasb-hunar ta'limi muassasalarida) qisqa muddatli kasbga o'qishni, shuningdek tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qishni bepul o'tashi mumkin.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarni kasbga o'qitishni tashkil etish va o'qitish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish belgilangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mahalliy mehnat organlari o'zini o'zi band qilgan shaxslarga mehnat asbob-anjomlarini (motokultivatorlar, o't o'roq mashinalari, perforatorlar, payvandlash apparatlari, o'simliklarga ishlov berish qurilmalari, duradgorlik, chilangarlik va qurilish uskunalari hamda boshqalarni), shaxsiy himoya vositalarini va ish kiyimini imtiyozli ijaraga berish punktlarini tashkil etadi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarga imtiyozli ijaraga berish uchun mehnat asbob-anjomlari, shaxsiy himoya vositalari va ish kiyimi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasining mablag'lari hisobidan olinadi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar va ishlar (xizmatlar) buyurtmachilari o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar shartnoma shartlariga yoki ish muomalasi odatlariga asoslanadi. Ular bilan ishlar (xizmatlar) buyurtmachisi o'rtasidagi ish muomalasi odatlariga asoslangan o'zaro munosabatlarda og'zaki shaklda bitim (shartnoma) tuzishga yo'l qo'yiladi. Shartnoma shartlariga asoslangan o'zaro munosabatlarda yozma shaklda shartnoma tuzish talab etiladi. Bitim (shartnoma) tuzishda tomonlar uning shartlarini, shu jumladan, undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish va uni bekor qilish shartlarini mustaqil belgilab oladilar.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yil 1 may holatiga respublika miqyosida **791035 nafar** fuqaro o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida hisobga olingan. 27-rasm.



27-rasm. 2021 yil 1 may holatiga O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar soni[110]

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida hisobga olinganlarning 52,8 foizini erkaklar, 47,2 foizini ayollar tashkil etgani holda, ulardan:

– maishiy xizmatlar sohasini (sartaroshlik, manikyur, kosmetolog, pedikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kalitlar tayyorlash, poyabzal tikish, ta’mirlash, bo‘yash va boshqalar) tanlaganlar – 221872 nafar;

– xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasida (non, uyda pop-korn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, ayron, go‘ja hamda dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish) 80863 nafar shaxs mustaqil faoliyat olib bormoqda;

– qishloq xo‘jaligi sohasida (chorva mollarini o‘tlatish, ularni parvarish qilish, qishloq xo‘jalik o‘simliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalariga yordam berish) 207120 nafar o‘zini o‘zi band qilgan shaxs ro‘yxatdan o‘tgan;

[110] Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

– sanoat sohasida (yog‘och me’morchiligi, santexnika xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir tersak to‘plash va qo‘shimcha xomashyo to‘plash) 124679 nafar o‘zini o‘zi band qilgan shaxs xizmat ko‘rsatmoqda;

– ijtimoiy xizmatlar sohasida (uyda repetitorlik qilish, bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish, uy xo‘jaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati) 141617 nafar fuqaro band.

– AKT sohasida (ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, dasturiy ta’minot, mobil ilovalar va veb saytlarnii ishlab chiqish, matnni yaratish va ishlov berish) faoliyat yuritish uchun 14914 nafar jismoniy shaxs ro‘yxatdan o‘tgan.

Tayanch so‘z va iboralar

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs, faoliyat, ijtimoiy soliq, “Soliq” mobil ilovasi, ma’lumotnoma, imtiyoz, pensiya, ish staji.

Nazorat savollari

1.O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar deganda kimlar tushuniladi?

2. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari qaysi normativ huquqiy hujjatlardan iborat?

3. O‘zini o‘zi band qilgan shaxsni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish qanday tartibda amalga oshiriladi?

4. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?

5. Internet tarmog‘i orqali xizmatlar ko‘rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar (frilansing) qanday huquqlarga ega?

6. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga qonun hujjatlarida qanday imtiyozlar nazarda tutilgan?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/8.2*)

Test savollari

1.Qaysi normativ-huquqiy hujjatda o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxati tasdiqlangan?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-sonli qarorida

B) O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktabrdagi O‘RQ-642-sonli Qonunida

C) Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrdagi 806-sonli qarorida

D) Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-sonli qarorida

2.O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari soni (2021 yil 1 iyul holatiga) nechta?

A) 69 B) 80 C) 30 D) 45

3. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar necha nafar yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishga haqli?

A) yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishi mumkin emas

B) 3

C) 2

D) 1

4. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda qancha miqdorda haq undiriladi?

A) ro‘yxatdan o‘tkazish bepul amalga oshiriladi

B) bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida

C) bazaviy hisoblash miqdorining 5 foizi miqdorida

D) bazaviy hisoblash miqdorining 30 foizi miqdorida

5. 2021 yilda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs yiliga qancha miqdorda ijtimoiy soliqni to‘laydi?

A) bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida

B) bazaviy hisoblash miqdorining kamida uch baravari miqdorida

C) bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh baravari miqdorida

D) bazaviy hisoblash miqdorining kamida to‘rt baravari miqdorida

6. Soliq kodeksiga ko‘ra o‘zini o‘zi band qilgan shaxs ijtimoiy soliqni qachongacha to‘lashi lozim?

A) hisobot yilining 1 dekabrigacha

B) hisobot yilining 1 fevraligacha

C) hisobot yilining 1 apreligacha

D) hisobot yilining 1 avgustigacha

7. Davlat soliq xizmati organlari o‘zini o‘zi band qilgan shaxsga maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega qanday hujjat yuboradi?

A) ma’lumotnoma B) litsenziya C) dalolatnoma D) sertifikat

8. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga ma’lumotnoma qancha muddatga beriladi?

A) cheklanmagan muddatga B) uch yilga C) besh yilga D) ikki yilga

9. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar maxsus mobil ilova orqali quyidagi imkoniyatlarning qaysi biridan foydalanishi mumkin:

A) barchasidan

B) buyurtmalarni va ko‘rsatilgan xizmatlar (tovarlar) uchun to‘lovlarni qabul qilish

C) yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatishda (tovarlarni sotishda) elektron hisob-kitob fakturalarni taqdim qilish

D) mobil ilova yordamida ixtiyoriy asosda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish hamda ushbu ma’lumotlardan keyinchalik, shu jumladan, kredit olish va (yoki) soliqlarni hisobdan chiqarish maqsadida foydalanish

10. O‘zini o‘zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan daromadlar necha foizlik stavkada daromad solig‘iga tortiladi?

A) soliqqa tortilmaydi B) 12 foiz C) 5 foiz D) 10 foiz

IX-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘I MA’MURIYATCHILIGI

9.1-§. Mulk, mulk turlari, mulk huquqi va jismoniy shaxslarda mulk huquqining yuzaga kelishi

Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog‘ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob’ektlari mulk bo‘lishi mumkin. Mol-mulk fuqarolik huquqlari ob’ekti sifatida ko‘chmas mulkka va ko‘char mulkka bo‘linadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya’ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan ob’ektlar kiradi. Ko‘chmas mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk ko‘char mulk hisoblanadi. Ko‘char mulkka bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talab etilmaydi[111]. Mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning oilaviy va o‘zga birlashmalari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulkiy huquq sub’ektlari hisoblanadi. Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo‘lishi mumkin.

Ko‘chmas mulkka egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan

[111] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 83-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmasdan amalga oshirilgan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

> *Belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida qurilayotgan yangi uy-joyga mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi*

Jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulk ob’ektiga bo‘lgan huquqlarini ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazadi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hukumat qarori bilan tasdiqlangan ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibiga doir nizom asosida amalga oshiriladi.

Respublikamizda fuqarolar tomonidan uy-joylarni qurish qoidalarini buzish yoki uy-joylarga doir mulk huquqlarini ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o‘z vaqtida rasmiylashtirmaslik holatlari ham mavjud bo‘lib,

bunday holatlarda fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga[112] asosan tegishli tartibda ma’muriy javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/9.1*)

Uy-joylarni qurish qoidalarini buzish yoki ularga doir mulk huquqlarini o‘z vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tkazmaslik holatlariga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralari

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida fuqarolar tomonidan uy-joylarni qurish qoidalari buzish holatlari yoki uy-joylarga doir mulk huquqlarini ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o‘z vaqtida rasmiylashtirmaganlik holatlari ma’muriy huquqbuzarlik sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ushbu holatlarda fuqarolarga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun ma’muriy

[112] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 160-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

jazo chorasi sifatida jarima qo‘llanilishi belgilangan. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 160-moddasiga asosan:

Fuqarolarning uy-joylarni, xo‘jalik va ro‘zg‘or binolarini qurish qoidalarini buzishi, -

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Fuqarolarning uy-joyga doir mulk huquqini ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarda o‘z vaqtida rasmiylashtirmasligi, -

bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘zboshimchalik bilan qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlar, shuningdek, qurilish davrida foydalanish uchun qurilgan vaqtinchalik imoratlarga bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaydi, qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan hollar (masalan, o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasi) bundan mustasno.

Yuqoridagilardan tashqari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 68-moddasida fuqarolar tomonidan xo‘jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan o‘zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish holatlariga nisabatan ham javobgarlik choralari belgilangan bo‘lib, jumladan, tasdiqlangan yer tuzilishi loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo‘lmay turib chetga chiqish, xuddi shuningdek tegishli organlar bilan kelishmay turib ob’ektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va ularni foydalanishga topshirish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish, yerlardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni buzib ko‘rsatish, axborotlarni berishdan bo‘yin tovlash yoki noto‘g‘ri axborot berish –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha,

mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, -fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shuning bilan birgalikda mamlakatimizda o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida yoki imorat qurish uchun ruxsatnoma olmasdan qurilgan turar joylarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha tegishli tartibda bir martalik umumdavlat aksiyasi o‘tkazildi.

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarida yoki imorat qurish uchun ruxsatnoma olmasdan qurilgan turar joylarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 apreldagi «Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida» PF-5421-son Farmoniga asosan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasi e’lon qilindi va u 2019 yil 1 mayga qadar davom etishi belgilab qo‘yildi. Mazkur Farmonning ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 21 iyundagi 461-sonli qarori qabul bilan “Ko‘chmas mulkka nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida ko‘chmas mulklarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish tartibi to‘g‘risida” Nizom tasdiqlandi va bir martalik aksiya doirasida o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish hamda ko‘chmas mulkka nisbatan huquqni e’tirof etish ishlari mazkur Nizom asosida tashkil etildi.

Turar joyga bo‘lgan mulk huquqi muddatsiz bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslarning, davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmagan holda shaxsning o‘ziga tegishli turar joyga o‘z xohishi va manfaatlariga ko‘ra egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqi buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Turar joylarning ko‘rinishini o‘zgartirishga, ularni qayta qurish yoki buzishga mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli ruxsatnomasi bo‘lgan

taqdirda yo‘l qo‘yiladi. Uylar, kvartiralar, uyning bir qismi, kvartiraning bir qismiga bo‘lgan xususiy mulk miqdor, o‘lcham va qiymat jihatdan cheklanmaydi.

Uyning, kvartiraning oldi-sotdi va ayirboshlash shartnomasi yozma shaklda, taraflar imzolaydigan bitta hujjatni tayyorlash yo‘li bilan tuziladi hamda u notarial tasdiqlanishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart. Uyning, kvartiraning oldi-sotdi shartnomasi shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi.

Sotib oluvchi sotib olganidan keyin qonunga muvofiq turar joydan foydalanish huquqini o‘zida saqlab qoladigan shaxslar yashab turgan shu uy, kvartirani oldi-sotdi shartnomasining muhim sharti – bu shaxslarning ro‘yxatini sotilayotgan turar joydan foydalanish huquqlari ko‘rsatilgan holda tuzishdan iboratdir.

Fuqarolar yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni, qurilmalarni hamda inventarni tegishli tartibda saqlashlari, zarur ta’mirlash ishlarini bajarishlari, sanitariya va yong‘inga qarshi qoidalarga rioya etishlari, yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash choralarini ko‘rishlari shart.

Bog‘dorchilik va boshqa yer uchastkalarida joylashgan hamda fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan imoratlarga ega bo‘lgan shaxslar shu imoratlarni uylar sifatida rasmiylashtirishni talab qilishga haqlidirlar. Bu imoratlar ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni va unga doir bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab uylar deb tan olinadi.

9.2-§.Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig‘ini undirishning zarurligi, mol-mulk solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar

Bugungi kunda mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlarning barqaror tushushini ta’minlash zarurati mavjud, chunki mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlash shuni taqozo etadi.

Har bir soliqni undirishning zarurligi, ularning bajaradigan funktsiyalari bilan belgilanadi. Mol-mulkni soliqqa tortishning rivojlanishi jarayonida uning fiskal, tartibga solish va rag‘batlantirish kabi funktsiyalarni

bajarishligi aniqlangan. Ushbu soliqning asosiy fiskal funktsiyasi mahalliy budjetni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hisoblanadi. Biz bu borada qo'llanmaning dastlabki bobida ham fikr yuritgan edik.

Mol-mulk solig'ining tartibga solish funktsiyasi jismoniy shaxslar tomonidan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan ob'ektlarni o'z vaqtida ishga tushirilishini, yangi qurilgan uy-joylarni o'z vaqtida davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlardan samarali foydalanilishini, ob'ektlarning o'z vaqtida qurilishini ta'minlash maqsadlarida ushbu ob'ektlarga tegishli ravishda ikki baravarga oshirilgan soliq stavkalarini qo'llash, ularga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Rag'batlantirish funktsiyasi esa aholini ijtimoiy himoya qilish, resurslarni tejash va oqilona foydalanishga undash, mol-mulkdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, mulkiy tabaqalanishni qisqartirish, noishlab chiqarish jamg'armalarini imkon qadar kamaytirish hamda jamiyat uchun maqbul sohalarga yo'naltirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadlarida qo'llanilayotgan imtiyoz va preferensiyalarda namoyon bo'ladi.

> ***Soliq imtiyozlari-*** *soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati.*
>
> *O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 75-modda*

Mol-mulk solig'ini undirish asoslaridan biri, jismoniy shaxslar daromadining tashkil topishida farqlarning mavjudligidir, ya'ni manbaning daromadliligi daromad solig'ida hisobga olinmaydi. Shunga ko'ra, mol-mulk solig'i muayyan darajada daromad solig'iga qo'shimcha hisoblanadi va uning ahamiyati bozor munosabatlari sharoitida tobora oshib boradi. Mol-mulkni soliqqa tortishdan samarali foydalanishning zarurligini asoslaydigan omillaridan biri bo'lib, jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lashdan «qochish» hisoblanadi (ba'zan hatto qonuniy tarzda). Shu bilan birga daromad solig'i to'lashdan «qochib qolgan» daromadlar

moddiylashib, mol-mulkning muayyan turiga aylanadi va mol-mulk solig‘ining zaruriy obekti bo‘ladi. Shu munosabat bilan subektlarning bir soliqni to‘lashdan qochishi, ixtiyoriy ravishda ikkinchi soliqqa tortilishiga olib keladi.

Davlat mulkdorlar faoliyatini boshqarish maqsadida mol-mulk solig‘idan ikki tomonlama foydalanish mumkin: bir tomondan mulkdorlarning foydalanilmayotgan mol-mulklarni (egalik huquqlarini) soliqqa tortishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlat uchun maqbul bo‘lgan, ya’ni passiv faoliyatdan faol xo‘jalik yuritish faoliyatiga o‘tgan shaxslarga mol-mulklarni yo‘naltirish. Bunday sharoitda mol-mulkka joriy etilgan soliq, vosita sifatida qaralib, mulkdorlarni xo‘jalik faoliyatida o‘zining mol-mulkidan samarali foydalanishga chorlaydi yoki egalik huquqlarini o‘zgartirish yo‘li bilan faol shaxslar mol-mulkidan yanada samarali foydalanishiga rag‘batlantiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘ini amaliyot joriy qilinishi va bugungi kunda ham amalda bo‘lishini quyidagi sabablar orqali ifodalash mumkin:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘i o‘ziga xos qayta taqsimlash funktsiyasini bajaradi. Mol mulk egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning moliyaviy imkoniyati aholining boshqa toifalariga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi va u ko‘proq soliq to‘laydi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘i mahaliy budjetning daromad manbalaridan biri hisoblanib, mol mulk egasi mahalliy ijtimoiy xizmatlardan foydalanganlik uchun haqni soliq sifatida to‘laydi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘i jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasiga kirmay qoladigan ya’ni mulkdan keladigan daromadni soliqqa tortish imkonini beradi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘i mol- mulkka egalik hissini oshiradi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘ining manbasini aniqlashning quyidagi ikki xil yo‘nalishi taklif etiladi:

Birinchi yo‘nalishda mol-mulk egasining yil davomida ushbu mol- mulkdan foydalananishi hisobiga olgan daromadi manba sifatida e’tirof etiladi.

Ikkinchi yo‘nalishda esa mol -mulkning bozor bahosi bo‘yicha yoki shartli baholash orqali aniqlangan qiymati manba deb qabul qilinadi.

Soliq kodeksida mulkida soliq solish ob’ekti deb tan olinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan dehqon xo‘jaliklari mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari deb e’tirof etiladi[113].

> ***Dehqon xo‘jaligi*** *bu oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 1-modda.*

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda fuqaroga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan va dehqon xo‘jaligi davlat ro‘yxatiga olinganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi. Dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga Yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari har bir dehqon xo‘jaligini Xo‘jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo‘jaligining tarkibi, xo‘jalik boshlig‘i yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek xo‘jalikning tashkiliy-huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd etib qo‘yadi.

---

[113] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 418-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil.

Dehqon xo‘jaligi o‘ziga qarashli uy-joylar, xo‘jalik imoratlari, boshqa imoratlar, binolar va inshootlar va boshqa inshoatlari bo‘yicha mol- mulk solig‘i to‘lovchi bo‘ladi.

Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini undirish jarayonida agar mol-mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo‘lmasa, shuningdek ko‘chmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda, bu mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, o‘sha shaxs soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi[114].

9.3-§. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i rivojlanish tarixi

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq dastlab “Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonuni *(hozirigi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan)* asosida joriy etilgan. O‘sha davrlarda jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan turar-joylar, kvartiralar, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari a’zolarining bog‘ uylari, garajlar va o‘zga imoratlar, binolar hamda inshootlar, shuningdek motorli qayiqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari (rezina g‘ildirakli avtomobillar, motosikllar hamda boshqa o‘ziyurar mashina va mexanizmlardan tashqari) soliq solinadigan ob’ektlar hisoblangan. Imoratlar, binolar va inshootlarga doir soliq ularning har yili 1 yanvargacha bo‘lgan holati yuzasidan kommunal xo‘jaligi organlari beradigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma’lumotlar asosida, bunday ma’lumotlar bo‘lmagan taqdirda esa - mazkur ob’ektlarning davlat majburiy sug‘urtasiga muvofiq to‘lovlarni hisoblab chiqishda qo‘llaniladigan baho asosida hisoblab chiqarilgan. Transport vositalariga solinadigan soliq to‘lov yoziladigan yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan holat bo‘yicha, transport vositalarini ro‘yxatga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlar har yili soliq organlariga taqdim etadigan ma’lumotlar asosida hisoblab chiqarilgan.

---

[114] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 418-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

1999 yildan boshlab, jismoniy shaxslar mol- mulkini baholash bo‘yicha organlarning bahosi bo‘lmagan taqdirda soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markkazlarida 500,0 ming so‘m, boshqa shahar va qishloqlarda 350,0 ming so‘m miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadigan, so‘ngra ular qayta baholanganidan keyin qaytadan hisob- kitob qilinadigan bo‘ldi. Shundan so‘ng mol-mulkning shartli qiymati yillar davomida o‘zgartirib borildi. 19-jadval.

Mol-mulk solig‘i stavkalari 2002 yilga qadar jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan turar-joylar, kvartiralar, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari a’zolarining bog‘ uylari, garajlar va o‘zga imoratlar, binolar hamda inshootlarning **inventarizatsiya qiymatiga nisbatan foiz hisobida,** motorli qayiqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalarining **ot kuchi yoki har kilovatt quvvati uchun qat’iy summalarda** belgilangan.

№	Yillar	Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan bahosi bo‘lmaganda soliq undirish uchun mol- mulkning shartli qiymatlari (ming so‘m hisobida)	
		Toshkent sh. va viloyat markazlarida	boshqa shahar va qishloqlarda
1.	1999 yil	500,0	350,0
2.	2001-2002 yillar	1500,0	700,0
3.	2003-2006 yillar	1800,0	800,0
4.	2007 -2008 yillar	2100,0	920,0
5.	2009 yil	16 800,0	7 300,0
6.	2010-2014 yillar	18 480,0	8 030,0
7.	2015-2017 yillar	20 328,0	8 833,0
Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan kadastr qiymati bo‘lmaganda soliq undirish uchun mol- mulkning shartli qiymatlari (ming so‘m hisobida)			
		Toshkent sh. va viloyat markazlarida	boshqa shahar va qishloqlarda
8.	2018 yil	210 000	90 000
9.	2019 yil	210 000	90 000
10.	2020 yil	210 000	84 000

19-jadval. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig‘ini undirish uchun mol-mulklarning shartli qiymatlari[115]

2002 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ob’ekti qatoridan transport vositalari chiqarib tashlangandan keyin, mazkur soliq ularning turarjoylar, kvartirlar, dala xovli va bog‘ uylari, garajlar, xonalar va

[115] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorilari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

inshootlar turar joylarning qiymatidan kelib chiqib, 1998 yil 1 yanvar holatiga qayta baholanganlari va qayta baholanmaganlaridan alohida stavkalarda undiriladigan bo‘ldi. 20-jadval.

№	Yillar	Soliq ob’ektlarning nomi	Soliq stavkasi (foiz hisobida)	
			01.01.1998 yilda qayta baholangan	Qayta baxolanmagan
1.	2002 y	Turarjoylar, kvartirlar, dala hovli va bog‘ uylari, garajlar, xonalar va inshootlar turarjoylar	0,4	5,8
2.	2003 y		0,5	7,0
3.	2004 y		0,5	7,0
4.	2005 y		0,5	7,0
5.	2006 y		0,5	7,0

20-jadval. 2002-2006 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol- mulk solig‘i stavkalari[116]

2007 yildan boshlab, ushbu soliq jismoniy shaxslarning turarjoylar, kvartiralar, dala hovli va bog‘ uychalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlarining inventarizatsiya qiymatidan kelib chiqib undirila boshlangan. 2009 yildan boshlab, jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob’ektlari noturarjoy fond toifasiga o‘tkazilganda yoki ular tomonidan noturarjoy fond ob’ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘lanadigan bo‘ldi. 21-jadval.

2007 yildan boshlab, mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo‘lgan pensionerlar uchun mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor kiritildi. Ushbu miqdor mol-mulk umumiy maydonining 60 kv. metri hajmida belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-532-sonli qarori

№	Yillar	Soliq solinadigan ob’ektlarning nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (foiz hisobida)
1.	2007 y	Turarjoylar, kvartiralar, dala hovli va bog‘ uychalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlarning inventarizatsiya qiymati	0,5
2.	2008 y		0,5
3.	2009 y		0,5
4.	2010 y		0,5

21-jadval. 2007-2010 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol- mulk solig‘i stavkalari[117]

2011 yildan boshlab, mol-mulk solig‘i stavkalari turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv. m dan oshiq bo‘lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va

[116] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorilari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.
[117] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorilari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

inshootlar uchun alohida, shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 200 kv. m dan 500 kv. m gacha hamda 500 kv. m dan oshiq bo‘lganlari uchun alohida stavkalar belgilangan.

2012 yildan boshlab, mol-mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro‘yxatga olinmagan yangi qurilgan turarjoylar bo‘yicha soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladigan bo‘ldi. 2014 yildan boshlab, jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob’ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ularni yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob’ektlari noturar joy fond toifasiga o‘tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob’ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo‘yicha to‘lanadigan bo‘ldi. 2016 yildan boshlab, shaharlardan tashqari boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metr dan oshiq bo‘lgan turar joylar va kvartiralar uchun ham alohida stavka belgilanadigan bo‘ldi. Shuningdek, mazkur yilda mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning inventarizatsiya qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 3 000 ming so‘mdan kam bo‘lmasligi kerakligi belgilab qo‘yildi. 22-jadval.

N	**Soliq solinadigan ob’ektlarning nomi**	**Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (foiz hisobida)**						
		2011 y	2012 y	2013 y	2014 y	2015 y	2016 y	2017 y
1	Turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo‘lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,75	0,9	1,04	1,2	1,3	1,5	1,7
2	Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo‘lgan turar joy va kvartiralar:							
	200 kv. m dan oshiq va 500 kv. m gacha bo‘lgan	0,9	1,1	1,25	1,4	1,6	1,8	2,1
	500 kv. m dan oshiq bo‘lgan	1,13	1,35	1,55	1,8	2,2	2,5	2,9
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari						1,8	2,1

22-jadval. 2011-2017 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari[118]

[118] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorilari asosida muallifлар tomonidan tayёrlanган.

2018 yildan boshlab, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ko‘chmas mulkning kadastr qiymatiga nisbatan hisoblab chiqariladigan bo‘ldi. Shunga ko‘ra jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanishi, biroq 42 000 ming so‘mdan kam bo‘lmasligi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi[119]. 23-jadval.

N	**Soliq solinadigan ob’ektlarning nomi**	**Mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (foiz hisobida)**	
		2018 y	2019 y
1	Turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv. m dan oshiq bo‘lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,2	0,2
2	Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo‘lgan turar joy va kvartiralar:		
	200 kv. m dan oshiq va 500 kv. m gacha bo‘lgan	0,25	0,25
	500 kv. m dan oshiq bo‘lgan	0,35	0,35
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,25	0,25

23-jadval. 2018-2019 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari[120]

Kadastr qiymati belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilingan jismoniy shaxslar mulki bo‘lgan turar joylar, kvartiralar, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari a’zolarining bog‘ uylari (dala-hovlilar) uchun hisoblab chiqiladi.

2019 yilda hisoblangan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi 2018 yilda hisoblangan soliq summasidan 1,3 baravardan ortiq bo‘lmasligi belgilandi. 2020 yildan boshlab, ushbu soliq jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i deb nomlanadigan bo‘ldi.

9.4-§. Mol-mulk solig‘i ob’ekti va bazasi

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulklar jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

[119] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-son qaroriga 18-ilova.
[120] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorilari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlar.

Qurilishi tugallanmagan ob’ektlar- *qurilishi belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida tasdiqlangan loyiha hujjatlariga muvofiq boshlangan, lekin belgilangan kunida tugallanmagan yoki qurilishi tugallangan, ammo qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan binolar va inshootlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi asosida foydalanishga qabul qilinmagan bino va inshootlar.*

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga ushbu ob’ektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu ob’ektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar kiradi;

Bino *- funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo‘lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo‘ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi.*

4) ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

Fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljall angan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo‘ljallangan joylar *turar joy deb hisoblanadi*. Turar joy ko‘chmas mulk hisoblanadi. Turar joylarga quyidagilar kiradi. 28-rasm.

Inshoot- *har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarni saqlashga, odamlarning vaqtincha bo‘lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o‘tishga mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat, yer tepasida, yer yuzasida va yer ostida hajmli, yassi yoki chiziq tarzida joylashgan qurilish tizimi.*

Yordamchi-xo‘jalik imoratlari - ishlab chiqarish binolari va inshootlariga nisbatan qo‘shimcha imoratlar (omborxonalar, bostirmalar, yo‘laklar va shu kabilar), uy hayvonlari va parrandalarini boqish uchun mo‘ljallangan imoratlar, omborxona, garajlar, yozgi oshxonalar, tandirxonalar, yerto‘lalar, hammomlar, hovlidagi hojatxonalar, dushxonalar, issiqxonalar, hovuzlar, saunalar, qozonxonalar va odamlarning vaqtincha turishi bilan bog‘liq turli ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan boshqa funksional imoratlardir.



28-rasm. Turar joylar tarkibi[121]

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob’ektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi[122].

Kadastr qiymati hisoblab chiqilmaydigan ko‘chmas mulk ob’ektlari:
a) qurilayotgan;
b) belgilangan tartibda egasiz deb topilgan;
v) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlariga muvofiq foydalanish uchun yaroqsiz deb topilgan.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk ob’ektlarining, turar joy fondining kadastr qiymati hisoblash ishlari Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi va kadastr qiymati har yili 1 yanvar holatiga aniqlanadi. Kadastr qiymati belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilingan jismoniy shaxslar mulki bo‘lgan turar joylar, kvartiralar, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari a’zolarining bog‘ uylari (dala-hovlilar) uchun hisoblab chiqiladi. Ko‘chmas mulkning hisoblab chiqilgan kadastr qiymati ushbu ob’ektlarning kadastr qiymatini keyingi hisoblashgacha (qayta

[121] O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi.10-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil
[122] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 420-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

hisoblashgacha) o‘zgarishsiz qoladi. Ko‘chmas mulk ob’ektlarida o‘zgarishlar aniqlangan taqdirda (rekonstruksiya qilinishi, qo‘shimcha joylar qurilish, qo‘shimcha ob’ektlar qurilishi va boshqalar), Kadastr agentligining hududiy bo‘limlari tomonidan ushbu ob’ektlarning kadastr qiymati qayta hisoblanadi hamda qonunchilikda belgilangan muddatlarda soliq organlariga tegishli ma’lumotlar taqdim etiladi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob’ekti bo‘yicha soliq to‘lovchi bo‘lgan taqdirda, soliq bazasi har bir ob’ekt bo‘yicha alohida hisoblab chiqiladi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi Soliq kodeksida belgilangan summadan kam bo‘lishi mumkin emas. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob’ektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati soliq bazasi hisoblanadi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 9.2*)

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob’ektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati miqdorlari

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qirq ikki million so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob’ektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida - qirq ikki million so‘mning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa - ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

Yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, yer va suv resurslari, yer qa’ridan qazib olinadigan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020 yil 3 dekabrdagi «Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-6121-sonli Farmoni bilan mol-mulk va yer soliqlarini ko‘chmas mulk (bino, inshoot va yer uchastkalari) ob’ektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini bosqichma-bosqich joriy etiladigan bo‘ldi. Ya’ni, Farmonda belgilandiki, ko‘chmas mulk ob’ektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash tizimi ikki bosqichda joriy etiladi:

birinchi bosqichda (2021 - 2023 yillar) - ko‘chmas mulk bo‘lgan turar-joy fondi ob’ektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu ob’ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan;

ikkinchi bosqichda (2022 - 2024 yillar) - yashash uchun mo‘ljallanmagan alohida ko‘chmas mulk ob’ektlari, shuningdek, ushbu ob’ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan.

Zarurat tug‘ilganda xorijiy ekspertlarning xizmatiga Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan haq to‘lagan holda ularni jalb qilish orqali quyidagilar ta’minlanadi:

a) ko‘chmas mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish va kadastr tizimini modernizatsiya qilish uchun Jahon bankidan imtiyozli kreditlar jalb qilish;

b) 2021 yil 1 aprelga qadar xalqaro moliya institutlari ekspertlari bilan birgalikda ko‘chmas mulk ob’ektlariga soliq solishni yanada takomillashtirish bo‘yicha yer solig‘i va mol-mulk solig‘ini o‘rniga ko‘chmas mulk solig‘ini kiritishni nazarda tutuvchi «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqish;

v) ko‘chmas mulk ob’ektining (bino, inshoot va yer uchastkalari) yuridik yoki jismoniy shaxs egaligida bo‘lishi emas, balki ularning kadastr qiymatidan va ob’ektning foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda soliq solish tartibi birxillashtirilishi va yer solig‘i bo‘yicha advalor stavka kiritilishi;

g) belgilangan tartibda quyidagi loyihalarni kiritish:

2021 yil 1 avgustga qadar - kadastr qiymatini maksimal darajada bozor bahosiga yaqinlashtirishga alohida e’tibor qaratgan holda, turar joy fondi ko‘chmas mulki ob’ektlaring kadastr qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda

yakka tartibdagi uy-joy qurish va uy-joyga xizmat ko‘rsatish ob’ektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarining kadastr (bozor) qiymatini aniqlash tartibini kiritish bo‘yicha hukumat qarori;

2021 yil 1 noyabrga qadar - yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari va ushbu ob’ektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalarining bozor bahosiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan kadastr qiymatini aniqlash mexanizmini kiritish to‘g‘risida hukumat qarori;

2021 yil 1 dekabrga qadar - foydalanishga ruxsat etilgan yer uchastkalari turlari klassifikatorlari va ularga bo‘lgan huquqlarni tugatish uchun asoslarni nazarda tutuvchi Yer kodeksining yangi tahriri;

d) 2021-2022 yillarda respublikaning quyidagi «tajriba-sinov» hududlarida yer uchastkalaridan foydalanilishiga va kapital qurilish ob’ektlarining belgilangan maqsadiga qarab ko‘chmas mulk ob’ektlarining bozor qiymatiga asoslangan kadastr qiymatini aniqlash bo‘yicha eksperiment o‘tkazilishi:

turar va noturar (tijoriy) joylarga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektlari - Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani;

sanoat ob’ektlari - Navoiy viloyati Navoiy shahri;

rekreatsion zonalar va alohida qo‘riqlanadigan hududlar ob’ektlari - Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan ob’ektlar - Buxoro viloyati Romitan tumani.

Moliya vazirligi 2021 - 2024 yillar davomida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulklarni baholashni o‘tkazish uchun Davlat soliq qo‘mitasining asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra Davlat budjetidan mablag‘ ajratib boradi.

Farmonga ko‘ra, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi 2022 yil 1 yanvarga qadar ko‘chmas mulk ob’ektlarining kadastr qiymatini ularning bozor bahosiga asoslangan holda aniqlash, har bir egalik qiluvchiga (foydalanuvchiga) tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk ob’ektlari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlar bazasini yaratish uchun axborot tizimini takomillashtirish, ko‘chmas

mulk ob'ektlarini ularning bozor bahosidan kelib chiqqan holda sifatli baholashdan o'tkazish metodikasini ishlab chiqishi belgilab qo'yilgan.

9.5-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar asosan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini himoyalash maqsadlarida berilgan. Shuningdek ayrim imtiyozlar jismoniy shaxslarni resurslarni tejash va oqilona foydalanishga undash, mol-mulkdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, mulkiy tabaqalanishni qisqartirish, noishlab chiqarish jamg'armalarini imkon qadar kamaytirish hamda jamiyat uchun maqbul sohalarga yo'naltirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadlarida qo'llaniladi. (Bu haqda to'liqroq ma'lumot:*http://fiin.uz/O'quv-materiallari/Darslik va o'quv qo'llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/9.3*)

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar

Soliq kodeksining 421-moddasida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra *quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:*

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning

ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki mayib bo‘lganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi.

Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga.

Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotnoma asosida taqdim etiladi.

Soliq kodeksining yuqorida qayd etilgan moddasiga ko‘ra *quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:*

1) o‘n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarning.

Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi.

Oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilishga doir imtiyoz doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$[S_{um.} - (S_{um.} / S_{um.}) * 60 \text{ kv. m. }] * N$$

Bunda:

$S_{um.}$- mulk egallagan maydonning umumiy hajmi;

$S_{um.}$ - mulkning umumiy kadastr qiymati;

N-mol-mulk solig‘i stavkasi

Soliq kodeksining 421-moddsida ko‘rsatib o‘tilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish ob’ekti joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi. Mazkur soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko‘ra faqat bitta yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektiga tatbiq etiladi, bundan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar mustasno.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 4 январдаги ПҚ-1902-сонли қарорининг 4-бандига Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 ноябрдаги ПФ-5886-сонли фармонига асосан киритилган ўзгартиришга асосан, 2020 йил 1 июлгача жисмоний шахслар, қишлоқ жойларда намунавий лойиҳалар бўйича якка тартибдаги уй-жойлар қурилиши Дастури доирасида, ипотека кредитини тўлаб бўлмагунга қадар, харид қилинган уй-жойлар бўйича мулк солиғини тўлашдан озод қилинадилар.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 22 ноябрдаги ПҚ-2660-сонли қарорининг 17-бандига Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 ноябрдаги ПФ-5886-сонли фармонига асосан киритилган ўзгартиришга асосан, 2020 йил 1 июлга қадар жисмоний шахслар, ипотека кредити асосида "Ипотека банк" АТИБ, "Ўзсаноатқурилишбанк" АТБ ва "Асака банк" АТБ орқали шаҳарларда арзон кўп квартирали уйларни қуриш ва реконструкция қилиш қурилиши Дастури доирасида, сотиб олинган квартиранинг ипотека кредитини тўлаб бўлмагунга қадар харид қилинган уй-жойлар бўйича мулк солиғини тўлашдан озод қилинадилар.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari nisbiy stavka sifatida (foizda) o'rnatiladi. Mazkur stavkalarning miqdorlari Soliq kodeksida alohida moddada belgilab qo'yilgan. 24-jadval. (Bu haqda to'liqroq ma'lumot: *http://fiin.uz/O'quv-materiallari/Darslik va o'quv qo'llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/9.4*)

T/r	Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari (foizlarda)
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari mustasno), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,23
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:	
	200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lganlari	0,3
	500 kv.m dan ortiq bo'lganlari	0,4
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,3
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari	2

24-jadval. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari[123]

[123] O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 422-modda. lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro‘yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo‘llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq yashash uchun mo‘ljallangan joylar uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga nisbatan soliq stavkasi, agar Soliq kodeksi 422-moddasining oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan ob’ektlarga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan ob’ektlarga nisbatan qonun hujjatlarida[124] oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin. Jumladan, hukumatimizning 2019 yil 13 avgustdagi “Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini yanada

[124] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 666-son. 2019 yil 13 avgust.

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 666-son qaroriga asosan foydalanilmayotgan ob’ektlar mulkdorlariga quyidagi ta’sir choralari qo‘llaniladi:

mol-mulk va yer soliqlari o‘rnatilgan stavkaga nisbatan uch oyga qadar ikki baravar uch oy o‘tgandan so‘ng - besh baravar, olti oy o‘tgandan so‘ng - o‘n baravar, 12-oydan boshlab kelgusi har 12 oyda oxirgi oshirib qo‘llanilgan miqdorning ikki baravari miqdorida qo‘llaniladi;

foydalanilmayotgan ob’ektlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha qo‘llaniladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalarining amal qilishi to‘xtatiladi.

2020 yil 3 apreldagi PF-5978-son Farmoniga asosan yuridik yoki jismoniy shaxs o‘z faoliyatini koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish uchun kiritilgan cheklov choralari tufayli to‘xtatishga majbur bo‘lgan hollarda, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlarga, shu jumladan 2020 yil 1 aprelga qadar aniqlanganlarga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining oshirilgan stavkalarini qo‘llash, shuningdek, ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha oshirilgan stavkalarni qo‘llash natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikka nisbatan penya hisoblash va majburiy undirish choralarini ko‘rish tartibi to‘xtatildi.

9.6-§. Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash tartibi

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, soliq solish ob’ekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko‘ra bo‘lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Hisoblangan mol-mulk solig‘i summasini (S_{sum}) quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

Ya’ni:

$$S_{sum}=S_{um}*N$$

Bu yerda:

S_{um}–ko‘chmas mulkning kadastr qiymati;

N-soliq stavkasi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ida kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

(Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblashga doir misollar: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/9.5*)

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblashga oid misollar:
Umumiy maydoni 200 kv.metrgacha bo‘lgan turar joylar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblash

Misol

Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi xonadonning kadastr qiymati 96 mln. so‘mni, umumiy maydoni 190 kv.metrni tashkil etadi.

Mazkur xonadon uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘ini hisoblash lozim.

Yechimi:

-Ko‘chmas mulkning kadastr qiymati: 96 000 000 so‘m.

-Umumiy maydoni: 190 m^2.

Soliq kodeksiga asosan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig‘i stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan 0,23 % ni tashkil etadi.

96 000 000 x 0,23 % = 220 800 so‘m.

Demak, 2021 yil ushbu xonadon uchun to‘lanadigan mol-mulk solig‘i 220 800 so‘mni tashkil etadi.

Umumiy maydoni 200 kv.metrdan ortiq bo‘lgan turar joylar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblash

Misol

Qarshi tumani Navoiy mahallasidagi xonadonning kadastr qiymati 154 mln. so‘mni, mulk egallagan maydon esa 240 kv. metrni tashkil etadi. Mazkur xonadon

uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasini hisoblash lozim.

Yechimi

-Ko‘chmas mulkning kadastr qiymati: 154 000 000 so‘m.

-Umumiy maydoni: 240 m^2.

Soliq kodeksiga asosan umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (shahardan tashqari) uchun mol-mulk solig‘i stavkasi 0,3 foiz etib belgilangan.

Shunga ko‘ra mazkur ko‘chmas mulk bo‘yicha soliq summasi:

154 000 000 *0,3% = 462 000 so‘m.

Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 200 kv.metrdan 500 kv.metrgacha bo‘lgan turar joylar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblash

Misol

Samarqand shahri Registon mahallasidagi xonadonning kadastr qiymati 180 mln. so‘mni, mulk egallagan maydon esa 310 kv. metrni tashkil etadi.

Mazkur xonadon uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasini hisoblash lozim.

Yechimi

-Ko‘chmas mulkning kadastr qiymati: 180 000 000 so‘m.

-Umumiy maydoni: 310 m^2.

Soliq kodeksiga asosan umumiy maydoni 200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo‘lgan shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar uchun mol-mulk solig‘i stavkasi 0,3 foiz etib belgilangan.

Shunga ko‘ra mazkur ko‘chmas mulk bo‘yicha soliq summasi:

180 000 000 *0,3% = 540 000 so‘m.

Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 500 kv.metrdan ortiq bo‘lgan turar joylar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblash

Misol

Buxoro shahri Naqshbandiy mahallasidagi xonadonning kadastr qiymati 300 mln. so‘mni, mulk egallagan maydon esa 540 kv. metrni tashkil etadi.

Mazkur xonadon uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasini hisoblash lozim.

Yechimi

-Ko‘chmas mulkning kadastr qiymati: 300 000 000 so‘m.

-Umumiy maydoni: 540 m^2.

Soliq kodeksiga asosan umumiy maydoni 500 kv.m dan ortiq bo‘lgan shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar uchun mol-mulk solig‘i stavkasi 0,4 foiz etib belgilangan.

Shunga ko‘ra mazkur ko‘chmas mulk bo‘yicha soliq summasi:

*300 000 000 *0,4% = 1 200 000 so‘m.*

Tadbirkorlik faoliyati yohud tadbirkorlarga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan noturar ko‘chmas mulk ob’ektlari uchun mol-mulk solig‘ini hisoblash

Misol

Sirdaryo viloyati Guliston shahri Nurafshon MFYda joylashgan jismoniy shaxsga tegishli savdo do‘konining kadastr qiymati 120 mln.so‘mni, umumiy maydoni 40 kv. metrni tashkil etadi.

Mazkur noturar joy uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘ini hisoblash lozim.

Yechimi

-Noturar joyning kadastr qiymati: 120 000 000 so‘m.

- Soliq kodeksiga asosan tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan noturar ko‘chmas mulk ob’ektlari uchun mol-mulk solig‘i 2 % ni tashkil etadi.

Shunga ko‘ra mazkur noturar ko‘chmas mulk bo‘yicha soliq summasi:

*120 000 000 * 2 % =2 400 000 so‘m.*

Normativ muddatlarda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga nisbatan mol-mulk solig‘ini hisoblash

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga ushbu ob’ektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu ob’ektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar kiradi.

Misol

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahrida jismoniy shaxsning yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ekti (masalan mexmonxonasi) ushbu ob’ektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda (2021 yil 1 yanvarga qadar) qurilishi tugallanmagan.

2021 yilda mazkur ob’ekt bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i qanday hisoblanadi?

Yechimi

- Soliq kodeksiga asosan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

*- Ko‘chmas mulkning shartli bahosi viloyat markazlari uchun 42 mln*5 =210 mln*

Shunga ko‘ra mazkur normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ekt bo‘yicha soliq summasi:

*210 000 000 * 4 % =8 400 000 so‘m.*

Mol-mulk solig‘ini hisoblash jarayonida jismoniy shaxslarda imtiyozlar mavjud bo‘lsa, u holda imtiyozlar ham qo‘llaniladi. Agarda kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliq qayta hisob-kitob qilinadi. Buning uchun soliq idoralariga imtiyozga ega jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli davlat organlari tomonidan taqdim etiladi. Qolaversa, soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar soliq

imtiyozini olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish ob’ekti joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etishlari ham lozim bo‘ladi. Quyida oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilishga doir imtiyozni hisoblanish tartibini ko‘rib chiqamiz:

Oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilishga doir imtiyozning qo‘llanilishi

Oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilishga doir imtiyoz doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$[S_{um.} – (S_{um.} / S_{um.}) * 60 \text{ kv. m. }] * N$

Bunda:

$S_{um.}$- mulk egallagan maydonning umumiy hajmi; $S_{um.}$ - mulkning umumiy kadastr qiymati; N-soliq stavkasi

Misol

Pensioner kvartirasining kadastr qiymati 98400 ming so‘mni, umumiy maydoni esa 82 kv. metrni tashkil etadi.

Mazkur pensioner uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasi hamda imtiyoz summasini hisoblash lozim.

Yechimi

-Ko‘chmas mulkning kadastr qiymati: 98 400 000 so‘m.

-Umumiy maydoni: 82 m^2.

Soliq kodeksiga asosan umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari uchun mol-mulk solig‘i stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan 0,23 % ni tashkil etadi.

Shunga ko‘ra mazkur pensioner uchun 2021 yilda to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasi:

*[98 400 000– (98 400 000 / 82) * 60] * 0,23%=60 720 so‘m*

*Pensioner uchun imtiyoz summasi: 98 400 000 * 0,23%-60 720 =226 320-60 720 =165 600 so‘m*

Soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yoki to‘lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi. 29-rasm.

29-rasm. To‘lov xabarnomasi shakli[125]

Soliq davri uchun jismoniy shaxslar to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan soliq (soliqlar) summasini to‘lashni teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktabrga qadar quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiradi: 30-rasm.



30-rasm. Jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulk solig‘ini to‘lash usullari[126]

[125] Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakl.
[126] Mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha to‘lov muddati ayrim hollarda (masalan karantin holatlarida) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmonlari bilan ham uzaytirilishi mumkin.

2020 yil 19 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» Farmoni 5-bandiga asosan jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini to‘lash muddati ***2020 yil 15 oktabrga qadar uzaytirildi.***

9.7-§. Mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos jihatlari

Agarda mulk bir necha bir necha mulkdorlarning umumiy ulushli mulki bo‘lsa, bunday imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi.

*Masalan:*Umumiy maydoni 100 kv. metr bo‘lgan uyning mulkdorlari 2 kishini (1-mulkdor ulushi 40 kv. metr, 2-mulkdor ulushi 60 kv. metrni) tashkil etadi. Mazkur mulkning kadastr qiymati 148 mln. so‘mni tashkil qilganda, mol-mulk solig‘i summasi 296 000 so‘mni tashkil qiladi. Ushbu holda 1-mulkdor tomonidan soliq summasining 40 foizi, ya’ni 118 400 so‘mi, 2-mulkdor tomonidan soliq summasining 60 foizi, ya’ni 177 600 so‘mi to‘lanadi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e’tiboran u mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

*Masalan:*Fuqaro S.Raxmonov 2021 yil aprel oyida yangi qurgan savdo do‘konini ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organda ro‘yxatdan o‘tkazdi va unga nisbatan mulk huquqi

yuzaga keldi. Ushbu yashash uchun mo‘ljallanmagan (noturar) joy uchun yillik mol-mulk solig‘i summasi 1800 ming so‘mni tashkil etadi. Fuqaro S.Raxmonov 2021 yilda 9 oy uchun (aprel-dekabr) 1350 ming so‘m (1800 ming/12*9 oy) to‘laydi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulk uchun soliq merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

*Masalan:*Navoiy viloyati Nurota tumanida yashovchi fuqaro R. Shodmonovga 2021 yil avgust oyida umumiy maydoni 170 kv.metr, kadastr qiymati 64 mln. so‘m bo‘lgan turar joyga (otasidan meros qolgan) meros huquqi yuzaga keldi.

Ushbu ko‘chmas mulk bo‘yicha yillik mol-mulk solig‘i summasi:

64 000 000 *0,23%=147 200 so‘mni tashkil etadi

Fuqaro R. Shodmonov 5 oy (2021 yil avgust-dekabr uchun) mulk solig‘i to‘laydi: 147 200 /12*5=61 133 so‘m

Izoh: otasining qarzi ham merosxo‘rdan undiriladi.

Soliq solish ob’ekti yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan oydan e’tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo‘q qilinganlik, vayron bo‘lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

*Masalan:*Jizzax shahri Bobur ko‘chasida yashovchi fuqaro F. To‘raevning hovlisi pullik kompensatsiya to‘lovi va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer ajratilgan holda shaharning markaziy ko‘chasini kengaytirishga doir xokim qaroriga asosan 2021 yil iyun oyida buzib tashlandi. Ammo fuqaro ushbu uy uchun hisoblangan 216 ming so‘mlik mol-mulk solig‘ini mart oyida to‘lagan.

Fuqaro tomonidan soliq organiga mahalliy davlat hokimiyati organining uyi hokimiyat tomonidan buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish quyidagicha bo‘ladi, ya’ni fuqaro F. To‘raevning uyi uchun, u buzib tashlangan iyun oyi (yanvar-may)ga mulk solig‘i qayta hisoblanadi.

216 ming/12 oy*5 oy=90 ming.

Fuqaro tomonidan to‘langan ortiqcha 126 ming so‘m soliq summasi unga qaytariladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

*Masalan:*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchi fuqaro Sh. Panjiev 2021 yil fevral oyida pensiyaga chiqqan. Uning kvartirasi umumiy maydoni 40 kv.metr, kadastr qiymati 44 mln. so‘m. Ushbu ko‘chmas mulk bo‘yicha yillik mol-mulk solig‘i summasi: 44 000 000 *0,23%=101 200 so‘m

Imtiyoz fevral oyidan qo‘llaniladi (mulk solig‘idan ozod qilinadi).

Fuqaro Sh. Panjiev 1 oy (2021 yil yanvar uchun) mulk solig‘i to‘laydi: 101 200 /12*1=8 433 so‘m

Tayanch so‘z va iboralar

Mulk, mulk huquqi, mulk huquqi sub’ektlari, mulk turlari, ko‘chmas mulk, ko‘char mulk, turar joy, noturar joy, uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, bino, inshoat, **yo**rdamchi-xo‘jalik imoratlari, stavka, imtiyoz.

Nazorat savollari:

1. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig‘ini undirishning qanday zaruriy tomonlari mavjud?

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol - mulk solig‘ining bazasi qanday aniqlanadi?

4. Kadastr bahosi mavjud bo‘lmagan mol-mulklar qanday tartibda soliqqa tortiladi?

5. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblashning o‘ziga xos qanday jihatlari mavjud?

6. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar qo‘llaniladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/ 9.6*)

Test savollari

1.Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining bazasi nima?

A) kadastr idorasi tomonidan belgilanadigan soliq solish ob’ektlarining kadastr qiymati

B) kadastr idorasi tomonidan belgilanadigan soliq solish ob’ektlarining inventarizatsiya qiymati

C) ko‘chmas mulkning bozor qiymati

D) ko‘chmas mulkning kadastr qiymati bilan sotish qiymati o‘rtasidagi farq

2.Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi necha so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas?

A) 42 mln. so‘mdan

B) 21 mln. so‘mdan

C) 84 mln. so‘mdan

D) 60 mln. so‘mdan

3. Kadastr idoralari tomonidan ro‘yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan mol-mulk solig‘i stavkasi kadastr idoralari axborotlari asosida qancha miqdorda qo‘llaniladi?

A) mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorda

B) mulkning shartli qiymati miqdorida

C) mulkning shartli qiymatiga nisbatan uch baravar miqdorda

D) mulkning shartli qiymatiga nisbatan besh baravar miqdorda

4. Xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari mol-mulk solig‘i stavkalariga qanday oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli?

A) 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi

B) 0,5 dan 1,1 gacha bo‘lgan oraliqdagi

C) 0,3dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi

D) 0,5 dan 1,5 gacha bo‘lgan oraliqdagi

5. Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

A) 4 foiz

B) 2 foiz

C) 0,2 foiz

D) 0,25 foiz

6. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i qachondan boshlab to‘lanadi?

A) mulk huquqi yuzaga kelgan oydan

B) mulk huquqi yuzaga kelgan oydan oldingi oydan

C) mulk huquqi yuzaga kelgan oydan keyingi oydan

D) mulk huquqi yuzaga kelgan yildan keyingi yildan

7. Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulk uchun mol-mulk solig‘i qachondan boshlab to‘lanadi?

A) merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan

B) merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan oldingi oydan

C) merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yildan

D) merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan

8. Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan qachongacha to‘lanadi?

A) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar

B) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oydan keyingi oyning boshlanishiga qadar

C) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan yilning boshlanishiga qadar

D) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan yildan keyingi yilning boshlanishi

9.Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, mol-mulk solig‘i yangi mulkdor tomonidan qachondan boshlab to‘lanadi?

A) mulk huquqi vujudga kelgan oydan

B) mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan

C) mulk huquqi vujudga kelgan oydan oldingi oydan

D) mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yildan

10.Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, mol-mulk solig‘ini qayta hisob-kitob qilish qachondan boshlab amalga oshiriladi?

A) ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran amalga oshiriladi

B) ushbu huquq vujudga kelgan yildan e’tiboran amalga oshiriladi

C) ushbu huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan e’tiboran amalga oshiriladi

D) ushbu huquq vujudga kelgan yildan keyingi yildan e’tiboran amalga oshiriladi.

X-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING YER SOLIG‘I MA’MURIYATCHILIGI

10.1-§.Jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga nisbatan huquqlarining yuzaga kelishi

Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqining ob’ektlaridan biri sifatida yer keltirilgan. Yer mulk huquqining ob’ektida sifatida e’tirof etilsada, mulk huquqining barcha sub’ektlari ham mulkiy munosabatlarda yerning mulkdori sifatida ishtirok eta olmaydi. Yerga nisbatan mutlaq mulkdor sifatida faqat davlat e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra yerlar respublika mulki hisoblanadi[127].

> *Yer davlat mulki - umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo‘yilmaydi, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 16-modda.*

2021 yilning 1 avgustiga qadar jismoniy shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin edi. Endi esa jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk va ijara huquqi asosida yer uchastkalariga bo‘lishlari mumkin. 31-rasm.



31-rasm. Jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari[128]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi «Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni

[127] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 214-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[128] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. № PF-6243-sonli, 2021 yil 8 iyun.

ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq, 2021 yil 1 avgustdan boshlab yer uchastkalari xususiy sektorga - mulk va ijara huquqi asosida ajratiladigan bo‘ldi.

Yuqorida qayd etilgan Prezident farmoni bilan meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, doimiy egalik, vaqtincha foydalanish huquqi bilan yer ajratish tartibi 2021 yil 1 avgustdan boshlab bekor qilindi. Bunda ilgari ajratilgan yer uchastkalariga bo‘lgan bunday huquqlar ularning egalarida amaldagi tartibda saqlanib qolinadi.

Endilikda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinadi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar esa barcha turdagi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ishtirok eta oladigan, natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadigan ochiq elektron tanlov yakunlariga ko‘ra, faqat ijara huquqi asosida ajratiladi.

Ijaraga olingan yer uchastkasida qonunchilikda belgilangan tartibda qurilgan ko‘chmas mulk ob’ektiga mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda, ushbu ob’ektga mulk huquqi bilan birgalikda u joylashgan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi ham yangi mulkdorga o‘tadi.

Barcha hollarda yer uchastkalari faqat bo‘sh turgan va zaxiraga olingan yerlardan ajratiladi, ayni bir hujjat bilan yoki bir vaqtning o‘zida yer uchastkasini olib qo‘yish, zaxiraga olish, boshqa shaxsga ajratish yer berish tartibini buzish hisoblanadi va qonunga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Ko‘p kvartirali uy joylashgan va unga tutash yer uchastkasi, agar ko‘p kvartirali uydagi joylarning mulkdorlariga boshqa huquq bilan tegishli bo‘lmasa, ularga umumiy foydalanish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi.

Vazirlar Mahkamasi 2021 yil 1 avgustdan boshlab, istisno tariqasida, chet ellik jismoniy shaxslarga - ijaraga olish huquqini olganlik uchun bozor qiymatida

haq to‘lagan holda (xalqaro birlashmalar va tashkilotlardan tashqari) yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berishga haqli.

Yuqorida qayd etilgan Farmonga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlariga oid quyidagi vakolatlari, ular yuzasidan qaror, farmoyish yoki boshqa turdagi hujjat qabul qilish huquqi 2021 yilning 1 avgustidan bekor qilindi, jumladan:

yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratish, foydalanishga berish, kelgusida ajratish uchun zaxiralash, biriktirish, obodonlashtirish uchun berish yoki yerlarni boshqacha yo‘l bilan tasarruf qilish, bundan mazkur Farmonga muvofiq yer uchastkalarini davlat tashkilotlariga doimiy foydalanishga ajratish, ochiq tanlov yakunlarini tasdiqlash, ijara shartnomasini imzolash, yer uchastkalarini xususiylashtirish natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha vakolatlar mustasno;

tuman va shahar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni belgilash, e’tirof etish, o‘zgartirish, bekor qilish;

sug‘oriladigan yerlarni sug‘orilmaydigan yerlar toifasiga yoki boshqa yer toifasiga, sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligi yerlarini boshqa yer toifasiga o‘tkazish;

jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi hamda yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun yer berish;

xususiylashtiriladigan yer uchastkalariga nisbatan investitsiya majburiyatlari yoki xususiy mulkni erkin tasarruf etishni cheklaydigan boshqa majburiyatlarni belgilash.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari davlat ro‘yxatiga olinishi kerak. Shunga ko‘ra, qonunchikda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun o‘z vaqtida murojaat etmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralari belgilangan. Shuningdek, yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish bilan bog‘liq holatlarga nisbatan ma’muriy, yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olishga nisbatan ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari belgilangan. (Bu

haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/10.1*)

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazmaslik, o‘zboshimchalik bilan egallab olish, xo‘jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish bilan bog‘liq javobgarlik choralari

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga[129] asosan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organga yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun o‘z vaqtida murojaat etmaslik, -fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda[130] yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘lishligi belgilangan. Agar mazkur huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini ta’minlasa hamda o‘zboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf qilsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida esa yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olishga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan[131] bo‘lib, jumladan yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, agar xuddi shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa,-bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

---

[129] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 68^1-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[130] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 60-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[131] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 229^1-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirishga nisbatan ma’muriy jarima[132] belgilangan bo‘lib, jumladan yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanish, ob’ektlar qurish paytida unumdor qatlamni olmaslik, yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish, shuningdek tanazzulga yuz tutgan qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiyalashning belgilangan tartibini buzish - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan bir gektargacha maydonga ega yer uchastkasida sug‘oriladigan yerlarni yaxshilash hamda muhofaza qilish, shu jumladan yerlardan maqsadli, oqilona foydalanilishini, tuproqning qayta tiklanishini va hosildorligi oshirilishini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi, -fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan bir gektardan ortiq maydonga ega yer uchastkasida sug‘oriladigan yerlarni yaxshilash hamda muhofaza qilish, shu jumladan yerlardan maqsadli, oqilona foydalanilishini, tuproqning qayta tiklanishini va hosildorligi oshirilishini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi, – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holga tushirish, ularni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

[132] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 65-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

> *Yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 24-modda.*

Ijaraga berilgan yer uchastkalari oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob’ekti bo‘lishi mumkin emas. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olish uchun garovga qo‘yilishi mumkin. Ijarachi faqat qonunda yoki ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina yer uchastkasiga bo‘lgan o‘zining ijara huquqlarini ijaraga beruvchining roziligisiz garovga qo‘yishga haqlidir.

Yer uchastkalari ijarasining shartlari va muddatlari taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi va shartnomada mustahkamlab qo‘yiladi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ijaraga ellik yilgacha bo‘lgan, biroq o‘ttiz yildan kam bo‘lmagan muddatga berilishi mumkin.Ijarachi yer uchastkalari ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin shartnomani yangilashda boshqa teng sharoitlarda ustun huquqqa ega. Yer uchastkalarini ijaraga olganlik uchun haq to‘lash tartibi va uning miqdori ijara shartnomasida qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

10.2-§. Yerdan foydalanganlik uchun soliq to‘lash zarurligi va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar

Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lanadi. O‘zbekistonda dastlab 1990 yilda “Yer to‘g‘risida” qonun qabul qilindi (hozirgi vaqtda o‘z kuchini yo‘qotgan) va ushbu qonunga ko‘ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo‘lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig‘i sifatida undirila boshlandi. 1993 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi maxsus qonun (hozirgi vaqtda o‘z kuchini yo‘qotgan) qabul qilinib, unda yer solig‘ini undirishda soliqqa totish ob’ekti, sub’ektlari, soliq bo‘yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va budjetga to‘lash tartiblari ko‘rsatib berildi. Shunday qilib yer solig‘ining joriy etilishi bilan mamlakatda yer munosabatlarini tartibga solishning chinakam

iqtisodiy vositalari paydo bo‘ldi. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda 1998 yilda Yer kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi bilan yer solig‘ining to‘laqonli huquqiy asoslari yaratildi.

Yer solig‘i mahalliy budjetlar daromad manbai, jumladan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i tuman (shahar) budjetining, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetining daromad manbai hisoblanadi. Mahalliy budjet daromadlari tarkibida asosiy o‘rinni egallaydigan soliqlardan biri yer solig‘i hisoblanadi. Mahalliy budjet daromadlarining 30-40% qismi yer solig‘i ulushiga to‘g‘ri kelishi ham fikrimizni haqiqatga yaqin ekanligini isbotlaydi.

Yerlardan foydalanuvchilarni soliqqa tortishning rivojlanishi jarayonida uning fiskal va rag‘batlantirish roliga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu soliqning asosiy vazifasi mahalliy budjetni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hisoblanadi. Rag‘batlantirish roli esa mavjud yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo‘lgan yerlarda xo‘jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta’minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi. Davlat mulkdorlar faoliyatini boshqarish maqsadida yer solig‘idan ikki tomonlama foydalanish mumkin:

Bir tomondan mulkdorlarning foydalanilmayotgan yerlarni (mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida) qonunda belgilangan tartibda soliqqa tortishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlat uchun maqbul bo‘lgan, ya’ni passiv faoliyatdan faol xo‘jalik yuritish faoliyatiga o‘tgan shaxslarga yerlarni yo‘naltirish. Bunday sharoitda yerga joriy etilgan soliq, vosita sifatida qaralib, mulkdorlarni xo‘jalik faoliyatida o‘ziga tegishli bo‘lgan yer solig‘idan samarali foydalanishga chorlaydi yoki egalik huquqlarini o‘zgartirish yo‘li bilan faol shaxslar yer uchastkalaridan yanada samarali va oqilona foydalanishini

> *O‘z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to‘laydilar. Yer uchun haq har yili to‘lanadigan yer solig‘i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta’minlanish darajasiga qarab belgilanadi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 28-modda.*

rag‘batlantiradi. Ushbu soliqning vazifasi moliyaviy nuqtai nazardan olganda, rag‘batlantiruvchilik va nazorat qilish, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazardan esa, fiskal vazifalarini bajarishidan iborat.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlarni barqarorligini ta’minlash zarurati mavjudligi, mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlashda yer solig‘ini amal qilishini taqozo etadi. Yer solig‘ining ob’ektiv zarurligidan kelib chiqib, uning iqtisodiy mohiyati, bizning nazarimizda soliqqa tortiladigan yer solig‘idan foydalanish tufayli aniq bir iqtisodiy shart-sharoitlarda olinadigan muayyan o‘rtacha daromadning bir qismini budjetga undirishga qaratilgan desak, yanglishmaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ko‘ra mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi[133].

Yer qonunchiligiga ko‘ra yer uchastkalari ijaraga berilganda yer uchun haq ijara haqi shaklida olinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara to‘lovi (haqi) yer solig‘iga tenglashtirilgan.

Yer uchastkalarini ijaraga olgan shaxslar yer uchun ijara haqini yer solig‘i to‘lovchilar uchun belgilangan tartibga muvofiq budjetga to‘laydilar[134]. Ya’ni yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi tatbiq etiladi[135].

---

[133] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 433-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

[134] O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 28-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

[135] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 433-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

Uy-joy, yashash uchun mo‘ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo‘yicha o‘tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o‘tgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo‘rlardan undiriladi.

10.3-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i ob’ekti va bazasi

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solish ob’ekti hisoblanadi[136]:

1) dehqon xo‘jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo‘yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalari;

6) qonunchilikda belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob’ekti bo‘lmaydi, bundan Soliq kodeksini 434-moddasi birinchi qismining 7-bandida ko‘rsatilganlar va ko‘p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari mustasno. Ya’ni ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob’ekti bo‘lmaydi, lekin tadbirkorlik

[136]O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 434-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari va ko‘p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari soliq solish ob’ekti bo‘ladi. Amalda ko‘p kvartirali (qavatli) uylarning birinchi qavatida joylashgan kvartiralar ularning egalari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida yashash uchun mo‘ljallanmagan joyga aylantiriladi. Bu jarayon mulkdorning arizasi asosida tumanlar va shaharlar hokimlarining qaroriga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ko‘p kvartirali (qavatli) uylarni qurish jarayonining o‘zida birinchi va ikkinchi qavatlari noturar joyga mo‘ljallangan holatda qurilmoqda.

Ko‘p kvartirali uylardagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarga sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday joylarda amalga oshirilishi ruxsat etilgan faoliyat turlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ko‘p kvartirali uylardagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarga nosanoat yo‘nalishidagi korxona, muassasa, tashkilotlarni, ofislarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Ko‘p kvartirali uydagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joyga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar yoki yuridik shaxslar ko‘p kvartirali uydagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar mulkdorlari bo‘lishi mumkin. Yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar mulkdorlari ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkka nisbatan ulushli mulk ishtirokchilaridir. Ko‘p kvartirali uydagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar mulkdorlari bunday joylarning asralishini, tegishli texnik va sanitariya holatini ta’minlashi, joylarni o‘z hisobidan joriy va kapital ta’mirlash ishlarini amalga oshirishi, ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkni saqlash va ta’mirlash bo‘yicha umumiy xarajatlarni o‘z zimmasiga olishi shart. Yashash uchun mo‘ljallanmagan joy mulkdorining ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkni saqlash va ta’mirlash bo‘yicha umumiy xarajatlardagi ishtiroki ulushi uyning umumiy maydonidagi mulkdorga qarashli yashash uchun mo‘ljallanmagan joy maydoniga mutanosib ravishda belgilanadi. Ko‘p kvartirali uydagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joy mulkdori mahalliy davlat hokimiyati organlaridan

tegishli ruxsatnoma olmasdan o‘ziga qarashli joyni o‘zboshimchalik bilan qayta qurgan yoki o‘zgartirgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi hamda bu joyni o‘z hisobidan avvalgi holatiga keltirishi shart.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari bo‘yicha yer uchastkalarining maydoni jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining bazasi bo‘lib hisoblanadi[137].

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq bazasi Soliq kodeksi 428-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari bo‘yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo‘yicha soliq bazasi o‘z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

10.4-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar hamda soliq stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarga yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar asosan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida berilgan. Shuningdek ayrim imtiyozlar jismoniy shaxslarga yerlardan oqilona va samarali foydalanishni hamda innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish maqsadlarida qo‘llaniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha asosiy imtiyozlar Soliq kodeksida[138] belgilab qo‘yilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:

[137] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 435-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish//10.2)

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘idan quyidagilar ozod qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘idan quyidagilar ozod qilinadi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg‘iz pensionerlar.

Yolg‘iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg‘iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

---

[138] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 436-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

5) boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar. Ota va onadan biri yoxud ota-ona vafot etgan ko‘p bolali oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalardir. Ushbu imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi, nogironligi bo‘lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar - qayta tiklanadigan energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida energiya ta’minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma’lumotnoma asosida beriladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan soliq imtiyozlari, bundan boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organda ro‘yxatdan o‘tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko‘ra faqat bitta yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektiga tatbiq etiladi, bundan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar mustasno.

Soliq kodeksida belgilab qo‘yilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi

joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etishlari lozim bo‘ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar tegishli maqsadlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlarida yoki Vazirlar Makamasining qarorlarida ham belgilanishi mumkin.

2021 yildan boshlab, jismoniy shaxslar uchun yer solig‘ining bazaviy stavkalari Soliq kodeksida belgilab qo‘yilgani holda, aniq stavkalari har yili xalq deputatlari Kengashlari tomonidan ushbu (bazaviy) stavkalarga Soliq kodeksida belgilangan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda aniqlanadigan bo‘ldi. Bunda har yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalarini belgilaydi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun - Soliq kodeksida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llagan holda ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimi bo‘yicha yer solig‘ining aniq stavkalarini belgilaydilar. Demak, Soliq kodeksida respublika hududlari kesimida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining bazaviy stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno): 25-jadval. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/*10.3)

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, mazkur stavkalarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda, tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi.

Respublika hududlari	1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)
Toshkent shahri 1 zona 2 zona 3 zona 4 zona 5 zona	 1193,6 1013,2 832,6 652,3 471,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	245,0
Andijon viloyati	297,6
Buxoro viloyati	245,0
Jizzax viloyati	245,0
Qashqadaryo viloyati	245,0
Navoiy viloyati	245,0
Namangan viloyati	297,6
Samarqand viloyati	297,6
Surxondaryo viloyati	221,6
Sirdaryo viloyati	191,8
Toshkent viloyati	252,2
Farg‘ona viloyati	245,0
Xorazm viloyati	245,0

25-jadval. Respublika hududlari kesimida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining bazaviy stavkalari[139]

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi. Ya’ni tuman (shahar)lar mahalla fuqarolari yig‘inlari kesimida yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining aniq stavkalarini belgilaydi. Masalan: Soliq kodeksida Farg‘ona viloyatida yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 1 kv.m yer uchun bazaviy soliq stavkasi 245 so‘m miqdorida belgilangan. 2021 yilda Farg‘ona viloyati xalq deputatlari Kengashi esa mazkur stavkaga 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda, o‘zining hududlaridagi tuman va shaharlar kesimida quyidagicha belgilagan: 26-jadval.

[139] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 437-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

№	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi
1	Farg‘ona shahar	1,00	245,0
2	Qo‘qon shahar	1,00	245,0
3	Quvasoy shahar	0,70	171,5
4	Marg‘ilon shahar	1,00	245,0
5	Oltiariq tumani	0,70	171,5
6	Bog‘dod tumani	0,62	151,9
7	Buvayda tumani	0,60	147,0
8	Beshariq tumani	0,70	171,5
9	Quva tumani	0,72	176,4
10	Uchko‘prik tumani	0,62	151,9
11	Rishton tumani	0,60	147,0
12	So‘x tumani	0,55	134,8
13	Toshloq tumani	0,70	171,5
14	O‘zbekiston tumani	0,62	151,9
15	Farg‘ona tumani	0,62	151,9
16	Dang‘ara tumani	0,62	151,9
17	Furqat tumani	0,55	134,8
18	Yozyovon tumani	0,55	134,8
19	Qo‘shtepa tumani	**0,62**	**151,9**

26-jadval. 2021 yilda Farg‘ona viloyatining tuman va shaharlar kesimida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari[140]

Misol uchun yuqoridagi jadvalda (Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi VI-XXIV/121-sonli qarorining 9-ilovasida) Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani uchun bazaviy soliq stavkasiga 0,62 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llanilgan. Natijada yer solig‘i stavkasi 151,9 so‘m (245*0,62) etib belgilangan. Qo‘shtepa tumani xalq deputatlari Kengashlari esa Farg‘ona viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda mahallalar kesimida yer solig‘ining aniq stavkalarini belgilagan. 27-jadval.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalariga ham yakka tartibdagi uy-joy qurishga berilgan yer uchastkalari uchun belgilangan stavka qo‘llaniladi.

[140] Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi VI-XXIV/121-sonli qarori. 9-ilova

Toshkent shahri tumanlari xalq deputatlari Kengashlari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri Soliq kodeksida belgilangan yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga nisbatan 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida aniq stavkalarni belgilab beradi.

№	Mahalla nomi	2021 yilda Qo‘shtepa tumani uchun viloyat tasdiqlagan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	2021 yil uchun yer solig‘i stavkasi
1.	Fayz MFY	151,9	0,9	136,7
...	...			
7.	Shodlik MFY	151,9	0,95	144,3
22.	Yo‘ldoshobod MFY	151,9	0,85	**129,1**
32.	Qoraqushchi MFY	151,9	0,9	136,7
46.	Istiqbol MFY	151,9	0,85	129,1
51.	Mumtoz MFY	151,9	0,9	136,7

27-jadval. 2021 yilda Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani mahallalari kesimida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining aniq stavkalari[141]

Masalan: Toshkent shahri Uchtepa tumani Bog‘obod MFY 4-zona hisoblanadi. Xalq deputatlari Toshkent shahri Uchtepa tumani Kengashining qaroriga aosan ushbu mahalla uchun bazaviy soliq stavkasiga 1,13 oshiruvchi koeffitsient qo‘llanilgan.

Natijada Toshkent shahri Uchtepa tumani Bog‘obod MFYda yashovchi jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi 1 kv.m yer uchun 737,1 so‘m (652,3*1,13) etib belgilangan.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarga soliq stavkasi qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

[141] Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi 147/29-6-sonli qarori.4-ilova

10.5-§. Soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to‘lash tartibi

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalarini o‘z qarorlari bilan tasdiqlaydi hamda har yili joriy soliq davrining 31 dekabriga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi.

Yer uchastkasi maydoniga nisbatan yer solig‘i stavkasini (Soliq kodeksida belgilangan bazaviy stavkasiga xalq deputatlari Kengashlari tomonidan koeefitsientlar qo‘llanilgan holda aniqlangan stavka) qo‘llagan holda quyidagi formula orqali hisoblab chiqarish mumkin:

Ya’ni:

$$S_{sum} = Y_{um} * N_{MFY}$$

Bu yerda:

Y_{um} -yer uchastkalarining maydoni;

N_{MFY}- tuman (shahar)larda daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida aniqlangan soliq stavkasi.

Agar jismoniy shaxs imtiyozga ega bo‘lsa, imtiyoz hisobga olingan holda yer solig‘i hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha undiriladi hamda Soliq kodeksining 436-moddasida ko‘rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk ob’ektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to‘lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning normativ qiymatiga nisbatan yer solig‘i stavkasini (0,95 foiz) qo‘llanilgan holda quyidagi formula orqali hisoblab chiqarish mumkin:

$$S_{sum} = Y_{nq} * N$$

Bu yerda:

Y_{nq} –qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning normativ qiymati;

N- soliq stavkasi.

Quyida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblashga doir misollarni ko‘rib chiqamiz: (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/*/10.4)

Yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘ini hisoblash

Misol:

Xorazm viloyati Yangiariq tumani Qorako‘z MFYda yashaydigan fuqaroga tegishli turar joyning umumiy yer maydoni 6 sotix (600 kv. metr)

Ushbu jismoniy shaxsga qancha miqdorda yer solig‘i hisoblanadi?

Yechimi:

➢ Soliq kodeksi bo‘yicha Xorazm viloyatida 1 kv. metr yer uchun bazaviy stavka 245,0 so‘m.

➢ Viloyat Kengashi tasdiqlagan stavka 159,3 so‘m=(245*0,65 koef)

➢ Tuman Kengashi dasdiqlagan stavka 127,4 so‘m=(159,3*0,8 koef)

✓ Shunga ko‘ra ushbu fuqaroga 2021 yilda quyidagi miqdorda yer solig‘i hisoblanadi:

600 *127,4=76 440 so‘m yer solig‘i

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoniga asosan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalari bo‘yicha yer solig‘ini hisoblash

Misol:

Farg‘ona viloyati Quva tumani Ittifoq MFYda fuqaroning tomorqa yer uchastkasi maydoni 0,08 ga (8 sotix)ni tashkil etadi.

Ushbu jismoniy shaxsga qancha miqdorda yer solig‘i hisoblanadi?

Yechimi:

№	Mahalla nomi	2021 yilda Quva tumani uchun viloyat tasdiqlagan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	2021 yil uchun yer solig‘i stavkasi
31.	Ittifoq MFY	176,4	0,80	141,1

Farg‘ona viloyati Quva tumani Ittifoq MFYda 1 kv.m yer uchun yer solig‘ining aniqlangan stavkasi (tuman Kengashi tomonidan) 141,1 so‘m miqdorida belgilangan.

Yer solig‘i summasini hisoblaymiz: 800 *141,1 so‘m=112 880 so‘m

Tadbirkorlikda foydalaniladigan, ijaraga berilgan va yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq hisoblash

Misol:

Farg‘ona shahar Bobur MFYda fuqaroga turg‘un savdo shaxobchasini qurish uchun 0,01 gektar (100 kv.metr) yer ajratilgan.

Mazkur yer uchastkasi uchun 2021 yilda qancha miqdorda yer solig‘i hisoblanishini topish lozim?

Yechimi:

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha undiriladi hamda Soliq kodeksining 436-moddasida ko‘rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

№	Mahalla nomi	2021 yilda Farg‘ona viloyatida yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi 1 gektar uchun (mln. so‘m)	2021 yilda Farg‘ona shahrida yuridik shaxslar uchun viloyat tasdiqlagan stavkasi 1 gektar uchun (mln. so‘m)	Tuman Kengashi koeffitsient	2021 yil uchun yer solig‘i stavkasi 1 gektar uchun (mln. so‘m)
1	Bobur MFY	26,7	29,37	0,9	26,433

Farg‘ona shahar Bobur MFYda yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi 1 gektar yer uchun 26 433 ming so‘m.

Fuqaroga berilgan yer uchastkasi 0,01 gektar.

Yer solig‘i summasi: 0,01 ga*26 433 000 so‘m=264 330 so‘m

Oilaviy tadbirkor yoki oilaviy korxonalar yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda yer solig‘i hisoblash

Misol:

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahri Ma’rifat MFYda fuqaro Sh.Abdurahmonov o‘zining uyida oilaviy korxona tashkil etgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Uyning yer maydoni 300 kv. metrni tashkil etadi. Qancha miqdorda va qanday stavkada yer solig‘i to‘lanadi?

Yechimi:

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘lanadi. SK. 437-modda

№	Mahalla nomi	2021 yilda Farg‘ona shahar uchun viloyat tasdiqlagan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	2021 yil uchun yer solig‘i stavkasi
2.	Ma’rifat MFY	**245,0**	1,30	318,5

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar Ma’rifat MFYda jismoniy shaxslarga 1 kv.m yer uchun yer solig‘ining aniqlangan stavkasi (shahar Kengashi tomonidan) 318,5 so‘m miqdorida belgilangan.

Yer solig‘i summasini hisoblaymiz: 300 *318,5 so‘m=**95 550 so‘m**

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha yer solig‘ini hisoblash

Misol:

Toshkent shahri Uchtepa tumani Bog‘obod MFYda joylashgan 4 qavatli turar joyning 1-qavatida jismoniy shaxsga tegishli 100 kv.metrlik noturar joy mavjud.

2021 yilda mazkur noturar joy yer maydoni bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan yer solig‘i qanday hisoblanadi?

Yechimi:

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘lmagan

ko‘chmas mulk ob’ektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

№	Mahalla nomi	2021 yilda Toshkent shahri 4-zonasida yuridik shaxslar uchun tasdiqlagan stavka 1 gektar uchun (mln. so‘m)	Tuman Kengashi koeffitsienti (0,7 dan 3 gacha)	2021 yilda 1 gektar uchun yer solig‘i stavkasi (mln. so‘m)
13.	Bog‘obod MFY	83,3	1,2	99,96

Noturar joy maydoni qavatlar soniga bo‘linadi: 100/4=25 kv.metr. Mazkur joy noturar bo‘lganligi uchun, yer solig‘i yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkalari bo‘yicha undiriladi.

1 kv.metr yer uchun soliq stavkasi: 99 960 000/10000 metr (1 ga)=9 996 so‘m.

Yer solig‘i summasini hisoblaymiz: 25 kv.metr*9996 so‘m=249 900 so‘m

Ayrim hollarda yer solig‘ini oshirilgan stavkalarda hisoblash

Misol:

Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani Shodlik MFYda fuqaro hovlisi (turar joyi)ning umumiy maydoni 15 sotixni tashkil etadi. Kadastr hujjatida esa yer maydoni 10 sotix etib belgilangan. Qolgan 5 sotix yerdan hujjatsiz foydalanmoqda.

2021 yilda mazkur fuqaroning yer maydoni bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan yer solig‘i qanday hisoblanadi.

Yechimi:

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

№	Mahalla nomi	2021 yilda Qo‘shtepa tumani uchun viloyat tasdiqlagan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	2021 yil uchun yer solig‘i stavkasi
7.	Shodlik MFY	**151,9**	0,95	144,3

5 sotix (15-10) yerdan hujjatsiz foydalanmoqda. 5 sotix yer uchun bazaviy stavkaning 3 baravari miqdorida, ya’ni 500 kv. metr * (144,3*3) miqdorida soliq hisoblanadi. Yer solig‘i summasini hisoblaymiz:

1) 1000 kv.m *144,3=144 300 so‘m soliq kadastr hujjatidagi yer maydoni uchun;

2) 500 kv.m *(144,3 *3)=216 450 so‘m soliq hujjatsiz foydalanilayotgan yer uchun.

Jami hisoblangan yer solig‘i summasi: 144 300 so‘m+216 450 so‘m=360 750 so‘m

Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llagan holda yer solig‘i hisoblash

Misol:

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar Soy bo‘yi MFYda yashovchi fuqaro xonadoni yer uchastkasi maydoni 6 sotix (600 kv. metr)ni tashkil etadi. Ushbu xonadon egasi 2021 yil 15 iyun kuni TMEK tomonidan 1-guruh nogironi deb topilgan va unga nogironlik guvohnomasi taqdim etilgan. Xonadon egasiga tegishli nogironlik guvohnomasi nusxasi 20 iyun kuni imtiyozdan foydalanish uchun DSIga taqdim etilgan.

Mazkur xonadon yer uchastkasi uchun 2021 yilda imtiyozni qo‘llagan holda qancha miqdorda yer solig‘i hisoblanishini topamiz?

Yechimi:

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar Soy bo‘yi MFY hududidagi yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘ining stavkasi 1 kv.m uchun 269,5 so‘m miqdorida belgilangan. (Tuman kengashi qarorida)

№	Mahalla nomi	2021 yil uchun viloyat tasdiqlagan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	2021 yil uchun yer solig‘i stavkasi
12.	Soy bo‘yi MFY	245,0	1,1	269,5

Yillik yer solig‘i yil boshida quyidagicha hisoblangan: 600 kv.metr *269,5 so‘m=161 700 so‘m

Soliq kodeksining 440-moddasiga asosan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanmaydi.

Shunga ko‘ra mazkur fuqaro 2021 yil uchun hisoblangan soliqning 7 oylik (7/12) qismidan ozod qilinadi. Ya’ni:161 700-(161 700/12*7)=94 325 so‘m. Budjetga 5 oylik soliq 161 700- 94 325=67 375 so‘m.

Soliq idorasi tomonidan hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarini to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yoki to‘lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun soliqni to‘lash fuqarolar tomonidan teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktabrga qadar amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli Farmoni 5-bandiga asosan jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini to‘lash muddati ***2020 yil 15 oktabrga qadar uzaytirildi.***

10.6-§. Ayrim hollarda yer solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos jihatlari

Soliq kodeksida belgilanishiga ko‘ra[142] yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e’tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi. *Masalan:*

Fuqaroga 2021 yil yanvar oyida yer ajratilgan. Mazkur fuqaro 2021 yil uchun yer solig‘ini fevral oyidan boshlab to‘laydi.

Misol:

Fuqaro R. Rasulovga 2021 yil 16 mart kuni yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkasi ajratilgan.

Ushbu yer bo‘yicha yillik hisoblangan soliq summasi 240 ming so‘m bo‘lsa, R. Rasulov tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i summasini topish kerak?

Yechimi:

Ushbu yer bo‘yicha yillik soliq summasi: 240 000 so‘m

[142] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 440-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Demak fuqaro F. Rahmonov 9 oy (2021 yil aprel-dekabr) uchun yer solig‘i to‘laydi: 240 000 /12*9= 180 000 so‘m.

Soliq kodeksida belgilanishiga ko‘ra[143] yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to‘lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e’tiboran tugatiladi (kamaytiriladi). *Masalan:*

Fuqaroga tegishli bo‘lgan umumiy maydoni 0,1 ga bo‘lgan turar joyning to‘rtdan bir qismi (1/4) 2021 yil aprel oyida yo‘l qurilishi munosabati bilan olib qo‘yildi. Mazkur holatda fuqaroga yerning olib qo‘yilgan qismi (¼) uchun aprel oyidan boshlab, hisoblangan soliq kamaytiriladi.

Misol:

Yakkabog‘ tumanida yashovchi fuqaro M. Egamberdiev hovlisi yer maydonining 1/4 qismi hokim qaroriga asosan markaziy ko‘chalarni kengaytirish maqsadida 2021 yil iyul oyida olib qo‘yildi. Mazkur hovli yer maydoni uchun yillik hisoblangan yer solig‘i summasi 360 ming so‘mni tashkil etsa, ushbu fuqaro yer uchastkasi kamaytirilgani uchun qancha miqdorda yer solig‘i to‘lashini topish kerak?

Yechimi:

Ushbu hovli umumiy yer maydoni uchun hisoblangan yillik yer solig‘i summasi: 360 000 so‘m

Shunga ko‘ra fuqaro M. Egamberdiev tomonidan dastlabki 6 oy (yanvar-iyun)uchun 360 000/12*6=180 000 so‘m

Keyingi 6 oy (iyul-dekabr) uchun (180 000/4)*3=135 000

Demak ushbu fuqaro yer uchastkasi kamaytirilgani uchun 180 000+135 000=215 000 so‘m miqdorida yer solig‘i to‘lashi kerak.

Soliq kodeksiga asosan[144] yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanmaydi. Soliq bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu

[143] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 440-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.
[144] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 440-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi. *Masalan:*

Fuqaro 2021 yil mart oyida elektr tarmog'idan uzilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbasi (quyosh batereyalari)ni o'rnatgangan holda undan foydalanib kelmoqda. Mazkur fuqaro 2021 yil mart oyidan boshlab, yer solig'idan ozod etiladi. U faqat 2021 yilning 2 oyi (yanvar, fevral) uchun yillik soliq summasining 2/12 qismini to'lashi lozim.

Misol:

Namangan viloyati Norin tumanida yashovchi fuqaro S. Mamajonova 2021 yil 15 sentabrda TMEK tomonidan 1-guruh nogironi deb topildi va unga tegishli guvohnoma berildi. Mazkur fuqaroga tegishli hovli yer maydoni uchun 2021 yilda 240 ming so'm yer solig'i hisoblangan.

Ushbu fuqaroga imtiyoz qachondan qo'llanilidi va 2021 yil uchun qancha miqdorda yer solig'i to'lanishini topish kerak?

Yechimi:

Ushbu yer bo'yicha yillik yer solig'i summasi: 240 000 so'm

Imtiyoz sentabr oyidan qo'llaniladi (yer solig'idan ozod qilinadi).

Fuqaro S. Mamajonova 8 oy (2020 yil yanvar-avgust) uchun yer solig'i to'laydi: 240 000 /12*8= 160 000 so'm

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar mulkdorlariga nisbatan ta'sir choralari

(Vazirlar Mahkamasining 13.08.2019 yildagi "Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 666-sonli qaroriga asosan)

Foydalanilmayotgan ob'ektlar mulkdorlariga quyidagi ta'sir choralari qo'llaniladi:

- mol-mulk va yer soliqlari o'rnatilgan stavkaga nisbatan uch oyga qadar ikki baravar; uch oy o'tgandan so'ng - besh baravar; olti oy o'tgandan so'ng - o'n

baravar, 12-oydan boshlab kelgusi har 12 oyda oxirgi oshirib qo‘llanilgan miqdorning ikki baravari miqdorida qo‘llaniladi;

➢ foydalanilmayotgan ob’ektlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha qo‘llaniladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalarining amal qilishi to‘xtatiladi.

Xatlov vaqtida belgilangan muddatda tugallanmagan qurilish ob’ektlari, bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari umumiy maydonining 50 foizidan ko‘prog‘idan tovarlar ishlab chiqarishda (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) foydalanilmay kelingan bo‘lsa (mavsumiy tusdagi faoliyat amalga oshiriladigan ob’ektlar bundan mustasno), bo‘sh turgan ob’ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari sifatida e’tirof etiladi.

2020 yil 3 apreldagi PF-5978-son Farmoniga asosan yuridik yoki jismoniy shaxs o‘z faoliyatini koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish uchun kiritilgan cheklov choralari tufayli to‘xtatishga majbur bo‘lgan hollarda, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlarga, shu jumladan 2020 yil 1 aprelga qadar aniqlanganlarga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining oshirilgan stavkalarini qo‘llash, shuningdek, ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha oshirilgan stavkalarni qo‘llash natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikka nisbatan penya hisoblash va majburiy undirish choralarini ko‘rish tartibi to‘xtatildi.

Tayanch so‘z va iboralar

Yer, tomorqa yer uchastkalari, yakka tartibdagi turar joy qurish uchun yer uchastkalari, ijara huquqi, mulk huquqi, ijara, ijara to‘lovi, yer solig‘i, imtiyoz, to‘lov muddati.

Nazorat uchun savollar

1. Jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga nisabatan qanday huquqlari mavjud?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bazasi qay tartibda aniqlanadi?
3. Kimlar yer solig‘idan ozod qilinadi?
4. Yer solig‘i stavkalari qaysi hujjatda belgilab qo‘yiladi?

5. Jismoniy shaxslarga yer solig‘ini hisoblashning yoki stavkalarni qo‘llashning qanday o‘ziga xos jihatlari mavjud?

6. Noturar ko‘chmas mulklar joylashgan yer uchastkalariga nisabatan qanday stavka qo‘llaniladi?

7. Jismoniy shaxslar yer solig‘ini qaysi muddatlarda to‘laydi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/10.5*)

Test savollari

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining bazasi nima?

A) kadastr idorasining ma’lumotlari bo‘yicha yer uchastkalarining maydoni

B) yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati

C) elektron savdo orqali sotib olingan yer uchastkalarining bozor qiymati

D) yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan bazaviy qiymati

2. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar mazkur energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran qancha muddatga yer solig‘idan ozod qilingan?

A) 3 yil muddatga

B) 2 yil muddatga

C) 5 yil muddatga

D) 7 yil muddatga

3. Jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq qanday stavkada undiriladi?

A) yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkalarda

B) jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavkalarda

C) jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasining 2 baravari miqdorida

D) jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasining 3 baravari miqdorida

4. Jismoniy shaxs tomorqasida qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekmagan yoki uni obodonlashtirmagan taqdirda yer solig‘i qancha miqdorda to‘lanadi?

A) 3 baravar

B) 2 baravar

C) 5 baravar

D) 1,5 baravar

5. Jismoniy shaxslar yer uchastkalaridan hujjatlarsiz foydalanilganda, soliq qanday miqdorda belgilanadi?

A) 3 baravar

B) 2 baravar

C) 1,5 baravar

D) 5 baravar

6. Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslar tomonidan qachondan boshlab to‘lanadi?

A) yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan

B) yer uchastkasi ajratilgan oydan

C) yer uchastkasi ajratilgan yildan keyingi yildan

D) yer uchastkasi ajratilgan yildan

7. Jismoniy shaxsning yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to‘lash qachondan boshlab kamaytiriladi?

A) yer uchastkasi kamaytirilgan oydan

B) yer uchastkasi kamaytirilgan yildan

C) yer uchastkasi kamaytirilgan yildan keyingi yildan

D) yer uchastkasi kamaytirilgan oydan keyingi oydan

8. Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, soliq qachondan boshlab to‘lanmaydi?

A) imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan

B) imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oydan

C) imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan yildan keyingi yildan

D) imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan yildan

9. Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq qachondan boshlab to‘lanadi?

A) mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan

B) mazkur huquq tugatilgan oydan

C) mazkur huquq tugatilgan yildan

D) mazkur huquq tugatilgan yildan keyingi yildan

10. Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari keyingi soliq davri uchun jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bo‘yicha soliq stavkalarini har yili qachonga qadar soliq organlariga taqdim etishi kerak?

A) joriy soliq davrining 31 dekabriga qadar

B) joriy soliq davrining 1 dekabriga qadar

C) joriy soliq davrining 1 oktabriga qadar

D) joriy soliq davrining 1 noyabriga qadar

XI BOB. JISMONIY SHAXSLAR VA ULARNING AYRIM TOIFALARI TOMONIDAN TO‘LANADIGAN IJTIMOIY SOLIQ

11.1-§. Ixtiyoriy tarzda jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lash va uning o‘ziga xos afzalliklari

Amaldagi soliq qonunchiligida yuridik shaxslar qatorida tegishli tartibda ijtimoiy soliqni jismoniy shaxslarning ayrim toifalari ham to‘lashligi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, jismoniy shaxslarning ushbu toifadagi ijtimoiy soliqni to‘lovchilarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin bo‘ladi:

- kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar ijtimoiy soliqni to‘lovchilar;
- mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini o‘zi band qilgan ijtimoiy soliqni to‘lovchilar.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslarning ayrim toifalari, jumladan chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning davlat tomonidan sug‘urtalanishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida, ular tomonidan Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga qonun xujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ijtimoiy soliqni ixtiyoriy ravishda to‘lash tartibi joriy etilgan. Bunda to‘lovlar amalga oshirilgan davrlar belgilangan tartibda chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslar uchun mehnat stajiga qo‘shiladi va «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida» qonuni[145]ga muvofiq ushbu shaxslar davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo‘ladilar.

O‘z navbatida qonun xujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ijtimoiy soliqni ixtiyoriy ravishda to‘laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalariga quyidagilarni kiritish mumkin bo‘ladi. 32-rasm.

Soliq kodeksida ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan ijtimoiy soliq miqdori va uni to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari belgilab

[145] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida. 938-XII-sonli, 1993 yil 3 sentabr. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

qo‘yilgan.



32-rasm. Ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning ayrim toifalari[146]

Jumladan, Soliq kodeksiga ko‘ra[147] mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ijtimoiy soliq yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda to‘lanadi. Shuningdek dehqon xo‘jaliklari a’zolari,

[146] Qonun xujjatlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.
[147] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 408-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar ham ijtimoiy soliqni ixtyoriy tartibda to‘laydi.

> ***Dehqon xo‘jaligi a’zosi*** - *birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari.*

Belgilangan miqdordagi ijtimoiy soliqning to‘lanishi o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek dehqon xo‘jaligi a’zosining hamda tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lash - hisobot yilining 1 dekabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to‘lov kunida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan (soliq agenti hisoblanmagan) ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar soliqni jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyada ko‘rsatilgan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda to‘lash haqida jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy asosda to‘laydi[148].

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtidan qat’i nazar yiliga bazaviy hisoblash

[148] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 408-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

miqdorining kamida bir baravari miqdorida ijtimoiy soliqni ixtiyoriy tartibda to‘laydi.Ushbu summa to‘lig‘icha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi hamda ularga bir yillik mehnat stajiga ega bo‘ladilar.

Quyida jismoniy shaxslarning ayrim toifalari tomonidan ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliqni to‘lashga doir misollarni ko‘rib chiqamiz: (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot:*http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/11.1*)

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari tomonidan ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliqni to‘lashga doir misollar

1-VAZIYAT. Fuqaro O. Saidov tashkil etilgan dehqon xo‘jaligining a’zosi sifatida mehnat faoliyatini olib boradi.

Savol:

Ushbu fuqaro 2021 yilda bir yillik ish stajiga ega bo‘lish maqsadida ixtiyoriy ravishda qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘laydi? Agar mazkur fuqaro ijtimoiy soliqni 2021 yil avgust oyida to‘lamoqchi bo‘lsa, uning miqdori qancha bo‘ladi?

Yechimi:

Soliq kodeksining 408-moddasida dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, shuningdek maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to‘lashligi, bunda soliqning miqdori to‘lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilishi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, Soliq kodeksida ijtimoiy soliqni to‘lash dehqon xo‘jaliklarining a’zolari tomonidan - hisobot yilining 1 dekabriga qadar amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

2021 yil avgust oyida bazaviy hisoblash miqdori 245 ming so‘mni tashkil etadi. Shunga ko‘ra mazkur fuqaro 2021 yil avgust oyida 245 ming so‘m ijtimoiy

soliq to‘lashi lozim. Natijada unga 1 yillik ish staji hisoblanadi.

2-VAZIYAT. O‘zining tomorqasida fuqaro Sh. Anvarova uch bosh qoramol va oltmish besh bosh tovuq parvarishlamoqda.

Savol:

Ushbu fuqaro 2021 yilda bir yillik ish stajiga ega bo‘lish maqsadida ixtiyoriy ravishda qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘laydi? Agar mazkur fuqaro ijtimoiy soliqni 2021 yil yanvar oyida to‘lamoqchi bo‘lsa, uning miqdori qancha bo‘ladi?

Yechimi:

Soliq kodeksining 408-moddasida tomorqasida qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to‘lashligi, bunda soliqning miqdori to‘lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilishi belgilab qo‘yilgan.

2021 yil yanvar oyida bazaviy hisoblash miqdori 223 ming so‘mni tashkil etadi. Shunga ko‘ra mazkur fuqaro 2021 yil yanvar oyida 223 ming so‘m ijtimoiy soliq to‘lashi lozim. Natijada unga 1 yillik ish staji hisoblanadi.

11.2-§. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lashning o‘ziga xos jihatlari

Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari, jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar, faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirish uchun yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosi hamda uning birgalikda faoliyat ko‘rsatayotgan oila a’zolari, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar, shuningdek «Usta-shogird» maktablari o‘quvchilari ijtimoiy soliqni to‘lovchilar bo‘lib hisoblanadi. Ushbu jismoniy shaxslar uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

Ijtimoiy soliq, agar Soliq kodeksi 408-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosi tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a’zolari tomonidan (bundan o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar mustasno) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) qishloq tumanlarida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan «Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari tomonidan o‘z faoliyatining dastlabki ikki yilida - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to‘lanadi.

«Usta-shogird» maktablari o‘quvchilari - ular yigirma besh yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrda ijtimoiy soliq majburiy tartibda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi PQ-4539-son qaroriga asosan ijtimoiy soliq 2020 yil 1 yanvardan boshlab shaharlarda ro‘yxatdan o‘tgan va aynan xalq amaliy san’ati mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi «Hunarmand» uyushmasi a’zolari tomonidan ham o‘z faoliyatining dastlabki ikki yilida - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida to‘lanadigan bo‘ldi.

Dehqon xo‘jaliklari rahbarlari tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida majburiy tartibda ijtimoiy soliq to‘laydi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari bo‘lgan «Hunarmand» uyushmasining a’zolari esa soliq to‘lashdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Ijtimoiy soliqni to‘lash yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan –har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan soliqni to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash majburiyati:

yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolari uchun – oilaviy tadbirkorlik sub’ekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosining;

yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun – ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatib turilganligi to‘g‘risida soliq organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun ijtimoiy soliqni hisoblashni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

Soliq organlari tomonidan olingan, har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga soliqni hisoblashni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi. Agar faoliyatini to‘xtatib turgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini soliq organiga belgilangan muddatlarda topshirmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo‘yicha soliqni hisoblash to‘xtatilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *2020 yil 3 apreldagi* ***PF-5978-son Farmoniga asosan*** *karantin tadbirlari davrida o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qat’iy belgilangan summasini va ijtimoiy soliqni hisoblash to‘xtatiladigan bo‘ldi, bunda faoliyatni to‘xtatganlik to‘g‘risida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organlari xabardor qilinadi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risida guvohnomani topshirish talab etilmaydi.*

Shuningdek, ushbu farmonga ko‘ra o‘z faoliyatini to‘xtatgan va (yoki) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan tushumi joriy yilning birinchi choragidagi o‘rtacha oylik miqdoriga nisbatan 50 foizdan ko‘proqqa kamaygan mikrofirma, kichik korxona va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq organlarini xabardor qilgan holda 2020 yil 1 oktabrga qadar quyidagi soliqlarni foizsiz kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) huquqi taqdim etildi:

mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza bermasdan turib aylanmadan olinadigan soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha - ularni keyinchalik 12 oy davomida teng ulushlarda to‘lash sharti bilan;

ijtimoiy soliq bo‘yicha - uni keyinchalik 6 oy davomida teng ulushlarda to‘lash sharti bilan.

Soliq to‘lovchilar ijtimoiy soliqni Soliq kodeksining 405-moddasida ko‘rsatilgan soliq stavkalari bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risida deklaratsiyada ko‘rsatilgan mehnatga haq to‘lash tarzida olingan daromadlar summasidan kelib chiqib to‘lashga, biroq yuqorida ko‘rsatib o‘tilga, uning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan, soliqni ixtiyoriy ravishda to‘lash haqida jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida to‘lashga haqli. Bunda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqning uzil-kesil summasi Soliq kodeksi 408-moddasining birinchi – beshinchi qismlariga muvofiq to‘langan summalar hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning yuqorida qayd etilgan toifalari tomonidan belgilangan miqdordagi ijtimoiy soliqning to‘lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Quyida yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lashga doir misollarni ko‘rib chiqamiz: (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/10.2*)

YaTTlar tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lashga doir vaziyatli misollar

1-VAZIYaT. Yakka tartibdagi tadbirkor Shukurov Jasur 2021 yil 10 yanvar kuni davlat ro‘yxatidan o‘tgan va faoliyatini 11 yanvardan boshlagan. Mazkur tadbirkor daromad solig‘ini qat’iy belgilangan summalarda to‘lash tartibini tanlagan.

Savol:

Ushbu tadbirkor qaysi oydan boshlab qancha miqdorda ijtimoiy soliqni to‘laydi? Soliqni to‘lash muddatlari qachon?

Yechimi:

Soliq kodeksining 408-moddasida yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (shuningdek, oilaviy tadbirkorlik sub’ekti a’zolari) tomonidan ijtimoiy soliqni to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ruyxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran amalga oshirilishi belgilangan. Shunga ko‘ra mazkur tadbirkor 10 yanvarda davlat ro‘yxatidan o‘tganligi uchun, 2021 yil fevral oyidan boshlab, oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari (fevral oyida 245 000 so‘m)dan kam bo‘lmagan miqdorda ijtimoiy soliqni to‘laydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor Shukurov Jasur tomonidan ijtimoiy soliq har oyning 15-sanasigacha to‘lanishi lozim.

2-VAZIYAT. Yakka tartibdagi tadbirkor Shukurov Jasurning mehnat shartnomasi asosida yollagan bir nafar xodimi mavjud.

Savol:

Ushbu tadbirkorning yollanma xodimi qancha miqdorda ijtimoiy soliqni to‘laydi?. Soliqni to‘lash muddatlari qachon?

Yechimi:

Soliq kodeksining 408-moddasida ijtimoiy soliq yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari) tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida to‘lanishi belgilangan. Masalan, 2021 yil yanvar oyida bazaviy hisoblash 223 000 so‘m bo‘lgani holda, uning 50 foizi 111500 so‘mni, 2021 yil 1 fevraldan esa bazaviy hisoblash 245 000 so‘m bo‘lgani holda, uning 50 foizi 122 500 so‘mni tashkil etadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning yollanma xodimi har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay ijtimoiy soliqni to‘lashi lozim.

3-VAZIYaT. Chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkor A. Raximov II guruh nogironi hisoblanadi.

Savol:

Ushbu YaTT qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘laydi?

Yechimi:

Soliq kodeksining 408-moddasida I va II guruh nogironligi bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerakligi belgilangan. Shunga ko‘ra mazkur yakka tartibdagi tadbirkor II guruh nogironi bo‘lgani uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan ijtimoiy soliq (oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari)ning 50 foizini to‘laydi. Masalan, 2021 yil 1 fevraldan boshlab, 245 000*50%=122 500 so‘m miqdorida har oyda ijtimoiy soliq to‘laydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Jismoniy shaxs, dehqon xo‘jaligi, tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, oila a’zosi, hunarmand, ijtimoiy soliq, pensiya, mehnat staji**.**

Nazorat savollari:

1.Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar qanday tartibda ijtimoiy soliqni to‘laydilar?

2. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan ijtimoiy soliq qachon to‘lanadi?

3. Ixtiyoriy tarzda kimlar ijtimoiy soliqni to‘laydi?

4. Ixtiyoriy tarzda ijtimoiy soliq to‘lovchilar qachongacha to‘lovni amalga oshirishlari kerak?

5. Ixtiyoriy tarzda ijtimoiy soliqni to‘lashning o‘ziga xos afzalliklari nimada?

6. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijtimoiy soliqdan qanday imtiyozlar berilgan?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/11.2*)

Test savollari

1. Maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘lanadi?

A) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida

B) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida

C) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida to‘rt yarim baravari miqdorida

D) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki baravari miqdorida

2. Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklarining a’zolari tomonidan ijtimoiy soliq qachongacha to‘lanishi lozim?

A) hisobot yilining 1 dekabrigacha

B) har oyning 15-sanasigacha

C) faoliyat ko‘rsatilgan oydan keyingi oyning 15-sanasigacha

D) hisobot yilining 1 oktabrigacha

3. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan YATTlar tomonidan ijtimoiy soliq qachondan boshlab to‘lanadi?

A) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan

B) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan

C) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan keyingi kundan

D) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yildan keyingi yildan

4. YATT tomonidan ijtimoiy soliq qachon to‘lanadi?

A) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay

B) yilda bir marta, hisobot yilining 1 oktabrigacha

C) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning beshinchi kunidan kechiktirmay

D) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oydan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay

5. YATTning yollanma xodimi tomonidan ijtimoiy soliq qachon to‘lanadi?

A) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay

B) yilda bir marta, hisobot yilining 1 oktabrigacha

C) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning beshinchi kunidan kechiktirmay

D) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oydan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay

6. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq qancha miqdorda to‘lanadi?

A) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

B) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida

C) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

D) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

7. YATT ning xodimlari tomonidan ijtimoiy soliq qancha miqdorda to‘lanadi?

A) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida

B) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

C) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

D) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

8. Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari bo‘lgan «Hunarmand» uyushmasining a’zolari qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘laydi?

A) ijtimoiy soliq to‘lashdan ozod etilgan

B) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida

C) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda

D) yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida

9. YATT o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga ijtimoiy soliqni hisoblashni to‘xtatib turish uchun nima asos bo‘ladi?

A) har bir yollangan xodim uchun berilgan hisobga olish kartochkalarining soliq organlariga topshirilishi

B) har bir yollangan xodimni mehnat ta’tiliga chiqishi

C) YATTning faoliyatini vaqtincha to‘xtatganligi to‘g‘risida soliq organiga xabar berishi

D) yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini vaqtincha to‘xtatishi to‘g‘risida davlat xizmatlari markaziga ariza berishi

10. I va II guruh nogironligi bo‘lgan yakka tartibdagi tadbarkorlar qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘laydi?

A) ijtimoiy soliqning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini

B) ijtimoiy soliq to‘lashdan ozod etilgan

C) ijtimoiy soliqning belgilangan eng kam miqdorining kamida 30 foizini

D) ijtimoiy soliqning belgilangan eng kam miqdorining kamida 25 foizini to‘laydi

XII BOB. JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN TO‘LANADIGAN DAVLAT BOJLARI VA YIG‘IMLARI

12.1-§.Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan davlat bojlari

Mamlakat qonunchiligiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilanadigan va davlat budjetiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan majburiy to‘lovlardan biri davlat bojlaridir.

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir[149].

Vakolatli muassasalarga va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan va o‘ziga nisbatan yuridik ahamiyatga molik harakat va (yoki) hujjatlar berish amalga oshiriladigan jismoniy shaxslar davlat bojini to‘lovchilardir.

Davlat boji quyidagilardan undiriladi[150]:

1) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga beriladigan da’vo arizalaridan, davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan arizalardan (shikoyatlardan), alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi, da’voni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi, sud jarimalarini solish to‘g‘risidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi

[149] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat boji to‘g‘risida. O‘RQ-600-sonli, 2020 yil 6 yanvar.
[150] Shu manba

shikoyatlardan, chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi arizalardan, chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlarini va ko‘chirma nusxalarini berganlik uchun;

2) iqtisodiy sudlarga beriladigan da’vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish haqidagi arizalardan, iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi arizalardan, iqtisodiy sudning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish haqidagi, da’voni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi, sud jarimalarini solish haqidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlaridan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar bo‘yicha iqtisodiy sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlaridan, chet davlat sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi arizalardan, chet davlat sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi ishlar bo‘yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlaridan, shuningdek iqtisodiy sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlarini va ko‘chirma nusxalarini berganlik uchun;

3) ma’muriy sudlarga beriladigan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi arizalardan, davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa

organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, saylov komissiyalarining harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish haqidagi, notarial harakatni sodir etishni, fuqarolik holati dalolatnomalarining yozuvlarini qayd etishni rad etganlik yuzasidan nizolashish yoxud notariusning yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik yoxud belgilangan muddatda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan bo‘yin tovlaganlik ustidan beriladigan shikoyatlardan, ma’muriy sudlarning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi, da’voni ko‘rmasdan qoldirish haqidagi, sud jarimalarini solish to‘g‘risidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlaridan, shuningdek ma’muriy sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlarini va ko‘chirma nusxalarini berganlik uchun;

4) notariuslar va O‘zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

5) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to‘g‘risida takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o‘zgartishlar, qo‘shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun;

6) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasportini, shu jumladan chet elga chiqish uchun, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning biometrik yo‘l hujjati berilganligi uchun, chet eldan O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqini beruvchi hujjatlarni, O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish to‘g‘risida hujjatlarni berganlik uchun, yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish, uni tiklash va undan chiqish to‘g‘risidagi iltimosnomalardan yoki O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to‘g‘risidagi arizalardan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd

etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik, turgan joyi bo‘yicha hisobga olganlik uchun, shuningdek chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik uchun;

7) yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun;

8) ov qilish huquqiga doir ruxsatnoma berganlik uchun;

9) ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, integral mikrosxemalar topologiyalari, elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish uchun;

10) xalqaro va chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari xodimlarini, shuningdek ularning qaramog‘ida bo‘lgan oila a’zolarini akkreditatsiya qilganlik, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellik fuqarolari bilan nikohlarini, shuningdek chet ellik fuqarolarning o‘zaro nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazganlik, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellik fuqarolar bilan hamda belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan yoki aqliy zaiflik yoki ruhiy kasallik tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar bilan yoki jinoyati uchun kamida uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohini bekor qilishni ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun;

11) chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga kirish yoki kirish-chiqish vizalarini berganlik va ularning amal qilish muddatini uzaytirganlik, chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik chiqish-kirish vizalarini rasmiylashtirganlik, chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni kirish vizasining amal qilish muddati davriga vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazganlik va vizaning amal qilish muddati uzaytirilgan davrda vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazishni uzaytirganlik uchun, MDHga a’zo davlatlar fuqarolarini, shuningdek fuqarolik haqida belgilari bo‘lmagan sobiq SSSR pasportlari bilan MDHga a’zo davlatlaridan kelgan shaxslarni vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazganlik, chet ellik fuqaroning, shu jumladan MDHga a’zo davlatlar fuqarosining yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashashga oid hujjatlarini ko‘rib chiqqanlik va rasmiylashtirganlik, chet ellik fuqaroga yoki

fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatning yo‘qolganligi haqidagi ma’lumotnomani berganlik uchun;

12) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga doir litsenziyalar va ruxsatnomalar berganlik uchun.

Davlat boji turlari jumlasiga konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun to‘lanadigan konsullik yig‘imi hamda ixtirolarga, foydali modellarga, sanoat namunalariga va boshqalarga huquqiy muhofaza berish bilan bog‘liq yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik uchun to‘lanadigan patent boji ham kiradi.

Davlat boji stavkalarining miqdorlari «Davlat boji to‘g‘risida»gi qonun ilovasida belgilab qo‘yilgan[151]. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/12.1*).

Quyidagi jadvalda jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan ayrim davlat boji stavkalarining miqdorlari keltirib o‘tilgan. 28-jadval.

Notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun:		
	ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalarni tasdiqlaganlik uchun	
	agar ko‘chmas mol-mulk Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida joylashgan bo‘lsa, ko‘chmas mol-mulkning umumiy maydoniga qarab	
	100 kv.m. gacha bo‘lganda	BHMning 1 baravari
	100 kv.m. dan 200 kv.m.gacha bo‘lganda	BHMning 2 baravari
	200 kv.m. va undan ortiq bo‘lganda	BHMning 3 baravari
	agar ko‘chmas mol-mulk boshqa aholi punktlarida joylashgan bo‘lsa	
	100 kv.m. gacha bo‘lganda	BHMning 50 foizi
	100 kv.m. dan 200 kv.m. gacha bo‘lganda	BHMning 1 baravari
	200 kv.m. va undan ortiq bo‘lganda	BHMning 1,5 baravari
	Izoh. *Mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalariga va ularning eriga yoki xotiniga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opa-singillariga ko‘chmas mol-mulkni o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalar rasmiylashtirilayotganda davlat boji belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida undiriladi.*	
Fuqarolik holati dalolatnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazganlik, fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida takroriy guvohnomalar berganlik, fuqarolik holati dalolatnomalariga o‘zgartishlar, tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritganlik, fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklaganlik, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirganlik uchun		
	nikohni qayd etganlik uchun	BHMning 20 foizi
	tug‘ilganlik haqida, nikohni qayd etganlik, nikohni bekor qilganlik to‘g‘risida, o‘lim haqidagi yozuvlar o‘zgartirilganligi, ularga qo‘shimchalar kiritilganligi, tuzatilganligi va qayta tiklanganligi munosabati bilan guvohnomalar berganlik uchun	BHMning 10 foizi
Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi xizmatlar uchun:		

[151] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat boji to‘g‘risida. O‘RQ-600-sonli, 2020 yil 6 yanvar.

	O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga biometrik pasport berganlik uchun	BHMning 50 foizi
	O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga xorijga chiqish uchun biometrik pasport berganlik uchun	BHMning 1,2 baravari
	O‘zbekiston Respublikasining o‘n olti yoshga to‘lmagan fuqarolariga xorijga chiqish uchun biometrik pasport berganlik uchun	BHMning 80 foizi
O‘zbekiston Respublikasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun:		
	Davlat xizmatlari markazlarida	
	yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlarini, yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni, yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini hamda yuridik shaxslar birlashmalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda yoki qayta ro‘yxatdan o‘tkazilganda	BHMning 1 baravari

28-jadval. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan ayrim davlat boji stavkalarining miqdorlari[152]

Konsullik yig‘imlarining miqdori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Konsullik yig‘imlari summalarini O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga, shuningdek xorijda to‘langan yig‘imlarni O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining va konsullik muassasasining maxsus bank hisobvaraqlariga hisoblab chiqarish, undirish va hisobga o‘tkazish tartibi[153] O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Davlat boji, agar «Davlat boji to‘g‘risida»gi Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, davlat boji undiriladigan yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilguniga qadar va (yoki) bunga vakolatli bo‘lgan muassasalar (mansabdor shaxslar) tomonidan hujjatlar berilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to‘lanadi.To‘lovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda to‘laganligi fakti qog‘ozdagi yoki elektron shakldagi to‘lov hujjati bilan tasdiqlanadi.

To‘lovchining davlat bojini naqd pul shaklida to‘laganligi fakti bank tomonidan to‘lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitansiya yoki O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat

[152] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat boji to‘g‘risida. O‘RQ-600-sonli, 2020 yil 6 yanvar. Ilova.
[153] O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2021 yil 25 fevraldagi 61-son va Moliya vazirligining 2021 yil 16 fevraldagi 10-son qaroriga ilova. Konsullik harakatlarini bajarish bilan bog‘lik haqiqiy xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan yig‘imlar undirish va kelib tushgan pul mablag‘laridan foydalanish xamda konsullik yig‘imlari tarifini AQSh dollari kursiga nisbatan qayta hisoblash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

soliq qo‘mitasi belgilagan shaklda to‘lovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to‘lovchiga beriladigan kvitansiya bilan tasdiqlanadi.

Davlat boji to‘lov hujjatlari asosida qaysi davlat organlari xizmatlari uchun davlat boji undirilayotgan bo‘lsa, o‘sha davlat organi tasarrufida qoldirilayotgan qismini chegirgan holda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga o‘tkaziladi. Davlat bojining bir qismi davlat organi tasarrufida qoldirilgan taqdirda, davlat boji yagona hisobvarag‘iga keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat organi o‘rtasida qonun hujjatlariga muvofiq taqsimlangan holda to‘lanadi. Davlat bojining davlat organi tasarrufida qoldiriladigan miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi.

Mulkiy nizo bo‘yicha sudga da’vo arizasi berilganda, shuningdek mol-mulkning oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash shartnomasini notarial tartibda tasdiqlashda, merosga bo‘lgan huquqni rasmiylashtirishda, agar da’vo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat bojining miqdori harakatlar amalga oshirilgan sanada O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada belgilanadi va undiriladi.

Konsullik yig‘imi konsullik harakatlari amalga oshirilguniga qadar to‘lanadi. Konsullik yig‘imlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti daromadiga o‘tkaziladi.

Davlat boji tushumlari bo‘yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘zi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

12.2-§.Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan yig‘im turlari

Yig‘im deganda budjet tizimiga Soliq kodeksida yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lov tushuniladi, bu yig‘imning to‘lanishi uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan

yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi.

Yig‘imlarga xos xususiyatlardan biri manfaaatlilik hisoblanadi. Ya’ni yig‘imlarni to‘lash, uning to‘lovchisiga muayyan huquqlarga yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarga ega bo‘lish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi. Masalan,

Soliq kodeksida avtotransport yig‘imlari, ularni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi belgilab qo‘yilgan.

Avtotransport yig‘imlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im.

Avtotransport vositalarini sotib oluvchi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari hamda norezidentlari avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘imni soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti yig‘imi soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan yangi avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun yig‘imni soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar yig‘imlar solish ob’ektidir:

avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti.

Soliq bazasi quyidagilardir:

sotib olingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzitida - chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Soliq kodeksiga asosan avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadi:

1) ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani sotib oluvchi barcha guruhlardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar;

2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar.

Avtotransport yig‘imlarining miqdorlari har yilgi Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunlarda belgilab qo‘yiladi[154]. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/ O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/12.2*).

Quyidagi jadvalda jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan avtotransport yig‘imlari stavkalari keltirib o‘tilgan. 29-jadval.

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I.	**Chet davlatlar avtotransport vosita/ining O‘zbekiston hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSh dollarida**
1.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari	400
2.	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston R hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100

[154] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida. O‘RQ-657-sonli. 2020 yil 25 dekabr.

	10 tonnadan 20 tonnagacha	150		
	20 tonnadan yuqori	200		
3.	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300		
4.	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300		
5.	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:			
	10 tonnagacha	50		
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100		
	20 tonnadan yuqori	150		
II.	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**			
1.	Yangi (foydalanishda bo‘lmagan) avtotransport vositalari bo‘yicha, bundan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtotransport vositalari mustasno	xarid qilish narxining 3 foizi		
2.	Foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha:	ekspluatatsiya muddatidan kelib chiqib har bir ot kuchiga bazaviy hisoblash miqdori foizi hisobida		
		3 yilgacha	3 yildan 7 yilgacha	7 yildan yuqori
	yengil avtomobillar	11	9	6
	motosikllar (shu jumladan mopedlar) va yordamchi dvigatel o‘rnatilgan velosipedlar, kajavali yoki kajavasiz	10	7	5
	boshqa motorli transport vositalari	16	13	9

29-jadval. 2021 yil uchun avtotransport yig‘imlarining stavkalari[155]

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

[155] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida. O‘RQ-657-sonli. 2020 yil 25 dekabr.

Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki dividendlar sifatida qonunchilikda belgilangan tartibda olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun sotib olinganda, bundan Soliq kodeksi 459-moddasining 8-bandida nazarda tutilgan hollar mustasno. Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, yig‘im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasining muddati tugaganidan so‘ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo‘lgan avtotransport vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganida takroran yig‘im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan avtotransport vositalari sotib olinganda, yig‘im qonunchilikda belgilangan tartibda avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4861-sonli Farmoniga asosan 2021 yil 1 yanvardan boshlab Farmonning 5-bandida ko‘rsatib o‘tilgan xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasiga kirishda 50 AQSh dollari miqdorida Davlat budjetiga

o‘tkaziladigan kirish yig‘imi to‘laydilar. Kirish yig‘imi to‘langanligini tasdiqlaydigan hujjat mamlakatga kirish uchun asos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan yana bir yig‘imlardan biri turistik (mehmonxona) yig‘imi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi «O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 137-sonli qaroriga bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi hududida turistik (mehmonxona) yig‘imni undirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga asosan mehmonxonalar, turizm bazalari va majmualari, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, oilaviy mehmon uylari, o‘tov va palatkali oromgohlar va boshqa vaqtincha yashash xizmatlarini ko‘rsatadigan ob’ektlar va davolash muassasalari 16 yoshgacha bo‘lgan bolalardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan belgilangan miqdorlarda[156] ular yashagan har bir kun uchun turistik (mehmonxona) yig‘imini undiradi.

To‘liq bo‘lmagan yashash kuni uchun turistik (mehmonxona) yig‘im to‘liq yashalgan kun miqdorida undiriladi.

Bunda turistik (mehmonxona) yig‘im, shuningdek:

palatkali lagerlar va tunash uchun qayta jihozlangan yer usti transportida yashashni tashkil qilgan turizm faoliyati (turizm operatorlari) sub’ektlari tomonidan yashovchilardan ham undiriladi;

O‘zbekiston Respublikasiga 30 kungacha keladigan xorijiy fuqarolarni qabul qilib, ularga notijorat maqsadlarida yashash maydoni taqdim etgan jismoniy shaxslar tomonidan;

mustaqil sayohat qiladigan, palatkali lagerlar va tunash uchun qayta jihozlangan yer usti transportida yashaydigan xorijiy fuqarolar tomonidan tijorat banklarining filiallari, turistik axborot markazlari va elektron axborot tizimlari orqali to‘lanadi.

---

[156] Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig‘imning tabaqalashtirilgan miqdorlari. O‘zbekiston Respublikasi hududida turistik (mehmonxona) yig‘imni undirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga ilova

Mustaqil sayohat qiladigan, palatkali lagerlar va tunash uchun qayta jihozlangan yer usti transportida yashaydigan xorijiy fuqarolar turistik (mehmonxona) yig‘im miqdorini o‘z vaqtida yoki to‘liq to‘lamasa, O‘zbekiston Respublikasidan chiqishda Dastur ma’lumotlari asosida turistik (mehmonxona) yig‘imning to‘lanmagan qismi uchun o‘n baravar miqdorida jarima to‘laydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Boj, davlat boji, davlat boji turlari, yig‘imlar, yig‘imlar turlari, avtotransport yig‘imlari, budjet, turistik (mehmonxona) yig‘imi.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat boji haqida tushuncha bering?
2. Davlat bojining to‘lovchilari kimlar hisoblanadi?
3. Davlat bojini undirish ob’ektlari haqida tushuncha bering?
4. Davlat bojining stavkalari qaysi normativ hujjat bilan belgilanadi?
5. Davlat bojini to‘lash va hisobga o‘tkazish tartibi qanday?
6. Yig‘imlarning iqtisodiy mohiyati nimada?
8. Avtotransport yig‘imlariga qaysi yig‘imlar kiradi?
9. Avtoransport yig‘imlarini qanday jismoniy shaxslar to‘laydi?
10. Davlat boji tushumlari qaerga tushadi?
11. Yig‘imlar qaysi budjetga tushadi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/ Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/12.3*)

Test savollari

1.Davlat boji bu-

A) yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir

B) uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu

jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berganlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir

C) qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lovdir

D) davlat budjetining daromadidir

2.Soliq kodeksining nechanchi moddasida yig‘imlarga ta’rif berilgan?

A) 16-moddasida B) 17-moddasida C) 23-moddasida D) 4-moddasida

3.Avtoransport yig‘imlarini hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlar qaysi me’yoriy hujjatga asosan tartibga solinadi?

A) Soliq kodeksiga asosan

B) Davlat boji to‘g‘risidagi qonunga asosan

C) Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunga asosan

D) Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan

4. Yig‘imlar stavkalari qaysi normativ huquqiy hujjat bilan tasdiqlanadi?

A) Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan

C) Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan

5. Kimlar avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan ozod qilinadi?

A) A va B javoblar to‘g‘ri

B) ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani sotib oluvchi barcha guruhlardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar

C) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar

D) barcha turdagi avtomobillarni sotib oluvchi nogironligi bo‘lgan shaxslar

6. Davlat boji stavkalarining miqdorlari qaysi normativ huquqiy hujjat bilan belgilanadi?

A) Davlat boji to‘g‘risidagi Qonun bilan

B) Coliq kodeksi bilan

C) O‘zbekiston Respublikasining har yilgi Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan

D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan

7. Konsullik yig‘imlarining miqdori qaysi normativ huquqiy hujjat bilan belgilanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan

B) Davlat boji to‘g‘risidagi Qonun bilan

C) Coliq kodeksi bilan

D) O‘zbekiston Respublikasining har yilgi Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan

8. Davlat boji quyidagilarning qaysi biri uchun undiriladi

A) barchasi to‘g‘ri

B) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun

C) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasportini, shu jumladan chet elga chiqish uchun, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning biometrik yo‘l hujjati berilganligi uchun

D) yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun

9. Davlat bojini to‘lashdan ozod qilinadigan jismoniy shaxslarning qat’iy ro‘yxati qaysi normativ huquqiy hujjat bilan belgilanadi?

A) Davlat boji to‘g‘risidagi Qonun bilan

B) Coliq kodeksi bilan

C) O‘zbekiston Respublikasining har yilgi Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan

D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan

10. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlarning miqdorlari qaysi pul birligida belgilanadi?

A) AQSh dollarida B) yevroda

C) milliy valyutada D) teng ulushlarda AQSh dollari va yevroda

XIII-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQ QARZDORLIGI VA UNI UNDIRISH CHORA-TADBIRLARI

13.1-§. Jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini paydo bo‘lishi

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarning ahamiyati beqiyos kattadir, ular yordamida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishga zamin yaratiladi. Darhaqiqat O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo‘nalishida ham aynan soliq yukni kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish belgilab berildi[157].

Bugungi kunda jismoniy shaxslarning soliq qarzlarining surunkali ravishda undirilmasdan qolyotganligi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha budjet tushumlariga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda. Zamon talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq qarzlarni qisqartirishning eng zamonaviy usuli bu soliqlarning yig‘uvchanlik darajasini oshirishga borib taqaladi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hisoblangan soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq to‘lovchilar, jumladan jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va majburiy to‘lovlarni o‘z muddatida va to‘liq hajmda to‘lamasliglari natijasida qarzdorlik yuzaga keladi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish va ushbu qarzdorliklarni yuzaga kelishini oldini olish uchun davlat soliq xizmati idoralari hamda bank muassasasi xodimlaridan yetarli darajada oqilona ish tashkil etilishi, bu boradagi mexanizmlarni ilg‘or xorij tajribasiga tayangan holda takomillashtirib borish zarurati talab etiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini rag‘batlantirish,

---

[157] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Faromni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

soliq qarzlari yuzaga kelishini oldini olish, mavjud soliq qarzlarini kam xarajat qilib to‘liq undirib olish orqali budjetga tushumlar tushushini ta’minlash hamda soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini oshirish dolzarb mavzusi sifatida e’tirof etiladi.

Soliq qarzi deb – hisoblab chiqarilgan *(hisoblangan)* va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi deb hisoblanadi[158].

Jismoniy shaxsning mol-mulk va yer soliqlarini to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan har yili 1 martdan kechiktirmay to‘lovchiga imzo qo‘ydirtirgan holda yoki buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi (jo‘natilgandan so‘ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi[159]).

Soliq qarzining paydo bo‘lishi

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar mustaqil ravishda, soliq davri uchun mol-mulk va yer soliqni to‘lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktabriga qadar amalga oshirilmaganligi natijasida.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan oyning 15 sanasiga qadar qat’iy belgilangan soliq va 15 sanasiga qadar ijtimoiy soliq to‘lanmasligi natijasida.

Soliq to‘lovchilarning oladigan daromad solig‘ini o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirishi natijasida. Noturar ob’ektini ijaraga berganda esa har oyning 15 sanasiga qadar to‘lanmasligi natijasida.

Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi penyadir[160].

Tegishli penyalarning summasi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalaridan tashqari va soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlashga doir boshqa choralar, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari qo‘llanilishidan qat’iy nazar to‘lanadi.

Penyalar, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi.

---

[158] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 75-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

[159] Shu manba. 19-modda.

[160] Shu manba. 110-modda.

Soliqni hisoblash va to‘lash tartibi haqida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llashga doir boshqa masalalar bo‘yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlarni bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga penya hisoblanmaydi.

Soliqni hisoblash va to‘lash tartibi haqida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llashga doir boshqa masalalar bo‘yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlarni bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga hisoblanmaydi va bu holatlar, shu organning mohiyati va mazmuniga ko‘ra soliq qarzi hosil bo‘lgan soliq (hisobot) davrlariga taalluqli tegishli hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda, shunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’iy nazar, aniqlanadi.

Har bir kechiktirilgan kun uchun penyalar soliqning to‘lanmagan summasidan kelib chiqib foizlarda belgilanadi.

Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng etib qabul qilinadi. Masalan: 2020 yil oktabr oyidan yuzaga kelgan soliq qarzdorligi bo‘yicha penya hisoblash quyidagi tartibda hisoblanadi:

Har bir kun uchun 14 / 300 = 0,046 foiz stavkasida penya to‘laydilar*

**Izoh: 2020 yil 11 sentabrdan boshlab Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 14 foiz etib belgilangan*[161].

Penyalar tegishli soliq to‘lanadigan budjetga (davlat maqsadli jamg‘armasiga) to‘lanadi.

Penyalar soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan, shuningdek soliq to‘lovchining boshqa mol-mulki hisobidan Soliq

[161] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma’lumotlari. http://www.cbu.uz/oz/monetary-policy/operations/refinancing-rate

kodeksining 15-bobida nazarda tutilgan tartibda majburiy ravishda undirilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlardan penyani majburiy ravishda undirish soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan va soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish nazarda tutilgan tartibda, boshqa jismoniy shaxslardan esa - yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsning soliq qarzini undirish nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining yoki boshqa shaxsning soliq qarzi uning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish imkoni bo‘lmagan qismida boshqa shaxslardan undirilishi va agar soliq to‘lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan oladigan tushumi yoki boshqa daromadlari boshqa shaxslarning bankdagi hisobvaraqlariga kelib tushgan bo‘lsa, soliq to‘lovchining soliq qarzi shu shaxslardan undirilishi mumkin hollarda yakka tartibdagi tadbirkorlardan penyani majburiy ravishda undirish sud tartibida amalga oshiriladi. Soliq kodeksining 110-moddasida nazarda tutilgan qoidalar soliq agentlariga ham tatbiq etiladi.

«Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi xodimi qarzdorlarni o‘rganishda quyidagilarga:

✓ haqiqiy qarzdorning (meros xo‘rlarning) to‘liq F.I.Sh;

✓ ish joyi yoki daromad manbasini;

✓ turmush sharoiti va yashash holatini;

✓ haqiqatda to‘lanmaganligi (ko‘p vaziyatlarda soliq to‘lovchi tomonidan soliqlar to‘langan bo‘lsada uning puli ma’lumotlar bazasida shakllanmagan bo‘lishi;

2-holatda pul tushmasligi mumkin.

Masalan:

1-holat to‘lov kvitansiyasiga yashash manzilini to‘liq kiritmasa;

2-holat to‘lov kvitansiyasiga kadastr raqami va soliqning hisob raqamlarini noto‘g‘ri yozilishi tufayli bo‘lishi mumkin.

✓ qarzdor imtiyoz egasi yoki aksini;

✓ nafaqa jamg‘armasidan mablag‘ olayotgan qarzdorlarni ro‘yxatini;

✓ YXXBdan qarzdorlarga tegishli yengil avtomobillari rasmiylashtirilganligini;

✓ qarzdorning nomiga boshqa hududlarda joylashgan turar yoki noturar ob’ektlari mavjudligini;

✓ naqd pul mablag‘lariga;

✓ qarzdorning nomida bo‘lgan, bank omonat kassalarida saqlanayotgan pul mablag‘lari mavjudligiga e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxs soliq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmagan bo‘lsa, soliq organi soliq qarzini ushbu jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli[162].

Undirish to‘g‘risidagi arizaga soliq organining talabnomani ta’minlash tartibida javobgarning mol-mulkini xatlash haqidagi iltimosnomasi ilova qilinishi mumkin.

Undirish to‘g‘risidagi arizaning nusxasi u sudga berilgan kundan kechiktirmay soliq organi tomonidan soliq qarzi undirilayotgan jismoniy shaxsga yuboriladi. Agar jismoniy shaxsning soliq qarzi umumiy summasi bir million so‘mdan oshsa, undirish to‘g‘risidagi ariza soliq organi tomonidan sudga beriladi.

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi ishlar qonun hujjatlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud qarori asosida soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish quyidagilarga nisbatan ushbu ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi:

1) bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga;

2) naqd pul mablag‘lariga;

---

[162] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 125-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

3) boshqa shaxslarga shartnoma bo‘yicha egalik qilishga, foydalanishga, tasarruf etishga berilgan mol-mulkka, ushbu mol-mulkka doir mulk huquqi ularga o‘tmagan holda, agar soliq majburiyati ijrosini ta’minlash uchun bunday shartnomalar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa;

4) boshqa mol-mulkka, bundan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan jismoniy shaxsning yoki uning oilasi a’zolarining kundalik shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan mol-mulk mustasno.

Soliq qarzi jismoniy shaxsning pul mablag‘lari ko‘rinishida bo‘lmagan mol-mulki hisobidan undirilgan taqdirda, soliq qarzi bunday mol-mulk realizatsiya qilingan va undan kelib tushgan summalar hisobidan to‘langan paytdan e’tiboran to‘langan deb hisoblanadi.

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirishda belgilangan ketma-ketlikni buzishga yo‘l qo‘yilmaydi.
O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 125-modda.

Mazkur mol-mulk xatlab qo‘yilgan kundan e’tiboran va tushgan summalar budjet tizimiga o‘tkazilgan kunga qadar soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun penyalar hisoblanmaydi.

Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro‘yxatidan o‘tib, soliq organlarining to‘lov xabarnomasida keltirilgan soliqlarni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’i nazar, Soliq kodeksida belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart. Agar soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin uch kundan kechiktirmay soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.

Soliq to‘lovchiga uning zimmasidagi soliq qarzi summasi to‘g‘risida, shuningdek shu qarz summasini belgilangan muddatda to‘lash majburiyati haqida xabar yuborish soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomadir[163].

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha unda

[163] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 116-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

coliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlari nazarda tutilgan soliq qarzi yoki foizlar mavjud bo‘lgan taqdirda yuboriladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishidan qat’i nazar yuboriladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada soliq bo‘yicha qarz summasi, talabnoma yuborilayotgan paytga hisoblangan penyalar miqdori, jarimalar summasi, shuningdek soliq to‘lovchi talablarni bajarmagan taqdirda, soliq qarzini undirish va soliq majburiyati bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ko‘riladigan choralar haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaning shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar soliq to‘lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan oladigan tushumi yoki boshqa daromadlari boshqa shaxslarning bankdagi hisobvaraqlariga kelib tushgan bo‘lsa hamda agar soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi to‘g‘risida bilgan paytdan e’tiboran o‘zining pul mablag‘larini yoki boshqa mulkini o‘zga shaxslarga bergan bo‘lsa soliq to‘lovchining soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma boshqa shaxslarga yuborilishi mumkin. Bunday hollarda ushbu bobda nazarda tutilgan barcha qoidalar mazkur shaxslarga yuborilgan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomalarga ham tatbiq etiladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga u hisobda turgan soliq organi tomonidan yuboriladi. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga ushbu qarz aniqlangan kundan e’tiboran yoki soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha aniqlangan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuborilishi kerak.

Agar soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga yuborilganidan keyin ushbu talabnomada ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha qarz summasi, penyalar yoki soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarimalar summasi o‘zgarishiga olib kelgan holatlarni aniqlagan taqdirda, soliq

organi ushbu soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani yuborishi yoxud ilgari yuborilgan talabnomani chaqirib olishi shart. Mazkur qoida soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada ko‘rsatilgan soliq, penya yoki jarimalar bo‘yicha qarzlari qisman to‘langan hollarga tatbiq etilmaydi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnoma yoki ilgari yuborilgan talabnomaga doir chaqiruv xati soliq to‘lovchiga ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan o‘zgarishlarga olib kelgan holatlar aniqlangan kundan e’tiboran uch kun ichida yuboriladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qismi bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan olingan kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kun ichida soliq qarzi to‘lanmagan taqdirda va agar soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi umumiy qoidalar va Soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish choralar qo‘llanishi natijasida soliq qarzi uzilmay qolaversa, soliq organlari undiruvni belgilangan tartibda soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi.

Soliq qarzi belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq qarzini undirish - undiruvni bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga (shu jumladan, korporativ kartalardagi pul mablag‘lariga) qaratish yo‘li bilan majburiy tartibda amalga oshiriladi[164].

Soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish faqat yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan qo‘llaniladi.
O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 121-modda.

Soliq qarzini majburiy tartibda undirish to‘lanmagan soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchidan yoki soliq agentidan, Soliq kodeksining 120 va 122-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslardan ham amalga oshirilishi mumkin.

Soliq qarzini undirish soliq organi tomonidan majburiyatga ega shaxsning hisobvarag‘i ochilgan bankka ushbu shaxsning hisobvaraqlaridan zarur pul

[164] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 121-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjetga o‘tkazish uchun inkasso topshiriqnomasini elektron shaklda yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjetga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasining shakli hamda uni bankka yuborish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda belgilanadi.33-rasm.

Agar soliq to‘lovchi soliqni to‘lash uchun qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan muddatlarda to‘lov topshiriqnomasini mustaqil ravishda yubormagan bo‘lsa, soliq organining inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach uch ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi.



33-rasm. Inkasso topshiriqnomasi shakli[165]

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso

[165] O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi nizomga 4-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 13 aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3229.

topshiriqnomasi bank tomonidan fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan to‘lovlar navbatini hisobga olgan holda bank tomonidan so‘zsiz bajarilishi shart.

Quyidagi hollarda soliq organlari majburiyatga ega shaxslarning hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjet tizimiga o‘tkazishga doir bajarilmagan (to‘liq yoki qisman) inkasso topshiriqnomalarini chaqirib olish to‘g‘risida qaror qabul qiladi:

1) Soliq kodeksining 11-bobiga muvofiq soliq qarziga nisbatan kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati taqdim etilganda;

2) soliq qarzi uzilganda, shu jumladan Soliq kodeksining 12-bobiga muvofiq ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalar hisobga olinishi munosabati bilan soliq qarzi uzilganda;

3) Soliq kodeksining 96-moddasiga muvofiq undirilishi umidsiz deb e’tirof etilgan soliq qarzi hisobdan chiqarilganda;

4) Soliq kodeksining 83-moddasiga muvofiq taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo‘yicha soliq va penya summalari kamaytirilganda.

Soliq qarzini undirish milliy valyutadagi talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan, bunday hisobvaraqlarda mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda esa majburiyatga ega shaxsning chet el valyutasidagi talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan amalga oshirilishi mumkin. Majburiyatga ega shaxsning valyuta hisobvaraqlaridan soliq qarzini undirish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta sotiladigan sanada belgilangan kursi bo‘yicha milliy valyutada undiriladigan summaga ekvivalent summada amalga oshiriladi.

Soliq qarzini undirish muddatli depozitlarga joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan, ularning amal qilish muddati tugagunga qadar amalga oshirilmaydi.

Valyuta hisobvaraqlarida turgan mablag‘larni undirish chog‘ida soliq organining rahbari *(rahbar o‘rinbosari)* inkasso topshiriqnomasi bilan bir vaqtning o‘zida bankka majburiyatga ega shaxsning valyutasini sotish uchun topshiriqnoma yuboradi. Mazkur topshiriqnoma bank tomonidan u olingan kundan keyingi

operatsiya kunidan kechiktirmay bajariladi. Chet el valyutasini sotish bilan bog‘liq xarajatlar shu majburiyatga ega shaxsning hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va budjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan inkasso topshiriqnomasi olingan kundan keyingi bir operatsiya kunidan kechiktirmay, valyuta hisobvaraqlaridan undirishda esa - ikki operatsiya kunidan kechiktirmay bajariladi.

Agar bank tomonidan soliq organining inkasso topshiriqnomasi olingan kunda majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlarida uni bajarish uchun pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, inkasso topshiriqnomasi shu hisobvaraqlarga pul mablag‘lari kelib tushishiga qarab, har bir bunday tushum kunidan keyingi bir yoki ikki operatsiya kunidan kechiktirmay, hisobvaraq valyutasiga bog‘liq holda bajariladi. Mazkur inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan to‘lovlar navbatini hisobga olgan holda bank tomonidan bajariladi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish /13.1)*

Soliq qarzi mavjud bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bankdagi hisobvaraqlariga inkasso topshiriqnomasi (2-son kartoteka)ni qo‘yish tartibi

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy hisobvarag‘i ochilgan bankda 2-son kartoteka mavjud bo‘lgan hollarda to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Markaziy banki Boshqaruvi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasining qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida”gi YO‘RIQNOMAga muvofiq amalga oshiriladi[166].

Ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlari uchun to‘lovlar o‘tgan oy davomida uning faqat asosiy hisobvarag‘iga kelib tushgan jami tushumlarning 5 foizi miqdorigacha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan

[166] O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2011 yil 12 dekabrda 2342-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Markaziy banki Boshqaruvi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasining qarori. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

ro‘yxatga asosan o‘ta muhim ob’ektlarni qo‘riqlovchi bo‘linmalar xizmatidan foydalanuvchi hisobvaraq egalari uchun esa 6 foiz miqdorigacha amalga oshiriladi.

2-son kartoteka paydo bo‘lganda, hisobvaraq egasi tomonidan ariza kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar miqdoriga bog‘liq hisob-kitob bilan birga shu oyning keyingi dekadasi birinchi sanasiga, joriy oyning uchinchi dekadasi va keyinchalik esa keyingi oyning uchinchi sanasigacha bankka taqdim qilinadi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda, bevosita ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘ta muhim ob’ektlarni qo‘riqlovchi bo‘linmalar xizmati bo‘yicha xarajatlarni ham hisobga olgan holda zaruriy xarajatlar ro‘yxatini aniqlaydi.

Hisobvaraq egasi kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar uchun mablag‘lar hisob-kitobini va arizani bankka taqdim etgan kunning ertasidan boshlab joriy oy davomida ushbu to‘lovlarni to‘liq yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirishi mumkin. Kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar uchun mablag‘lar limitining ishlatilmagan qismi joriy oyning oxirgi kunigacha ishlatilishi mumkin va keyingi oyga ishlatish uchun o‘tkazilmaydi.

Kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar uchun to‘lovlar hisobvaraq egasining to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda to‘lov topshiriqnomalarining «to‘lov maqsadi» grafasida «kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar summasi hisobiga», deb yozilgan bo‘lishi shart.

Banklar kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar uchun sarflanadigan mablag‘lar limitining to‘g‘ri hisoblanganligi (aniqlashini) va unga rioya qilinishini nazorat qiladi.

Kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlar uchun sarflanadigan mablag‘lar limiti noto‘g‘ri hisoblanganligi aniqlangan taqdirda, ular bo‘yicha taqdim etilgan ariza va to‘lov hujjatlari bank tomonidan ijro uchun qabul qilinmaydi;

birinchi navbatda, mutanosib ravishda budjetga, budjetdan tashqari fondlarga to‘lovlarni hamda ish haqqi to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov (ijrochi) hujjatlari bo‘yicha, alimentlarni undirishga doir talablarni qondirish uchun hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘tkazish yoki pulni berishni

nazarda tutuvchi ijrochi hujjatlar bo‘yicha, mualliflik shartnomalariga binoan mukofotlarni to‘lash bo‘yicha, shuningdek hayoti va salomatligiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha, budjetga to‘lovlar bo‘yicha hamda mehnatga oid va unga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan to‘lovlar bo‘yicha xo‘jalik sub’ektlarining majburiyatlari teng darajada bajarilishini ta’minlovchi ijrochi hujjatlar bo‘yicha pul o‘chiriladi;

ikkinchi navbatda, navbatdan tashqari va birinchi navbatdagi to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin asosiy hisobvaraqdan quyidagi majburiyatlarning kalendar navbati tartibida bajarilishi ta’minlanadi:

birinchi navbatdagi to‘lovlarda nazarda tutilmagan boshqa ijro hujjatlari bo‘yicha inkasso topshiriqnomalari yuzasidan to‘lovlar;

banklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga Hukumat kafolati ostida berilgan muddatli va muddatida qaytarilmagan kreditlarni (ularning foizlarini ham) qaytarish uchun qo‘yilgan mijozning talabnomalari bo‘yicha to‘lovlar;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan berilgan budjet ssudasi, kredit liniyasi va ular bo‘yicha hisoblangan foizlar;

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi resurslari hisobidan berilgan kreditlar bo‘yicha qarzlar va ular bo‘yicha to‘lovlar;

uchinchi navbatda, ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy hisobvarag‘iga qo‘yilgan boshqa pul talablari yuzasidan to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha to‘lov hujjatlarining kelib tushish sanasiga qarab kalendar navbatida hisobdan chiqariladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning milliy valyutadagi hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qo‘yilgan talablarni qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, xizmat ko‘rsatuvchi bank davlat soliq xizmati organlarining taqdimnomasi asosida mazkur xo‘jalik yurituvchi sub’ektning chet el valyutasidagi hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘ning ushbu talablarni qondirish uchun yetarli bo‘lgan miqdoridagi qismini keyingi ish kunidan kechikmagan holda Respublika valyuta birjasiga sotish uchun buyurtmanoma kiritadi. Xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan chet el valyutasini sotishdan olingan mablag‘lar xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy

hisobvarag‘iga kirim qilinadi va ushbu Yo‘riqnomada belgilangan tartibda mazkur hisobvaraqqa taqdim etilgan talablarni qondirish uchun yo‘naltiriladi.

Agar majburiyatga ega shaxsning soliq qarzini soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish mumkin bo‘lmasa, soliq organi soliq qarzini shu majburiyatga ega shaxsning boshqa mol-mulki, shu jumladan naqd pul mablag‘lari hisobidan undirishga haqli[167].

Soliq qarzini undirish soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada ko‘rsatilgan summalar doirasida hamda soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undiruv amalga oshirilgan summalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish quyidagilarga nisbatan ushbu ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) soliq qarzini soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undiruv qaratilmagan naqd pul mablag‘lariga nisbatan;

2) mahsulotlar (tovarlar) ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan mol-mulkka, xususan, qimmatli qog‘ozlar, valyuta qimmatliklari, ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan binolar, yengil avtotransport, xizmat xonalarining dizayni ashyolariga nisbatan;

3) tayyor mahsulotlarga (tovarlarga), shuningdek ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan va (yoki) bevosita ishtirok etishga mo‘ljallanmagan boshqa moddiy qimmatliklarga nisbatan;

4) ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish uchun mo‘ljallangan xom ashyo va materiallarga nisbatan, shuningdek dastgohlar, uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalarga nisbatan;

5) boshqa shaxslarga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish shartnomasi bo‘yicha ushbu mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ularga o‘tkazilmagan holda topshirilgan mol-mulkka nisbatan, agar soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning

[167] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 123-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

bajarilishini ta’minlash uchun bunday shartnomalar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa;

6) boshqa mol-mulkka nisbatan, bundan yakka tartibdagi tadbirkor yoki uning oila a’zolari kundalik shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan, qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan boshqa mol-mulk mustasno.

Soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzdorligini undirish sud tartibida amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzdorligi tan olinsa, soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) qaroriga binoan soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mulki hisobidan soliq qarzdorligi undirilishi mumkin.

Soliq organi majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish to‘g‘risida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida tegishli qarorni qog‘ozda yoki elektron shaklda ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ijro etish uchun majburiy ijro etuvchi davlat organiga yuborishi kerak.

Soliq organining ushbu modda yettinchi qismida ko‘rsatilgan qarorni majburiy ijro etuvchi davlat organiga yuborish shakli va tartibi, shuningdek uning mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Davlat ijrochisi soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi qaror o‘ziga kelib tushgan kundan e’tiboran ikki oylik muddatda ijro harakatlarini amalga oshirishi va ushbu qarorda mavjud bo‘lgan talablarni bajarishi kerak.

Soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish qoidalari soliq qarzlarini bojxona organlari tomonidan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni hisobga olgan holda undirish chog‘ida ham qo‘llaniladi.

Hududga biriktirilgan xodimlari da’vo arizasi tayyorlash uchun belgilangan muddatda o‘ziga biriktirilgan uchastka bo‘yicha arizaga (da’vo arizasi) ilova qilinadigan tegishli hujjatlarni (to‘lov xabarnoma koreshogi, qarzdor fuqaroning yashash joyidan ma’lumotnoma, soliq qarzi to‘g‘risida solishtirish dalolatnomasi) yig‘ib, soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limiga berilishini ta’minlaydi.

13.2-§. Soliq qarzdorligini undirish bo‘yicha soliq organlari harakatlari

Soliq organlarining jismoniy shaxslardan soliq qarzlarini undirishning dastlabki harakati ularga to‘lashi lozim bo‘lgan soliqlar to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomalarini shaxsan yoki pochta buyurtma xati orqali taqdim etish hisoblanadi. 34-rasm.



34-rasm. To‘lov xabarnomasini taqdim etish[168]

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari hamda deklaratsiya natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini sud orqali undirish bo‘yicha soliq organlari harakatlari.

To‘lov xabarnomasi asosida sudga ariza kiritishda jismoniy shaxsning soliq qarzi haqidagi soliq organining ma’lumotnomasiga qo‘shimcha qilib qarzdorning pasporti, nafaqa guvohnomasi (agar bo‘lsa) hamda uning doimiy yashash joyi haqidagi Mahalla fuqarolar yig‘ini (MFY) yoki Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan taqdim etilgan ma’lumotnomalarini to‘playdi.

Soliq organlari yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asosan, Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudiga ariza *(Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi ariza)* taqdim etishdan oldin soliq qarzi mavjud jismoniy shaxsga arizaning bir nusxasini shaxsan yoki pochtaning buyurtma xati bilan taqdim etadi. Arizani qarzdorga taqdim etilganligini tasdiqlovchi pochtaning buyurtma xatining javobi yoki qarzdor tomonidan shaxsan ariza qabul qilinganligi to‘g‘risidagi imzosi asosida sudga arizani taqdim etadi.

[168] Mualliflar tomonidan tayyorlangan

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan Esud.uz axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida beriladi. Arizada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

1) ariza berilayotgan sudning nomi;

2) undiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) hamda yuridik shaxsning rekvizitlari;

3) qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) hamda yuridik shaxsning rekvizitlari;

4) undiruvchining talabi va talabga asos bo‘lgan holatlar;

5) undirilayotgan qarzdorlik vujudga kelgan davr;

5^{1}) to‘lanmagan to‘lovlar summasining hisob-kitobi va undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida turgan ko‘char mol-mulkning tavsifi;

6) arz qilingan talabni tasdiqlovchi, ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati.

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizada undiruvchi yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin[169].

Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish natijasida hamda mol-mulk va yer soliqlaridan hosil bo‘lgan qarzlarini fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudining EXSUD dasturiy mahsulotiga ariza va da’vo arizalari “Soliq qarzini undirishni tashkil qilish” bo‘limi (sho‘basi) xodimlari tomonidan kiritiladi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish /13.2)*

«Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi (sho‘basi) xodimlari tomonidan EXSUD *dasturiy mahsulida amallarni bajarish tartibi*

EXSUD dasturiy mahsulotiga ariza va da’vo arizalarini kiritish uchun soliq organlarining «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi» xodimlariga tegishli

[169] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 172-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil

tartibda login va parollar Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudlari tomonidan nomuayyan muddatda beriladi.

Tegishli login va parollar orqali soliq organlarining «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi» xodimlari jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish natijasida hamda mol-mulk va yer soliqlaridan hosil bo‘lgan qarzlarini undirish bo‘yicha ariza va da’vo arizalari fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudining EXSUD dasturiy mahsulotiga kiritiladi.

Shuningdek, «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi» xodimi Exsud.uz dasturiy mahsulotiga kiritilayotgan ariza va da’vo arizalariga tegishli ilovalarni, jumladan to‘lov xabarnoma koreshogi, qarzdor fuqaroning yashash joyidan ma’lumotnoma hamda soliq qarzi to‘g‘risidagi solishtirish dalolatnomasini biriktiradi.

Soliq arzini undirish to‘g‘risidagi arizaning nusxasi u sudga berilgan kundan keyin, bir kundan kechiktirmay soliq organi tomonidan soliq qarzi undirilayotgan jismoniy shaxsga yuboriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning soliq qarzini undirish bo‘yicha soliq organlari harakatlari

Yakka tartibdagi tadbirkor yoki usta hunarmand uyushmasi a’zosi bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorning soliq qarzi yuzasidan soliq organlarining xati harakatlari, soliq qarzi paydo bo‘lgan kundan boshlab 3-ish kun ichida quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

> *Agar soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin uch kundan kechiktirmay soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 115-modda.*

> *Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi arizaga soliq organining talabnomani ta’minlash tartibida javobgarning mol-mulkini xatlash haqidagi iltimosnomasi ilova qilinishi mumkin.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 125-modda.*

“Yuridik shaxslarni soliq qarzi hisobini yuritish” dasturiy mahsuldan nomzod qarzdorlar ro‘yxati shakllantirib ularga talabnoma chop etiladi. Agar yakka tartibdagi tadbirkorning shaxsiy kabineti mavjud bo‘lsa talabnomani elektron ko‘rinishda yuboradi. Shaxsiy kabinet mavjud bo‘lmasa, yakka tartibdagi

tadbirkorga shaxsan yoki pochtaning buyurtma xati bilan yuborilishi unga talabnomani taqdim etilganligini bildiradi.

Shuningdek, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorlarga talabnoma taqdim etilishi bilan bir vaqtda ularning hisob raqamlariga inkasso topshiriqnomasi qo‘yiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan 30-kun ichida soliq qarzi to‘la berilmagan taqdirda, soliq organi soliq qarzini yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki hisobidan undirish yuzasidan Iqtisodiy sudga ariza kiritadi.

Bu borada sudga berish tartibini quyidagi ikki holatga ajratish mumkin bo‘ladi:

Birinchi holatda agar yakka tartibdagi tadbirkorning soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risida soliq organining tumanlararo iqtisodiy sudiga taqdim etadigan arizasiga yakka tartibdagi tadbirkor qarzdorligini tan olib, o‘zining rozilik munosabatini bildirsa (imzosini qo‘ysa), mazkur ariza iqtisodiy sudning Exsud.uz axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida taqdim etiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

✓ Talabnoma taqdim etilganligini tasdiqlovchi asos (shaxsan, shaxsiy kabineti, pochtani buyurtma xati);

✓ K-2, inkasso topshiriqnomasi qo‘yilganligini asoslantiruvchi hujjat;

✓ Soliq qarzi yuzasidan ariza kiritilayotgan kundagi ma’lumotnomasi;

✓ Pochta xarajati to‘langanligini asoslovichi chek (kvitansiya) nusxasi;

✓ Yakka tartibdagi tadbirkor guvohnomasining nusxasi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi sudga taqdim etilgan arizaning ko‘chirma nusxasini soliq organi qarzdorga topshirishi shart[170].

Natijada sud tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish masalasi bir tomonlama ko‘rib chiqiladi va sud buyrug‘i chiqariladi.

[170] O‘zbekiston Respublikasining. Iqtisodiy protsessual kodeksi. 137-modda. lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2021 yil.

Ikkinchi holatda agarda yakka tartibdagi tadbirkor soliq organining hisoblagan soliq qarzidan norozi bo‘lsa, u holda soliq organi soliq qarzi bo‘yicha tumanlararo iqtisodiy sudga da’vo arizasini berishiga sabab bo‘ladi.

> *Har qanday manfaatdor shaxs o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. 3-modda.*

Soliq organi tomonidan da’vo arizasi tumanlararo iqtisodiy sudiga Exsud.uz axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida beriladi.

Da’vo arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

✓ Talabnoma taqdim etilganligini tasdiqlovchi asos (shaxsan, shaxsiy kabineti, pochtani buyurtma xati);

✓ K-2, inkasso topshiriqnomasi qo‘yilganligini asoslantiruvchi hujjat;

✓ Soliq qarzi yuzasidan ariza kiritilayotgan kundagi ma’lumotnomasi;

✓ Da’vo arizasini bir nusxasi qarzdorga taqdim etilganini asoslovchi hujjat;

✓ Pochta xarajati to‘langanligini asoslovichi chek (kvitansiya) nusxasi;

✓ Yakka tartibdagi tadbirkor guvohnomasining nusxasi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish to‘g‘risidagi soliq organining ariza va da’vo arizalarini tumanlararo Iqtisodiy sudiga kiritish ularning Exsud.uz dasturiy mahsuloti orqali amalga oshiriladi. Bunda ariza va da’vo arizalar soliq organlarining «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi (sho‘basi) xodimlari tomonidan *Exsud.uz dasturiy mahsuloti orqali* tegishli tartibda kiritiladi. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish /13.3)*

Tumanlararo Iqtisodiy sudiga ariza va da’vo arizalarini Exsud.uz dasturiy mahsuloti orqali kiritish tartibi

Tumanlararo Iqtisodiy sudining Exsud.uz dasturiy mahsuloti bilan ishlash uchun tegishli login va parollar har bir tuman (shahar) DSIlarining Soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi mas’ul xodimiga tumanlararo Iqtisodiy sudlari tomonidan nomuayyan muddatda beriladi. Tegishli login va parollar orqali «Soliq

qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi» mas’ul xodimi Exsud.uz dasturiy mahsulotiga arizalarni quyidagi ketma-ketlikda kiritadi:35-rasm.

Shuningdek, «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo‘limi» xodimi tomonidan Exsud.uz dasturiy mahsulotiga kiritilayotgan ariza va da’vo arizalariga tegishli ilovalarni, jumladan talabnoma nusxasi, qo‘yilgan inkasso topshiriqnomasi va qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor soliq qarzi to‘g‘risida solishtirish dalolatnomalarini biriktiradi.



35-rasm. Tumanlararo Iqtisodiy sudining Exsud.uz dasturiy mahsuloti orqali arizalarni kiritish tartibi

Yuqoridagilarga ko‘ra, soliq organining «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor va jismoniy shaxslar bo‘yicha sudlardan qabul qilib olingan ijro hujjatlari «Ijro varaqalarini ro‘yxatga olish kitobi»da qayd etilib, uch ish kunidan kechiktirmasdan hududiy majburiy ijro byurosiga ijrosini ta’minlash uchun yuboriladi.

«Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi majburiy ijro byurosi bilan har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5 sanasiga qadar ish yurituvida bo‘lgan, yuborilgan, ijro qilingan va ijrosiz qaytarilgan ijro hujjatlari, undirilgan qarzdorlik

summalari va boshqa amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tegishli tartibda taqqoslash dalolatnomalarini tuzadi va tasdiqlash uchun DSI boshlig‘iga (o‘rinbosari) kiritadi.

«Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi majburiy ijro byurosi tomonidan ijrosiz qaytarilgan ijro hujjatlarini qabul qiladi, ularning asosliligini o‘rganadi va yetarli asosga ega bo‘lmagan holatlar bo‘yicha qayta ijroga qaratish uchun yuboradi va bu haqida tegishli sud organiga taqdimnoma yuboradi.

«Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi soliq qarzlarini majburiy undirishga qaratish va umidsiz soliq qarzlarini hisobdan chiqarish uchun ish jarayonida zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni uchastka soliq inspektorlaridan talab qilib oladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi bank belgisi qo‘yilgan to‘lov topshiriqnomasining nusxasi yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan taqdim etilmagan takdirda, talabnomani bajarishning belgilangan muddati o‘tgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida soliq organining «Hisobni yuritish va budjet daromadlarini prognozlashtirish» bo‘limi inkasso topshiriqnomalarini taqdim etadi.

Hududga biriktirilgan xodimlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor debitori bilan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi taqdim etilgan taqdirda, «Hisobni yuritish va budjet daromadlarini prognozlashtirish» bo‘limi ushbu solishtirma dalolatnomasi asosida debitorlarning bank hisobvaraqlariga YaTTning soliq qarzi summasini soliq to‘lovchi oldidagi qarzidan oshmaydigan miqdorda undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomasini taqdim etadi.

“Soliq qarzini undirishni tashkil qilish” bo‘limi soliq qarzini undirish bo‘yicha nazarda tutilgan barcha choralar ko‘rilganidan keyin qarz to‘lanmagan taqdirda yakka tartibdagi tadbirkor bo‘yicha Iqtisodiy sudga «Bankrotlik to‘g‘risidagi» Qonuniga asosan bankrot deb topish to‘g‘risida, jismoniy shaxslar bo‘yicha esa budjet oldidagi qarzini kechish to‘g‘risida Fuqarolik sudiga ariza bilan murojaat qiladi.

«Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzini majburiy undirish bo‘yicha Soliq kodeksida nazarda tutilgan barcha choralar ko‘rilgandan keyin qarzdorlik to‘lanmagan taqdirda,

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan subsidiar tartibda undirish choralarini ko‘radi.

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

✓ mazkur shaxs vafot etganda;

✓ uni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirganda.

✓ Vafot etgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan jismoniy shaxsning soliq qarzi meros mol-mulkning qiymati doirasida merosxo‘rlardan undiriladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, hunarmand uyushmasi a’zosi bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkor, jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya soliq to‘lovchining olingan yillik daromadi to‘g‘risida, soliq qarzi, penya, inkasso topshiriqnomasi, talabnoma, to‘lov xabarnomasi, ariza, da’vo ariza, sud buyrug‘i, ijro varaqa, ijara to‘lovi, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, YaTTlar tomonidan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan stavkasi.

Nazorat uchun savollar

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlaridan qarz summalarini sudga ariza berish uchun qanday hujjat asos hisoblanadi?

2. YaTTlarning tomonidan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan stavkasi, ijtimoiy solig‘i va hunarmand uyushmasi a’zosi bo‘lgan YaTTning ijtimoiy solig‘i hamda mulki daromadlari bo‘yicha taqdim etgan deklaratsiyasi hamda ularga hisoblangan soliq bo‘yicha qarz summasini sudga berish uchun qanday hujjat asos hisoblanadi?

3. Jismoniy shaxslarni soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish maqsadida qaysi sudga ariza (da’vo ariza) kiritiladi?

4. YaTTlarning soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish maqsadida qaysi sudga ariza (da’vo ariza) kiritiladi

5. Jismoniy shaxslarni soliq qarzini mol-mulki hisobidan undirish maqsadida sudning qaysi dasturiy mahsulidan ariza (da'vo ariza) kiritiladi?

O'zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O'quv-materiallari/Darslik va o'quv qo'llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/13.4)*

Test savollari

1. Jismoniy shaxsning soliq majburiyati yana kim tomonidan bajarilishi mumkin?

A) o'zga jismoniy shaxs tomonidan

B) yuridik shaxs tomonidan

C) YaTT tomonidan

D) bunday tartib amaliyotda mavjud emas

2. Soliq to'lovchi tomonidan soliq qarzini to'lash, shu jumladan uni soliq organlari tomonidan undirilishi qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?

A) soliqlar summasi, hisoblangan penyalar, jarimalar

B) soliqlar summasi, jarimalar, penyalar

C) hisoblangan penya, soliqlar summasi, jarimalar

D) jarimalar, hisoblangan penya, soliqlar summasi

3. Soliq majburiyatini bajarish bo'yicha ta'minlash chorasi sifatida mol-mulkni xatlash uchun soliq to'lovchining qanday hujjatiga ko'ra amalga oshiriladi?

A) arizasiga ko'ra

B) da'vo arizasiga ko'ra

C) shikoyat xatiga ko'ra

D) tilxatiga asosan

4. Soliq to'lovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda to'lashi lozim bo'lgan pul summasi nima deb ataladi?

A) penya

B) chegirma

C) zarar

D) ortiqcha to‘lov

5. Jismoniy shaxslarning soliq qarzini mol - mulki hisobidan undirish maqsadida qaysi sudga murojaat qilinadi?

A) Fuqarolik sudiga

B) Iqtisodiy sudga

C) Ma’muriy sudga

D) Jinoyat ishlari bo‘yicha sudga

6.Jismoniy shaxslarning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish uchun eng kam miqdor 2021 yil qancha summani tashkil etdi?

A) 1 000 000 so‘m

B) 1 014 000 so‘m

C) 1 010 700 so‘m

D) 1 013 700 so‘m

7.Jismoniy shaxslarni soliq qarzini majburiy undirish choralari ketma - ketligi to‘g‘ri belgilangan javobni toping?

A) Soliq va majburiy to‘lovlarga soliq idorasi tomonidan taqdim etilgan to‘lov xabarnomasi (talabnoma) va sud tartibida qarzdorni mol-mulki hisobidan undirishga qaratish

B) To‘lov xabarnomasi va inkasso topshiriqnomasi, qarzdorning debitoriga inkasso topshiriqnomasi qo‘yish, sud tartibida qarzdorni mol-mulki hisobidan undirishga qaratish

C) Talabnoma va qarzdorning debitoriga inkasso topshiriqnomasi qo‘yish, sud tartibida qarzdorni mol-mulki hisobidan undirishga qaratish

D) To‘lov xabarnomasi va inkasso topshiriqnomasi qo‘yish, sud tartibida qarzdorni mol-mulki hisobidan undirishga qaratish

8. Penyaning foiz stavkasi qanday tartibda aniqlanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasini uch yuzga bo‘lish orqali

B) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasini bir yuz ellikka bo‘lish orqali

C) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasini uch yuz ellikka bo‘lish orqali

D) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasini uch yuz oltmish beshga bo‘lish orqali

9. Jismoniy shaxslarning soliq qarzini mol - mulki hisobidan undirish maqsadida qanday dasturiy mahsulotidan foydalaniladi?

A) ESUD dasturiy mahsuloti

B) EXSUD dasturiy mahsuloti

C) EFSUD dasturiy mahsuloti

D) MIB PORTAL dasturiy mahsuloti

10. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan talabnoma olingan kundan e’tiboran soliq qarzini uzmagan taqdirda necha kun ichida DSXO undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi?

A) 30 kun ichida

B) 3 kun ichida

C) 10 kun ichida

D) 20 kun ichida

XIV BOB. JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLARI VA ULAR UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI

14.1-§. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi va jismoniy shaxslarning javobgarlik holatlari

Huquqbuzarlik deganda, jamiyat uchun xavfli bo‘lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini tug‘dirishi mumkin.

> *Soliq to‘lovchining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi.*
>
> *O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 210-modda.*

Soliq oid huquqbuzarlik keng ma’noda soliq qonun hujjatlari bilan yuridik javobgarlik nazarda tutilgan, soliq munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga, soliq majburiyatlarining bajarilmasligiga olib keluvchi huquqqa xilof aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va ularning buzilishiga olib keladi. Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar qasddan (aksariyat hollarda) yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilib, uning natijasida fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga moddiy yoki ma’naviy zarar yetkaziladi. Soliq sohasidagi huquqbuzarlik tushunchalarining muqarrar belgilari huquqqa xiloflilik, aybdorlik, yuridik sanksiyalar bilan ta’qiqlanganligidir.

Har qanday huquqbuzarlik yuridik javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Yuridik javobgarlik - huquqbuzarning huquq normalariga asoslangan va huquqbuzarlik faktidan kelib chiqadigan qilmishi uchun javob berish va davlat majburlov choralari shaklidagi noxush oqibatlariga chidash majburiyati hamda shunday oqibatlarga haqiqatan duchor bo‘lishidir.

Huquqbuzarlikning har xil turlari turli xil yuridik javobgarlikka olib keladi. Masalan, fuqarolik huquqbuzarligi (majburiyatni bajarmaslik) - fuqaroviy-huquqiy

javobgarlikka (zararni qoplash, neustoykani to‘latishga), ma’muriy huquqbuzarlik (yo‘llarda harakatlanish qoidalarini buzganlik) — ma’muriy javobgarlikka (jarima, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etishga) olib keladi. Jinoiy huquqbuzarlik. ya’ni jinoyat esa jinoiy javobgarlikka olib keladi (unga nisbatan ozodlikdan mahrum etishgacha bo‘lgan jazo qo‘llanishi mumkin).

Soliq huquqbuzarligi sodir etilganda bevosita davlat majburlov choralari qo‘llaniladi.

Soliq sohasidagi davlat majburlov choralari deganda, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan, vakolatli davlat organlari tomonidan soliq sohasidagi huquqbuzarlarga nisbatan qo‘llaniladigan ta’sir choralari yig‘indisi tushuniladi. Bu choralarni qo‘llash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash maqsadini ko‘zlaydi hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, bartaraf etish, buzilgan huquqlarni qayta tiklashga qaratilgan bo‘ladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikka soliq to‘lovchilar (soliq agentlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, ularning mansabdor shaxslari, jismoniy shaxslar) ham, davlat soliq xizmati organlari (ularning mansabdor shaxslari) ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlik ikki asosiy shaklda - sud tartibida va ma’muriy tartibda amalga oshiriladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikni amalga oshirishning *sud tartibi* huquqbuzarga nisbatan faqat vakolatli davlat organi nomi bilan sud tomonidan jazo qo‘llanilishini bildiradi. Sud tartibi jinoiy javobgarlik uchun majburiydir.

*Ma’muriy tartib*da majburlov chorasi vakolatli mansabdor shaxs (soliq organining rahbari, rahbar o‘rinbosari) yoki organ (sudya) tomonidan belgilanadi. Javobgarlik chorlarini davlat nomidan qo‘llaydigan suddan farqli ravishda, vakolatli organ yoki shaxs o‘z nomidan ma’muriy tartibdagi javobgarlik choralarini qo‘llashi mumkin.

Soliq sohasidagi huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikning turlari ularning qilmishining ijtimoiy xavfliligi, yetkazilgan zararning miqdori, qonunda

belgilangan og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda quyidagi choralar tayinlanadi: 36-rasm.



36-rasm. Soliq sohasidagi huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikning turlari[171]

Jismoniy shaxslar soliq sohasida fuqarolik qonunchiligi bo‘yicha 14 yoshdan mustaqil daromadga yoki yoshidan qat’i nazar, mol-mulkka, yerga egalik qilib, mehnat huquqi normalari bo‘yicha esa 16 yoshdan yuridik salohiyatga ega bo‘ladilar, chunki shu davrdan boshlab ular tegishli soliq to‘lovlari obekti bo‘lgan daromadlar va mulkning egalari bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o‘n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilmaydi. Shaxs soliqqa oid sodir etilgan ayni bir huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar (yig‘imlar) va penyalarning summalarini to‘lash (o‘tkazish) majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor deb hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o‘zining soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor emasligini isbotlashi shart emas.

[171] Mualliflar tomonidan tayyorlangan

Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash majburiyati soliq organlarining zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda javobgarlikka tortilmaydi:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;

3) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi.

G‘ayrihuquqiy xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb e’tirof etiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini bilgan bo‘lsa, bunday harakatning (harakatsizlikning) zararli oqibatlari yuzaga kelishini istagan yoxud ularning yuzaga kelishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakatlari (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini yoxud bunday harakatlar (harakatsizlik) natijasida yuzaga keladigan oqibatlarning zararli ekanligini garchand ularni oldindan ko‘rishi lozim va mumkin bo‘lgani holda bilmagan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan deb e’tirof etiladi.

Aybni istisno qiladigan holatlar mavjud bo‘lganda shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.

Jismoniy shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo‘lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi. Mazkur holatlar hammaga ma’lum faktlarning mavjudligi, ommaviy

axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o‘z harakatlarini o‘zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo‘lgan soliq to‘lovchi - jismoniy shaxs tomonidan sodir etilganda. Mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo‘yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o‘sha soliq davriga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etish orqali isbotlanadi;

3) soliq organining yoki boshqa vakolatli organning (ushbu organ mansabdor shaxsining) soliqni (yig‘imni) hisoblab chiqarish, to‘lash tartibi to‘g‘risida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qo‘llanilishining boshqa masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga yoxud noma’lum doiradagi shaxslarga bergan yozma tushuntirishlari soliq to‘lovchi tomonidan bajarilganda. Mazkur holatlar ushbu organning tegishli hujjati mavjud bo‘lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjat ma’nosi va mazmuniga ko‘ra, bunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’i nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo‘ladi. Agar soliq organining yozma tushuntirishlari soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri axborotga asoslangan bo‘lsa, mazkur qoida qo‘llanilmaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og‘ir kechishi oqibatida soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

2) tahdid yoki majburlash ta’sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

3) sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof etiladi. Agar soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir

etganlik uchun o‘ziga nisbatan javobgarlik choralari qo‘llanilgan shaxs bu choralar qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil ichida bunday huquqbuzarlikni qayta sodir etmagan bo‘lsa, u javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan belgilanadi va moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilganda inobatga olinadi.

Javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi besh yil hisoblanadi. Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran yoki mazkur huquqbuzarlik sodir etilgan soliq davri tugaganidan keyingi kundan e’tiboran va javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytga qadar besh yil o‘tgan bo‘lsa, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Shunday qilib, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik:

a) soliq sohasida qonunchilikni, soliqlarni to‘lash qoidalariga rioya etilishini ta’minlashga qaratiladi;

v) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus davlat vakolatli organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan yoki sud orqali qo‘llaniladi;

g) asosiy maqsad - soliq qonunlariga qatiy amal qilinishini, soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq davlat budjetiga kelib turishini ta’minlashdan iborat bo‘ladi;

d) soddalashtirilgan tartibda (huquqbuzarlik aniqlanadi - qayd etiladi, bayonnoma yoki dalolatnoma vositasida - jazo qo‘llaniladi) tatbiq etiladi.

Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzishlari va bu qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar soliq sirini tashkil etadi.

Shunday qilib, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik:

- ✓ soliq sohasida qonunchilikni, soliqlarni to‘lash qoidalariga rioya etilishini ta’minlashga qaratiladi;
- ✓ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus davlat vakolatli organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan yoki sud orqali qo‘llaniladi;
- ✓ asosiy maqsad - soliq qonunlariga qatiy amal qilinishini, soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq davlat budjetiga kelib turishini ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

14.2-§. Moliyaviy sanksiyalar va ularni qo‘llash tartibi

Sanksiya – har qanday huquqiy normaning majburiy elementi sifatida, ushbu normani buzuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan davlat majburlov chorasi hisoblanadi. Sanksiyalarning asosiy maqsadi huquqbuzarliklarning oldini olishdir va agar huquqbuzarlik sodir etilgan bo‘lsa, huquqbuzarni tuzatish va tarbiyalash, buzilgan qonun va tartibni tiklash hisoblanadi. Huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari qonun normalarining ajralmas elementi bo‘lgan sanksiyalarda ifodalanadi. Huquqiy normaning sanksiyasi huquq normasini buzgan uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni ko‘rsatadigan tarkibiy elementdir.

Moliyaviy sanksiyalar – moliyaviy va huquqiy normalarda nazarda tutilgan davlat majburlov choralari. Huquqiy jihatdan moliyaviy sanksiya deganda – soliq to‘lovchidan soliq qonunchiligi va boshqa qonun hujjatlari talablarining buzilishi munosabati bilan undiriladigan qat’iy summa yoki foizlar ko‘rinishidagi to‘lov, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbuzarliklar uchun undiriladigan jarimalar tushuniladi.

Moliyaviy sanksiya soliq qonunchiligi talablarining buzilishiga davlat tomonidan munosabat shakli sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, soliq qonunchiligining buzilishi munosabati bilan qo‘llaniladi;

ikkinchidan, pul undirish shaklida bo‘ladi;

uchinchidan, davlat budjetiga undiriladi;

to‘rtinchidan, vakolatli organlar tomonidan qo‘llaniladi;

beshinchidan, huquqbuzarga soliq qonun hujjatlarini buzishning salbiy oqibatlarni ko‘rsatadi.

oltinchidan, soliq qonun hujjatlarini buzilishi natijasida davlatga yetkazilgan zararni qoplash vazifasini bajaradi.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir. Moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksining normalarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va jarimalar tarzida qo‘llaniladi.

Moliyaviy sanksiya sifatida jarima javobgarligi ma’muriy va sud tartibida qo‘llaniladi. Jarima moliyaviy sanksiya sifatida ma’muriy jarimadan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1) jarima boshqa jazo bilan almashtirilishi mumkin emas;

2) vakolatli organ o‘z xohishiga ko‘ra jarimadan ozod qilolmaydi;

3) moliyaviy sanksiya sifatida jarima solishning ma’muriy tartibi soliq qonunchiligida belgilangan.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo‘lmaganda bitta holat mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo‘linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarori olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to‘langanda jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralari qo‘llanilgan shaxs tomonidan bu choralar qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil ichida qayta sodir etilganligi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb e’tirof etilib, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

Soliq organi rahabari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilganidan keyin tegishli soliq organi mazkur shaxsga nisbatan Soliq kodeksida belgilangan moliyaviy sanksiya qo‘llash haqidagi ariza bilan sudga murojaat qiladi.

Sudga murojaat qilingunga qadar soliq organi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsga moliyaviy sanksiyaning tegishli summasini o‘z ixtiyori bilan to‘lashni yozma shaklda taklif qilishi shart.

Soliq organlarining yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishini nazarda tutuvchi qarorlari bo‘yicha moliyaviy sanksiyalar summalarini undirish soliq organlari tomonidan Soliq kodeksining 120-124-moddalarida nazarda tutilgan tartibda mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining arizasiga ko‘ra yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar undirish to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Yuridik shaxslar qatorida yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo‘llaniladigan moliyaviy jarimalar miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 28-bobida keltirib o‘tilgan. (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/14.1*).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo‘llaniladigan moliyaviy jarimalar miqdorlari

Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzish (219-modda)

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yishning belgilangan tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda, -

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq kodeksining 131-moddasida nazarda tutilgan hollarda soliq solish ob’ekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari buzilganda, agar hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘tishi:

o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmaganda, - bir million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;

o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lganda, - ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish, -

bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi miqdorida, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish (220-modda)

Soliq hisobotini soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik, -

bu soliq hisoboti asosida to‘lanishi (qo‘shimcha to‘lanishi) lozim bo‘lgan soliq summasini belgilangan muddatda to‘lanmagan har bir kechiktirilgan kun uchun bir foiz miqdorida, lekin ko‘rsatilgan summaning o‘n foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzish (221-modda)

Nazorat-kassa texnikasining va (yoki) hisob-kitob terminallarining qo‘llanilishi majburiy bo‘lgani holda, ularni qo‘llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo‘lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, shuningdek hisob-kitob terminallari orqali to‘lovlarni qabul qilishni rad etganlik -

besh million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq organlarida ro‘yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini qo‘llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni bergan holda savdoni amalga oshirganlik va (yoki) xizmatlar ko‘rsatganlik, -

yetti million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan soliq to‘lovchi tomonidan foydalanilishi, -

yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Texnik talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki xizmat ko‘rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik, -

yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzish (222-modda)

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish (daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish -

besh yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) (223-modda)

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) -

yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasidan Soliq kodeksiga muvofiq soliqlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning maqsadida soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) deb quyidagilar e’tirof etiladi:

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;

yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish;

hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;

rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;

tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;

qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;

foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;

tovarlarni sotishdan (xizmat koʻrsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga oʻtkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish);

moddiy, yoqilgʻi-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun'iy ravishda oshirish yoki normativlarni notoʻgʻri qoʻllash;

ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida boʻlgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar boʻyicha aks ettirish.

Ushbu modda uchinchi qismining oʻn uchinchi va oʻn toʻrtinchi xatboshilarida koʻrsatilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar boʻyicha yashirilgan soliq bazasi summasi oxirgi oʻn ikki oy uchun aniqlanadi.

Soliqni (yigʻimni) toʻlamaslik yoki toʻliq toʻlamaslik (224-modda)

Soliqni (yigʻimni) notoʻgʻri hisoblab chiqarish yoki boshqa gʻayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik) natijasida soliq (yigʻim) summasini toʻlamaslik yoki toʻliq toʻlamaslik, agar bunday qilmish Soliq kodeksining 223, 226 va 227-moddalarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar alomatlarini oʻz ichiga olmagan boʻlsa, -

toʻlanmagan soliq (yigʻim) summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab boʻladi.

Hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish (225-modda)

Qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qoʻshilgan qiymat soligʻini toʻlovchilar boʻlmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qoʻshilgan qiymat soligʻini hisobvaraq-fakturada aks ettirganlik, -

mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan soliq summasini budjetga to‘lashi shart.

14.3-§. Jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladigan soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlik (ma’muriy va jinoiy javobgarlik) choralari

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (keyingi matnlarda – MJtK) 1-moddasiga tayanadigan bo‘lsak, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikning huquqiy asosini – O‘zbekiston Respublikasi MJtK, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to‘g‘risidagi qonun va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari) tashkil etadi.

MJtKning 10-moddasi 1-qismiga binoan esa *ma’muriy huquqbuzarlik deganda* – qonun hujjatlariga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, g‘ayrihuquqiy, aybli sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Amaldagi qonunchilikka binoan, soliq sohasidagi ma’muriy javobgarlik – qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga asoslanadi.

Soliq sohasidagi ma’muriy javobgarlikning asosiy vazifalari bo‘lib esa soliq sohasida o‘rnatilgan davlat boshqaruvini (tartibini), fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta’minlash, ma’muriy

huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va obektiv ko‘rib chiqilishi, bunday huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

Umumiy qoidaga ko‘ra soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikka huquqbuzarlikni sodir etgan paytda o‘n olti yoshga to‘lgan fuqarolar tortiladilar. MJtKning 17-moddasiga binoan esa O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar umumiy asoslarda, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari singari, ma’muriy javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Soliq sohasidagi ma’muriy huquqbuzarlikning xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxs nafaqat 16 yoshga to‘lgan bo‘lishi, balki qonun hujjatlari bilan unga soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lash majburiyati ham yuklangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, soliq sohasidagi ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o‘z xatti-harakatlarining oqibatini tushuna olishi, ya’ni aqli raso shaxs bo‘lishi ham kerak.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ba’zi davlatlarda soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikning alohida subekti sifatida yuridik shaxslar ham namoyon bo‘ladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi 2.10-moddasiga binoan yuridik shaxslar, 2.6-bandiga binoan esa horijiy yuridik shaxslarning ma’muriy javobgarligi ko‘rsatib o‘tilgan. AQSh va ko‘pgina G‘arbiy Yevropa davlatlarida soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan (bu davlatlarning javobgarlik tizimida ma’muriy javobgarlik mavjud emas).

Soliq sohasidagi ma’muriy javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, sodir etilgan huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo‘lgan taqdirda, sud huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi soliq organi (rahbar yoki o‘rinbosari) sodir etilgan ma’muriy

huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy jazo qo‘llanish chog‘ida sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi.

Amaldagi qonunchilik mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiradi:

- aybdorning o‘z qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi;
- aybdorning huquqbuzarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to‘lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi;
- huquqbuzarlikning kuchli ruhiy hayajon ta’siri ostida yoki og‘ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning tahdid yoki majburlov ta’sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta’siri ostida sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning homilador ayol yoki o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolasini yakka o‘zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarga esa quyidagilar kiradi:

- g‘ayrihuquqiy harakatlarni to‘xtatish vakolati bor shaxslar tomonidan qo‘yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni davom ettirish;
- ma’muriy jazo chorasiga tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o‘sha xildagi huquqbuzarlikni sodir etishi, xuddi shuningdek huquqbuzarlikning ilgari

sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi;

- voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish;
- huquqbuzarlikning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshqa favqulodda holatlarda sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning mast holda sodir etilishi.

Ma'muriy jazo chorasini qo'llovchi organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyatiga qarab mazkur holatni aybni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi mumkin.

Shaxs ikki yoki undan ortiq soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda ma'muriy jazo har bir huquqbuzarlik uchun alohida-alohida qo'llaniladi.

Agar shaxs bir necha soliqqa oid ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o'zida ayni bir organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, bu shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo soliq huquqbuzarligi sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

MJtKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) ularning xodimlari tomonidan sodir etilgan ma'muriy

huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyalar ko‘rib chiqadi.

MJtKning 264-moddasi birinchi qismiga muvofiq, davlat soliq xizmati organlariga Soliq kodeksining 159-1-moddasida, 160-moddasi ikkinchi qismida, 168-moddasida va 174-moddasi uchunchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar taalluqliligi belgilangan. Agar huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjalarining buzilishi ma’muriy javobgarlikni nazarda tutsa, soliq nazoratini, shu jumladan soliq tekshiruvini amalga oshirgan davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi MJtK talablariga muvofiq ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi. Bir huquqbuzarlik bir necha shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, bayonnoma har bir huquqbuzar uchun alohida tuziladi.

Huquqbuzarlik ashyolari va hujjatlar olib qo‘yilgan taqdirda bu hususida MJtKning 290-moddasi tartibida bayonnoma tuziladi yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga yohud buyumlarni ko‘zdan kechirish yoki ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish haqidagi bayonnomalarga tegishli yozuv yozib qo‘yiladi.

MJtKning 287-moddasining sakkizinchi bandiga muvofiq ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish 166, 176, 186-1, 198-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

MJtKning 305-moddasiga muvofiq ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab o‘n besh kunlik muddat ichida ko‘rib chiqiladi.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Soliq organi mansabdor shaxsi huquqbuzarga ishning qachon va qaerda ko‘rilishi haqida xabarnoma yuboradi.

Ma’muriy ishni ko‘rib chiqishda MJtKning 295 – 300-moddalarida (jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat, guvoh, ekspert, tarjimon) nazarda tutilgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Vakolatli DSXO rahbari yoki uning o‘rinbosari ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqib, MJtKning 310-moddasiga ko‘ra, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) ma’muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risida;

2) ishni yuritishni tugatish to‘g‘risida.

Jismoniy shaxslar va ularning ayrim toifalari tomonidan sodir etiladigan soliqqa oid huquqbuzarliklar turlari va ularga nisbatan ma’muriy jarimalar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining XIII bobida belgilab qo‘yilgan.

Soliq sohasidagi g‘ayriqonuniy qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 14-moddasiga binoan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.

Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar;

uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar;

og‘ir jinoyatlar;

o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi.

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Jinoiy javobgarlik – jinoyat qonunchiligi me’yorlarining ijro etilishini; jinoiy munosabat ishtirokchilariga yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amaliy bajarilishi jarayonini; maxsus organ – sud tomonidan shaxsning ijtimoiy xavfli

xatti-harakatining salbiy baholanishini; bu shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasi - jinoiy jazo qo‘llanilishini anglatadi.

Agar shaxs soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun MJtK 174-moddasining ikkinchi qismi bo‘yicha ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida shunday qilmishni yana ancha miqdorda sodir etsa, JK 184-moddasining birinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Ancha miqdor BHMning 100 baravaridan – 300 barobarigacha bo‘lgan miqdor;

Ko‘p miqdor BHMning 300 dan – 500 barobarigacha bo‘lgan miqdor;

Juda ko‘p miqdor BHMning 500 baravari va undan ortiq bo‘lgan miqdor.

Agar soliqlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlaganlik natijasida ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik ma’muriy preyuditsiyaga rioya qilinmagan holda (ya’ni shaxsning muqaddam soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilishi talab etilmaydi), tegishlicha, Jinoyat kodeksi 184-moddasi ikkinchi qismining «b» bandi yoki uchinchi qismi bo‘yicha kelib chiqadi.

Shaxsning harakatlarini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun barcha hollarda, soliqlar to‘lanmaganligi oqibatida yetkazilgan moddiy zarar miqdorini sinchiklab aniqlanishi, bunda JK 184-moddasi mazmuniga ko‘ra, shaxs tomonidan yashirilgan yoki kamaytirib ko‘rsatilgan soliq solinadigan ob’ekti kattaligi (qiymati) emas, balki faqat to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summasi (soliqqa oid huquqbuzarlik uchun qo‘llanilgan moliyaviy sanksiya (jarima va penya) summalarini qo‘shmagan holda) tushunilishi lozim.

JK 184-moddasi bo‘yicha javobgarlik kelib chiqishining zarur sharti — soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga nisbatan qasdning mavjudligi bo‘lib, u harakatda ham, harakatsizlikda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

JK 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarga doir ishlar bo‘yicha shaxsning qilmishida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga nisbatan to‘g‘ri qasd (JK 21-moddasi) mavjudligi isbotlangan bo‘lishi shart.

JK 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning sub'ekti 16 yoshga to‘lgan, soliq solinadigan daromad (foyda)ga ega bo‘lgan va qonunga muvofiq davlat soliq organlariga daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etishga majbur bo‘lgan jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs) hisoblanadi.

JK 184-moddasida belgilangan javobgarlikka soliq to‘lovchi-yuridik shaxs rahbari va bosh (katta) buxgalteri yoki boshliq va bosh buxgalter vazifalarini amalda bajarayotgan xodimlari, shuningdek buxgalteriya, bank-moliya hujjatlarini tuzish, imzolash huquqiga ega bo‘lgan va buxgalteriya hujjatlariga daromad yoki xarajatlar to‘g‘risida soxta ma'lumotlar kiritgan yoxud soliq solinadigan boshqa ob'ektlarni yashirgan o‘zga xizmatchilari tortilishlari mumkin.

Qilmishni soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash sifatida JK 184-moddasining tegishli qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lgan soliq miqdorini pul summasida belgilashda, huquqbuzarlik tugallangan vaqtda amalda bo‘lgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqish lozim. Bunda SK 4-moddasi, MJtK 9-moddasi va JK 13-moddasi talablariga rioya etilishi shart.

Jinoyat kodeksi 184-moddasi beshinchi qismiga ko‘ra, birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini olgan kundan e'tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

JK 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marotaba sodir etgan, shu jumladan, mazkur modda bo‘yicha sudlanganligi tugallangan yoki olib tashlangan shaxs ushbu asoslarga ko‘ra javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxslar va ularning ayrim toifalari tomonidan sodir etiladigan soliqqa oid huquqbuzarliklar turlari va ularga nisbatan jinoiy javobgarlik masalalari O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining XII bobida belgilab qo‘yilgan.

Tayanch so‘z va iboralar:

Huquqbuzarlik, soliqqa oid huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, soliq oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik, sud tartibi, ma’muriy tartib, qasddan sodir etishi, sanksiya, moliyaviy sanksiyalar, ma’muriy huquqbuzarlik, ancha miqdor, ko‘p miqdor, juda ko‘p miqdor.

Nazorat savollari:

1. Soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik muddatlari o‘tib ketganda javobgarlikka tortish mumkinmi?

2. Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash kim(qaysi organ)ning zimmasiga yuklatilgan?

3. Soliq kodeksiga ko‘ra qanday holat soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat hisoblandi?

4. Soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari qo‘llanilgan shaxs qachon javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/14.2*)

Test savollari

1. Soliq kodeksiga ko‘ra jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun nechi yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin?

A) 16 yoshdan B) 14 yoshdan C) 18 yoshdan D) 13 yoshdan

2. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar va penyalarni to‘lash majburiyatidan ozod etadimi?

A) ozod etmaydi

B) ozod etadi

C) faqatgina penyalarni to‘lash majburiyatidan ozod etadi

D) faqatgina soliqlarni to‘lash majburiyatidan ozod etadi

3. Soliq kodeksiga ko‘ra soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holat qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

A) coliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi

B) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og‘ir kechishi oqibatida sodir etilishi.

C) tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi.

D) soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar yangi tahrirdagi Soliq kodeksida keltirilmagan.

4. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganlik ayb shakllari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

A) qasd, ehtiyotsizlik

B) to‘g‘ri qasd, beparvolik

C) o‘z-o‘ziga ishonish, beparvolik

D) ehtiyotsizlik, beparvolik

5. Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo‘lgan qilmishni tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etgan bo‘lsa javobgar bo‘ladimi?

A) javobgar bo‘lmaydi

B) qisman javobgar bo‘ladi

C) yengilroq javobgarlikka tortiladi

D) javobgarlikdan ozod etmaydi

6. Soliq kodeksiga ko‘ra qanday holat soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holat hisoblandi?

A) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og‘ir kechishi oqibatida sodir etilishi

B) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi

C) tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi

D) soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishni yengillashtiruvchi holatlar yangi tahrirdagi Soliq kodeksida keltirilmagan

7. Soliq kodeksiga ko‘ra shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatining davri qancha?

A) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran 5 yilgacha

B) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran 3 yilgacha

C) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran 1 yilgacha

D) soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran 2 yilgacha

8. Javobgarlikni yengillashtiruvchi bitta holat mavjud bo‘lgan taqdirda, soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun Soliq kodeksining tegishli moddasida belgilangan jarima miqdori qanchaga kamaytiriladi?

A) 2 marta kamaytiriladi

B) 3 marta kamaytiriladi

C) 4 marta kamaytiriladi

D) 5 marta kamaytiriladi

9. Soliq kodeksiga ko‘ra soliqqa oid huquqbuzarlik ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganda jarima miqdori necha barobar oshiriladi?

A) 2 barobar oshiriladi

B) 3 barobar oshiriladi

C) 4 barobar oshiriladi

D) 5 barobar oshiriladi

10.Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha kim qaror qabul qilishi mumkin?

A) Soliq organining rahbari yoki uning o‘rinbosari

B) Soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i va tekshiruvni o‘tkazgan xodim

C) Iqtisodiy ishlar bo‘yicha tuman sudining sudyasi

D) Soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i

XV-BOB. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH YO‘NALISHIDAGI DASTURIY MAHSULOTLAR

15.1-§. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» («Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi»-jismoniy) dasturiy mahsuloti va uning o‘ziga xos jihatlari

Davlat soliq qo‘mitasining 2011 yil 24 sentabrdagi WEB texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan «Jismoniy shaxslarning soliq solish ob’ektlarini hisobga olish» hamda «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy majmualarini davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etish to‘g‘risida»gi 270-sonli buyrug‘iga asosan dasturiy mahsulot joriy etilgan.

«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» va «Jismoniy shaxslarning soliq solish ob’ektlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotlarining mazmun-mohiyati bir ekanligi, farqi esa faqat Toshkent shahrida ob’ektlarga tayanganligi, qolgan barcha DSIlarda fuqarolar STIRlariga bog‘langanligini inobatga olib, ularni bir nom bilan, ya’ni «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlari» dasturiy mahsuloti deb yuritish maqsadga muvofiq deb topildi.

«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotini joriy qilish maqsadlari.

«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotini yaratishdan maqsad:

- mol-mulk, yer va yakka tartibdagi soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar to‘g‘risida (yashash manzili, soliq to‘lov ob’ekti, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va hokazo) to‘liq ma’lumotlar bazasini yaratish;
- mol-mulk va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni to‘liq hisobga olishni, soliqlarning hisoblanishi va budjetga o‘z vaqtida to‘liq undirilishini nazorat qilish;
- yakka tartibdagi tadbirkorlarning solig‘idan hisoblangan va to‘langan to‘lovlar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish va nazoratini olib borish;
- soliq inspektorlarining ish samaradorligini oshirish, ro‘yxatga olish bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘z hududidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha dasturiy mahsulotda soliq to‘lovchilarning ro‘yxatini olib, nazorat ishlarini amalga oshirish;

• DSXOlarida shakllantirilgan ma’lumotlar bazasini mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘limlari, yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlari, harbiy komissariyatlar, hokimiyatlar huzuridagi ro‘yxatga olish organlari, fuqarolik holatlariga dalolatnoma yozish bo‘limlari (FHDYo), notarial idoralaridagi mavjud ma’lumotlar bilan doimiy bir xil bo‘lishiga erishishdan iborat.

Dasturiy mahsulot ma’lumotlar bazasining shakllanish manbalari 37-rasmda ko‘rsatilgan.

Dasturiy mahsulot foydalanuvchilar uchun qator afzalliklarni yaratdi. Jumladan:

• tuman (shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida mol-mulk, yer va suv solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarning hisobga olinishini va to‘lovlarini to‘liq nazoratga olinishini ta’minlash;

• yakka tadbirkorlarga hisoblangan soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida undirilishi hamda vaqtinchalik faoliyatini to‘xtatganlik holatlarini qayd etilishi yuzasidan nazoratni kuchaytirish;

• soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning kitoblarda yuritilayotgan shaxsiy hisob varaqalarini ishlatmasdan dasturiy mahsulda yuritish evaziga soliq inspektorlarini qo‘shimcha soliq ob’ektlarini aniqlashga jalb qilish;

• hisobga olingan mol-mulk, yer va suv solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarga to‘lov xabarnomalarini dasturiy mahsulot orqali chiqarib berishni ta’minlash;

• muddatida to‘lanmagan soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq to‘lovchilarning ro‘yxatini olish hamda undirish choralarini ko‘rish;

• soliq to‘lovchilarga belgilangan imtiyozlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llanilishini ta’minlash;

• jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlarni, yig‘imlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri budjetga undirilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

• importyor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan tadbikorlar tomonidan respublikamiz hududiga olib kirgan tovar moddiy boyliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.



37-rasm. Ma’lumotlar bazasining shakllanish manbalari[172]

Dasturiy mahsulot ma’lumotlar bazasidan jismoniy shaxslarga taalluqli bo‘lgan barcha axborotlarni olish mumkin. Ya’ni:

- davlat soliq inspeksiyalarida hisobga olingan soliq to‘lovchilar, ularga tegishli bo‘lgan soliq ob’ektlari, hisoblangan soliqlar, to‘langan to‘lovlar, boqimanda va ortiqcha to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- viloyat hududidagi soliq inspeksiyalari miqyosida hisobga olingan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar soni, hisoblangan soliq summalari, undirilgan soliq summalari, qarzdorlik va ortiqcha to‘lovlar to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar;
- soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga berilgan soliq imtiyozlari, berilgan imtiyoz turlari, imtiyoz berilgan soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat turlari, ularga hisoblangan soliq summalari, mavjud qarzdorliklari hamda ortiqcha to‘lovlari to‘g‘risida umumiy ma’lumot;
- import tovarlarni olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, ular to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar;

[172] Mualliflar tomonidan tayyorlangan

- jismoniy shaxslarga egalik huquqi berilgan va tijorat maqsadida foydalanilayotgan xususiy ob'ektlar hamda ularning soliqqa tortilishi to‘g‘risidagi ma'lumotlar;
- soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning varaqasi (alohida har bir jismoniy shaxsning pasport ma'lumotlari, yashash manzili, egalik huquqi berilgan mol-mulk ob'ektining inventar bahosi, yer maydoni, tadbirkorlik faoliyatiga tegishliligi hamda soliq majburiyatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar) kabi ma'lumotlarni olish mumkin.

Dasturiy mahsulot natijaviy ma'lumotlari asosida mol-mulk, yer solig‘i to‘lovchilari hamda yakka tadbirkorlar sonini o‘tgan davrlarga nisbatan o‘zgarish dinamikasini, sabablarini hamda ularning budjetga to‘lagan to‘lovlari hajmidan kelib chiqib, o‘zgarishlarni tuman, (shahar) DSI lar miqyosida nazorat qilish, imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar ro‘yxatini doimiy ravishda tegishli idoralar bilan solishtirish hamda berilgan imtiyozlarning turlari, imtiyoz berilgan ob'ektlarning qiymati bo‘yicha tegishli tartibda ko‘rsatmalar berish imkoni tug‘iladi.

Dasturiy mahsulot ma'lumotlari asosida jismoniy shaxslarga egalik huquqi berilgan va tijorat maqsadida foydalanilayotgan xususiy ob'ektlar soni dinamikasi hamda ulardan undirilgan soliqlar hajmidan kelib chiqib, o‘zgarishlarni tahlil qilish, ro‘yxatga olingan tadbirkorlarning faoliyat turlari bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini doimiy tahlil qilib borishga imkon yaratiladi. Shuningdek, vakolatli idoralar bilan o‘tkazilgan solishtirishlar natijasida qo‘shimcha soliq ob'ektiga egalik huquqini qo‘lga kiritgan jismoniy shaxslarni hisobga olinishi va soliqqa tortilish dinamikasini tahlil qilish, o‘tkazilgan tahlillar natijasida aniqlangan holatlar bo‘yicha soliq qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritish va budjet parametrlarini belgilash bo‘yicha takliflar kiritish imkoni tug‘iladi.

Dasturiy mahsulot ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir o‘zgartirishlar kim tomondan amalga oshirilganligini elektron tarixini avtomatik ravishda saqlab qoluvchi tizim yaratildi.

Ma’lumotlar bazasi to‘liq shifrlandi va soliq qarzi yoki ortiqcha to‘lovlarni hisobotlarda yashirib ko‘rsatish holatlarining oldi olindi.

Dasturiy mahsulotning ishlash tezligi oshirildi, soliq hisoblash va saldolarni yildan-yilga o‘tkazish uchun ilgari qariyb 12 soat vaqt sarflangan bo‘lsa, hozirda ushbu operatsiyalar o‘rtacha 2-3 soat vaqt mobaynida amalga oshirilmoqda.

Ma’lumotlar bazasining daxlsizligini ta’minlash va unga asossiz aralashuvni cheklash maqsadida, har 15 kunda «parollar» avtomatik ravishda o‘zgarib turuvchi tizim yaratildi.

Soliq imtiyozlari bekor qilinganda imtiyoz muddati tugagan kundan boshlab dasturda avtomatik ravishda soliq hisoblanishi yo‘lga qo‘yildi.

«Jismoniy shaxslar» dasturiy mahsuloti tuzilmasi

«Jismoniy shaxslar» dasturiy mahsuloti quyidagi tuzilmaga ega.

1. Administrator - dasturiy majmuani boshqarish va foydalanuvchilarni kiritish.

2. *KLS*- Jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqalari bilan ishlash moduli.

3. Bank -Bank hujjatlarini kiritish bandi.

4. Registratsiya - Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish.

5. Akt proverok - Tekshirish dalolatnomalarini ro‘yxatga olish moduli.

6. Otchetы - DSIlar faoliyatini baholash va hisobotlarni shakllantirish menyusi.

7. Instruksiya - dasturiy mahsulot bilan ishlash uchun yo‘riqnoma.

Administrator aniq bir dasturda ishlaydigan har bir xodimga maxsus kodli parol orqali ma’lumotlarni kiritishiga yoki ko‘rishiga ruxsat beradi.

Bu modul orqali administrator barcha ma’lumotlarni yangi joriy hisobot yiliga to‘liq o‘tkazish (bunda barcha shaxsiy varaqalarning saldosi keyingi yilga o‘tkaziladi va shaxsiy varaqalar joriy yil uchun batamom tozalanadi.)

-Saldo hisoblash bandi orqali tanlangan sanaga barcha ShXVlar bo‘yicha saldo hisoblanadi va qolgan dasturlardagi qarzdorlik, penya, ortiqcha to‘lov,

tushum va hisoblangan soliq summalari bilan bog‘liq bo‘lgan hisobotlar shu sanadan kelib chiqib yaratiladi.

Ma’lumotnomalar bandi orqali – mahalliy, respublikaga tegishli bo‘lgan

yagona ma’lumotnomalar tizimiga kirish mumkin.

-Mahalliy ma’lumotnomalar quyidagilardan iborat:

1. DSIning soliq tushumlari hisob-raqamlari.
2. Uchastkalar.
3. Ko‘chalar.
4. Mahallalar.
5. DSI pasporti.

Bank modulini faqatgina bank hujjatlarini kirituvchi xodimga maxsus kodli parol orqali ma’lumotlarni kiritishga ruxsat beriladi.

Ushbu modul jismoniy shaxslardan kelib tushadigan pul mablag‘larini hisobga olish, ularni shaxsiy kartochkalarga kiritish uchun xizmat qiladi.

Bank hujjatlarini kiritish deganda jismoniy shaxslar tomonidan bank muassasalariga to‘langan barcha soliqlarning bank ko‘chirmalarini dasturiy mahsulotga kiritish tushuniladi.

Vыpiski iz banka oynasi –orqali jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanayotgan barcha soliq to‘lovlarining bank ko‘chirmalarni kiritish va shaxsiy hisob varaqalariga yuborish kabi vazifalarni bajarish mumkin.

Bu oynada jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanayotgan soliqlarning hisob raqamlari uch guruhga bo‘lingan, ya’ni:

- *Schet:20204-FRNO* soliq organlarini rivojlantirish fondi 1 ta schot;
- *Schet:20205*-budjetdan tashqari pensiya fondi 1 ta schet YaTT lar uchun;
- *Schet:23402*- budjet to‘lovlari uchun, 16 ta schet.

«Registratsiya» modulini faqatgina ro‘yxatga olish bilan ishlovchi ya’ni 1, 2, 3, 4-



ilovalar (38-rasm) hamda 16 - shakl hujjatlarini kirituvchi xodimga maxsus kodli parol orqali ma’lumotlarni kiritishga ruxsat beriladi.

38-rasm. «Jismoniy shaxslar» DM orqali yuritiladigan ilovalar

Modulning asosiy bandlari:

- 1-ilova;
- 3-ilova;
- 4-ilova;
- 16-shakl (Yakka tartibdagi tadbirkorlarning ma’lumotlari va soliqlarini qayd qilish varaqasi);
- 16-shakl (yillik);
- transport ma’lumotlari;
- bank ma’lumotlari;
- elektron arizalarni qabul qilish;
- soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish varaqalari;
- qidirish tizimi.

Qidirish tizimi *(Poiskovaya sistema)* yordamida soliq to‘lovchi jismoniy shaxsga tegishli ma’lumotlarni olish imkoniyati yaratilgan. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-qadam. Internet brauzeri ishga tushiriladi.

2-qadam. Yangi oynada 10.15.51.205 manzili yoziladi.

3-qadam. Foydalanuvchiga tegishli login, parol yoziladi.

4-qadam. Hosil bo‘lgan oynada ARM NI (fizicheskix.lis) tanlanadi.

5-qadam. Dasturiy mahsulot interfeysidan «*Registratsiya*» bandiga o‘tiladi. (39-rasm).



39-rasm. Dasturiy mahsulot interfeysidan «*Registratsiya*» bandiga o‘tish ko‘rinishi

6-qadam. Yangi hosil bo‘lgan oynada *«Poiskova sistema»* bandiga o‘tilib, jismoniy shaxsga tegishli familiya, ism ma’lumotlari kiritiladi. Noaniq harflar o‘rniga foiz **%** belgisidan foydalanish mumkin (40-rasm).



40-rasm. Qidirish tizimi

“Poisk” tugmasi bosilganda natija hosil bo‘ladi (57-rasm).



41-rasm. Dasturda jismoniy shaxslarga doir ma’lumotlarning ko‘rinishi

1, 3, 4-ilovalar hamda 16- shaklni kiritish oynalarida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olish (STIR berish), ro‘yxatga olingan fuqarolarni ro‘yxatga olish ma’lumotlarini o‘zgartirish, Mulk-Yer egalariga, Suvdan foydalanuvchilar, YaTMF bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilariga shaxsiy varaqalarni ochish va hisoblangan soliq summalarini shaxsiy varaqalarga olib borish amallari bajariladi

KLS (soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘i)moduli bilan ishlash uchun dasturiy mahsulotdan foydalanish uchun ruxsat berilgan har bir soliq inspektori o‘ziga berilgan login va parol orqali kirib ishlash imkoniyatiga ega.

KLS -modulining asosiy oynalari



Litsevые scheta– Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqalari bilan ishlash oynasi.

> ***Soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘i (ShH)****–soliq to‘lovchining soliq va yig‘im turlari bo‘yicha muayyan ma’muriy-hududiy birlikka nisbatan mavjud majburiyatlarini bajarilishi yuzasidan hisoblangan hamda to‘langan soliqlar va yig‘imlar summalarini, shuningdek penyalar va jarimalarni aks ettirgan holda budjet tizimiga tushumlar hisobini elektron shaklda yuritadigan hujjat.*

Soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020- yil 15- iyundagi 143-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq yuritiladi.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar (STJSh) va yakka tartibdagi tadbirkorlarning *shaxsiy hisobvarag‘i (ShH)* O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 89-moddasiga asosan budjet tasnifiga muvofiq har bir soliq to‘lovchi uchun alohida soliq majburiyatlaridan kelib chiqqan holda soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha ochiladi (42-rasm).

42-rasm. Shaxsiy hisobvaraq ochiladigan soliqlar va yig‘imlar turlari

Inkassovыe porucheniya – Soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga qo‘yilgan inkassa topshiriqnomalarining hisobini yuritish oynasi.

Platejnыe porucheniya - Soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlarning o‘zlari tomonidan qo‘yilgan to‘lov topshiriqnomalarini kiritish oynasi.

Zaklyuchenie GNI –ortiqcha to‘lovlarni qaytarish yoki boshqa soliq to‘lovlardan bo‘lgan qarzdorliklar uchun qoplash oynasi.

AKT sverka– Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy hisob varaqalaridan solishtirma dalolatnomasi olish oynasi.

Solishtirma dalolatnoma – soliq to‘lovchining majburiyatlari bajarilishi yuzasidan ma’lumotlarni tegishli soliq organi bilan ikki tomonlama solishtirib qog‘oz yoki elektron shaklda, imzo va muhr (agar mavjud bo‘lsa) yoxud elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjat.

Plateji - Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning soliq to‘lovlarini ko‘rish oynasi.

Dasturiy mahsulotning «Otchetы» moduli bilan ishlash

Ushbu menyu orqali tanlangan sanalarga quyidagi yo‘nalishlarda (keyinchalik hisobot turlari qo‘shilishi yoki kamayishi mumkin) hisobot shakllarini shakllantirish mumkin:

- Hududlarga biriktirilgan xodimlar faoliyatini baholash;
- jismoniy shaxslar bo‘yicha hisobot;
- budjetga undirilishi bo‘yicha tezkor ma’lumot;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘yicha;
- soliq qarzdorligi bo‘yicha hisobot;
- bank tushumlari bo‘yicha hisobot;
- soliq turlari kesimida hisobot;
- soliq turlari bo‘yicha hisobot (Toshkent sh.)
- boshqa hisobotlar.

DSQ tomonidan «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotiga o‘zgartirishlar kiritilib, oilaviy tadbirkorlik sub’ekti bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning shaxsiy kartochkalarida soliq summalarining to‘liq va to‘g‘ri aks ettirilishi ta’minlandi.

15.2. «Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuloti

«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuloti O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentabrdagi «Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3127-sonli Farmoni hamda Adliya vazirligida 2008 yil 21 yanvarda 1760-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq deklaratsiyasining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 11 fevraldagi 64-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan.

Davlat soliq qo‘mitasining 2014 yil 10 yanvardagi «Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsulotini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida»gi 12-sonli

buyrug‘iga asosan, Davlat soliq qo‘mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ishlab chiqilgan «Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsulotining zamonaviy web texnologiyasi asosida takomillashtirilgan varianti tajribaviy sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazilganligi munosabati bilan davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan.

«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuloti davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarning asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joylaridan olgan daromadlari haqidagi ma’lumotlarni kompyuter bazasiga kiritish, qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan natijalarni shaxsiy hisob varaqlarga o‘tkazish, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalarini, shuningdek barcha zaruriy hujjatlarni chop etish uchun mo‘ljallangan.

DSIlarda jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari haqidagi ma’lumotlar dastur yordamida kompyuter bazasiga kiritiladi va Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash markaziga yuboriladi. Ushbu yuborilgan ma’lumotlar avtomatik ravishda saralanib, jismoniy shaxslarning yashash manziliga qarab tegishli DSIlarga yetkazib beriladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslardan soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va uni dasturiy mahsulga kiritishning asosiy maqsadi va vazifasi soliq to‘lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda saqlash, soliq to‘lovchilar ustidan vertikal nazoratni o‘rnatish hamda tahlil qilishni soddalashtirish va qulaylashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsuloti orqali qabul qilish sarf xarajatlarni kamaytirishga va davlat soliq xizmati hamda deklarantlarning vaqtini tejab, soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan axborot xizmatlari sifatini oshirish, soliq to‘lovchi hamda soliq organlarining o‘zaro munosabatlarida sub’ektiv aralashuvlarga chek qo‘yish imkoniyatini beradi.

Jismoniy shaxslar tomonidan qabul qilib olingan soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsulga kiritilishi elektron bazaning shakllantirilishini ta’minlaydi.

Soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, axborot tizimiga kiritish va qayta ishlash bo‘yicha xizmatning tarkibi jismoniy shaxslarning daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilish, axborot tizimiga kiritish va qayta ishlash xizmatlarini web texnologiyalari orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, axborot tizimiga kiritish va qayta ishlash xizmatining mazmuniga quyidagilar kiradi:

soliq organlari tomonidan soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, ro‘yxatga olish, axborot tizimiga kiritish va qayta ishlash;

elektron hujjat ko‘rinishida soliq deklaratsiyalarini yuborgan soliq to‘lovchilarga, ularni qabul qilinganligi yuzasidan tasdiqnoma yuborish;

belgilanmagan shaklda taqdim etilgan hisobotlar yuzasidan yozma bildirishni jo‘natish;

soliq to‘lovchi tomonidan, yozma bildirish olingandan so‘ng, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyalarini qaytadan to‘g‘ri shakllantirish va o‘rnatilgan tartibda soliq idoralariga taqdim etilishini nazoratga olish va axborot tizimiga belgilangan tartibda kiritish;

taqdim etilgan deklaratsiyani amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlar davomida saqlash.

Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, axborot tizimiga kiritish va qayta ishlash bo‘yicha xizmatlar Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy web portali orqali amalga oshiriladi.

Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy web portalida soliq to‘lovchilariga tasdiqlangan shakllardagi soliq deklaratsiyalarini elektron ko‘rinishda shakllantirishda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozimligi ko‘zda tutilgan:

soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;

soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlar turlarga ajratib ko‘rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni

ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o‘zidan olish mo‘ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);

daromadlarning manbalari;

daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar, majburiy to‘lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;

jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar;

hisoblab chiqarilgan soliq summasi;

haqiqatda to‘langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilgan.

Dasturiy mahsulotdagi soliq deklaratsiyalarining himoyasini ta’minlash maqsadida kriptografiya himoya vositalari qo‘llaniladi.

Soliq deklaratsiyasini axborot tizimiga kiritilgan bekor qilib bo‘lmaydigan vaqt soliq deklaratsiyasini taqdim etish sanasi va vaqti hisoblanadi.

Soliq deklaratsiyasining axborot tizimiga kiritilgan vaqti, Davlat soliq qo‘mitasining dasturiy-apparat vositalari mazkur ma’lumot dasturiy mahsulga kiritilgan sana va vaqtni ko‘rsatgan holda avtomatik tarzda tasdiqlanishini ta’minlaydi.

Soliq deklaratsiyalarini axborot tizimiga kirituvchi mas’ul xodimlar soliq to‘lovchilardan qabul qilingan ma’lumotda quyidagilarning mavjudligini tekshiradilar:

ma’lumotlar to‘liqligini;

ma’lumotning barcha majburiy rekvizitlari (soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamlari, yuridik manzili, sanalar va shu kabilarning) to‘ldirilganligini;

ma’lumotdagi shakllarda nazarda tutilgan barcha ko‘rsatkichlarni to‘ldirishini, agarda mavjud bo‘lmagan holda bu modda ("x" belgi bilan) qo‘yilganligini.

Ma’lumotga doir e’tirozlar bo‘lmagan taqdirda mas’ul shaxs hisobot kuniga hisoblangan soliq to‘lovlari summasini soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasiga o‘tkazadi.

Soliq deklaratsiyasini qabul qilinganligi haqida davlat soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan imzolangan holda dasturiy mahsulotdan chop etilgan ma’lumotning bir nusxasi soliq to‘lovchiga taqdim etiladi.

Davlat soliq inspeksiyasining soliq deklaratsiyalarini qabul qiluvchi mas’ul xodimi tomonidan deklarant soliq deklaratsiyasi taqdim etilgandan so‘ng, ma’lumot davlat soliq inspeksiyasida yuritiladigan «Soliq deklaratsiyalarini ro‘yxatga olish jurnali»ga bir kun muddatda qayd qilinadi.

15.3.«Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilishning asosiy maqsadlari, uning yordamida shakllantiriladigan ma’lumotlar

WEB texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan «Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» AAT O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 15 iyuldagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan «Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom asosida, davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulklarning harakatini to‘liq nazoratini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.



«Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» AAT DSQning 2012 yil 14 iyuldagi 65-sonli buyrug‘iga asosan amaliyotga joriy etilgan.

Ushbu AATni joriy qilishning asosiy maqsadlari:

- davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni hisobga olish, baholash, ekspertizadan o‘tkazish va sotishdan tushgan mablag‘larini budjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini nazorat qilish;
- qonunbuzarlardan olingan tovar-moddiy boyliklarning harakati to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish;

- qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan shaxslar hamda fuqarolar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish;
- sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatdan va moliyaviy ta’minlash departamentining tegishli bo‘limlari tomonidan sotilgan hamda depozit hisob raqamga kelib tushgan mablag‘larning taqsimlanishi to‘g‘risida taqdim etiladigan ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- vakolatli organlar tomonidan davlat organlariga tekinga berilgan mol-mulklar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- sotuvdan tushgan mablag‘larning davlat budjetiga undirilishi to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotga ega bo‘lishdan iborat.

AATda shakllangan axborotlar oyma-oy o‘sib boruvchi tartibda jamlanib, qo‘yidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi:

- olingan tovarlarga rasmiylashtirilgan dalolatnoma (sanasi, ro‘yxatga olingan raqami) va undagi ma’lumotlar;
- olingan tovarlarni tegishli idoralarda o‘z vaqtida baholanganligi va ekspertizadan o‘tkazilib, natijasi to‘g‘risidagi xulosalar;
- mol-mulklarni davlat daromadiga o‘tkazish uchun hujjatlarni sudga taqdim etilganligi haqida;
- yirik miqdorda olingan yoki jinoyat alomati mavjud bo‘lgan tovarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilganligi haqida;
- DSI tomonidan tovarlarning egasiga qaytarilishi, sudga berilishi haqida;
- sud idoralari tomonidan tovar moddiy boyliklarni egasiga qaytarilishi, yo‘q qilinishi va davlat daromadiga o‘tkazilishi haqida;
- sud ijrochilari bo‘linmalaridan olingan hisobotlar asosida organlar bo‘yicha tovarlarning sotilishidan tushgan mablag‘larning taqsimlanishi, sotilmasdan turgan tovar moddiy boyliklar to‘g‘risida;
- sud ijrochilari bo‘linmalaridan olingan hisobotlar asosida vakolatli organlar tomonidan davlat organlariga tekinga berilgan tovar moddiy boyliklari to‘g‘risida;

• tuman va shahar DSIlari bo‘yicha taqdim etilgan hisobotlarni o‘tgan davrlar (oylik, choraklik, 6 oylik, 9 oylik va yillik) bilan taqqoslash haqida;

• har bir organ bo‘yicha savdo tashkiloti tomonidan qabul qilingan mol-mulkka talab bo‘lmaganda va 30 kun mobaynida belgilangan narxda sotilmaganda, mol-mulklar qiymatining kamayishi haqida tahliliy ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

AATda jamlangan ma’lumotlar asosida belgilanadigan chora-tadbirlar:

Jamlangan ma’lumotlar asosida solishtirma, tahlil va nazorat o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar belgilanadi:

•jami vakolatli organlar tomonidan olingan tovar moddiy boyliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olib, tumanlar kesimida tahlil qilish;

•jami olingan tovar moddiy boyliklarni turlari bo‘yicha hisobotning o‘tgan davri bilan tahlil (o‘tgan oyga yoki chorakka nisbatan) qilish;

•soliq xizmati organlari tomonidan olingan tovar-moddiy boyliklarning o‘tgan davr bilan tahlili (o‘tgan oyga va chorakka nisbatan) viloyatlar ko‘rinishida tahlil qilish;

•vakolatli organlar bo‘yicha olingan ma’lumotlarni o‘tgan davr bilan tahlil (o‘tgan oyga yoki chorakka nisbatan) qilish;

•olib qo‘yilgan mol-mulklarni o‘z vaqtida baholanganligini, ekspertizadan o‘tkazilganligini va tovarlar hujjatlarini sud idoralariga taqdim etilganligini nazorat qilish;

•davlat daromadiga o‘tkazilgan tovar moddiy boyliklarining o‘z vaqtida sotilishini va sotuvdan tushgan mablag‘larning tegishliligicha taqsimlanishini nazorat qilish;

•noqonuniy sotilayotgan tovar-moddiy boyliklarning kam olinayotganligini tahlil qilib, tegishli choralar belgilash;

•mol-mulklar sotuvidan tushgan mablag‘larni budjetga o‘z vaqtida o‘tkazmaslik va kam o‘tkazish holatlarini tahlil qilib, tegishli choralar belgilash.

Qonunbuzarlardan olingan tovar-moddiy boyliklar harakati to‘g‘risida olib borilayotgan ishlar yuzasidan Prokuratura, Davlat bojxona qo‘mitasi, Ichki ishlar

vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati organlari bilan ma'lumotlar bazasi orqali respublika miqyosida o‘zaro elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish natijasida:

- ma'lumotlarning bir xilligini ta'minlash;
- axborot almashinuvi tezkorligini ta'minlash;
- soliq organlari va vakolatli organlarning quyi bosqichlari tomonidan olib borilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlarini belgilab berish va ularning faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish;
- eng asosiysi, qonunbuzarlardan olingan tovar-moddiy boyliklarning harakati to‘g‘risida elektron shakldagi ma'lumotga ega bo‘lishga erishiladi.

15.4. «YaTT hisoboti», «Davlat boji», «Veb so‘rov», «Pensiya badali» avtomatlashtirilgan axborot tizimlari

Ma'lumki, soliq tizimida internet tarmog‘idan keng miqyosda foydalangan holda xizmatlar ko‘rsatilishini ta'minlash maqsadida, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish ishlari tashkil etilib, bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida, qo‘shimcha imtiyozlar joriy etilgan.

«Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash» AAT DSQning 2013 yil 24 apreldagi «Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron qabul qilish va qayta ishlash interaktiv davlat xizmatini ko‘rsatish reglamentini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to‘g‘risida»gi 160-sonli buyrug‘iga asosan joriy etilgan.

DSQning 2013 yil 24 apreldagi buyrug‘iga asosan tasdiqlangan Reglament O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4453-sonli Farmoniga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatiladigan yakka tartibdagi

tadbirkorlardan soliq hisobotlarini elektron qabul qilish va qayta ishlash interaktiv davlat xizmatining tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

Reglamentda interaktiv davlat xizmatining tarkibi, mazmuni, xizmat koʻrsatish turi/shakli va usuli, kutilayotgan natija, xizmat koʻrsatish muddati va boshqa qoidalar ifodalangan.

Interaktiv davlat xizmatining tarkibi chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi, shu jumladan chetdan tijorat faoliyati uchun moʻljallangan tovarlarni olib keluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisobotlarni elektron koʻrinishda joʻnatish, qabul qilish va qayta ishlash xizmatlarini web texnologiyalari orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Interaktiv davlat xizmatining mazmuni quyidagilardan iborat:

yakka tartibdagi tadbirkorlarning elektron soliq hisobotlarini shakllantirish, elektron raqamli imzo bilan imzolash, shifrlash va elektron hujjat koʻrinishida soliq idoralariga joʻnatish;

davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarning elektron soliq hisobotlarini qabul qilish, roʻyxatga olish va qayta ishlash;

soliq hisobotlarini elektron hujjat koʻrinishida yuborgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, hisobotlar qabul qilinganligi yoki rad etilganligi yuzasidan tasdiqnoma yuborish;

rad etilgan soliq hisobotlarini qayta toʻgʻri shakllantirish va oʻrnatilgan tartibda elektron hujjat koʻrinishida davlat soliq xizmati organlariga joʻnatish;

elektron koʻrinishda taqdim etilgan hisobotlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida saqlash.

«Davlat boji» AAT

Davlat boji boʻyicha hisobot shakllarini elektron tarzda topshirish yuzasidan texnik topshiriq Oʻzbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi toʻgʻrisida», «Elektron raqamli imzo toʻgʻrisida»gi Qonunlari, Davlat soliq qoʻmitasining 2014 yil 25 fevraldagi 505-IF va 3 apreldagi 848-IF-sonli topshiriqlari asosida ishlab chiqilgan.

«Davlat boji boʻyicha hisobotlarni elektron topshirish» interaktiv davlat

xizmati ma’lumotlari asosida «Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi» dasturiy mahsulotida davlat boji bo‘yicha respublika, viloyat va tuman(shahar)lar pog‘onasida ma’lumotlar chiqarilishini yo‘lga qo‘yilishi Davlat soliq qo‘mitasining 2014 yil 3 iyuldagi 03/2-99-sonli buyurtmasi hamda 2014 yil 1 iyulda tasdiqlangan texnik topshiriq asosida ishlab chiqilgan.

«Davlat boji» AAT davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlarning to‘liq hisobini yuritish, ular tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va ayrim turdagi faoliyatlarni litsenziyalash uchun undiriladigan davlat boji bo‘yicha hisobot shakllarini elektron shaklda qabul qilish tartibini joriy etish hamda vakolatli organlarga hisobotlarni taqdim etishda qulayliklar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

«Davlat boji» AATga kiritiladigan ma’lumotlar.

«Davlat boji» AATda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida» qaroridagi «Davlat boji bo‘yicha soliq hisoboti shakllari»dan foydalaniladi. Davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan boj bo‘yicha hisobot shakllari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar;
- davlat boji tushumlari bo‘yicha hisobot.

Hisobotda davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar to‘ldirilishi lozim:

STIR;

hujjat turi;

hisobot davri (chorak);

soliq davri (yil);

davlat boji undiruvchi vakolatli organ va tashkilotning to‘liq nomi;

davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma (reestr raqami);

davlat organining joylashgan manzili;

pochta manzili;

telefon raqami;

tuzilgan hisob-kitoblar, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar, yoki ularning nusxalari varaqlari soni;

o‘lchov birligi (so‘m);

hisobot taqdim etish muddati (kun, oy, yil);

hisobot taqdim etiladigan davlat soliq xizmati organining nomi (masalan, Toshkent shahar Yakkasaroy tumani DSI);

davlat boji undiruvchi vakolatli organ va tashkilot rahbarining STIRi;

davlat boji undiruvchi vakolatli organ va tashkilot rahbarining FIO;

davlat boji undiruvchi vakolatli organ va tashkilot bosh hisobchisining STIRi;

davlat boji undiruvchi vakolatli organ va tashkilot bosh hisobchisining FIO;

hisobot tasdiqlangan sana.

Elektron soliq hisobotining davlat boji tushumlari bo‘yicha hisobotida quyidagi ma’lumotlar to‘ldirilishi lozim:

STIR;

davlat boji undiruvchi organ va tashkilotning nomi;

tartib raqami;

amalga oshirilgan xarajatlar nomi;

amalga oshirilgan xarajatlar soni;

undirilgan davlat boji summasi;

shundan budjetga o‘tkazilgan davlat boji summasi;

o‘z ixtiyorida qoldirilgan davlat boji summasi;

hisobotda ko‘rsatilgan axborotni ochib berish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar;

amalga oshirilgan harakatlar soni, undirilgan, shundan, budjetga o‘tkazilgan va o‘z ixtiyorida qoldirilgan davlat boji summalarining jami.

Davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan elektron hisobotlarga asosan undirilgan va budjetga o‘tkazilgan davlat boji summalari to‘g‘risida vazirlik va idoralar kesimida ma’lumot shakllantiriladi.

Davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan taqdim

etilgan elektron hisobotlarga asosan undirilgan va budjetga o‘tkazilgan davlat boji summalari to‘g‘risida vazirlik va idoralar kesimida ma’lumotni shakllantirishda ma’lumotlar bazasidagi istalgan vazirlikni qo‘shish va o‘chirish imkoniyati yaratilgan.

Davlat boji undiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan elektron hisobotlarga asosan undirilgan va budjetga o‘tkazilgan davlat boji summalari to‘g‘risida to‘lov turlari kesimida ma’lumotlarni shakllantirishda davlat boji turlarini qo‘shish va o‘chirish imkoniyati yaratilgan.

«Veb so‘rov» AAT

Davlat soliq qo‘mitasining Texnik boshqarmasi Soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlar ko‘rsatish shu’basi, Jismoniy shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi va ichki ishlar organlari hamda Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazining 2014 yil 15 noyabrdagi 128/2014-sonli dalolatnomasiga asosan, «Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar haqida ma’lumot» (Veb so‘rov) interaktiv davlat xizmati ma’lumotlari asosida respublika, viloyat va tuman(shahar)lar pog‘onasida ma’lumotlarning chiqarilishini yo‘lga qo‘yilishi test sinovidan o‘tkazildi.

«Veb so‘rov» axborot tizimidan foydalanish uchun brauzerning manzillar qatoriga 10.15.52.20 IP manzil kiritiladi.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxs haqida ma’lumot olish uchun jismoniy shaxs ma’lumotlarini Davlat soliq qo‘mitasi bazasidan yoki Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlar bazasidan qidiriladi. Jismoniy shaxs ma’lumotlarini Davlat soliq qo‘mitasi bazasidan qidirishda soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning STIR, F.I.Sh. va pasporti ma’lumotlari yozilib «Qidirish» tugmasi bosiladi.

Ichki ishlar vazirligida berilgan pasport ma’lumotlari har kuni avtomatik ravishda Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasiga kelib tushadigan yangi mexanizm ishga tushirilgan. Barcha biometrik va eski turdagi pasport ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan.

«Veb so‘rov» AAT soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar haqida tezkor ma’lumot olish imkoniyatini yaratib, davlat soliq xizmati organlari ish jarayoni

samaradorligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

«Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash» AAT

2010 yilda fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkazilayotgan ajratmalar hisobini yuritish ishlarini avtomatlashtirish maqsadida, Xalq bankidan tushumlar haqidagi ma’lumotlarni (bank vыpiskalarini) aloqa kanali orqali elektron shaklda olish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu ma’lumotlarni qayta ishlash uchun «Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari tushumlarini qayta ishlash» axborot tizimlari yaratildi va Respublika bo‘yicha tajribaviy ishga tushirildi.

Davlat soliq qo‘mitasining 2013 yil 25 iyuldagi «Davlat soliq qo‘mitasining 2010 yil 20 iyuldagi «Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash» dasturiy mahsulini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida»gi 205-sonli buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish haqida»gi 299-buyrug‘i bilan «Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash» dasturiy mahsulidan foydalanish bo‘yicha reglament yangi tahrirda tasdiqlandi.

Reglament O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 iyundagi «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-110-sonli qarori, Adliya vazirligida 2005 yil 6 oktabrda 1515-son va 2010 yil 4 iyunda 2111-son bilan ro‘yxatga olingan Nizomlar hamda 2011 yil 21 oktabrdagi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat-tijorat Xalq banki boshqaruvining qo‘shma ko‘rsatmasiga asosan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan o‘tkazilgan kunlik Jamg‘arib boriladigan pensiya badali tushumlarini qabul qilish va ularni shaxsiy kartochkalarga kiritish tartibini belgilaydi.

«Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kunlik tushumlarini qayta ishlash» AAT yordamida O‘zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki va Davlat soliq qo‘mitasi o‘rtasida tasdiqlangan qo‘shma ko‘rsatmaga asosan Xalq banki tomonidan Davlat soliq qo‘mitasiga taqdim etib kelinayotgan jamg‘arib

boriladigan pensiya badali to‘g‘risidagi ma’lumotlar aloqa tarmog‘i orqali qo‘mitaning AKT boshqarmasiga kelib tushib, avtomatlashgan holda Davlat soliq qo‘mitasining yagona ma’lumotlar bazasiga yuklanadi, shundan so‘ng inson omili aralashmagan holda, hududiy davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi sifatida bir hududda ro‘yxatdan o‘tib, shu hududga to‘lov amalga oshirgan korxonalar tushumi to‘g‘risida avtomatik tarzda yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki tomonidan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tushumi to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus aloqa kanali orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda (bank ish kunlarida) kuniga bir marotaba Davlat soliq qo‘mitasiga yetkazib beriladi.

15.5-§. Jismoniy shaxslarga ko‘rsatilayotgan soliq tizimidagi interaktiv xizmatlar va ularning imkoniyatlari

Bugungi kunda, davlat soliq qo‘mitasining 46 ta elektron davlat xizmatlari, shu jumladan 21 ta interaktiv va 25 ta axborot xizmatlari elektron soliq xizmatlari my.soliq.uz portaliga joylashtirilgan. Elektron davlat xizmatlarining turlari 43-rasmda keltirilgan.



43-rasm. Elektron davlat xizmatlarining turlari[173].

[173] Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

Portalda soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq barcha masalalarni elektron shaklda hal etishga mo‘ljallangan jismoniy shaxslarning «shaxsiy kabinet»lari yanada qulay ko‘rinishda qayta ishlab chiqilgan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun alohida «shaxsiy kabinet» joriy etilgan.

Portalda soliqlarni mustaqil ravishda hisoblab chiqarish, hisobot va soliq deklaratsiyalarini yuborish, rasmiy tushuntirishlar va ma’lumotnomalar (spravka) olish mumkin. Shuningdek, korxonaning hisob raqamiga qo‘yilgan inkasso topshiriqnomalari ro‘yxati bilan tanishish, soliqlarni onlayn rejimida to‘lash, korxonaga yuborilgan ogohlantirish xabarnomalari to‘g‘risida tezkor xabardor bo‘lish, fuqarolarga hisoblangan sug‘urta badallarini ko‘rish kabi yangi imkoniyatlar yaratilgan.

Jumladan, portal yordamida tadbirkorlik subektlari barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni onlayn rejimida to‘lashlari mumkin. Buning uchun elektron raqamli imzo kaliti orqali shaxsiy kabinetga kirib, soliq turini tanlash va to‘lov summasini ko‘rsatib, «to‘lash» tugmasini bosish kifoya. Korxonaning elektron to‘lov topshiriqnomasi bankka avtomatik ravishda yetkaziladi va shu zahotiyoq to‘lov amalga oshirilib, soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasiga qayd etiladi. Agar hisob-raqamda pul miqdori yetarli bo‘lmasa, to‘lov topshiriqnomasi 2-sonli kartotekaga joylashtirilib, bu haqda Davlat soliq qo‘mitasiga elektron xabarnoma yuboriladi. Mazkur to‘lov tizimi 24 soat davomida uzluksiz va bepul ishlaydi.

Portalda joriy etilgan yana bir xizmat «Fuqarolarga hisoblangan sug‘urta badallari» deb nomlanib, unda ish beruvchilar tomonidan har bir jismoniy shaxs uchun hisoblangan sug‘urta badallari to‘g‘risidagi axborotlar taqdim etiladi. Ushbu xizmat yordamida jismoniy shaxslar o‘ziga hisoblangan sug‘urta badallari miqdorini portal orqali ko‘rib, nazorat qilib borish imkoniyati yaratilgan.

Shuningdek, zamonaviy smartfon va planshetlar uchun foydalanishga mo‘ljallangan «Soliq» mobil ilovasi yordamida Davlat soliq qo‘mitasining 15 turdagi interaktiv xizmat turlaridan tez, oson va qulay shaklda foydalanish

mumkin. DSXO tomonidan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlaridan foydalanish manbalari 44-rasmda keltirilgan.

44-rasm. DSXO tomonidan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlaridan foydalanish manbalari[174]

Soliq to‘lovchilarning toifasi va joylashgan joyidan qat’iy nazar barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Fuqarolar tomonidan Jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi uchun tadbirkorlik sub’ektlarining soliqqa oid huquqbuzarliklari to‘g‘risida xabar qilish imkonini beruvchi veb-portal ishga tushirilgan. «Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini elektron tarzda hisobga qo‘yish va to‘lov xabarnomasini shaxsiy kabinetga yuborish» va «Fuqarolarning hisoblangan ish haqi summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish» elektron davlat xizmatlari ishga tushirilgan.

Shaxsiy kabinetlarda soliq organlari bilan barcha yozishmalar va xabarlar alohida blokda yig‘iladi. Shaxsiy kabinetga kirganda budjet va budjetdan tashqari munosabatlar bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etiladi.

Shaxsiy kabinetda mavzuga oid xizmatlar qulay navigatsiyali bloklarga ajratilgan. Jumladan «Shaxsiy ma’lumotlar», «Hisob kitoblarning joriy holati», «Soliq organlari bilan yozishmalar», «Foydali ma’lumotlar».

Soliq to‘lovchi va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish uchun «Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinet»lari takomillashtirilgan va yangi funktsiyalar bilan to‘ldirilgan.

[174] Mualliflar tomonidan tayyorlangan

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda tadbirkorlik sub'ektlari va fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni bankka bormasdan «Click», «Payme» va «Upay» to‘lov tizimlari yordamida mobil telefon yoki internet orqali onlayn rejimida to‘lash imkoniyati yaratilgan.

Ushbu to‘lov tizimlaridan foydalanish fuqarolar uchun bepul va amalga oshirilgan to‘lovlar uchun komission to‘lov olinmaydi. Shuningdek, to‘langan soliqlar haqidagi ma'lumotlar soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalariga avtomatik ravishda qayd qilinadi.

Jismoniy shaxslar «Click», «Payme» va «Upay» to‘lov tizimlarining internetdagi sayti yoki mobil ilovasi, «SOLIQ» mobil ilovasi, tijorat banklari mobil ilovalari hamda Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti yordamida mol-mulk, yer, daromad (deklaratsiya) soliqlarini, hisoblangan penyalar hamda jarimalarni to‘lash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan rezident va norezident shaxslar oylik ish xaqlaridan ushlangan daromad solig‘i to‘g‘ri hisoblanishi va mavjud imtiyozlardan foydalangan holda ushlab qolinadigan badallar to‘g‘risida ma'lumotni «Daromad solig‘i kalkulyatori» elektron davlat xizmati orqali olishlari mumkin.

«Mol-mulk solig‘i kalkulyatori» elektron davlat xizmati orqali jismoniy shaxslar mustaqil ravishda o‘zlarini egaligidagi mol-mulk soliqlari xisobini chiqarishlari va amaldagi mavjud imtiyozlardan foydalana olishlari mumkin.

«Yer solig‘i kalkulyatori» elektron davlat xizmati orqali jismoniy shaxslar o‘zi qarmog‘ida bo‘lgan yer solig‘ini xisoblab chiqishlari va imtiyozlar xaqida ma'lumot olishlari mumkin.

«Suv solig‘i kalkulyatori» elektron davlat xizmati orqali jismoniy shaxslar mustaqil ravishda suv resurslaridan foydalanganlik uchun suv solig‘ini xisobini chiqarishlari va amalda mavjud imtiyozlardan foydalana olishlari mumkin.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsga davlat soliq xizmati organlariga tashrif buyurmasdan mustaqil ravishda o‘z identifikatsiya raqami (STIR) to‘g‘risida

ma’lumot olish hamda Davlat soliq qo‘mitasida ro‘yxatga olinganligi va unga STIR berilganligi to‘g‘risida guvohnomani shakllintirib chop etish imkoniyatlari berilgan.

Chop etilgan guvohnoma barcha so‘ralgan korxona va tashkilotlarga taqdim etilishi mumkin. Ushbu tashkilotlar guvohnomaning haqiqiyligini tekshirib olish imkoniyatlari mavjud.

Portal orqali ko‘rsatilayotgan elektron davlat xizmatlari jismoniy shaxslarning vaqti va xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ortiqcha ovoragarchiliklarni oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Elektron davlat xizmatlaridan foydalanish tizimining rivojlanayotgani aholining ham vaqti, ham naqdi tejalishiga, ish unumining ortishi va turmush farovonligiga xizmat qilmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, shaxsiy kabinet, elektron davlat xizmati, axborot davlat xizmati, interaktiv davlat xizmati, «SOLIQ» mobil ilovasi.

Nazorat savollari

1. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotining qanday asosiy modullari bor?
2. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsuloti qanday maqsadlarda joriy qilingan?
3. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotining ma’lumotlar bazasi qanday shakllanadi?
4. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotining ma’lumotlar bazasi asosida qanday tahliliy ishlarni olib borish mumkin?
5. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotining afzalliklari nimadan iborat?

6. «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy mahsulotining Registratsiya moduli orqali qaysi shakl ilovalar yuritiladi?

7. «Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuloti qanday vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan?

8. «Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

9. «Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qanday ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati yaratilgan?

10. «Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali jamlangan ma’lumotlar asosida solishtirma, tahlil va nazorat qilish natijalari bo‘yicha qanday chora-tadbirlar belgilanadi?

11. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qanday interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatiladi?

12. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qanday axborot davlat xizmatlari ko‘rsatiladi?

13. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlaridan qaysi manbalar orqali foydalanish mumkin?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

(Test savollari: *http://fiin.uz/O‘quv-materiallari/Darslik va o‘quv qo‘llanmalar/Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish/15.1*)

Test savollari

1. «SI AIJ jismoniy» dasturiy mahsulotining qaysi modulida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar ma’lumotlari bo‘yicha qidiruv tizimi (poiskovaya sistema) bandi kiritilgan?

A) Registratsiya B) Administrator C) KLS D) Bank

2. «SI AIJ jismoniy» dasturiy mahsulotining qaysi moduli orqali soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning ro‘yxatga olish ma’lumotlaridagi o‘zgarishlar kiritiladi?

A) Registratsiya B) Administrator C) KLS D) Bank

3. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsni ro‘yxatga olish qaysi ilovada qayd qilinadi?

A) 1-ilovada B) 2-ilovada C) 3-ilovada D) 4-ilovada

4. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning ro‘yxatga olish ma’lumotlaridagi o‘zgarishlar qaysi ilovada qayd qilinadi?

A) 3-ilovada B) 2-ilovada C) 1-ilovada D) 4-ilovada

5. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga olish qaysi ilovada qayd qilinadi?

A) 4-ilovada B) 2-ilovada C) 1-ilovada D) 3-ilovada

6. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxsga STIR berilganligi to‘g‘risida guvohnoma qaysi ilovada qayd qilinadi?

A) 2-ilovada B) 4-ilovada C) 1-ilovada D) 3-ilovada

7. «SI AIJ jismoniy» dasturiy mahsulotining qaysi moduli orqali soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga soliq majburiyatlari bo‘yicha solishtirma dalolatnoma shakllantirish imkoniyati yaratilgan?

A) Akt sverka B) Administrator C) KLS D) Bank

8. «SI AIJ jismoniy» dasturiy mahsulotining qaysi moduli orqali soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar ro‘yxatga olinadi?

A) Registratsiya B) Administrator C) KLS D) Bank

9. «SI AIJ jismoniy» dasturiy mahsulotining qaysi moduli orqali soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning shaxsiy hisobvaraqalari bilan ishlash imkoniyati yaratilgan?

A) KLS B) Administrator C) Registratsiya D) Bank

10. «SI AIJ jismoniy» dasturiy mahsulotida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ma’lumotlari va soliqlari qaysi shaklda yuritiladi?

A) 16-shakl B) 15-shakl C) 10-shakl D) 11-shakl

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati
O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasining kodekslari va qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.

4. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.

5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.

6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2021 yil.

7.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida. O‘RQ-657-son, 2020 yil 25 dekabr.

8. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. «2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. O‘RQ-699-son, 2019 yil 30 dekabr.

9.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida. 604-I-son, 1998 yil 30 aprel.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-3127-son, 2002 yil 5 sentabr.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-4725-son, 2015 yil 15 may.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5242-son, 2017 yil 17 noyabr.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘risida. PF-5270-sonli, 2017 yil 1 dekabr.

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir

martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida. PF-5421-son, 2018 yil 20 aprel.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik sub’ektlarni tugatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5739-son, 2019 yil 7 iyun.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5755-son, 2019 yil 27 iyun.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish,tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida. PF-5780-son, 2019 yil 13 avgust.

18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5813-son, 2019 yil 6 sentabr.

19.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF–5969-son, 2020 yil 19 mart.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF–5978-son, 2020 yil 3 aprel.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF–5986-son, 2020 yil 27 aprel.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-5996-son, 2020 yil 18 may.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-6002-son, 2020 yil 28 may.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Alohida soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish to‘g‘risida. PF-6011-sonli, 2020 yil 19 iyun.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik sub’ektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6029-son, 2020 yil 20 iyul.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-6098-son, 2020 yil 30 oktabr.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. PF-6121-son, 2020 yil 3 dekabr.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6243-son, 2021 yil 8 iyun.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida. PQ-2646-son, 2016 yil 28 oktabr.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-2660-son, 2016 yil 22 noyabr

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-2018 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanini iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-2803-son, 2017 yil 28 fevral.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-3301-son, 2017 yil 29 sentabr.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3651-son, 2018 yil 5 aprel.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3856-son, 2018 yil 14 iyul.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-4389-son, 2019 yil 10 iyul.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-4539-sonli, 2019 yil 28 noyabr.

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4742-sonli, 2020 yil 8 iyun.

38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4819-son, 2020 yil 7 sentabr.

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2020-2023 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4889-son, 2020 yil 11 noyabr.

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4938-son, 2019 yil 30 dekabr.

41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2021-2023 yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4995-son, 2021 yil 17 fevral.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

42. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 216-son, 2009 yil 29 iyul.

43. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida. 6-son, 2011 yil 7 yanvar.

44. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 219-son, 2015 yil 31 iyul.

45. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2016 yil 28 oktabrdagi PQ-2646-son Qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 66-son, 2017 yil 9 fevral.

46. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 445-son, 2017 yil 29 iyun.

47.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 1060-son. 2018 yil 29 dekabr.

48.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 666-son. 2019 yil 13 avgust.

49. Vazirlar Mahkamasining Qarori. Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi hamda Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub’ektlarini davlat reestridan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida. 704-son, 2019 yil 21 avgust.

50. Vazirlar Mahkamasining Qarori.Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida tajriba tariqasida soliq solish ob’ektlarini hisobga olish va soliq ma’muriyatchiligining alohida tartibini joriy etish to‘g‘risida. 107-son, 2020 yil 20 fevral.

51. Vazirlar Mahkamasining Qarori. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 806-son, 2020 yil 23 dekabr.

Boshqa normativ-huquqiy xujjatlar

52. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2010 yil 24 martdagi 24, 2010-15-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 27 mayda 2107-son bilan ro‘yxatga olingan.

53. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2018 yil 15 avgustdagi 2018-65-son qarori bilan tasdiqlangan «Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizom». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 11 oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3077.

54. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2014 yil 17 iyundagi 2014-25-son qarori bilan tasdiqlangan «Soliq solish ob’ektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 10 iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2600.

55. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020 yil 30 apreldagi 2020-14-son qarori bilan tasdiqlangan «Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risida Nizom». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 29 mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3236.

56. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020 yil 18 maydagi 2020-16-son qarori bilan tasdiqlangan «Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 18 iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3247.

57. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020 yil 18 maydagi 2020-17-son qarori bilan tasdiqlangan «Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3251.

58. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Qarori. Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida. 2020-03-son, 2020 yil 28 yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 24 fevralda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3221.

59. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Qarori. «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida. 2021-20-son, 2021 yil 15 aprel. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 6 mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3221-2.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

60.Coleman et al, New Zealand Taxation 2020: Principles, Cases and Questions, Thomson Reuters, Wellington NZ.

61.New Zealand Taxation 2020: Casebook, Thomson Reuters, Wellington, NZ.

62. Налогообложение физических лиц : учебник и практикум для академического бакалавриата / Л. И. Гончаренко и др. ; под редакцией Л. И. Гончаренко. - Москва: Издательство Юрайт, 2019. - 363 с.

63.Н.И.Яшина, М.Ю.Гинзбург, Л.А.Чеснекова, Е.А.Иванова. Налоги и налогообложение практикум. Учебное пособие. М.:ИНФРА-М. 2019.-118с.

64.В.А.Водопьянова. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.:ИНФРА-М. 2018.-175 с.

65.Романов А.Н., Колчин С.П. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. Москва, Инфра-М. 2018, 385-стр.

66. Jo‘rayev.A.S. va boshqalar. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. - T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2019 y. - 432 b.

Axborot manbaalari

67. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

68. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

69. www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.

70.www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

ILOVALAR

1-ilova

Tovar cheklari
KITOBChASI

Tovar cheklari kitobchasining titul varag‘i

Tikish joyi	STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ Familiyasi, ismi, otasining ismi _____ Faoliyatni amalga oshirish joyi _____ Kitobcha _____ tuman (shahar) DSIda qayd qilindi raqami ☐☐☐☐☐☐☐ Kitob ip bilan tikilgan va _____ tuman (shahar) DSI muhri bilan tasdiqlangan Tovar cheklari raqamlari ☐☐☐ dan ☐☐☐ gacha Qayd qilish sanasi (kk/oo/yy) ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ (kun/oy/yil) F.I.O. _____ Imzo _____ M.O‘.

Tovar cheki

Tikish joyi	**Tovar cheki №** ___	STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ Sana ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ (kun/oy/yil)		
		Yakka tartibdagi tadbirkor nomi	**Manzili**	**Sotilgan tovarlar summasi**
		_____ (sotuvchining F.I.Sh.)		_____ (imzo)

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ varaq 4 8

Yakka tartibdagi tadbirkorning tovar operatsiyalarini hamda daromadlar va xarajatlarini hisobga olish KITOBI* №.___

Yakka tartibdagi tadbirkor to‘g‘risida MA’LUMOTLAR

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐

Yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi va otasining ismi _____

Pasport ma’lumotlari: seriyasi ☐☐ raqami ☐☐☐☐☐☐☐

berilgan ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ Kim tomonidan berilgan _____
(kun/oy/yil)

Davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma: raqami ☐☐☐☐☐☐☐

_____tuman (shahar)

Davlat xizmatlari markazi tomonidan berilgan sana ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐
(kun/oy/yil)

amal qilish muddati ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ gacha
(kun/oy/yil)

Faoliyat tur(lar)i _____
_____
_____
_____

Telefoni: kod ☐☐☐☐☐ raqami ☐☐☐☐☐☐☐

Mazkur Kitobda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘liqligini tasdiqlayman:	**Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to‘ldiriladi**
Yakka tartibdagi tadbirkor Imzosi _____	Mazkur kitob _____ tuman (shahar) DSIda ☐☐☐☐☐☐ -son raqam bilan ro‘yxatga olingan. Kitobning varaqlari tikilgan, raqamlangan va tuman (shahar) DSI muhri bilan tasdiqlangan. Kitob ☐☐☐ varaqda ☐☐dan ☐☐☐gacha Qayd qilingan sana ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ (kun/oy/yil) F.I.O. _____ Imzo _____ M.O‘.

* *Mazkur kitob tadbirkorlik faoliyatining har bir turi uchun alohida yuritiladi.*

STIR | | | | | | | | | |

varaq 4 9

Daromadlarni hisobga olish registrlari (chakana savdo)
20__ yil _____ oyi uchun

ming so‘mda

T/r	Tovarlar nomi*	O‘lchov birligi	Sotib olish narxi (bir birlik uchun)	Sotish narxi (bir birlik uchun)	Oy boshiga qoldiq		Oy davomida				Oy oxiriga qoldiq		Daromad summasi (10 satr - 9 satr x 4 satr)
							kelib tushdi		sotildi				
					miq-dori	summasi	miq-dori	summasi	miq-dori	summasi	miq-dori	summasi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
	Jami												

**Oy davomida bir turdagi tovarlar nomi bir marta ko‘rsatiladi.*

Yakka tartibdagi tadbirkor _____
(imzo)

_____
(sana)

STIR | | | | | | | | | |

varaq 5 0

Daromadlarni hisobga olish registrlari (xizmatlar ko‘rsatish)
20__ yil _____ oyi uchun

T/r	Ko‘rsatilgan xizmatlar nomi	Buyurtma olingan sana	Ijro muddati	Buyurtma summasi	Xizmatlar ko‘rsatilgan	
					sanasi	summasi
1						
2						
...						
	Jami					

Yakka tartibdagi tadbirkor _____
(imzo)

_____
(sana)

STIR | | | | | | | | | | varaq | 5 | 1 |

Xarajatlarni hisobga olish registrlari
20__ yil _____ oyi uchun

ming so‘mda

T/r	Xarajatlar turi*	Tasdiqlovchi xujjat nomi va sanasi	To‘lovni qabul qilgan jismoniy (yuridik) shaxs		Xarajat summasi
			STIR	nomi	
1	2	3	4	5	6
1					
2					
...					
	Jami				

**Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘rsatiladi. Tadbirkorning shaxsiy ehtiyojlari uchun amalga oshirilgan xarajatlar olingan daromadlar summasidan chegirilmaydi.*

Yakka tartibdagi tadbirkor _____

(imzo)

_____

(sana)

2-ilova

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ varaq 5 2

Hujjat turi ☐ / ☐ Kalendar yil ☐☐☐☐

Hujjat turi: 1 - hisobot, 2 - aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)

Yakka tartibdagi tadbirkor to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

Yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi va otasining ismi _____

_____

Davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma: raqami ☐☐☐☐☐☐☐

_____tuman (shahar)

Davlat xizmatlari markazi berilgan ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐

(kun/oy/yil)

amal qilish muddati ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ gacha

(kun/oy/yil)

Doimiy yashash joyi manzili _____

Faoliyatni amalga oshirish joyi _____

Telefoni: kodi ☐☐☐☐☐ raqami ☐☐☐☐☐☐☐

Faoliyat turlari

1. _____
2. _____
3. _____

Bank nomi _____

Bank hisobraqamlari ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

Ushbu Hisobot ☐☐ varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari ☐☐☐ varaqda O‘lchov birligi ☐

Hisob-kitobni taqdim etish muddati ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐

(kun/oy/yil)

_____ga taqdim etiladi

(soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Ushbu hisob-kitobda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini tasdiqlayman:

Yakka tartibdagi tadbirkor _____

(imzo)

_____

(sana)

STIR | | | | | | | | | |

varaq 5 3

Yakka tartibdagi tadbirkorning tovarlarni (ishlarni xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumlari to‘g‘risida HISOBOT

T/r	Oylar	Jami kelib tushgan daromadlar summasi	Shundan	
			tovarlarni sotishdan	xizmatlar ko‘rsatishdan
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				

Yakka tartibdagi tadbirkor _____

(imzo)

_____

(sana)

3-ilova

Deklaratsiya turi: ☐ 1-deklaratsiya/2-qayta deklaratsiya Kalendar yili ☐☐☐☐ varaq 4 4

Yakka tartibdagi tadbirkorning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi
DEKLARATSIYa

Yakka tartibdagi tadbirkordan olinadigan
daromad solig‘i to‘lovchisi to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐

Familiyasi: _____

Ismi: _____

Otasining ismi: _____

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐
(kun/oy/yil)

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma raqami ☐☐☐☐☐☐

1. _____
(asosiy faoliyat turi)

2. _____
(qo‘shimcha faoliyat turi)

3. _____
(qo‘shimcha faoliyat turi)

_____
(faoliyatni amalga oshirish manzili (pochta indeksi, shahar (tuman, qishloq) ko‘cha nomi, uy raqami)

Telefon: kod ☐☐ raqam ☐☐☐☐☐☐☐

Dastlabki tarzdagi deklaratsiyani taqdim etish muddati ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐
(kun/oy/yil)

_____ ga taqdim etiladi
soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi

Mazkur deklaratsiya ☐☐☐ varaqda tuzilgan

unga ilova qilingan hujjatlar ☐☐☐ varaqda

Ushbu deklaratsiyada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini tasdiqlayman:

Yakka tartibdagi tadbirkor _____
(imzo)

_____
(sana)

Izoh: Mazkur deklaratsiya yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar tomonidan ham taqdim etiladi.

STIR | | | | | | | | | | varaq | 4 | 5 |

I BO‘LIM

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar

T/r	Ko‘rsatkichlar	Olingan jami daromad summasi	Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar summasi	Soliqqa tortiladigan daromad summasi (3-satr – 4-satr)	Yil davomida budjetga to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1	2	3	4	5	6
I	Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq solinadigan daromadlar – jami				
	shu jumladan oylar kesimida:				
1.	Yanvar				
2.	Fevral				
3.	Mart				
4.	Aprel				
5.	May				
6.	Iyun				
7.	Iyul				
8.	Avgust				
9.	Sentabr				
10.	Oktabr				
11.	Noyabr				
12.	Dekabr				

II BO‘LIM

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan daromadni aniqlash maqsadida ma’lum qilamanki, jami yillik daromadimdan quyidagi jami _____ so‘m chegirmalarni qilish huquqiga egaman:

a) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga asosan jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar bo‘yicha _____ so‘m;

b) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasiga asosan soliq solinmaydigan daromadlar bo‘yicha _____ so‘m;

v) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 380-moddasiga asosan _____ so‘m summada daromad olingan har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida;

g) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa daromadlar bo‘yicha _____ so‘m.

STIR | | | | | | | | | | varaq | 4 | 6 |

III BO‘LIM
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi HISOB-KITOBI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Soliq to‘lovchi tomonidan to‘ldiriladi	Soliq organi tomonidan to‘ldiriladi
1.	Jami daromadning umumiy summasi	010		
2.	Jami daromaddan chegiriladigan xarajatlarning umumiy summasi	020		
3.	Jami daromaddan chegiriladigan imtiyozlar summasi	030		
4.	Soliq solinadigan baza (010-satr – 020-satr – 030-satr)	040		
5.	Hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i umumiy summasi – jami (040-satr x soliq stavkasi), shu jumladan:	050		
	budjetga			
	SHJBPHga			
6.	Yil davomida to‘langan (ushlangan) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining umumiy summasi - jami, shu jumladan:	060		
	budjetga			
	SHJBPHga			
7.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi (050-satr – 060-satr):	070		
	budjetga qo‘shimcha to‘lanadigan summa			
	budjetdan qaytariladigan summa			

qirqish chizig‘i

Yakka tartibdagi tadbirkor _____ ning
(F.I.O)

_____yil uchun _____ varaqdan iborat jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi va ilovalari

_____ tuman (shahar) DSI tomonidan ro‘yxatga olindi (qabul qilindi).

№ | | | | | | | | | | | | | | | | | |
(kun/oy/yil)

_____ | | | | | | | |
(mas’ul shaxsning F.I.O, lavozimi va imzosi) (kun/oy/yil)

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi:
qo‘shimcha to‘lanishga _____ so‘m yoki qaytarishga _____so‘m.

_____ varaqdan iborat deklaratsiya va ilovalar aloqa bo‘limi tomonidan jo‘natish uchun qabul qilindi (pochta orqali jo‘natishda rasmiylashtiriladi).

Aloqa bo‘limi belgisi _____ | | | | | | | |
(kun/oy/yil)

STIR | | | | | | | | | |

varaq | 4 | 7 |

Yakka tartibdagi tadbirkorning
jami yillik daromadi to‘g‘risidagi
deklaratsiyasiga
ilova

20___ yilda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlardan chegiriladigan xarajatlarning HISOB-KITOBI

T/r	Xarajatlar turi[1]	Tasdiqlovchi xujjat nomi va sanasi	To‘lovni qabul qilgan jismoniy (yuridik) shaxs2		Xarajat summasi
			STIR	nomi	
1	2	3	4	5	6
I	Jami daromaddan chegiriladigan xarajatlar jami:				
1					
2					
3					
...					
II	Jami daromaddan chegirilmaydigan xarajatlar jami:				
1					
2					
3					
…					
	Jami				

**Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘rsatiladi. Yollangan xodimlar uchun to‘langan ish haqi va tadbirkorning shaxsiy ehtiyojlari uchun amalga oshirilgan xarajatlar olingan daromadlar summasidan chegirilmaydi.*

Izoh: Olingan daromadlar summasidan chegiriladigan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

4-ilova

STIR | | | | | | | | | | varaq | 4 | 1 |

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tish va foyda solig‘ini soddalashtirilgan tartibda to‘lash to‘g‘risida
ARIZA (BILDIRIShNOMA)

_____
(pochta indeksi, shahar (tuman, qishloq),
_____ manzilda joylashgan
ko‘chaning nomi va uy (xonadon)ning raqami
_____ amalga oshiradigan
(asosiy faoliyat turi)

_____
(soliq to‘lovchining to‘liq nomi)

Sizdan, | | | | | | | | | | dan boshlab
(kun/oy/yil)

QQS to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishni so‘raydi.

QQS to‘lashga o‘tish uchun asos:

☐ 1. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadim bir milliard so‘mdan oshganligi sababli qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘layman. (SK, 462-m, 9-q),

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlar bir milliard so‘mdan oshgan sana | | | | | | | | | | | |
(kun/oy/yil)

☐ 2. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘taman. (SK, 462-m, 4-q),

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlar yuz million so‘mdan oshgan sana | | | | | | | | | | | |
(kun/oy/yil)

_____ ga taqdim etiladi.
(soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Soliq to‘lovchi to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

1. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma | | | | | | | |

2. Tashkil etilgan sana (kun/oy/yil)STIR | | | | | | | | | | | |
(kun/oy/yil)

3. STIR | | | | | | | | | |

4. Telefon: kod | | | raqam | | | | | | | |

Ushbu ariza (bildirishnoma)da ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini tasdiqlayman:

Yakka tartibdagi tadbirkor _____
(imzo)

_____
(sana)

Izoh: Mazkur Ariza (Bildirishnoma) soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda taqdim etiladi.

5-ilova

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ varaq 2 0

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi
DEKLARATSIYa

Deklaratsiya turi: ☐ ixtiyoriy Kalendar yil ☐☐☐☐

Jismoniy shaxslardan olinadigan
daromad solig‘i to‘lovchisi to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

FAMILIYaSI: _____ ISMI: _____ OTASINING ISMI: _____

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐

JShShIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ *(chet ellik jismoniy shaxs uchun, mavjud bo‘lganda)*

Tug‘ilgan sanasi ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐

Jinsi: erkak ☐ ayol ☐ (kerakligiga «V» belgisi qo‘yilsin)

Chet ellik jismoniy shaxs* ☐

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan sanasi* ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐

Fuqaroligi _____

Pasport yoki ID karta : seriyasi ☐☐ raqami ☐☐☐☐☐☐☐

Berilgan sana ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ Kim tomonidan berilgan _____

Yashash joyining manzili viloyat ☐ shahar ☐
tuman ☐ aholi punkti ☐
ko‘cha ☐ uy ☐ xonadon ☐

Telefon: kod ☐☐☐☐☐ raqam ☐☐☐☐☐☐☐

Mazkur deklaratsiya ☐☐ varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari ☐☐☐ varaqda O‘lchov birligi so‘m

STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ varaq 2 1

Deklaratsiyani topshirish muddati (kun/oy/yil) ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐

_____ ga taqdim etiladi

(doimiy yashash joyidagi soliq organi)

Mazkur Deklaratsiyada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘liqligini tasdiqlayman:	**Soliq organi xodimi tomonidan to‘ldiriladi**
Soliq to‘lovchi STIR ☐☐☐☐☐☐☐☐☐ F.I.O. _____ Imzo _____ Sana ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ (kun/oy/yil)	Mazkur deklaratsiya (kerakligiga «V» belgisi qo‘yilsin) ☐ shaxsan ☐ pochta orqali ☐☐☐ varaqda taqdim etilgan ☐ Elektron shaklda Ro‘yxatga olindi № ☐☐ ☐☐ ☐☐☐☐ (kun/oy/yil) F.I.O. _____ Imzo _____

* *Chet ellik jismoniy shaxs tomonidan to‘ldiriladi.*

STIR | | | | | | | | | | varaq | 2 | 2 |

I BO‘LIM

1. Asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan daromadlar.

T/r	Korxona yoki muassasa nomi	1.Asosiy ish joyi, 2.Asosiy bo‘lmagan ish joyi	Ishlagan davri	Hisoblangan daromad summasi	Budjetga ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1.					
2.					
3.					
	Jami				

Asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan to‘langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma ilova qilinadi.

2. Ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar

T/r	Mualliflik huquqi ob’ektlari	Mualliflik haqi sifatida olingan daromad summasi	Mualliflik haqi sifatida olingan daromadlarni olish bilan bog‘liq xarajatlar	Ijodiy faoliyat bo‘yicha soliqqa tortiladigan daromad summasi	Mualliflik haqi ko‘rinishidagi daromaddan budjetga ushlangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1.					
2.					
3.					
	Jami				

Ijodiy faoliyatni amalga oshirganlik bilan bog‘liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar daromaddan chegiriladi, biroq olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun zarur materiallarni olishga doir xarajatlar;

faqat ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

3. Grant ko‘rinishida olingan daromadlar.

T/r	Grant bergan yuridik shaxsning nomi	Olingan grant summasi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblangan summasi
1.			
2.			
3.			
	Jami		

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish organining xulosasi ilova qilinadi.

4. Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar.

	Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar			Jami daromadlar summasi (2-ustun + 3-ustun + 4-ustun)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (5-ustun x soliq stavkasi)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining budjetga to‘langan (ushlab qolingan) summasi
	uy-joyni va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni*	avtomobil transportini*	boshqa mol-mulkni*			
1	2	3	4	5	6	7
Yuridik va jismoniy shaxslarga						
Jami						

** Shartnomalarning nusxalari ilova qilinadi.*

Yuridik va jismoniy shaxslarga:

uy-joylarni va yashash uchun mo‘ljallanmagan ob’ektlarni ijaraga berganda - 2-ustunda Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya 1-ilovasi 001-satrining yillik summasi ko‘rsatiladi;

avtomobil transportini ijaraga berganda - 3-ustunda Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya 2-ilovasi 001-satrining yillik summasi ko‘rsatiladi.

5. Foizlar, dividendlar va boshqa mulkiy daromadlar.

T/r	Daromad nomi	Daromad summasi	Budjetga ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1.	Foizlar		
2.	Dividendlar		
3.	Soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar		
4.	Sanoat mulki ob’ektlariga, seleksiya yutug‘iga oid patent (litsenziya) egasi bo‘lgan soliq to‘lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi		
5.	Royalti		
6.	Ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo‘yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad		
7.	Soliq kodeksning 324-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad		
8.	Soliq kodeksning 327-329-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan, qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo‘yicha daromad		
9	Soliq kodeksning VII bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi		

10	Soliq kodeksning 319-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar		
11	375-moddaning 1-11-bandlarida ko‘rsatilmagan mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar		
	Jami		

6. Soliq agentlari bo‘lmagan manbalardan olingan daromadlar hamda soliq agenti tomonidan ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar (ushbu bo‘limning 1-5 banlarida ko‘rsatilganlari bundan mustasno).

T/r	Daromad turlari	Daromad summasi	1. Soliq agenti bo‘lmagan manbalardan olingan daromadlar. 2. Soliq agenti tomonidan ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar.	Soliq solinadigan daromad summasi	Ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi
1.					
2.					
3.					
	Jami				

7. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar

T/r	Daromad olingan mamlakatning nomi (daromad to‘lash manbasining nomi va manzili)	Daromadlar olingan sana	Olingan daromad summasi			O‘zbekiston Respublikasida belgilangan amaldagi stavka bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘i	Xorijiy davlatda to‘langan (ushlab qolingan) jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq summasi		
			valyu-tada	valyuta kursi	so‘mda	so‘mda	valyu-tada	valyuta kursi	so‘mda
1.									
2.									
3.									
	Jami								

Chet davlat vakolatli organining ma’lumotnomasi yoki soliq O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida to‘langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida foyda solig‘i yoki aynan o‘xshash turdagi soliq to‘langanligini (ushlab qolinganligini) tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etaman.

8. Moddiy yordam summasi _____ so‘mni tashkil qildi.

9. Sovg‘alar summasi _____ so‘mni tashkil qildi.

STIR | | | | | | | | | | varaq | 2 | 5 |

II BO‘LIM

10. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan daromadni aniqlash maqsadida ma’lum qilamanki, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq jami yillik daromaddan quyidagi chegirmalarni qilish huquqiga egaman:

a) _____ so‘m summada daromad olingan har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida chegirma uchun asos:

Hujjatning nomi

seriyasi raqami

tomonidan berilgan.

berilgan sanasi

b) ko‘rsatilgan moddiy yordam bo‘yicha _____ so‘m miqdorida;

v) sovg‘alar bo‘yicha _____so‘m miqdorida;

g) mualliflik haqi ko‘rinishida daromad olish uchun amalga oshirilgan xarajatlar bo‘yicha_____ so‘m miqdorida;

d) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda to‘lanadigan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdori doirasidagi ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlar bo‘yicha _____ so‘m;

ye) soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash (hayot sug‘urtasi sohasining barcha toifalarida) bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan summalari _____ so‘m;

j) olingan ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami o‘n besh million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda qoplashga, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko‘p qavatli uydagi xonadonning qiymati uch yuz million so‘mdan oshmasa hamda u dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo‘yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun budjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan holda yo‘naltirilgan mablag‘lar _____ so‘m;

z) O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish (o‘zining, yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi) uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar _____ so‘m;

i) fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar _____ so‘m;

k) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar bu ulushlarni, paylarni va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa, _____ so‘m;

l) paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to‘lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari _____ so‘m;

m) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa daromadlar bo‘yicha _____ so‘m.

11*. Ilgari O‘zbekiston Respublikasida jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya taqdim etilgan edi (oxirgi yil va soliq organi ko‘rsatiladi)

_____ taqdim etilgan.

STIR | | | | | | | | | | varaq | 2 | 6 |

12*. O‘zbekiston Respublikasida soliqqa tortish masalasini ko‘rayotganda inobatga olinishi lozim bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar

_____

_____

_____

_____

**) mazkur bandlar faqatgina chet el jismoniy shaxslar tomonidan to‘ldiriladi.*

III BO‘LIM

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi HISOB-KITOBI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Soliq to‘lovchi tomonidan to‘ldiriladi	Soliq organi tomonidan to‘ldiriladi
1.	Jami daromadning umumiy summasi		
2.	Jami daromaddan chegirmalarning umumiy summasi		
3.	Soliq solinadigan baza		
4.	Hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i umumiy summasi - jami, shu jumladan		
	budjetga		
	SHJBPHga		
5.	Yil davomida to‘langan (ushlangan) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining umumiy summasi - jami, shu jumladan		
	budjetga		
	SHJBPHga		
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi:		
	budjetga qo‘shimcha to‘lanadigan		
	budjetdan qaytariladigan		

---------- *kesish chizig‘i* ----------

_____ fuqarosi _____ ning
(davlat nomi) (F.I.O)

_____yil uchun _____varaqdan iborat jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi va ilovalari

_____ tuman (shahar) DSI tomonidan ro‘yxatga olindi (qabul qilindi).

№ | | | | | | | | |

STIR | | | | | | | | | |

varaq | 2 | 7 |

Jismoniy shaxsning jami yillik
daromadi to‘g‘risidagi
deklaratsiyasiga
1-ILOVA

20___ yilda uy-joyni va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni ijaraga berishdan olingan soliq solinadigan daromadlarning
HISOB-KITOBI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Yan-var	Fev-ral	Mart	Ap-rel	May	Iyun	Iyul	Av-gust	Sen-tyabr	Oktya-br	Noya-br	Deka-br	Yil
	Uy-joyni va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni ijaraga berishdan olinadigan soliq solinadigan daromadlar - jami (020+030+..-satrlar yig‘indisi)	001													
	shu jumladan shartnomalar kesimida:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
1.	_____-son *(shartnoma raqami va sanasi ko‘rsatiladi)*	011	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	Ijaraga berilgan joyning umumiy maydoni (kv.metr):		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	uy-joyning	012													
	yashash uchun mo‘ljallanmagan joyning	013													
	1 kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori, so‘m:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	uy-joyning	014													
	yashash uchun mo‘ljallanmagan joyning	015													
	Ijara to‘lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad, so‘m - jami (017-satr + 018-satr)	016													
	uy-joy bo‘yicha (012-satr x 014-satr)	017													
	yashash uchun mo‘ljallanmagan joy bo‘yicha (013-satr x 015-satr)	018													
	Shartnoma bo‘yicha olinadigan daromad, so‘m	019													
	Soliq hisoblash maqsadida aniqlangan daromad*, so‘m	020													

STIR | | | | | | | | | |

varaq | 2 | 8 |

2.	_____-son *(shartnoma raqami va sanasi ko'rsatiladi)*	021	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	Ijaraga berilgan joyning umumiy maydoni (kv.metr):		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	uy-joyning	022													
	yashash uchun mo'ljallanmagan joyning	023													
	1 kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori, so'm:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	uy-joyning	024													
	yashash uchun mo'ljallanmagan joyning	025													
	Ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad, so'm -jami (027-satr + 028-satr)	026													
	uy-joy bo'yicha (022-satr x 024-satr)	027													
	yashash uchun mo'ljallanmagan joy bo'yicha (023-satr x 025-satr)	028													
	Shartnoma bo'yicha olinadigan daromad, so'm	029													
	Soliq hisoblash maqsadida aniqlangan daromad*, so'm	030													
....	va hokazo	...													

** Agar ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad summasi shartnoma bo'yicha olingan daromad summasidan ortadigan bo'lsa, u holda ushbu satrda ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad summasi ko'rsatiladi;*

Agar ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad summasi shartnoma bo'yicha olingan daromad summasidan ortmasa, u holda ushbu satrda shartnoma bo'yicha olingan daromad summasi ko'rsatiladi.

STIR | | | | | | | | | |

varaq | 2 | 9 |

Jismoniy shaxsning jami yillik
daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga
2-ILOVA

Avtomobil transportini (yengil avtomobillarni, mikroavtobuslarni, avtobuslarni va yuk avtomobillarini) ijaraga berishdan olinadigan soliq solinadigan daromadlarning HISOB-KITOBI

T/r	Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Yan-var	Fev-ral	Mart	Ap-rel	May	Iyun	Iyul	Av-gust	Sen-tyabr	Ok-tyabr	Noya-br	De-kabr	Yil
	Avtomobil transportini ijaraga berishdan olinadigan soliq solinadigan daromadlar - jami (020+030+..-satrlar yig‘indisi)	001													
	shu jumladan shartnomalar kesimida:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
1.	_____-son (shartnoma raqami va sanasi ko‘rsatiladi)	011	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	Ijaraga berilgan transport vositalarining soni:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	yengil avtomobillarning	012													
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillarining	013													
	1 avtotransport vositasi uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori, so‘m:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	yengil avtomobilning	014													
	mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobilining	015													
	Ijara to‘lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad, so‘m - jami (017-satr + 018-satr)	016													
	yengil avtomobillar bo‘yicha (012-satr x 014-satr)	017													
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari bo‘yicha (013-satr x 015-satr)	018													

STIR | | | | | | | | | |

varaq | 3 | 0 |

	Shartnoma bo‘yicha olinadigan daromad, so‘m	019													
	Soliq hisoblash maqsadida aniqlangan daromad*, so‘m	020													
2.	_____-son (shartnoma raqami va sanasi ko‘rsatiladi)	021	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	Ijaraga berilgan transport vositalarining soni:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	yengil avtomobillarning	022													
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillarining	023													
	1 avtotransport vositasi uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori, so‘m:		x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
	yengil avtomobilning	024													
	mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobilining	025													
	Ijara to‘lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad, so‘m - jami (027-satr + 028-satr)	026													
	Yengil avtomobillar bo‘yicha (022-satr x 024-satr)	027													
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari bo‘yicha (023-satr x 025-satr)	028													
	Shartnoma bo‘yicha olinadigan daromad, so‘m	029													
	Soliq hisoblash maqsadida aniqlangan daromad*, so‘m	030													
....	va hokazo	...													

** Agar ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad summasi shartnoma bo'yicha olingan daromad summasidan ortadigan bo'lsa, u holda ushbu satrda ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad summasi ko'rsatiladi;*

Agar ijara to'lovining eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblangan daromad summasi shartnoma bo'yicha olingan daromad summasidan ortmasa, u holda ushbu satrda shartnoma bo'yicha olingan daromad summasi ko'rsatiladi.

6-ilova

varaq | 1 | 2 |

To‘langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalari to‘g‘risida MA’LUMOTNOMA (20__ yil uchun)

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt (ish beruvchi) to‘g‘risida ma’lumotlar

STIR

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning to‘liq nomi _____

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt joylashgan yeri _____

Faoliyat yuritish joyi _____

Pochta manzili _____

Telefon: kod raqam

Jismoniy shaxs (daromad oluvchi) to‘g‘risidagi ma’lumotlar

STIR

SHJBPH

F.I.Sh. _____

Maqomi (1 - rezident / 0 - norezident) Ish joyi (1 - asosiy/ 0 - asosiy bo‘lmagan)

Pasport ma’lumotlari: seriyasi raqami

Berilgan sana Kim tomonidan berilgan _____

Mazkur Ma’lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘liqligini tasdiqlayman:

Rahbar	Bosh buxgalter
STIR	STIR
F.I.O. _____	F.I.O. _____
Imzo _____	Imzo _____
	Sana (kk/oo/yy)

Izoh: *Mazkur Ma’lumotnoma soliq agenti tomonidan jismoniy shaxsning talabiga binoan yangi asosiy ish joyi bo‘yicha buxgalteriyaga taqdim etish uchun yoki jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga ilova qilish uchun beriladi.*

Jismoniy shaxsning STIR | | | | | | | | | |

Jismoniy shaxsning F.I.Sh. _____

Oylar	Daromadlar - jami	shundan:				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JShDS)	Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan badallar summasi (ShJBPH)
		Kompensatsiya (Soliq kodeksining 373-moddasi)	Soliq kodeksining 378-moddasi bo‘yicha imtiyozlar	Soliq kodeksining 379 va 380-moddalari bo‘yicha imtiyozlar	Soliq solinadigan daromadlar		
Yanvar							
Fevral							
Mart							
Aprel							
May							
Iyun							
Iyul							
Avgust							
Sentabr							
Oktabr							
Noyabr							
Dekabr							
Jami							

Rahbar _____ (imzo)

Bosh buxgalter _____ (imzo)

7-ilova

1	4

To‘lov manbaidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida MA’LUMOTNOMA (20____yil uchun)

Yuridik shaxs (soliq agenti) to‘g‘risida ma’lumotlar

STIR

Yuridik shaxsning to‘liq nomi _____

_____

Yuridik shaxsning joylashgan yeri _____

Faoliyat yuritish joyi _____

Pochta manzili _____

Telefon: kod raqam

Ushbu Ma’lumotnoma	varaqda tuzilgan	O‘lchov birligi	so‘m

Mazkur Ma’lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘liqligini tasdiqlayman:	**Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to‘ldiriladi**
Rahbar STIR F.I.Sh. _____ Imzo _____ Bosh buxgalter STIR F.I.Sh. _____ Imzo _____ Sana (kk/oo/yy)	Mazkur Ma’lumotnoma (kerakligiga «V» belgisi qo‘yilsin) ☐ shaxsan ☐ pochta orqali ☐ varaqda taqdim etilgan Taqdim etilgan sana (kk/oo/yy) F.I.Sh. _____ Imzo _____

Izoh: *Mazkur Ma’lumotnoma soliq agenti tomonidan to‘lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ushlab qolingan moddiy naf tarzidagi daromadlar bo‘yicha taqdim etilmaydi.*

To‘lov manbaidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar ro‘yxati

Tartib raqami	Jimoniy shaxsning F.I.Sh.	STIR	Doimiy yashash joyining manzili (viloyat, tuman, shahar, aholi punkti, ko‘cha, uy va xonadon raqami ko‘rsatiladi)	To‘lov manbaida soliq solinmagan moddiy naf tarzidagi daromadlarning hisoblangan summasi	Ushlab qolinmagan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining summasi

Z.ERGASHEV, A.GIYOSOV, G‘.RUZIYEV

JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH:
NAZARIYA VA AMALIYOT

O‘quv qo‘llanma

Muharrir **Sh. Bazarova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo‘jaev**
Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug‘bekova**
Nashr list. AI[1] 305. Bosishga ruxsat etildi 10.08.2021.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 18,4.
Hisob-nashr tabog‘i 19,2. Adadi 200.
25-buyurtma.
«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60a.
«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI» MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60a.